



"OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMYIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2023/3 (8)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
SAIDOVA Galina Karimovna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEKMURADOV Adham Sharipovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna – *Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirining birinchi o'rinbosari.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SAIDOV Akmal Xolmatovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*
TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – *tibbiyot fanlari nomzodi.*
UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
ZIYAYEV Azamad Xamidovich – *tarix fanlari doktori, professor.*
ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – *psixologiya fanlari doktori.*
TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Сайдова Галина Каримовна – *доктор экономических наук, профессор.*
Шоумаров Гайрат Бахрамович – *доктор психологических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайbergenovich (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*
Бекмуратов Адхам Шарипович – *доктор экономических наук, профессор.*
Маъруфова Гулнора Махмудовна – *первый заместитель министра по поддержке Махалли и семьи.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна – *доктор педагогических наук, профессор.*
Рахимова Нигина Хайруллаевна – *доктор экономических наук, профессор.*
Сайдов Акмал Холматович – *доктор юридических наук, профессор.*
Якубжанова Дилобар Батировна – *доктор педагогических наук, доцент.*
Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна – *кандидат медицинских наук.*
Умирзаков Баходир Хамидович – *доктор экономических наук, профессор.*
Зияев Азамат Хамидович – *доктор исторических наук, профессор.*
Абдусаматов Хасанбой Усмонжон угли – *доктор психологических наук.*
Туракулов Улугбек Холбутаевич – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Saidova Galina Karimovna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Shoumarov Ghayrat Bakhramovich – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Bekmuradov Adkham Sharipovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Marufova Gulnora Makhmudovna – *First Deputy Minister of the Minister of Mahalla and family support.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*
Rakhimova Nigina Khayrullayevna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Saidov Akmal Kholmatovich – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*
Yakubjanova Dilobar Batirovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*
Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – *Candidate of Medical sciences.*
Umirzakov Bakhodir Khamidovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ziyayev Azamad Khamidovich – *Doctor of Historical sciences, Professor.*
Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – *Doctor of Psychological Sciences.*
Torakulov Ulugbek Holbutayevich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,
Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,
Javoharlal Neru universiteti,
Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,
Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,
Pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,
Texnologiya fakulteti boshlig'i,
London biznes va moliya maktabi,
Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,
Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,
Школа международных исследований,
Университет Джавахарлала Неру,
Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина Иосифовна,
Челябинский государственный институт культуры,
доктор педагогических наук,
профессор

Доктор Прити Кесаван,
Руководитель Технологического факультета
Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar
Assistant Professor
Centre for Russian and Central Asian Studies
School of International Studies
Jawaharlal Nehru University
New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna
Chelyabinsk State Institute of Culture
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Dr. Preethi Kesavan
Head, School of Technology
London School of Business and Finance, Singapore

SOTSILOGIYA

Egamberdiyeva N.M. Yunusov U.O. Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollar va reabilitatsiya markazlari bo‘yicha xalqaro tajriba	4
Xodjayev S.D. Gender munosabatlar sotsiologik va psixologik yondashuvlar talqinida	11
Xomitov K.Z. Qishloq yoshlarini ish bilan ta‘minlashning samarali tashkiliy mexanizmlari ta‘sirini aniq sotsiologik baholash.....	18
Karimova M.K. Umumiy ta‘lim muassalarida bolalar zo‘ravonligi turlari va shakllari.....	27

DEMOGRAFIYA

Abduramanov X.X. Demografik rivojlanishning normativ-huquqiy va institusional asoslarini takomillashtirish	34
---	----

FALSAFA

To‘xtayev H.P. Yangi ma‘naviy makon qiyofasi rivojida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi	40
Alimov S.K. Oilalardagi ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirishda keksalar ishtirokini qo‘llab-quvvatlash (Singapur va Malayziya tajribasi asosida)	47
Hojiyev R.B. Kreativlik fenomeni: etimologik va nazariy eksplikatsiyasi.....	54
Dusmatov N.M. Oila va jamiyat aloqadorligining ijtimoiy-falsafiy tahlili	63

OILA VA JAMIYAT

Saydivaliyeva X.X. O‘zbekistonda ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlashning joriy holati tahlili	69
Nazarova R.S. Oilaviy dam olish tadbirlari voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish vositasi sifatida	76
Nomozova O‘.A. Oilaviy munosabatlarda muloqotning o‘rni.....	81
Ikramova K.Sh. Yosh er-xotirlarda ziddiyatlar paydo bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	85
Safoyeva R.J. Oilalar farovonligida ota-ona va inson qadr-qiymatining ahamiyati.....	92
Ermatov Sh.T. Xotin-qizlarning hayotiy va oilaviy strategiyalari bo‘yicha Rossiya tajribasi.....	97

PSIXOLOGIYA

Ikmatullayev G‘.Z. Adaptatsiya jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlari	108
Narmetova Y.K. Psixosomatik kasalliklar bilan kasallangan bemorlar psixoemotsional sohasining jins xususiyatlari	113
Sharapova D.B. Ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxslarda ustuvor oriyentatsiyalar tahlili.....	118
Yusupxodjayeva U. “Psixologik salomatlik” tushunchasining ilmiy-nazariy tasnifi.....	126
Raimdjanov M.T., Raimdjanova G.B. Talabalarning ijodiy faoliyatiga ta‘sir etuvchi psixologik omillarning nazariy tahlili.....	132

MENEJMENT

Иноятова С.Р. Методологические основы исследования управленческих качеств у лидеров молодежи.....	136
--	-----

PEDAGOGIKA

Mavlonov B.B. Oilada o‘smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishga doir ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmuni	142
To‘raqulov U.X. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda axborotlashtirishga qo‘yiladigan zamonaviy talablar.....	147
Fu Lei. A study on types and causes of online writing errors based on iwrite.....	151
Zufarova Y.M. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda empatiyaning o‘rganilganlik darajasi	159



N.M. Egamberdiyeva,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti direktori
pedagogika fanlari doktori, professor



U.O. Yunusov,
“Oila va xotin-qizlar”
ilmiy-tadqiqot instituti xodimi

TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLAR VA REABLITATSIYA MARKAZLARI BO‘YICHA XALQARO TAJRIBA

Annotatsiya. O‘zbekiston bugungi kunda dunyo hamjamiyati bilan tenglashish va umuminsoniy tendensiyalarga hamqadam bo‘lishni ixtiyor etgan ekan, xalqaro tajribani ham inobatga olmoqda. Ayollarni himoya qilish, ularning haq-huquqlari poymol bo‘lishining oldini olish masalasi har davrda ilm-ma‘rifatli jamiyatning ustuvor maqsadi bo‘lgan. Ushbu maqolada mualliflar tomonidan Yevropa Ittifoqining Germaniya, Finlyandiya hamda Estoniya kabi davlatlarda tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan yoki uchrayotgan ayollarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularni reabilitatsiya qilish markazlarining ish usuli hamda tajribasi haqida so‘z yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: zo‘ravonlik, inson qadri, inson huquqi, murojaat, himoya, boshpana, qo‘llab-quvvatlov.

Аннотация. Узбекистан сегодня, стремясь быть наравне с мировым сообществом и идти в ногу с мировыми тенденциями, учитывает и международный опыт. Защита женщин и предотвращение нарушения их прав всегда были приоритетной целью просвещенного общества. В данной статье авторы рассказывают о методе работы и опыте центров в таких европейских странах как Германия, Финляндия и Эстония по поддержке и реабилитации женщин, подвергшихся угнетению и насилию.

Ключевые слова: насилие, человеческое достоинство, права человека, обращение, защита, убежище, поддержка.

Annotation. Uzbekistan today, striving to be on par with the world community and keep up with global trends, also takes into account international experience. Protecting women and preventing the violation of their rights has always been a priority goal of an enlightened society. In this article, the authors talk about the method of work and experience of centers in European countries such as Germany, Finland and Estonia for the support and rehabilitation of women who have been subjected to oppression and violence.

Keywords: violence, human dignity, human rights, appellation, protection, shelter, support.

Kirish. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 1-mart kuni xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi hamda ularning jamiyatdagi mavqeyini yanada mustahkamlash masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishda:

“Xabaringiz bor, biz o‘z faoliyatimizning ilk kunlaridan boshlab munis va mo‘tabar ayollarimizning og‘irini yengil qilish, huquq va manfaatlarini ta‘minlash, iqtisodiy, ijtimoiy

va siyosiy faolligini oshirish masalasini davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida belgiladik.

Barcha islohotlarimizning mazmuni, “Inson qadri uchun” tamoyilining mohiyati ham aynan shunga qaratilgan.

Agar xalqimiz bizdan rozi bo‘lishini xohlasak, avvalo, mo‘tabar onalarimiz, opa-singillarimiz, qizlarimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratib berishimiz kerak.

*Biz mana shu hayotiy haqiqatdan kelib chiqqan holda, bu masalada bir qator muhim qonunlar, farmon va qarorlar qabul qildik*¹, – degan edi.

Ayollarni himoya qilish, ularning haq-huquqlari poymol bo'lishining oldini olish masalasi har davrda ilm-ma'rifatli jamiyatning ustuvor maqsadi bo'lgan. Zero, ayoli ardoqlangan yurtda madaniyat va ma'rifat yuksaladi. Ilmli ayolgina jamiyatga har tomonlama yetuk shxasni yetishtirib beradi, chunki bilimli, fahm-farosatli va madaniyat ila shijoatni o'zida mujassamlashtira olgan ayol o'zidan-da yetukroq insonni yetishtirishga bel bog'laydi. Ayol oilada, avvalo, tartibga soluvchi, Vatan hissining ilk nishonalarini uyg'otuvchi, oila atalmish muqaddas makonda mehr-oqibat va muhabbatning qaror toptiruvchisidir.

Maqsad va uni asoslash. Hozirgi O'zbekiston, xususan, butun Turkiston tarixi davomida ayol – onaga bo'lgan e'tibor haqida to'xtalar ekanmiz, shuni ishonch bilan aytish mumkinki, turkiy xalq vakillari, ba'zi millat va madaniyatlar intervensiyasini hisobga olmagan holda, ayolga nisbatan nafaqat past nazar bilan, balki unga, hatto noteng muomala qilish xayoliga ham kelmagan. Bunga misol sifatida To'maris kabi sarkardani keltirish mumkin.

Ilmiy nuqtayi nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, bir jamiyatni boshqa jamiyat bilan solishtirish orqali ko'p narsani ilg'ash mumkin. O'zbekiston bugungi kunda dunyo hamjamiyati bilan tenglashish va umuminsoniy tendensiyalarga hamqadam bo'lishni ixtiyor etgan ekan, xalqaro tajribani ham inobatga olmoqda.

Biz ushbu maqolamiz orqali Yevropa Ittifoqining Germaniya, Finlyandiya hamda Estoniya kabi davlatlarda zazyiq va zo'rvonlikka uchragan yoki uchrayotgan ayollarni qo'llab-quvvatlash hamda ularni reabilitatsiya qilish markazlarining ish usuli hamda tajribasi haqida so'z yuritimiz.

Germaniya tajribasi. Germaniya Markaziy Yevropa mintaqasidagi yetuk obro' va qudratga ega mamlakatdir. Ushbu davlat hududida zazyiq va zo'rvonlikka uchraganlar (nafaqat ayollar), ishonch telefon raqamlari yoki www.hilfetelefon.de sayti orqali 24/7 formatda maslahat olishlari mumkin.

Mazkur xizmat turi orqali jabrlanuvchilarga 20 tilda bepul, anonim va maxfiy asosda 60

¹ <https://review.uz/oz/post/shavkat-mirziyoyev-raisligida-xotin-qizlarni-qollab-quvvatlashga-bagishlangan-yigilishda-ayollar-uchun-qanday-engilliklar-kiritildi>

nafar malakali maslahatchi tomonidan yordam ko'rsatilib, ularga mamlakat bo'ylab joylashgan 593 ta shelter-kvartiradan birining ajratilishi hamda qo'llab-quvvatlovda ko'maklashiladi (<https://www.frauenhaus-suche.de/>).

Ayollar necha yoshda ekanidan, qaysi sinfga mansubligi va qayerdan bo'lishidan qat'i nazar, jismoniy, jinsiy va ruhiy zo'rvonlikka yashab turgan xonadonida, ish yoki jamoat joylarida duchor bo'lishi ehtimoli mavjud. Ayollar boshpanalari va ixtisoslashtirilgan maslahat markazlari jabrdiydalarni keyingi zo'rvonlikdan himoya qilish bilan birga, ularga zo'rvonlik va zo'rvonlik oqibatlarini bartaraf etishiga, zo'rvonliksiz hayot qurishiga yordam beradi.

Ayollar uylarini muvofiqlashtirish assotsiatsiyasi (FHK) butun Germaniya bo'ylab ayollar uylari va mutaxassis maslahat markazlarining professional va siyosiy ishlarini qo'llab-quvvatlaydi. FHK ko'plab milliy ijtimoiy ta'minot uyushmalari va ularning institutlarini tarmoqqa birlashtiradi.

FHK 2001-yilda Frankfurt-na-Mayn shahrida tashkil etilgan bo'lib, 2010-yildan beri assotsiatsiya Berlinda faoliyat yuritadi. Federal Ishchilar farovonligi assotsiatsiyasi, Germaniya Karitas assotsiatsiyasi, Gesamt Paritet Assotsiatsiyasi, Germaniya Diakonati va Gesamtverein katolik ayollar ijtimoiy xizmatlari, shuningdek, ayollar boshpanalari va ixtisoslashgan maslahat markazlari bilan ta'minlaydigan boshqa muassasalardan iborat.

Tashkilot a'zolari 260 ga yaqin ayollar boshpanalari va 270 ta ixtisoslashtirilgan maslahat markazlari bilan birgalikda zo'rvonlik qurboni bo'lgan ayollar va ularning farzandlariga g'amxo'rlik ko'rsatadi, qo'llab-quvvatlash tizimini targ'ib qiladi.

FHK ishi Federal Oila, qariyalar, ayollar va yoshlar bilan ishlash vazirligi ko'magi asosida faoliyat yuritadi.

Yo'nalish tarmoqlari. FHK, asosan, ayollar boshpanasini muvofiqlashtirish loyihalari, tashabbuslar va kompaniyalarda zo'rvonlikni boshdan kechirgan ayollarni himoya qilishni yaxshilash bo'yicha loyihalar, tashabbuslar va kompaniyalarda faol ishtirok etadi. Bunda Assotsiatsiyaning ishtiroki tadbirlardan tortib, turli manfaatdor tomonlar bilan aloqa o'rnatish va umummilliy loyihalarni professional qo'llab-quvvatlash, shuningdek, zo'rvonlikdan himoya

qilish bo'yicha ma'lumotnomalar, yo'riqnomalar va amaliy loyihalarni ishlab chiqishni ham qamrab oladi. FHK ayollar boshpanalarining statistik ma'lumotlaridan foydalangan holda, har yili ayollarning boshpanalardagi mehnati va ularda yashovchi ayollar bo'yicha yagona umummilliy statistikasini tuzadi.

Ushbu markazlar tomonidan, asosan, jinsiy, psixologik, iqtisodiy va nazorat zo'ravonligiga (jabrlanuvchiga "boqish uchun pul ajratish", tovlamachilik, tovlamachilikka majburlash) duchor bo'lgan ayollarga yordam ko'rsatiladi. Hayotiga tahdid mavjud ayollar tibbiy yordam yoki boshpana masalasida ko'mak so'rab murojaat qilish huquqiga ega. Shunday qilib, ayol xavf-xatardan yashirinishi, kelajakdagi hayoti haqida o'ylab olgan holda qaror qabul qilish uchun kuchga ega bo'lishi mumkin.

Germaniyada oilaviy zo'ravonlikka qarshi eng muhim qonun 2017-yilda ratifikatsiya qilingan Istanbul konvensiyasi bo'lib, bu oiladagi zo'ravonlik va ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash bo'yicha birinchi xalqaro shartnoma va asosiy hujjat hisoblanadi. Konvensiya bugungi kunga qadar 46 davlat va Yevropa Ittifoqi tomonidan imzolangan.

Konvensiyaga qo'shilgan davlatlar o'z qonunchiligini o'zgartirish va oiladagi zo'ravonlikka duchor bo'lganlarning barchasiga yordam va erkin hayot sharoitlarini taqdim etish majburiyatini oladi. Jabrlanganlarga individual yordam, huquqiy maslahat, psixologik yordam, moliyaviy ko'mak, oilaviy zo'ravonlik qurbonlari uchun boshpanalardan foydalanish kabilarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, Ahdlashuvchi davlatlar jismoniy, jinsiy va ruhiy zo'ravonlikning barcha shakllariga, xususan, majburan nikohga olish, jinsiy a'zolari kesish, majburiy abort va majburiy sterilizatsiyaga qarshi choralar ko'rish kabi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Shartnomani imzolagan davlat nafaqat zo'ravonlik qurbonlariga yordam berish, balki oiladagi zo'ravonlik xavfini imkon qadar kamaytirish maqsadida o'z qonunchiligini va jamoatchilik bilan aloqalarini global miqyosda qayta shakllantirishga rozilik bildiradi. Bundan tashqari, Konvensiya jamiyatga eng zaiflar – ayollar va bolalarga nisbatan yomon munosabatda bo'lishga yo'l qo'yilmasligi haqida muhim signal beradi.

Kim urs, o'sha ketadi. Bir necha yildirki, Germaniya oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurash strategiyasini o'zgartirmoqda. Endi ular

jabrlanuvchini jinoyatchidan yashirmaslikka, balki zo'ravonlik qiluvchiga uyi va odatiy yashash joyini tark etishi kerakligini tushuntirishga harakat qilmoqda. "Yaproqlarni urib" shiori davlat va jamiyatdagi tafakkurning o'zgarishi ramziga aylandi. Amalda bu 2002-yilda qabul qilingan "Zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda ifodalangan bo'lib, u politsiyaga zo'ravonlik qilgan shaxs jabrlanuvchi bilan birga yashagan bo'lsa, kvartiradan chiqarib yuborish huquqini bergan. Qurbonlar endi o'zlarining tanish uylari va atrof-muhitini yo'qotish bilan murosaga kelishlari kutilmaydi. Davlat esa jinoyatchini shunday ko'rsatadiki, u jazosiz qolmaydi.

Finlyandiya tajribasi. Tadqiqotimiz davomida o'rganilgan yana bitta davlat Finlyandiya'dir. Mazkur davlat ham gumanistik tamoyillarida Germaniyadan qolishmaydi. U yerda ham "Nollalinja"² deb nomlangan umummilliy markaz mavjud bo'lib, ishonch telefoni va oilaviy zo'ravonlik qurbonlari uchun boshpana uylari xizmatlarini taklif qiladi. Nollalinja – bu huquqbuzarlardan undirilib, jabrlanuvchi hisobiga to'lanadigan to'lovlar hisobiga moliyalashtiriladigan maxsus davlat xizmati bo'lib, uning mamlakat bo'ylab 26 ta markazi mavjud.

Finlyandiya'da tenglik masalalari Ijtimoiy ishlar va sog'liqni saqlash vazirligining mas'uliyatiga kiradi. Bu vazirlikda gender tengligini ta'minlash bo'yicha ikkita tarkibiy bo'linma mavjud:

1. Tenglik masalalari bo'limi.

2. Tenglik bo'yicha parlament maslahat komissiyasi (TANE³). Ushbu komissiya jamiyatda ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglikni ta'minlashga qaratilgan.

Adliya vazirligi tizimiga quyidagilar kiradi:

– Tenglik masalalari bo'yicha vakil. U avtonom va mustaqil mansabdor shaxs bo'lib, "Ayollar va erkaklar tengligi to'g'risida"gi Qonunning bajarilishini nazorat qiladi.

– Gender tengligi va diskriminatsiyadan himoya qilish komissiyasi. Komissiya Finlyandiya hukumati tomonidan tayinlangan alohida va mustaqil huquqiy himoya organi bo'lib, "Tenglik to'g'risida"gi hamda "Tenghuquqlilik to'g'risida"gi Qonunlarga xususiy sektorda ham, davlat boshqaruvi va tijorat faoliyatida ham rioya etilishini nazorat qiladi.

² <https://nollalinja.fi/en/about-nollalinja/>

³ <https://tane.fi/en/frontpage>

Oiladagi zo‘ravonlik bo‘yicha jinoiy qoidalar Jinoyat kodeksiga va Finlyandiya Konstitutsiyasining 7-moddasiga kiritilgan. Hech qanday maxsus shart yo‘q, balki Jinoyat kodeksining 20-bobiga ko‘ra, zo‘rlash va jinsiy tajovuz kabi umumiy jinoyatlar qo‘llanadi. Finlyandiya agar jabrlanuvchi ayblov qo‘ymasa, prokuror jinoiy ish qo‘zg‘atish huquqiga ega emas, alohida holatlar bundan mustasno (boshqa tegishli qonunlar: “Nikoh to‘g‘risida”gi, “Bolalar farovonligi to‘g‘risida”gi, “Jinsiy huquqbuzarlik to‘g‘risida”gi, “Cheklash to‘g‘risida”gi, “Ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tenglik to‘g‘risida”gi hamda “Kamsitmaslik to‘g‘risida”gi Qonunlar).

Finlyandiya jinoiy qonunchiligida endi oiladagi zo‘ravonlikka oid maxsus qoidalar mavjud emas, chunki ilgari ushbu sohani tartibga soluvchi Jinoyat kodeksining 19-bobi 1998-yilda bekor qilingan. Buning o‘rniga endilikda zo‘ravonlik jinoyatlariga oid umumiy qonunlar oiladagi zo‘ravonlik holatlarida teng qo‘llanadi.

Agar huquqbuzarning turmush o‘rtog‘i yoki sobiq turmush o‘rtog‘i, aka-uka yoki jabrlanuvchi bilan birgalikdagi uyda yashovchi yoki yashagan shaxs bo‘lsa, prokuror jabrlanuvchining buyrug‘iga nisbatan hatto mayda tajovuz uchun ham ayblov qo‘yishi mumkin.

Jinoyat kodeksining (Rikoslaki) oilaviy zo‘ravonlik holatlariga nisbatan qo‘llanadigan ikkita asosiy bobdan iborat bo‘lib, ular quyidagilardir:

1. 20-bob. Jinsiy huquqbuzarliklar

- a. 1-qism – zo‘rlash;
- b. 2-qism – og‘irlashtirilgan zo‘rlash;
- d. 4-bo‘lim – jinsiy harakatga majburlash;
- e. 5-bo‘lim – jinsiy zo‘ravonlik;
- f. 5(a)-bo‘lim – jinsiy zo‘ravonlik;
- g. 6-bo‘lim – bolaga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik;
- h. 7-bo‘lim – bolaga nisbatan og‘irlashtirilgan jinsiy zo‘ravonlik.

2. 21-bob. Qotillik va tan jarohati

- a) 1-qism – qotillik;
- b) 2-qism – qotillik;
- d) 3-qism – o‘ldirish
- e) 4-bo‘lim – go‘daklarni o‘ldirish;
- f) 5-bo‘lim – hujum;
- g) 6-bo‘lim – og‘irlashtirilgan hujum;
- h) 6(a)-bo‘lim – hayot yoki sog‘liqqa qarshi og‘ir jinoyatni tayyorlash.
- i) 7-bo‘lim – kichik hujum;

- j) 8-bo‘lim – ehtiyotsizlikdan odam o‘ldirish;
- k) 9-bo‘lim – o‘ta ehtiyotsizlikdan odam o‘ldirish;
- l) 10-bo‘lim – ehtiyotsizlik tufayli tan jarohati yetkazish;
- m) 11-bo‘lim – o‘ta ehtiyotsizlik tufayli tan jarohati yetkazish;
- n) 15-bo‘lim – qutqarishga e‘tibor bermaslik.

Estoniya tajribasi. *Tartu Women’s Shelter* ayollarni qo‘llab-quvvatlash va axborot markazi (WSIC) 2002-yilda Estoniyada zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollarni qo‘llab-quvvatlash uchun birinchi boshpana sifatida tashkil etilgan notijorat tashkilot bo‘lib, WSIC asosiy e‘tiborni oiladagi zo‘ravonlik mexanizmlarini bartaraf etish uchun sharoit yaratish, jabrlanganlarning reabilitatsiyasi va qayta ijtimoiylashuvini ta‘minlash hamda jabrlanganlarga har tomonlama yordam ko‘rsatish orqali zo‘ravonlikning takrorlanish xavfini kamaytirishga qaratadi.

WSIC dunyoni yaxshi tomonga o‘zgartirishga intilgan insonlarni o‘z atrofida birlashtiradi. WSIC muhtojlarga yordam berish, jamiyatda zo‘ravonlikka toqat qilmaslik, kerakli paytda yordamga kelish uchun uni rivojlantirish yo‘lida faoliyat yuritadi. Uning maqsadi jamiyatning barcha a‘zolari uchun asosiy inson huquqlarini ta‘minlash, ya‘ni qo‘rquv va hadiksiz yashash hamda mustaqil qaror qabul qilish, bolalarga baxtli bolalik va baxtli hayotni taklif qilishdan iborat.

Insonlar “Naiste Tugi-ja Teabekeskus”⁴ notijorat tashkiloti zo‘ravonlikka qarshi birgalikda kurashish uchun birlashdi, chunki ular hamma odamlar xavfsiz va farovon hayotga, shuningdek, baxtli bolalikka haqli deb hisoblaydi (e-mail: info@naistetugi.ee).

Ushbu tashkilot boshpanaga, zarurat tug‘ilganida, bolalarni ham olib kelishga ruxsat beriladi.

Boshpana beradigan imkoniyatlar:

- zo‘ravonlik xavfi tug‘ilganda yoki zo‘ravonlikdan so‘ng xavfsiz joy;
- xotirjamlik va dam olish imkoniyati;
- zarurat tug‘ilganda vaqtinchalik yashash joyi;
- psixologik konsultatsiya va inqirozli yordam;
- davlat idoralari (masalan, militsiya va ijtimoiy himoya bo‘limi) bilan aloqada bo‘lishda yordam berish;

⁴ <https://naistetugi.ee/ru/>

– masalaning huquqiy jihatlari (masalan, sud, ajrashish va bolalarni himoya qilish) to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;

– yangi hayot boshlashga ko‘maklashish;
– keyingi qadamlarni muhokama qilish uchun istalgan paytda boshpanaga qaytish imkoniyati.

“Naiste Tugi-ja Teabekeskus” NNT daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlarga ega bo‘lgan notijorat tashkilotlar reyestriga kiritilgan. Shunday ekan, pul o‘tkazmasini amalga oshirayotganda “Tushuntirish” qatorida shaxsiy kod (isikukood) belgilab qo‘yilsa, soliq deklaratsiyasida xayriya summasining 20 foizini qaytarib olish (cash back) mumkin.

Estoniya davlat tashkilotlari:

1. Huquq kansleri

Huquq kansleri⁵ o‘z faoliyatida davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarining Estoniya Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligini nazorat qiluvchi mustaqil mansabdor shaxs bo‘lib, uning faoliyati quyidagilardan tarkib topadi:

- konstitutsiyaviy nazorat o‘rnatish;
- fundamental huquqlarni himoya qilish;
- bolalar va yoshlar huquqlari himoya qilish;
- mansab vakolatlarini suiste‘mol qilinishining oldini olish;
- konstitutsiyaviy nazorat jarayonida davlat sudyasiga xulosa berish;
- Riigikogu a‘zosining so‘roviga javob berish;
- Riigikogu a‘zosining savoliga yozma javob berish;
- daxlsizlikni to‘xtatish bo‘yicha taklif kiritish;
- sudyaga nisbatan intizomiy ish qo‘zg‘atish;
- kamsitilganlik to‘g‘risidagi da‘volarni ko‘rib chiqish;
- qonun hujjatlari loyihasi bo‘yicha fikr bildirish;

2. Gender tenglik va tenghuquqlilik masalalari bo‘yicha vakil

Gender tenglik va tenghuquqlilik masalalari bo‘yicha vakil⁶ instituti odamlarga o‘z huquqlarini himoya qilish va har qanday kamsitishning oldini olishga yordam berishni maqsad qilgan. Vakil hayotning barcha sohalarida ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar, shuningdek, turli

xil milliy ozchiliklarga teng munosabatda bo‘lishni yoqlaydi va faoliyati doirasida quyidagilarga tayanadi:

- diskriminatsiyadan aziyat chekkanlarga yordam berish;
- qonunlar ijrosini nazorat qilish va sharhlash;
- tenghuquqlilikni targ‘ib qilish;
- huquqiy madaniyatni oshirish;
- surishtiruvlar olib borish.

Estoniya nodavlat tashkilotlari:

1. Estoniya Inson huquqlari markazi (EIHM) – inson huquqlarini himoya qiluvchi mustaqil nodavlat tashkilot bo‘lib, o‘z faoliyatini jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tashkil etadi. Markaz asosiy e‘tiborini insonlarga teng munosabatda bo‘linishini ta‘minlash va xilma-xillikni targ‘ib qilish, boshpana izlovchilar va qochqinlarning inson huquqlarini himoya qilishga qaratadi.

Tashkilot o‘z faoliyati doirasida quyidagi yordam turlarini ko‘rsatadi:

- tenglik sohasidagi strategik sud ishlarini olib borishda ko‘maklashish;
- strategik sud ishlarini yuritish deganda ijtimoiy ahamiyatga molik ishlarni sud yoki suddan tashqari ish yuritish orqali hal etish tushuniladi. Bu fuqarolik va jinoiy ishlarda ham, ma‘muriy ishlarda ham amalga oshirilishi mumkin. Strategik sud jarayonining maqsadi har doim alohida va sinchkovlik bilan tanlangan ishlar orqali qonunlar va huquqni qo‘llash amaliyotining sifatiga ta‘sir ko‘rsatish;
- boshpana izlovchilarga maslahat berish.

Estoniya Inson huquqlari markazi⁷ (EIHM) faoliyati dorasida inson huquqlari sohasidagi nazorat, tadqiqotlar, manfaatlar himoyasi, boshpana so‘rganlarga amaliy maslahat berish, turfa xillik to‘g‘risidagi bitimni muvofiqlashtirish, strategik tadbirlar bilan shug‘ullanadi. Markaz, shuningdek, boshpana izlovchilarga quyidagilarni taklif qiladi:

- boshpana masalalari bo‘yicha huquqiy maslahat va ma‘lumotlar bilan ta‘minlash;
- davlat organlarida, shu jumladan, sudlarda vakillik qilish;
- davlat tomonidan beriladigan yuridik yordamni olish uchun murojaat qilishda yordam ko‘rsatish.

2. Estoniya ayollar boshpanalari uyushmasi zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollarga boshpana

⁵ <http://www.oiguskantsler.ee>; e-mail: info@oiguskantsler.ee

⁶ <http://www.vordoigusvolinik.ee>; e-mail: info@volinik.ee

⁷ www.humanrights.ee; e-mail: info@humanrights.ee

xizmatlarini taklif etuvchi tashkilotlarni birlashtirgan jamoat manfaatlarini ko'zlagan notijorat uyushma hisoblanadi. Uyushma jismoniy, psixologik, iqtisodiy va/yoki jinsiy zo'ravonlik qurboni bo'lgan va o'z muammolari haqida xabar berishni xohlayotgan ayollar uchun 24/7 formatida faoliyat yuritadi va o'z qisqa raqami orqali quyidagi toifadagi insonlarga yordam ko'rsatadi:

- vaziyatdan chiqish yo'lini topishni xohlovchilarga;

- zo'ravonlikdan himoyalaniшни izlashda muammoga yechim topishda yordamga muhtoj, lekin qayerga borishni va kimga murojaat qilishni bilmayotganlarga;

- ular bilan tajovuzkor munosabatlarning tugatilishi mumkin bo'lgan variantlarni tahlil qilishni istovchilarga;

- ajrashgandan so'ng o'z va farzandlarining hayotini qanday tashkil etish tanlovi oldida turganlarga;

- zo'rlik qurboniga aylanganlarga.

Qo'llab-quvvatlov markazi:

Zo'ravonlikka duchor bo'lgan, bolalari bilan yolg'iz qolgan hamda qo'llab-quvvatlov va yordamga muhtoj ayollar **qo'llab-quvvatlov markazlariga** murojaat qilishi mumkin. Ushbu markazlar Estoniyaning barcha hududlarida ochilgan bo'lib, xizmatlar ko'rsatilishida yashash joyi bo'yicha qayerda ro'yxat (propiska)dan o'tgani ahamiyatsiz. Xavfsizlik nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, qo'llab-quvvatlash markazlarining joylashuvi oshkor etilmaydi. Ular bilan telefon va elektron pochta orqali kuniga 24 soat davomida bemalol bog'lanish imkonini yaratishi bilan birga, faoliyati doirasida:

- zo'ravonlik qurbonlarini emotsional qo'llab-quvvatlash butun Estoniya bo'ylab yordam olish imkoniyati haqida ma'lumot almashish imkonini beradi;

- davlat, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa muassasalarning zarur xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha zarur ko'rsatmalar beradi;

- tegishli qonunchilikni qo'llab-quvvatlash markazlari zo'ravonlik hodisasidan keyin xavfsiz boshpana yoki zo'ravonlik xavfi bo'lgan taqdirda tinchlanish, dam olish va vaqtincha yashash imkoniyatini taklif qiladi;

- psixologik yoki psixoterapik yordam beradi;

- yuridik jihatdan yordam ko'rsatadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Oiladagi zo'ravonlikni jinoiy javobgarlikka tortuvchi tegishli qonunchilik yoki shartnomaviy munosabatlarni taqiqlovchi muqobil qonunchilikning yo'qligi oiladagi zo'ravonlikni kamaytirishga to'sqinlik qilishi mumkin. Xalqaro Amnistiya Bosh kotibi shunday degan: "XXI asrda ba'zi mamlakatlarda bolalar nikohi va nikohda zo'rashni ma'qullash aql bovar qilmaydi, boshqalari esa abort, nikohdan tashqari jinsiy aloqa va bir jinsli jinsiy faoliyatni taqiqlaydi – bu o'lim jazosiga olib keladi". JSST ma'lumotlariga ko'ra, "ayollarga nisbatan zo'ravonlikning eng keng tarqalgan shakllaridan biri er yoki erkak sherik tomonidan zo'ravonlik qilishdir". JSST ta'kidlashicha, bunday zo'ravonlik ko'pincha e'tiborga olinmaydi, chunki ko'pincha "huquqiy tizimlar va madaniy me'yorlar buni jinoiyat sifatida emas, balki shaxsiy oilaviy masala yoki hayotning odatiy qismi sifatida qaraladi". Zinoning jinoiy hisoblanishi ayollarga nisbatan zo'ravonlikka undash sifatida belgilangan, chunki bu taqiqlar ko'pincha qonunda yoki amalda erkaklar emas, balki ayollarning xatti-harakatlarini nazorat qilish uchun ishlab chiqilgan va ayollarga nisbatan zo'ravonlik harakatlarini ratsionalizatsiya qilish uchun foydalanilgan. Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar Navi Pillayning so'zlariga ko'ra, "Ba'zilar oiladagi zo'ravonlik xalqaro inson huquqlarining konseptual doirasidan tashqariga chiqadi, deya bahslashmoqda. Shu bilan birga, xalqaro qonunlar va standartlarga muvofiq, davlatning ayollar huquqlarini himoya qilish va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik hamda erkinligini ta'minlash bo'yicha aniq majburiyat mavjud bo'lib, u jinsi va shaxsning mavqeyidan qat'i nazar, zararining oldini olish, himoya qilish va qoplash mas'uliyatini o'z ichiga oladi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekistonda Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish va ijtimoiy rehabilitatsiya qilish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamlis lohiyalar amalga oshirildi. Gender tenglik masalasi davlat siyosati

darajasiga ko‘tarilib, sohaga oid 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Senatining SQ-297-IV-sonli qarori, “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-81-sonli hamda “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-sonli Prezident Farmonlari shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://www.skf-koeln.de/>
2. <https://handbookgermany.de/ru/domestic-violence>
3. <https://www.hilfetelefon.de/ru.html>
4. <https://www.idelreal.org/a/30330371.html>
5. <https://nollalinja.fi/en/about-nollalinja/>
6. <https://nollalinja.fi/ru/>
7. <https://tane.fi/en/frontpage>
8. <https://resourcehub.bakermckenzie.com/en/resources/fighting-domestic-violence/europe/finland/topics/1legal-provisions>
9. <https://naistetugi.ee/ru/o-nas/>
10. <https://naistetugi.ee/ru/>
11. <https://www.inimoigustegiid.ee/ru/temy/organizatsii-kotorye-mogut-vam-pomoch>
12. https://ru.wikipedia.org/wiki/Domashnee_nasilie#Zakonodatelstvo



Xodjaye Sobir Djumayevich,

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim
e-mail: khsobir@yahoo.com

GENDER MUNOSABATLAR SOTSIOLOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR TALQINIDA

Annotatsiya. Maqolada gender munosabatlar tushunchasi mazmuni sotsiologik va psixologik yondashuv asosida ochib berilgan. Unda tadqiqotlarda gender yo‘nalishidagi ilmiy ishlarni tahlil qilish orqali gender munosabatlari bo‘yicha asosiy tendensiyalar va istiqbollarni belgilash masalalari ko‘tarilgan.

Tayanch so‘zlar: gender, gender munosabatlar, gender tadqiqot, genderning ijtimoiy qurilmasi, gender shartnomasi, kasbiy segregatsiya, oilada jinsiy rolli differentsiatsiya, gender manipulyatsiya, gender shaxslararo nizolar.

Аннотация. В статье раскрывается сущность понятия гендерных отношений на основе подходов социологии и психологии. В исследовании поднимаются вопросы определения основных тенденций и перспектив гендерных отношений посредством анализа научных работ по гендерной проблематике.

Ключевые слова: гендер, гендерные отношения, гендерные исследования, социальное устройство гендера, гендерный контракт, профессиональная сегрегация, гендерно-ролевая дифференциация в семье, гендерная манипуляция, гендерные межличностные конфликты.

Annotation. In the article, the content of the concept of gender relations is revealed based on the approach of sociology and psychology. It raises the issues of determining the main trends and perspectives on gender relations through the analysis of scientific works on gender in research.

Keywords: gender, gender relations, gender research, social device of gender, gender contract, occupational segregation, gender role differentiation in the family, gender manipulation, gender interpersonal conflicts.

Kirish. So‘nggi yillarda gender tadqiqotlari ilmiy bilimlar doirasida jadal rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Bu tadqiqotlar odamlarning ijtimoiy va shaxsiy hayotidagi o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelgan ko‘plab muammolarni aks ettirib, zamonaviy jamiyat duch keladigan ko‘plab muammolarga javob topishga yo‘nalgan bo‘ladi. Gender munosabatlari gender muammolarining hodisalaridan biri bo‘lib, u gender tengsizligi bilan bog‘liq hodisalarni tahlil qilishga qaratilgan fanlararo bilim sohasi sifatida butun gender ilmiy yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq aks ettiradi.

Gender tadqiqotlari metodologiyasining asosi jamiyatda gender rollari va munosabatlari orqali tasdiqlangan boshqaruv va hukmronlikni tahlil qilishdir¹. Gender munosabatlarni o‘rganishda gender tengsizligi muammosi, ayniqsa, turli munosabatlar doirasida gender tengsizlik hodisalarining namoyon bo‘lish qonuniyatlari, gender tengsizlik yuzaga kelish sabablari, uni bartaraf etish yo‘llari hamda vositalari singari masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Социология гендерных отношений: учеб. пособие для студентов высших учебных заведений / под ред. З.Х. Саралиевой. Москва: РОССПЭН, 2004. 270 с.

Gender tadqiqotlarida gender munosabatlari mavzusi alohida ahamiyatga ega, chunki ular murakkab, ko'p bosqichli va ko'p qirrali hodisa bo'lib, zamonaviy erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishiga xos bo'lgan deyarli barcha asosiy muammolarni o'z ichiga oladi. Gender munosabatlarini o'rganish rolli xatti-harakatning qiyofasini har tomonlama ochib berishga, shuningdek, hayotning turli sohalaridagi munosabatlar subyekti sifatida erkaklar va ayollarning ijtimoiy va psixologik holatlarini namoyon etishga imkon beradi. Gender munosabatlar mavzusi nafaqat ilmiy nuqtayi nazardan, balki amaliy jihatdan ham juda dolzarb. Gender munosabatlarini tadqiq etish natijalaridan davlat gender siyosatini shakllantirishda; gender statistikasi sohasida; gender, oila, demografik siyosat konsepsiyalarini ishlab chiqishda; davlat boshqaruvida; qonun hujjatlari, ommaviy axborot vositalari, o'quv-uslubiy materiallarning gender ekspertizasini o'tkazishda; aholiga yordam ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy-psixologik xizmatlar faoliyati sohasida va boshqalarda foydalanish mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi gender yo'nalishidagi ilmiy ishlarni tahlil qilish asosida gender munosabatlari bo'yicha tadqiqotlarning asosiy tendensiyalarini aniqlash va keyingi tadqiqotlar istiqbollari belgilashdir.

Asosiy qism. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, gender munosabatlari, asosan, sotsiologik va psixologik soha vakillari tomonidan o'rganilgan. Buning sababi shundaki, jins kategoriyasi asosida shakllangan ijtimoiy guruhlar sotsiologiya va psixologiyaning obyekt bo'lib hisoblanadi. Bu fanlar tushunchalar apparatiga "munosabatlar" kategoriyasi individual va guruh subyektlar o'rtasidagi turli munosabatlar fenomenologiyasini aks ettiradi.

Gender munosabatlar fenomeni juda keng talqin etilgan, gender munosabatlar muammolariga jins bo'yicha tengsizlik, erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy va psixologik xususiyatlardagi farqlar, turli ijtimoiy institutlar va tashkilotlarda erkaklar va ayollar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan u yoki bu tarzda bog'liq barcha holatlar kiradi.

Genderga tegishli ishlarni sifatli tahlil qilish gender munosabatlari bo'yicha mahalliy tadqiqotlarning asosiy tendensiyalarini aniqlaydigan

bir qator umunlashmalarni ilgari surish imkonini beradi. Tahlil davomida asosiy tavsiflar va tuzilma, namoyon bo'lish darajalari va turlari, dinamika va tashxis singari sotsiologiya va psixologiyada har qanday hodisani o'rganishda e'tibor qaratiladigan masalalar e'tiborga olindi.

Gender munosabatlari sohasidagi dastlabki ishlar bilan taqqoslaganda XXI asr nashrlari gender munosabatlarini o'rganishning tushunchalar konseptual sohasi yanada konkretlashdi.

Gender munosabatlarining mazmuniy tavsiflari tushunchalar orqali ochib beriladi, jumladan "gender tengsizligi" va "gender tengligi"ning asosiy tushunchalar bilan bir qatorda "gender stratifikatsiya", "gender differentsiatsiya", "gender tizimi", "gender tartibi", "gender tuzilishi", "gender tarkibi", "gender rejimi", "gender asimmetriyasi"², "gender munosabatlaridagi nomutanosiblik", "gender nomuvofiqlik va asimmetriya", "gender deprivatsiya"³ kabi tushunchalar keng qo'llanadi.

Gender munosabatlarini tadqiqot obyekt sifatida o'rganishdagi aksariyat ishlarda ayollar va erkaklarning ijtimoiy rollari hamda maqomlarining o'ziga xos xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratiladi⁴.

Gender munosabatlarini o'rganishda fan sohasining chegaralarini belgilash gender munosabatlarini nazariy va empirik o'rganish uchun tahlil parametrlari va ko'rsatkichlari to'g'risidagi asosiy savolga javob berishga imkon beradi, ular asosida genderning muhim xususiyatlari aniqlanadi.

Tahlilning asosiy parametrlari sifatida quyidagilardan foydalaniladi: rollarni farqlash va gender munosabatlari subyektlarining maqomlari iyerarxiyasi; gender munosabatlarining subyektlari sifatida erkaklar va ayollar hokimiyati va bo'ysunish holatlari; jamiyat faoliyatining xususiy (oilaviy uy xo'jaligi), jamoat (ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy) va ramziy hamda kommunikativ sohalarida gender asimmetriyasining ifodalanishi;

² Здравомыслова Е., Темкина А. Понятийное поле исследования гендерных отношений // Гендерные отношения в современной России: исследования 1990-х годов: сб. науч. ст. / под ред. Л.Н.Попковой, И.Н.Тартаковской. – Самара: Самарский ун-т, 2003. – С. 10–22.

³ Фофанова К.В. Институционализация гендерных отношений в социальной сфере: автореф. дис. ... д-ра социол. наук. – Саранск, 2006. – 36 с.

⁴ Клецина И.С. Психология гендерных отношений: теория и практика. – СПб.: Але-тейя, 2004. – 408 с.

gender asimetriyasi nuqtayi nazaridan va hayot faoliyatining ma'lum sohalarida ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar nuqtayi nazaridan turli xil ijtimoiy tuzilmalardagi munosabatlar tizimidagi erkaklar va ayollarning o'rni.

Gender munosabatlarining predmet sohasini aniqlash va tavsiflash "gender munosabatlari" fenomenini aniqlash va uning ishlash xususiyatlarini ko'rsatish imkonini berdi.

"Gender munosabatlari (gender relationships) – bu hozirgi vaqtda gender guruhlarini sifatida ayollar va erkaklar o'rtasida hokimiyatning teng bo'lmagan taqsimlanishi bilan tavsiflangan munosabatlar turi"⁵.

Mazkur ta'rifda quyidagi xususiyatlar ta'kidlanadi: **Birinchidan**, bu erkak va ayol jinsiga mansub subyektlar o'rtasidagi munosabatlar. **Ikkinchidan**, bu turdagi munosabatlarda mavqelarning tengsizligi tavsiflanadi. Bundan kelib chiqadiki, gender munosabatlarini tahlil qilishda tadqiqotchilar munosabatlarning mazmuniy qisminigina emas, shu bilan birga, munosabatlar subyektlarining xususiyatlarini ham hisobga olishlari lozim bo'ladi.

Aynan bu kabi fikr A.V. Rostovanning izlanishlarida ham qayd etilgan: "Gender munosabatlari ikki subyekt tufayli mavjud, degan yondashuv aksariyat hollarda tadqiqotchilar tomonidan unutiladi va shuning uchun gender masalalari ko'pincha hokimiyat va bo'ysunish munosabatlarini aniqlash degan bayonotlar sifatida talqin etiladi. Shuning uchun, fikrimizcha, gender munosabatlarining subyektlari gender munosabatlari ssenariylarini o'zgartirish/saqlash jarayonining hal qiluvchi omillari sifatida muhim ahamiyatga ega"⁶.

Gender munosabatlarini tadqiq etish munosabatlarning uslublari, modellari, ssenariylari, amaliyotlar bilan ifodalangan obyektiv va subyektiv tomonlarni, ya'ni gender vakilliklari, stereotiplar, munosabatlar subyektlarining tashuvchisi bo'lgan munosabatlarni o'rganishni o'z ichiga olishi kerak. Jins subyektlarining ushbu gender xususiyatlari

⁵ Воронина О.А. Глоссарий по гендерному образованию // Гендерные исследования: региональная антология гендерных исследований из восьми стран СНГ: Армении, Азербайджана, Грузии, Казахстана, Кыргызстана, Молдовы, Таджикистана и Узбекистана. – Москва: Вариант: ИСПП, 2006. – С. 443–511.

⁶ Ростова А.В. Методология изучения гендерных отношений // Вестник Самарского государственного университета. 2008. № 63. – С. 221–226.

munosabatlarning determinanti bo'lib, gender munosabatlarining tarkibiy qismlarini (strategiyalar, turlar, modellar, uslublar) belgilaydi.

Shunday qilib, gender munosabatlari jinslararo o'zaro ta'sirning haqiqiy amaliyoti va modellari gender vakillari ongida mavjud bo'lgan tasavvurlar, stereotiplar, ustanovkalar bilan qiyoslangan holda tahlil qilinadi. Ushbu korrelyatsiyalar orqali o'rganilayotgan munosabatlar tavsiflanadi va tahlil qilinadi, bu esa ularning o'ziga xosligini aniqlash hamda rivojlanish prognozini tuzish imkonini beradi. Shunday qilib, bir qator tadqiqotlarda gender munosabatlarining obyektiv va subyektiv tomonlari tadqiqotning kontseptual masalasiga kiritilgan va tadqiqotchilar o'z ishlarini ularning munosabatlarini tahlil qilishga qaratishadi⁷. Biroq, ko'pincha, gender munosabatlarining subyektiv tomoni hisobga olinmaydi va tadqiqotlar munosabatlar subyektlarining gender xususiyatlarini hisobga olmasdan amalga oshiriladi.

Gender munosabatlari o'rganiladigan barcha tadqiqotlarda ularning jamiyat va shaxsiy hayotning turli sohalarida turlicha namoyon bo'lishi va amal qilishi alohida ta'kidlanadi. Shaxsning qadriyat yo'nalishlari, ijtimoiy roli va mavqeyi bilan belgilanadigan mikro va makro darajada qayta ishlab chiqariladigan gender munosabatlari jamiyatning iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, siyosiy va axloqiy sohalarida namoyon bo'ladi⁸. Gender munosabatlari turli ijtimoiy sohalarida, boshqaruv va siyosatda, oilada erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarning muhim jihatlaridan biri sifatida qaraladi. Jamoatchilik sohasida iqtisodiyot, siyosat, mafkura va madaniyatdagi gender munosabatlari tahlil qilinadi; xususiy sohada oila, nikoh, do'stlik va jinsiy munosabatlari tahlil mavzusiga aylanadi⁹.

Tahlil qilingan ishlarning aksariyatida gender munosabatlarini makro va mikro darajada o'rganish kerakligi ta'kidlangan, ammo gender munosabatlarini ijtimoiy voqelikning to'rt darajasida ko'rib chiqish

⁷ Гафизова Н.Б., Королева Т.В. Гендерные стереотипы в современной провинциальной семье: (на примере Ивановской области) // Женщина в российском обществе. 2001. № 3/4. – С. 50–53.

⁸ Королева С.В. Трансформация гендерных отношений в современном российском обществе: автореф. дис. ... канд. социол. наук. – М., 2006. – 25 с.

⁹ Здравомыслова Е.А., Темкина А.А. Социология гендерных отношений и гендерный подход в социологии // Социол. исслед. 2000. № 11. – С. 15–24.

zarur, chunki ular ijtimoiy, guruhlararo, shaxslararo munosabatlarning keng doirasiga qurilgan. Shu bilan birga, bu munosabatlar shaxsning o'ziga bo'lgan munosabati doirasiga kiradi.

Makrosotsial darajada gender munosabatlar “erkaklar yoki ayollar guruhi – jamiyat (davlat)” tizimida tahlil qilinadi. Mezodarajada (guruhlararo o'zaro munosabatlar) esa tahlillar gender munosabatlar “erkaklar guruhi – ayollar guruhi” doirasida amalga oshiriladi. Shaxslararo munosabatlar sohasining mikro darajasida tahlil obyekti “shaxs – shaxs” tizimi namoyon bo'ladi, bunda o'zaro munosabatlarga kirishadigan shaxslar qarama-qarshi jins vakillari bo'lishadi. Shaxs doirasi darajasida tahlil obyekti ma'lum bir jinsning subyekti sifatida shaxsning o'ziga bo'lgan munosabati hisoblanadi¹⁰.

Gender munosabatlarni tahlil qilish jarayonida olingan muhim natijalardan biri ularni o'rganishning nazariy va uslubiy asoslarini aniqlash bilan bog'liq. Gender munosabatlarini o'rganish ko'pchilik tadqiqotchilar ishlarida fanda ustuvor mavqega ega bo'lgan ijtimoiy-konstruktivistik yoki strukturaviy-konstruktivistik paradigmalarga murojaat qilingan¹¹.

Genderga yo'naltirilgan mavzulardagi ijtimoiy konstruktivistik paradigma genderning ijtimoiy qurilmasi nazariyasi bilan ifodalanadi¹². Ushbu nazariya doirasida gender nafaqat jamiyatning asosiy institutlari, balki shaxslarning o'zlari tomonidan shakllantirilgan erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning uyushgan modeli sifatida tushuniladi. Genderning ijtimoiy qurilmasi nazariyasining asosiy tamoyili jinslar o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy jihatdan loyihalashtirilgan, degan fikrga qaratilgan, bunda biologik determinizm inkor etiladi.

Gender tadqiqotlarida strukturaviy-konstruktivistik paradigmadan foydalanish jamiyatdagi

¹⁰ Клецина И.С. Психологическое насилие в гендерных межличностных отношениях: сущность, причины и последствия // Жизнь без насилия: материалы науч.-практ. семинара «Домашнему насилию НЕТ» / под ред. С.Л. Акимовой. – СПб.: Островитянин, 2009. – С. 7–30.

¹¹ Клименко Л.В. Современные тенденции динамики гендерных отношений на Северном Кавказе // Журнал социологии и социальной антропологии. 2012. Т. 15, № 2. – С. 39–56.

¹² Уэст К., Зиммерман Д. Создание гендера // Хрестоматия феминистских текстов: переводы / под ред. Е. Здравомысловой, А. Темкиной. – СПб.: Дмитрий Буланин, 2000. – С. 193–219.

gender tartibini shakllantiradigan tuzilmalar va amaliyotlarning o'zaro bog'liqligiga urg'u berish bilan bog'liq. “Tadqiqot predmeti – institutsional sharoitlar bilan chegaralangan va ularni o'zgartiradigan individual va guruh strategiyalar”¹³. Strukturaviy-konstruktivistik yondashuv gender munosabatlarini agentlar va ijtimoiy strukturalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida tahlil qilishga imkon beradi.

Ehtimol, gender munosabatlarini keyingi tadqiqotlarda ham mazkur asosiy metodologiyani saqlab qolgan holda, qo'llanadigan paradigmalarda va yondashuvlar doirasi kengaytiriladi. Xususan, rus olimlari E.Zdravomislova va A.Temkina gender nazariyasining analitik apparati yaxshi yo'lga qo'yilmagani va tadqiqot sohasini tavsiflash uchun eng maqbul terminologik vositalarni izlash davom etayotganini ta'kidlab o'tishgandi¹⁴.

Gender munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradigan tadqiqotlarda, asosan, mualliflar gender shartnomasi, kasbiy segregatsiya, oilada jinsiy rolli differentsiatsiya, gender manipulyatsiya, gender shaxslararo nizolar va boshqa shu kabi gender hodisalarni tasvirlashga murojaat qilishadi.

Gender munosabatlarini tahlil qilish darajalarini aniqlash gender mazmunining asosiy hodisalarini o'ziga xos namoyon bo'lish darajalari bilan bog'lash, shuningdek, gender munosabatlarini o'rganish uchun mavjud ma'lumotlarni tartibga solish va tizimlashtirish hamda keyingi tadqiqotlar uchun ko'rsatmalarni belgilash imkonini beradi.

Makro darajada gender munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadigan asosiy hodisa jamiyatdagi gender amaliyotlari va vakilliklarining dominant turi sifatida gender shartnoma (kontrakt) hisoblanadi. Gender shartnomasi O'zbekistonning 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasidagi asosiy masalalar, shuningdek, alohida erkak va ayol hayotida sodir

¹³ Здравомыслова Е.А., Темкина А.А. Социология гендерных отношений и гендерный подход в социологии // Социол. исслед. 2000. № 11. – С. 13.

¹⁴ Здравомыслова Е., Темкина А. Понятийное поле исследования гендерных отношений // Гендерные отношения в современной России: исследования 1990-х годов: сб. науч. ст. / под ред. Л.Н. Попковой, И.Н. Тартаковской. – Самара: Самарский ун-т, 2003. – С. 14.

bo'ladigan jarayonlarga ta'siri bilan chambarchas bog'liq¹⁵.

Gender shartnomasi “ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarish sohalarida jinsga qarab mehnat taqsimotini ayollar va erkaklar o'rtasidagi o'zaro mas'uliyatli munosabatlarni belgilovchi qoidalar, huquq va majburiyatlar” deb¹⁶ ta'riflanadi.

Bundan tashqari, Anna Temkina va Anna Rotkirchning fikriga ko'ra, gender shartnomasi teng huquqli sheriklarning o'zaro ta'siri emas, balki davlat va xususiy sohalarida turli xil hokimiyat mavqelariga ega bo'lgan agentlar o'rtasidagi murosali kelishuvdir¹⁷.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, “gender shartnomasi o'ziga xos madaniy va tarixiy kontekstlarda gender munosabatlari, rollari va o'ziga xosliklarining institutsional ta'minlanishi, amaliyoti va ramziy ko'rinishini o'z ichiga olishi bilan birga, unga jinsiy munosabatlarni ijtimoiy tartibga solish va ifodalash ham kiradi; ular asosiy e'tiborni, asosan, mehnat taqsimotiga, davlat va xususiy sohadagi huquq va burchlarga qaratadilar.

Fikrimizcha, gender shartnomasi jins bilan bog'liq va ijtimoiy shartnomalarni o'z ichiga olgan “shartnoma”ning murakkab shaklidir. Shartnomadagi har qanday bandning buzilishi bir qator ijtimoiy sanksiyalarni keltirib chiqaradi va u yoki bu turdagi “muammoli” shartnomalarni normallashtirishni talab qiladi.

Guruhlararo munosabatlar darajasi erkak va ayollarni turli tashkilotlar, ta'lim muassasalari, siyosiy tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari gender guruhlar vakillari sifatida ular o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu gender munosabatlarining funksional-rolli xususiyati kasbiy segregatsiya¹⁸, “shisha shift”, kasbiy o'zini o'zi anglash uchun gender, ommaviy axborot vositalarida munosabatlarning gender

stereotipi kabi hodisalarni o'rganishda namoyon bo'ladi.

Shaxslararo munosabatlar darajasida turli jinsdagi kishilarning o'zaro yaqin munosabatlari – do'stlik, sevgi, oila va nikoh munosabatlari tahlil qilinadi, Shaxslararo munosabatlarning gender komponenti gender manipulyatsiyasi, oilada jinsiy-rolli differentsiatsiya, oiladagi gender iyerarxiya, gender bo'yicha oilaviy zo'ravonlik singari hodisalarda namoyon bo'ladi¹⁹.

Gender munosabatlarini tahlil qilishning shaxsiy darajasi boshqalardan farq qiladi, chunki shaxsning “Men” konsepsiyasi bilan chegaralangan subyektiv shaxsiy makonda uning ikkita quyi tuzilmasi yoki ikkita tarkibiy qismi: individual va ijtimoiy munosabatlarning “ishtirokchilari” (subyektlari) rolini o'ynaydi.

O'z-o'ziga munosabatning haqiqiy gender konteksti va uning namoyon bo'lishi “Men shaxs sifatida” – “Men gender guruhining vakili sifatida” singari fikrlarda, ya'ni shaxsning boshqalar bilan o'zaro ta'siri asosida oladigan ijtimoiy baholashlari hamda o'zini gender xususiyatlarining tashuvchisi va jinsga xos rollarning subyekt sifatida baholashi orqali tahlil qilinadi. Jamoat ongida keng ifodalangan “haqiqiy erkak” va “haqiqiy ayol”, “erkak ... bo'lishi kerak” va “ayol... bo'lishi kerak” singari normativ o'lchovlar erkaklar va ayollarni ushbu qoliplarga muvofiq o'zlariga nisbatan baho berishga undaydi. O'zini shaxs sifatida va o'zini gender guruhi vakillariga xos bo'lgan tipik fazilatlarining tashuvchisi sifatida taqqoslash natijasi kishini qondirishi yoki qoniqtirmasligi mumkin, bu, shubhasiz, shaxsning o'ziga bo'lgan munosabatiga ta'sir o'tkazadi. Shaxs ichidagi gender nizolar, erkaklik yoki ayollik inqirozlari – bu gender munosabatlarini tahlil qilishning asosiy gender hodisalaridir.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilarning asosiy e'tibori, asosan, asosiy gender hodisalarining mazmunini tavsiflashga qaratilgan, ammo ularning paydo bo'lish sabablarini batafsilroq tahlil qilishga, shuningdek, gender munosabatlarini optimallashtirish yo'llari va vositalarini tizimlashtirishga kam e'tibor qaratiladi.

Gender munosabatlari o'zgaruvchan ijtimoiy, madaniy sharoitlar va psixologik omillar ta'sirida

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида 28.05.2021 йилдаги СҚ-297-IV-сон қарори. <https://lex.uz/docs/5466673>

¹⁶ Темкина А., Роткирх А. Советские гендерные контракты и их трансформация в современной России // Социс. 2002. № 11. – С 5.

¹⁷ O'sha manba. 5-bet.

¹⁸ Задорожникова Е.Б. Гендерное неравенство в сфере занятости // Женщина в российском обществе. 2005. № 1/2. – С. 91–100.

¹⁹ Балабанова Е.С. Домашний труд как символ гендера и власти // Социол. исслед. 2005. № 6. – С. 109–120.

bo'lgan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir. Shuning uchun gender munosabatlari ijtimoiy voqelikning o'zgaruvchan hodisasi sifatida o'rganilishi kerak. Gender munosabatlarini o'zgartirishning strategik maqsadlari jinslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar madaniyatini o'zgartirish, iyerarxik munosabatlarini sheriklik munosabatlari bilan almashtirish, jamiyat ongiga teng huquqli gender g'oyalari va munosabatlarini joriy etishdan iborat.

Ayrim holatlarda gender munosabatlarning dinamik jihatiga e'tibor qaratildi. Lekin so'nggi yillarda mamlakatimizda, hatto Rossiyada gender mazmunini zamonaviy tavsiflash, rivojlanish tendensiyalari hamda ularni takomillashtirish usul hamda vositalarini aniqlash bo'yicha keng ko'lamdagi tadqiqotlar olib borilmayapti. Xususan, Rossiyada bir necha yillar oldin "Ota-onalar va bolalar, erkaklar va ayollar oilada va jamiyatda" keng ko'lamli ijtimoiy-demografik tadqiqot o'tkazildi²⁰. Lekin e'lon qilingan natijalarda gender munosabatlariga oid ma'lumotlar ko'rsatilmagan.

Mahalliy sotsiologiya va psixologiya fanlari vakillari tomonidan gender munosabatlari dinamikasini yetarlicha o'rganilmagani, katta ehtimol bilan tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari, uni tashkil etish va o'tkazish uchun aniq konseptual modellar va texnologiyalarning yetarli darajada rivojlanmagani bilan bog'liq.

Gender munosabatlarini o'rganishning uslubiy tomoniga kelsak, odatda, o'rganishlar sotsiologik va psixologiya fanlariga tegishli bo'lgan tadqiqotning miqdoriy va sifatiiy usullari orqali olib boriladi. Gender munosabatlari muammosini o'rganishda sifatiiy va miqdoriy usullardan foydalanishda uni turli kesimlar asosida tahlil qilinadi va shu bilan ushbu sohada sodir bo'layotgan jarayonlar haqida ko'p tomonlama, obyektiv tasavvurga ega bo'lishga imkon beradi.

Shunday qilib, asarlarni tahlil qilish gender munosabatlari sohasida o'z aksini topadigan dolzarb muammolar ro'yxatini aniqlashga imkon beradi: jamoatchilik ongida (xususan, top-menejerlar orasida) siyosatchi ayollar va menejer ayollar

to'g'risidagi tenglik g'oyalarining shakllanmagani; mehnat bozorining vertikal va gorizontal gender segregatsiyasi; ayollarning kasbiy faoliyatda o'zini o'zi anglashi va oilaviy munosabatlar sohasida erkaklarning o'zini o'zi anglashi uchun ijtimoiy-psixologik to'siqlarning keng tarqagani; ommaviy axborot vositalarida va reklamada gender – teng bo'lmagan munosabatlarni namoyish etish; sherikchilik modeli bilan solishtirganda gender munosabatlarining dominant-qaram bo'lish modelidan keng foydalanish; shaxslararo gender munosabatlaridagi ziddiyatlarning yuqoriligi; turmush o'rtoqlar o'rtasida oilaviy majburiyatlar noteng taqsimlangani; gender stereotiplari orqali ayol/erkak manipulyatsiyasini yoyish; gender bo'yicha oiladagi zo'ravonlikning tarqalishi va boshqalar.

Xulosa. Gender munosabatlari bo'yicha tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishlari sifatida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

- muayyan hodisaning tavsifiga emas, balki uning yuzaga kelish sabablari va uning subyektlar xususiyatlariga va gender munosabatlarining sifat parametrlariga ta'siri oqibatlarini tahlil qilishga e'tibor qaratish;

- ijobiy uslublar nuqtayi nazaridan faqat gender mazmunga ega hodisalarga emas, balki munosabatlar subyektlarining gender kompetensiyasiga asoslangan modellariga ko'proq e'tibor berish;

- gender munosabatlari fenomenining murakkabligi va ko'p qirraliligini inobatga olgan holda, tadqiqotni tashkil qilishda bevosita o'rganilayotgan gender munosabatlarining amal qilish darajasini (yoki darajalarini) alohida ko'rsatish va tavsiflash;

- munosabatlarning real amaliyotini subyektiv komponent (munosabat subyektlarining gender xususiyatlari) bilan birgalikda o'rganish;

- munosabatlar gender komponentining ularning etnik, yosh, mintaqaviy singari boshqa belgilari (turlari, jihatlari) bilan bog'liqligini hisobga olish kerak.

²⁰ Родители и дети, мужчины и женщины в семье и обществе / под науч. ред. Т.М. Малевой, О.В. Синявской; Независимый институт социальной политики. – Москва: НИСП, 2007. – 640 с.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Балабанова Е.С. Домашний труд как символ гендера и власти // Социол. исслед. 2005. № 6. – С. 109–120.
2. Воронина О.А. Глоссарий по гендерному образованию // Гендерные исследования: региональная антология гендерных исследований из восьми стран СНГ: Армении, Азербайджана, Грузии, Казахстана, Кыргызстана, Молдовы, Таджикистана и Узбекистана. – Москва: Вариант: ИСПП, 2006. – С. 443–511.
3. Здравомыслова Е., Темкина А. Понятийное поле исследования гендерных отношений // Гендерные отношения в современной России: исследования 1990-х годов: сб. науч. ст. / под ред. Л.Н. Попковой, И.Н. Тартаковской. – Самара: Самарский ун-т, 2003. – С. 10–22.
4. Клецина И.С. Психология гендерных отношений: теория и практика. – СПб.: Але-тейя, 2004. – 408 с.
5. Клименко Л.В. Современные тенденции динамики гендерных отношений на Северном Кавказе // Журнал социологии и социальной антропологии. 2012. Т. 15, № 2. – С. 39–56.
6. Королева С.В. Трансформация гендерных отношений в современном российском обществе: автореф. дис. ... канд. социол. наук. – Москва, 2006. – 25 с.
7. Овчинникова В.В. Влияние гендерных установок на взаимоотношения в разнополых воинских коллективах: на примере вузов ФСБ России пограничного профиля: автореф. дис. ... канд. психол. наук. – Голицыно, 2006. – 25 с.
8. Потехина Е.Н. Специфика гендерных отношений в период социальных изменений в России: автореф. дис. ... канд. социол. наук. – Нижний Новгород, 2003. – 24 с.
9. Ростова А.В. Методология изучения гендерных отношений // Вестник Самарского государственного университета. 2008. № 63. – С. 221–226.
10. Социология гендерных отношений: учеб. пособие для студентов высших учебных заведений / под ред. З.Х. Саралиевой. – Москва: РОССПЭН, 2004. – 270 с.
11. Темкина А., Роткирх А. Советские гендерные контракты и их трансформация в современной России // Социс. 2002. № 11. – С 4.
12. Фофанова К.В. Институционализация гендерных отношений в социальной сфере: автореф. дис. ... докт. социол. наук. – Саранск, 2006. – 36 с.
13. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида 28.05.2021 йилдаги СҚ-297-IV-сон қарори. <https://lex.uz/docs/5466673>
14. Уэст К., Зиммерман Д. Создание гендера // Хрестоматия феминистских текстов: переводы / под ред. Е.Здравомысловой, А.Темкиной. – СПб.: Дмитрий Буланин, 2000. – С. 193–219.



Xomitov Komiljon Zoitovich,
Toshkent moliya instituti, i.f.d., professor,
e-mail: metro8368@mail.ru

QISHLOQ YOSHLARINI ISH BILAN TA'MINLASHNING SAMARALI TASHKILY MEXANIZMLARI TA'SIRINI ANIQ SOTSIOLOGIK BAHOLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlashning mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan samarali tashkiliy mexanizmlarining ta'siri aniq sotsiologik baholangan. U asosida qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlashning zamonaviy turlari va vositalarini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ishsiz yoshlarni kasbga yo'naltirish, tayyorlash va qayta tayyorlashning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan.

Tayanch tushunchalar: qishloq yoshlari, ish bilan ta'minlash, samarali tashkiliy mexanizmlar, ishsizlik, bandlik, aniq sotsiologik baholash, mehnat resurslari, mehnat bozori, raqobatbardoshlik, tadbirkorlik.

Аннотация. В данной статье с социологической точки зрения наглядно оценивается воздействие разработанных авторами эффективных организационных механизмов на обеспечение занятости сельской молодежи. На ее основе раскрывается важное социально-экономическое значение развития современных видов и средств обеспечения занятости сельской молодежи, создания новых рабочих мест, ориентации безработной молодежи на профессию, обучения и переподготовки.

Ключевые слова: сельская молодежь, занятость, эффективные организационные механизмы, безработица, занятость, точная социологическая оценка, трудовые ресурсы, рынок труда, конкурентоспособность, предпринимательство.

Annotation. This article, from a sociological point of view, clearly assesses the impact of the effective organizational mechanisms developed by the authors on ensuring the employment of rural youth. On its basis, the important socio-economic significance of the development of modern types and means of providing employment for rural youth, the creation of new jobs, orientation of unemployed youth towards a profession, training and retraining is revealed.

Keywords: rural youth, employment, effective organizational mechanisms, unemployment, employment, accurate sociological assessment, labor resources, labor market, competitiveness, entrepreneurship.

Kirish. Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida davlatning eng muhim vazifalaridan biri ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarning keskinligini kamaytirish, mavjud muammolarni ehtiyot choralari hisobiga yumshatish va aholi turmush darajasini yaxshilash hisoblanadi. Mazkur ustuvor vazifalarni amalga oshirishda aholining turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan

ijtimoiy siyosatni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etib, bunda qishloq aholisining ish bilan ta'minlanish darajasini oshirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaraladi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga

oid davlat dasturida “aholi o‘rtasida ishsizlikni kamaytirish, odamlarning daromadlarini oshirish, fan va uzluksiz ta’limni rivojlantirish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash va ular bilan aholini qamrab olishni kengaytirish, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish” ustuvor vazifalar sifatida belgilangan¹.

Maqsad va uni asoslash. Mehnat bozorida teng raqobatlashishga qodir bo‘lmagan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning bir qator toifalari, jumladan, ta’lim muassasalari bitiruvchilari (yoshlar) mavjud. Ular tanlagan kasbi yoki ixtisosligi bo‘yicha ta’lim muassasalarida muayyan nazariy bilimlarni egallaganligiga qaramasdan, zarur malaka va mehnat ko‘nikmalariga ega bo‘lmaganliklaridan mehnat bozorida raqobatbardosh emas. O‘zbekistonda Aholining ish bilan bandligi va mehnatni muhofaza qilish respublika ilmiy markazi tomonidan olib borilgan sotsiologik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, 2018-yilda ishsizlik darajasi 16–30 yoshdagilar o‘rtasida 15,1% ni, 16–25 yoshdagilar o‘rtasida 17,0% ni tashkil etgan².

Qishloq yoshlari mehnat bozorida munosabatga kirishar ekanlar, o‘zlari uchun maqbul ish topish, ish o‘rni, shart-sharoitlari, kasb-kori nufuzi, mehnat jarayonining intensivligi, davomiyligi bilan bog‘liq ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy muammolarga to‘qnash keladilar. Bugungi yoshlarning bozor iqtisodiyoti sharoitlarida jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, mehnat bozori talablariga javob berishga tayyorligi o‘ziga xos xususiyatlarga egadir.

Axborot muhitining globallashuvi, yuqori turmush darajasi andozalarining tez va keng tarqalishi yoshlar hayotiy ehtiyojlari muttasil ortib borayotgani holda ularni qondirish imkoniyatlarining cheklanganligi va ular o‘rtasidagi ishsizlik darajasining yuqoriligi sababli yoshlarni munosib ish bilan ta‘minlash bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy muammolar yanada o‘tkirlashmoqda.

Olimlardan Y.G.Volkov va V.I. Dobrenkov yoshlarning o‘z karyerasi to‘g‘risidagi tasavvurlarini

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-5635-сонли Фармони, 2019 йил 17 январь.

² Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги маълумотлари.

tahlil etar ekanlar, ularning aksariyati o‘zlari uchun iqtisodiyotning xususiy sektorida, chet el firmalari yoki qo‘shma faoliyat bilan shug‘ullanishga moyil bo‘lganlar ko‘pchilik ekanligini ko‘rsatadilar³.

Ayni paytda yoshlarda mehnat motivatsiyasi juda kuchli bo‘lib, ular ish haqi miqdori yuqori bo‘lgan xizmat vazifalarini bajarish uchun qayta malaka oshirishga, kompyuterda ishlashni mukammal egallash, chet tillarni, avtomobil haydashni o‘rganishga tayyorliklari bilan ajralib turadilar.

Tadqiqotning maqsadi tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish negizida qishloq yoshlarining ish bilan bandligini ta‘minlashning samarali tashkiliy mexanizmlari ta‘sirini sotsiologik baholash asosida qishloq yoshlari ishsizligini kamaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosa va amaliy tavsiyanomalar ishlab chiqishdan iborat.

Ilmiy-tadqiqotning metodologik asoslari va usullari.

Ilmiy-amaliy tadqiqotning metodologik asoslari O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ma‘lumotnomalari, sotsiologik tadqiqotlar natijalari va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, makroiqtisodiy tahlil, guruhlash, eksperiment, dekompozitsiya, sotsiologik tahlil, innovatsion va integratsion yondashuvlar, yoshlar ishsizligini kamaytirish bo‘yicha xalqaro tajribalar tahlili va aprobatsiyasidan foydalanildi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. O‘zbekiston qishloq aholisini ish bilan ta‘minlash muammolarini tadqiq etish jarayonida respublikamizning mehnat resurslari bilan ko‘p ta‘minlangan va mehnat resurslari bilan kam ta‘minlangan tanlangan tumanlarida qishloq yoshlarini ish bilan ta‘minlash samarali mexanizmining asosiy ko‘rsatkichlarini so‘rovnoma orqali o‘rganish asosida qishloq joylaridagi yoshlarning ish bilan bandligini ta‘minlash samarali mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha iqtisodiy-ijtimoiy-tashkiliy asoslangan tavsiyalar va takliflarni ishlab chiqish aniq sotsiologik tadqiqotlar (tahlillar) o‘tkazishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

³ Социология молодежи: учебное пособие / Под ред. проф. Волкова Ю.Г. – Ростов-на-Дону: «Феникс», 2001. – С.323.

Mualliflar tomonidan taklif etilgan uslub asosida 2019-yilning 26–31-avgust sanalarida aniq sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazildi. So‘rovnoma bo‘yicha mazkur tadqiqotlarning obyektlari qilib Qashqadaryo (Kitob va Shahrizabz tumanlari) va Samarqand (Pastdarg‘om va Urgut tumanlari) viloyatining **mehnat resurslari bilan ko‘p ta‘minlangan** hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi (Beruniy va Ellikqal‘a tumanlari) va Jizzax (Zarbdor va Paxtakor tumanlari) viloyatining **mehnat resurslari bilan kam ta‘minlangan** qishloq tumanlaridagi 1600 dan ortiq 16 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan ishsiz erkak va ayollar (yigit-qizlar) tanlab olindi. Ular 1600 ta so‘rovnomaning (100,0%) savollariga to‘la javob berdilar. Respondentlarning 57,9 foizi erkak va 42,1 foizi ayollardir, shuningdek, so‘rovda ishtirok etganlarning 21,6 foizini 16–17 yoshgacha bo‘lganlar, 78,4 foizini 18–30 yoshdagilar tashkil etgan.

Respondentlarning ma‘lumoti bo‘yicha o‘rganilganda ularning 19,1 foizi umumiy o‘rta, 44,6 foizi o‘rta maxsus, kasb-hunar, 23,8 foizi oliy-bakalavr, 8,4 foizi oliy-magistr va 4,1 foizi diplomli oliy ma‘lumotga ega ekanligi aniqlandi.

So‘rovnomalarda o‘zbek tilida tuzilib, hosil qilingan dastlabki so‘rovnoma ma‘lumotlari “Microsoft Excel” dasturi yordamida kompyuterda qayta ishlandi. Natijada qishloq joylaridagi yoshlarning ish bilan bandligini ta‘minlashning samarali mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha iqtisodiy-ijtimoiy-tashkiliy asoslangan tavsiyalar va takliflarini o‘rganishning ishonchli sotsiologik axborotlari hosil qilindi⁴.

⁴ Холмўминов Ш.Р., Хомитов К.З., Арабов Н.У., Бобаназарова Ж.Х., Абдураманов Х.Х. Қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлашнинг самарали ижтимоий-иқтисодий механизмлари (монография). – Тошкент: “Инновацион ривожланиш наشريёт-матбаа уйи”, 2019. – Б. 252.

O‘zbekiston Respublikasi tanlangan qishloq hududlari yoshlarining yosh xodim sifatida mehnat faoliyatining qaysi bir tarmog‘ida (sohasida) ish bilan band bo‘lish istaklari (barcha respondentlarga nisbatan, % da)*

Sabablar	Barcha tumanlar bo‘yicha	Shu jumladan:							
		Kitob tumani	Shahrizabz tumani	Pastdarg‘om tumani	Urgut tumani	Beruniy tumani	Ellikqal‘a tumani	Zarbdor tumani	Paxtakor tumani
Qayta ishlash sanoati	13,2	14,0	35,0	17,0	4,5	5,0	6,0	13,5	12,0
Qishloq xo‘jaligi	13,0	13,0	9,5	10,0	11,5	8,5	7,5	12,0	10,0
O‘rmon xo‘jaligi	5,5	6,0	5,0	9,0	4,5	0,0	0,0	7,0	12,5
Transport	6,7	6,5	11,0	9,0	11,5	3,0	4,0	8,0	5,0
Aloqa	9,2	14,5	11,5	6,0	4,5	3,0	3,0	11,0	8,0
Qishloq qurilishi	5,5	2,5	10,0	5,0	4,5	4,5	0,0	3,5	4,0
Savdo	8,4	4,0	7,0	11,0	6,0	14,0	14,0	4,0	5,0
Umumiy ovqatlanish	4,7	2,0	3,5	6,0	4,0	7,0	7,0	4,5	3,5
Ta‘minot, sotuv, tayyorlash	3,8	2,5	0,5	5,0	7,5	8,5	8,5	2,0	4,0
Uy-joy va kommunal xo‘jaligi	4,2	1,5	1,5	8,0	4,0	7,0	7,0	1,5	3,0
Maishiy xizmat ko‘rsatish	3,8	5,5	0,0	4,0	7,0	1,5	1,5	6,0	5,5
Sog‘liqni saqlash	4,3	11,5	1,0	2,0	8,0	5,5	5,5	6,5	2,5
Jismoniy tarbiya va sport	3,5	5,5	1,0	6,0	3,0	5,0	5,0	5,0	5,5
Ta‘lim	4,1	8,0	1,5	0,0	3,5	5,0	5,0	7,0	7,0
Madaniyat, san‘at	1,2	0,5	0,0	0,0	3,5	1,5	1,5	0,5	2,0
Fan va ilmiy xizmat ko‘rsatish	1,9	0,0	0,0	0,0	3,5	4,0	4,0	0,0	4,0
Moliya, kredit va sug‘urta	2,3	1,0	1,5	2,0	2,5	6,0	6,0	2,5	1,5
Soliq tizimi	2,3	1,5	0,0	0,0	2,5	5,0	5,0	2,5	2,5
Boshqaruv apparati	2,2	0,0	0,5	0,0	4,0	6,0	5,0	1,5	2,5
Boshqa sohada	0,2	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	1,5	0,0
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Manba: muallif tomonidan sotsiologik so‘rov natijalari asosida hisoblangan.

Tadqiqot o'tkazilayotgan tumanlarda qishloq joylari bo'yicha respondentlarning katta qismi yosh xodim sifatida mehnat faoliyatini iqtisodiyotning qayta ishlash sanoatida (13,2%), qishloq xo'jaligida (13,0%), aloqa (9,2%), savdo (8,4%), transport (6,7%), o'rmon xo'jaligi (5,5%), qishloq qurilishi (5,5%), umumiy ovqatlanish tarmog'ida (4,7%), sog'liqni saqlash (4,3%), uy-joy kommunal xo'jaligi (4,2%), ta'lim (4,1%), ta'minot, sotish, tayyorlash (3,8%), maishiy xizmat ko'rsatishda (3,8%) hamda jismoniy tarbiya va sport (3,5%) sohalarida ko'proq band bo'lishni xohlashadi. Ular moliya, kredit va sug'urta (2,3%), soliq tizimi (2,3%), boshqaruv apparati (2,2%), fan va ilmiy xizmat ko'rsatish (1,9%), madaniyat, san'at (1,2%) va boshqa sohalarida (0,2%) band bo'lishni kamroq istashadi (2-jadval).

Respublikaning barcha tanlangan tumanlarida xuddi ana shunday vaziyat kuzatiladi. Shahrisabz, Pastdarg'om, Kitob, Zarbdor va Paxtakor tumanlarining mehnat faoliyati bilan shug'ullanishni istovchi yoshlari ko'proq qayta ishlash sanoati tarmoqlarida (35,0%, 17,0%, 14,0%, 13,5%, 12,0%) va qishloq xo'jaligida (9,5%, 10,0%, 13,0%, 12,0%, 10,0%) ish bilan band bo'lishni xohlaydilar.

Tanlangan Zarbdor, Shahrisabz, Paxtakor, Kitob va Urgut tumanlarining mehnat bilan band bo'lishni xohlovchi yoshlari esa transport va aloqa (25,5%, 22,5%, 22,0%, 21,0%, 16,0%), savdo, umumiy ovqatlanish, ta'minot, sotish va tayyorlash tarmoqlarining (10,5%, 11,0%, 12,5%, 8,5%, 17,5%) tegishli xo'jaliklarida, shuningdek, Beruniy va Ellikqal'a tumanlarining mehnat bilan band bo'lishni xohlovchi yoshlari ham savdo, umumiy ovqatlanish, ta'minot, sotish va tayyorlash hamda uy-joy kommunal xo'jaligi tarmoqlarida (36,5%, 36,5%) ko'proq ishlashni ma'qul ko'radilar (2-jadvalga qarang).

Qishloq joylarida yoshlarni ish bilan ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi samarali tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlardan biri qishloq hududlarida iqtisodiyotning turli sohalariga ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirish hisoblanadi. Ishchi kuchiga, ayniqsa, yosh ishchi kuchiga talabning oshirilishi ish joylarining modernizatsiyalashuvi, kichik biznes, xususiy tadbirkorlikning turli shakllari rivojlanishi, haq to'lanadigan ijtimoiy ishlarning tashkil etilishi, kasanachilik va oilaviy tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish hamda qishloq joylarida investitsion muhitni yaxshilash evaziga yangi ish

o'rinlarini tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, bunday yangi ish joylari ish haqi, mehnat sharoiti, ish vaqtining davomiyligi, kasbiy ko'nikmalarini oshira olish va ish joyida karyera qilish imkoniyati hamda boshqa shart-sharoitlari bilan yoshlarni o'ziga jalb qila olishi lozim.

Sotsiologik so'rov jarayonida tanlangan qishloq hududlari yoshlarining yashayotgan hududida iqtisodiyotning qaysi tarmog'ida (sohasida) yangi ish joylari tashkil etilishini maqbul ko'rishi so'ralganda, respondentlarning 19,1 foizi qayta ishlash sanoatida, 11,6 foizi qishloq va o'rmon xo'jaligida, 15,0 foizi transport, aloqa, qishloq qurilishida, 19,3 foizi savdo, umumiy ovqatlanish, ta'minot, sotish, tayyorlash sohasida, 8,8 foizi moliya, kredit va sug'urta, soliq tizimi, 8,6 foizi ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy xizmat ko'rsatishda, 8,3 foizi sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohasida, 7,5 foizi uy-joy, kommunal xo'jaligi va maishiy xizmat ko'rsatishda, 1,5 foizi boshqaruv apparatida va 0,3 foizi boshqa sohalar va tarmoqlarda yangi ish joylari tashkil qilinishini maqbul ko'rishlarini bayon etganlar.

Mazkur ko'rsatkichlar barcha tumanlar bo'yicha umumiy so'rovlar natijasini o'zida namoyon etadi va u alohida olingan tumanlar ko'rsatkichlarida ma'lum darajada farq bo'lishini istisno etmaydi.

Shunga ko'ra, ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha aniq sotsiologik tadqiqotlar o'tkazilgan barcha tanlangan tumanlarda vaziyat biroz o'zgacha kuzatiladi. Xususan, Shahrisabz, Kitob, Zarbdor, Pastdarg'om va Paxtakor tumanlarining yoshlari ko'proq qayta ishlash sanoati tarmoqlarida (34,5%, 27,5%, 27,5%, 23,5) va qishloq xo'jaligi (7,5%, 14,0%, 14,0%, 9,0%, 11,0%) yangi ish joylarini tashkil qilinishini istasalar, Beruniy, Ellikqal'a, Shahrisabz va Pastdarg'om tumanlarining yoshlari esa savdo, umumiy ovqatlanish, ta'minot, sotish, tayyorlash sohasida (25,0%, 24,0%, 19,0%, 19,0%), Urgut tumani yoshlari ko'proq maishiy xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi (18,0%, 7,0%) sohalarida ko'proq yangi ish o'rinlari tashkil etilishini maqbul ko'rishadi (qarang 3-jadval).

O‘zbekiston Respublikasi tanlangan qishloq hududlari yoshlarining yashayotgan hududida iqtisodiyotning qaysi tarmog‘ida (sohasida) yangi ish joylari tashkil etilishini maqbul ko‘ri-shi (barcha respondentlarga nisbatan, % da)*

Sabablar	Barcha tuman-lar bo‘yicha	Shu jumladan:							
		Kitob tumani	Shahrisabz tumani	Pastdarg‘om tumani	Urgut tumani	Beruniy tumani	Ellikqal‘a tumani	Zarbdor tumani	Paxtakor tumani
Qayta ishlash sanoati	19,1	27,5	34,5	23,5	6,5	6,0	7,0	27,5	22,0
Qishloq xo‘jaligi	9,5	14,0	7,5	9,0	7,0	7,5	7,5	14,0	11,0
O‘rmon xo‘jaligi	2,1	3,5	3,5	1,5	2,5	0,0	0,0	3,5	5,0
Transport	5,2	8,0	7,0	7,0	5,5	3,0	3,0	8,0	5,5
Aloqa	4,9	7,5	7,5	3,5	1,5	3,0	3,0	7,5	7,5
Qishloq qurilishi	4,9	3,5	10,5	7,0	6,0	6,5	0,0	3,5	3,5
Savdo	8,8	7,0	8,5	11,0	6,0	11,5	11,5	7,0	6,0
Umumiy ovqatlanish	4,9	3,0	6,0	3,5	3,0	6,0	6,0	3,0	7,0
Ta‘minot, sotish, tayyorlash	5,6	4,5	4,5	4,5	4,0	7,5	6,5	4,5	4,5
Uy-joy, kom-munal xo‘jaligi	3,2	2,0	1,5	3,0	3,0	7,0	8,0	2,0	4,0
Maishiy xizmat ko‘rsatish	4,3	3,0	0,5	3,5	18,0	1,5	1,5	3,0	3,5
Sog‘liqni saqlash	5,0	5,0	1,5	4,0	6,0	7,0	7	5,0	4,5
Jismoniy tarbiya va sport	3,3	3,0	0,5	3,5	4,5	4,5	4,5	3,0	3,0
Ta‘lim	4,8	3,5	1,5	6,0	6,0	8,5	7,5	3,5	2,5
Madaniyat, san‘at	1,5	1,5	0,5	2,0	4,0	1,5	1,5	1,5	1,5
Fan va ilmiy xizmat ko‘rsatish	2,3	2,0	1,0	0,0	4,0	4,0	4,0	2,0	2,0
Moliya, kredit va sug‘urta	6,3	0,5	3,0	5,0	5,5	5,5	5,5	0,5	2,5
Soliq tizimi	2,5	0,5	0,0	1,5	5,5	5,0	6,0	0,5	1,5
Boshqaruv apparati	1,5	0,5	0,5	1,0	1,5	4,5	3,5	0,5	0,5
Boshqa sohada	0,3	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	2,5
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Manba: muallif tomonidan sotsiologik so‘rov natijalari asosida hisoblangan.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan deyarli barcha mamlakatlar davlat ishi bilan bandlik xizmatini, ishsiz yoshlarning raqobatbardoshligining oshirishini doimo rag‘batlantirib keladi. Buning uchun yoshlarning malakasini oshirish bo‘yicha bandlik xizmatlari tomonidan turli tadbirlarning amalga oshirilishi, yoshlarning malakasini oshirish yoki yangi kasbga o‘rganishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularni o‘z malakalarini oshirish yoki yangi kasb o‘rganishni tizimli yo‘lga qo‘yishi va shu asosda ularning ish bilan bandligini ham, ushbu xizmatning funksiyalarini amalga oshirishga, shu jumladan, faol ish bilan bandlik siyosatining yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishiga yo‘naltiriladigan katta miqdordagi mablag‘larning o‘zini oqlay olishini ta‘minlovchi yuqori samarali tuzilmaga aylantirishga intiladi. Bizning fikrimizcha, bu mehnat bozoridagi harakatlarning shaffofligini ta‘minlovchi va nafaqat miqdor, balki iqtisodiy ko‘rsatkichlar yordamida real qo‘shilgan hissa haqida fikr yuritish imkonini beruvchi eng to‘g‘ri yondashuvdir.

Sotsiologik tadqiqot natijalaridan ko‘rish mumkin, davlat **moliyaviy resurslarning yetishmasligi** tufayli barcha ishlovchi va ishlashni xohlovchi ishsiz qishloq yoshlarini yangi mutaxassislikka yoki malakasini oshirish bo‘yicha qayta o‘qitish uchun pul mablag‘lari bilan ta‘minlay olmaydi.

Shu tufayli respondentlarning 81,6% dan ortig‘i o‘z malakalarini oshirish yoki yangi kasb o‘rganishni, davlat (25,0%), yangi ish joyi (17,9%), Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi (15,0%), homiylik (11,6%) va ijtimoiy xayriya jamg‘armalarining (4,3%) mablag‘lari hisobidan o‘zlashtirishni istashadi. Atigi 17,2% respondent o‘z malakasini oshirish va yangi kasbni egallashni ota-onalari jamg‘armasi (10,3%) va shaxsiy jamg‘arma (11,8%) hisobidan amalga oshirishni xohlaydi. Respondentlarning 4,1 foizi esa turli mablag‘lar evaziga o‘z malakalarini oshirish yoki yangi kasbni o‘rganishni ko‘zda tutishadi (4-jadval).

O‘zbekiston Respublikasi tanlangan qishloq joylarida yoshlarning o‘z malakalarini oshirish yoki yangi kasb o‘rganishni qaysi mablag‘ hisobidan amalga oshirmoqchi ekanligi (barcha respondentlarga nisbatan, % da)*

Qaysi mablag‘ hisobidan amalga oshirmoqchi ekanligi	Qishloq yoshlari, jami	Shu jumladan:	
		erkaklar	ayollar
Davlat mablag‘i	25,0	26,5	22,5
Yangi ish joyi mablag‘i	17,9	18,1	15,3
BKM jamg‘armasi mablag‘i	15,0	17,6	13,8
Homiylar mablag‘i	11,6	9,5	14,2
Ota-ona jamg‘armasi	10,3	8,1	12,8
Shaxsiy jamg‘arma mablag‘i	11,8	9,6	13,7
Ijtimoiy-xayriya jamg‘armalari mablag‘i	4,3	5,5	3,9
Boshqa mablag‘ manbalari	4,1	5,1	3,8

Manba: muallif tomonidan sotsiologik so‘rov natijalari asosida hisoblangan.

Sotsiologik tahlil natijalariga ko‘ra, **“Yoshlarning tashqi mehnat migratsiyasini samarali tashkil etish uchun nimalarga e‘tibor qaratish lozim?”** degan savolga respondentlar quyidagicha javob berdilar:

– mamlakatlar o‘rtasida fuqarolarni ishga yollash bo‘yicha maxsus bitimlarning imzolanishi kerak (30,0%);

– BKMLar tuzilmasida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun respublika tashqarisiga chiqayotgan fuqarolar bilan ishlash sektorlarining tashkil etilishi (16,4%);

– xorijda ishlashni xohlovchilar uchun aniq axborotlar bilan ta‘minlash bo‘yicha bepul xizmat ko‘rsatilishi (18,2%);

– xorijda ishlashni istovchilar uchun xorijiy tillarga va ishlab chiqarish kasblariga o‘qitish bo‘yicha bepul kurslar tashkil etilishi (18,2%);

– temiryo‘l chiptalari hamda aviachiptalar narxlariga chegirmalar taqdim etilishi (6,5%);

– transport va boshqa xarajatlar uchun tijorat banklaridan imtiyozli kredit olishlariga ruxsat berilishi (8,7%);

– boshqa yo‘nalishda (2,0%) (5-jadval).

O‘zbekiston Respublikasi tanlangan qishloq hududlari yoshlarining tashqi mehnat migratsiyasini samarali tashkil etish bo‘yicha takliflari (barcha respondentlarga nisbatan, % da)*

Takliflar	Shu jumladan:								
	Barcha tumanlar bo‘yicha	Kitob tumani	Shahrisabz tumani	Pastdarg‘om tumani	Urgut tumani	Beruniy tumani	Ellikqal‘a tumani	Zarbdor tumani	Paxtakor tumani
Mamlakatlar o‘rtasida fuqarolarni ishga yollash bo‘yicha maxsus bitimlarni imzolash	30,0	31,0	33,0	42,0	23,0	29,5	29,5	21,0	31,0
BKMLar tuzilmasida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun respublika tashqarisiga chiqayotgan fuqarolar bilan ishlash sektorlarini tashkil etish	16,4	17,0	28,5	9,0	9,0	17,5	16,5	16,5	17,0
Xorijda ishlashni xohlovchilar uchun aniq axborotlar bilan ta‘minlash bo‘yicha bepul xizmat ko‘rsatish	18,2	18,0	22,5	20,5	21,0	14,5	15,5	16,0	18,0
Xorijda ishlashni istovchilar uchun xorijiy tillar va ishlab chiqarish kasblariga o‘qitish bo‘yicha bepul kurslar tashkil etish	18,2	21,0	8,5	5,0	23,5	25,0	25,0	16,5	21,0
Temiryo‘l va aviachiptalar narxlariga chegirmalar taqdim etish	6,5	4,0	2,5	10,0	11,0	4,5	4,5	11,5	4,0
Transport va boshqa xarajatlar uchun tijorat banklaridan imtiyozli kredit olishlariga ruxsat berish	8,7	8,5	5,0	7,0	12,5	9,0	9,0	10,0	8,5
Boshqa yo‘nalish	2,0	0,5	0,0	6,5	0,0	0,0	0,0	8,5	0,5
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Manba: muallif tomonidan sotsiologik so‘rov natijalari asosida hisoblangan.

Yoshlarning **ichki mehnat migratsiyasini** samarali tashkil etish bo'yicha respondentlarning 37,8 foizini ichki mehnat migratsiyasi masalalari bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'lim tashkil qilish, 27,8% – hududning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini yaratish, 15,3% – bepul yoki imtiyozli kreditlar asosida uy-joy bilan ta'minlash, 10,0% – mutaxassisligi bo'yicha kafolatlangan ish joyi bilan ta'minlanish, 9,1% – mehnatga mos ravishda ish haqi bilan belgilangan muddatda ta'minlash uchun zarur bo'lgan sharoitlarga e'tibor qaratish lozimligi to'g'risida takliflar bildirishgan.

Hozirgi vaqtda qishloq joylarida hatto o'rta va kam ish haqi to'lanadigan ish joylari ham yetishmaydi. Bu esa yoshlar o'rtasida ishsizlik va ish qidirish muddatlarining ortishiga olib keladi.

Respublikamizning tanlangan qishloq tumanlarida ishga joylashmagan yoshlari "Yosh kadr sifatida ish qidirishda kimlarga murojaat etasiz?" degan savolga 13,8 % i ota-onasiga, 29,3 % i davlat bandlik xizmatiga, 10,4 % i nodavlat bandlik xizmatiga, 9,7 % i gazeta e'lonlariga, 15,7 % i internet veb-saytlariga, 9,7 % i bevosita korxonalarining o'ziga, 8,9 % i tanishlariga murojaat etishlarini bildirganlar.

Ayni vaqtda yoshlarning tadbirkorlik sohalariga ham qiziqishlari ortib bormoqda. Ammo mazkur faoliyatni boshlash uchun ular ko'p hollarda moliyaviy mablag' yetishmasligidan qiynalishmoqda.

Sotsiologik tahlil natijalariga ko'ra, "**Yosh tadbirkorlar banklardan kredit olishida mavjud qiyinchiliklar haqida nima deysiz?**" degan savolga respondentlar quyidagicha javob berdilar:

– yosh tadbirkorlarga bank muassasasi tomonidan kredit berish uchun me'yoridan ortiq hujjatlar talab etiladi (32,5%);

– yosh tadbirkorlar uchun bank muassasasi tomonidan kredit berishda shaffoflik ta'minlanmagan (34,5%);

– yosh tadbirkorlar uchun bank muassasasi tomonidan yuqori kredit foizi o'rnatilgan (30,0%);

– yosh tadbirkorlar uchun bank muassasasi tomonidan imtiyozli kredit foizini to'lash muddati qisqa belgilangan (17,8,0%);

– boshqa qiyinchiliklar (3,5%) (qarang: 6-jadval).

6-jadval

O'zbekiston Respublikasining tanlangan qishloq hududlarida yosh tadbirkorlar banklardan kredit olishida mavjud qiyinchiliklar tavsifi (barcha respondentlarga nisbatan, % da)*

Kredit olish qiyinchiliklari turlari	Barcha tumanlar bo'yicha	Shu jumladan:							
		Kitob tumani	Shahrisabz tumani	Pastdarg'om tumani	Urgut tumani	Beruniy tumani	Ellikqal'a tumani	Zarbdor tumani	Paxtakor tumani
Yosh tadbirkorlar uchun bank muassasasi tomonidan kredit berish uchun me'yoridan ortiq hujjatlar talab etiladi	32,5	38,5	41,5	24,5	37,0	27,0	26,0	26,5	39,0
Yosh tadbirkorlar uchun bank muassasasi tomonidan kredit berilishida shaffoflik ta'minlanmagan	34,5	36,5	39,0	26,0	39,0	36,5	37,5	24,5	37,0
Yosh tadbirkorlar uchun bank muassasasi tomonidan yuqori kredit foizi o'rnatilgan	17,8	12,0	11,0	28,8	17,5	23,0	23,0	15,5	12,0
Yosh tadbirkorlar uchun bank muassasasi tomonidan imtiyozli kredit foizini to'lash muddati qisqa belgilangan	11,7	11,5	6,5	20,7	6,5	13,5	13,5	10,5	10,5
Boshqa qiyinchiliklar	3,5	1,5	2,0	0,0	0,0	0,0	0,0	23,0	1,5
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Manba: muallif tomonidan sotsiologik so'rov natijalari asosida hisoblangan.

So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 61,8 foizi yosh kadr sifatida ishga joylashish masalasida mahalliy Bandlikka ko'maklashuvchi markazga murojaat etganlar. Ular BKM tomonidan

quyidagi asosiy xizmatlar ko'rsatilganini bildiradilar: yangi ish joyi taklif etildi (33,2%), ishsizlar ro'yxatiga kiritildi (21,9%), ishsizlik nafaqasi belgilandi (12,4%), ijtimoiy ish bilan ta'minlandi (12,5%), malaka oshirishga yordam berildi (10,2%), yangi kasb o'rganishga yordam berildi (8,3%) va boshqa xizmatlar ko'rsatildi (1,4%).

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 16-oktyabrda qabul qilingan "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi O'RQ-501-sonli Qonuniga ko'ra, respublikamizda 88 ta yuridik shaxs Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ro'yxatidan o'tkazilgan. Ulardan 65 tasiga fuqarolarni xorijga ishga joylashtirish faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya berilgan bo'lib, bugungi kunda ularning 59 tasi o'z faoliyatini yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 25-oktyabr, 2019-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, mazkur agentliklar tomonidan 1655 nafar fuqaro chet elga, 77 nafar fuqaro respublikamiz hududida ishga joylashtirildi, 33 838 nafar fuqaroga maslahat xizmati ko'rsatildi. Shu bilan birga, mazkur agentliklar faoliyatida ham ba'zi kamchiliklar ko'zga tashlanib qoldi, xususan, 65 tasiga fuqarolarni xorijga ishga joylashtirish faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya berilgan agentliklarning 30 tasi shu kunga qadar birorta ham fuqaroni chet elga ishga yubormagan va joylashtirmagan.

Shunday bo'lsa-da, qishloq yoshlarining respublikamizda faoliyat yuritayotgan Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida muayyan fikri shakllangan va u biz tomonimizdan o'tkazilgan so'rovnoma o'z aksini topgan. Mazkur sotsiologik so'rovda ishtirok etuvchi qishloq yoshlari "Siz yosh kadr sifatida ishga joylashish maqsadida qanday holatda Kadrlar Agentligi xizmatidan (nodavlat ish bilan bandlik xizmatidan) foydalanishni xohlardingiz?" degan savolga: ushbu turdagi bandlik xizmati kafolatlangan ish joyi taklif etsa (22,1%), maqbul ish haqiga ega ish joyini taklif etsa (21,4%), malakali mutaxassislar uchun bo'sh ish joylari bankiga ega bo'lsa (18,5%), qisqa muddatli ish topib bersa (15,6%), ish joyi kafolatlangan bo'lsa (14,1%), yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatsa (4,8%),

kasbga tayyorlashning zamonaviy tizimi mavjud bo'lsa (2,0%) va ish joyi haqida to'liq axborotlarga ega bo'lish imkoniyati bo'lsa (1,5%), yaxshi bo'lishini bildirishgan.

Yoshlarni ish bilan ta'minlash, ish topish va ishga yollanish munosabatlarini amalga oshirishda BKMLar vositachi sifatida mehnat bozorida muhim ahamiyat kasb etadi.

Respondentlar yoshlarni ish bilan ta'minlash uchun qishloq joylaridagi BKM inspeksiyalari quyidagi **asosiy yo'nalishlarda aktiv faoliyat** yuritishlarini ma'qullaydilar: ishsizlarni va bo'sh ish joylarini to'liq va o'z vaqtida hisobga olish (20,4%), har oyda bo'sh ish joylari yarmarkasini o'tkazish (17,0%), ishsizlarni, avvalo, ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirishga ko'maklashish (11,5%), hududda yagona mavjud bo'sh ish joylari bankini yaratish (10,3%), ishsizlarni kasbga o'rgatish va qayta o'qitishni tashkil qilish hamda yangi kasbga o'rganishga yaqindan yordam berish (9,9%), oilaviy tadbirkorlikni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash (8,2%), kasanachilik mehnati va boshqa turdagi ish bilan bandlikni rag'batlantirish (7,1%), ish bilan bandlik xizmati nodavlat sektorini rivojlantirish (6,2%), ish beruvchilar tomonidan mehnatga oid qonun, normativ huquqiy hujjatlarga rioya etishni nazorat qilish (3,8%), ishsizlar uchun ijtimoiy ishlarni tashkil etish (2,9%), ishchi kuchini rasmiy ravishda chetga chiqarishni rag'batlantirish (2,2%) va reklama faoliyatini yaxshilash (0,8%).

Yakuniy qism. Shunday qilib, aniq sotsiologik tadqiqotlar natijalari asosida respublikamizning tanlangan tumanlari qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlashning samarali tashkiliy mexanizmining asosiy ko'rsatkichlarini o'rganuvchi yangi axborotlar fondi hosil qilindi. Ular mehnat resurslari bilan ko'p va kam ta'minlangan qishloq hududlaridagi aholi, asosan, yoshlarni ish bilan ta'minlashning samarali tashkiliy mexanizmini shakllantirishga yo'naltirilgan tavsiyalar va takliflar ishlab chiqishda muhim axborot manbalari bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-5635-сонли Фармони, 2019 йил 17 январь.
2. Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги маълумотлари.
3. Социология молодежи: учебное пособие. / Под ред. проф. Волкова Ю.Г. – Ростов-на-Дону: «Феникс», 2001.
4. Холмўминов Ш.Р., Хомитов К.З., Арабов Н.У., Бобаназарова Ж.Х., Абдураманов Х.Х. Қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлашнинг самарали ижтимоий-иқтисодий механизмлари (монография). – Тошкент: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2019.



Karimova Maftuna Karimberdiyevna,
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: maftuna.karimova.88@inbox.ru

UMUMIY TA'LIM MUASSALARIDA BOLALAR ZO'RAVONLIGI TURLARI VA SHAKLLARI

Annotatsiya. Maqolada ta'lim muassasasidagi zo'rvonlik holatlarining oldini olish, uni aniqlash va tartibga solish bo'yicha normativ hujjatlarni o'rganish va mavjud vaziyatni tahlil qilish orqali umumta'lim muassalarida bolalar zo'rvonligi profilaktikasida ijtimoiy ish kasbi faoliyatining samaradorligini baholash, shuningdek, "keys menejment", "ijtimoiy o'zgarishlar agenti" rollarini tahlil qilish asosida o'rganish hamda umumta'lim muassalarida bolalar zo'rvonligi profilaktikasida ijtimoiy ish xodimining o'rni va rolini oshirishning zamonaviy usullarini takomillashtirish yuzasidan mulohaza yuritiladi.

Tayanch so'zlar: BMT, UNESCO, bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabat, zo'rvonlik, bulling, kiberbulling, tajovuzkorlik, yomon muomala.

Аннотация. В статье оценивается эффективность профессии социального работника в профилактике детского насилия в образовательных учреждениях путем анализа существующей ситуации посредством изучения нормативных документов по предупреждению, выявлению и регулированию насилия в образовательных учреждениях, а также на основе «анализа роли кейс-менеджмента», «агента социальных перемен» и совершенствования современных методов повышения роли социального работника в профилактике жестокого обращения с детьми в общеобразовательных учреждениях.

Ключевые слова: ООН, ЮНЕСКО, жестокое обращение с детьми, насилие, буллинг, кибербуллинг, агрессия, жестокое обращение.

Annotation. The article evaluates the effectiveness of the profession of a social worker in the prevention of child abuse in educational institutions by analyzing the current situation by studying the regulatory documents for the prevention, detection and regulation of violence in educational institutions, as well as "based on the analysis of the role of case management", "agent of social change" and improvement of modern methods of enhancing the role and role of a social worker in the prevention of child abuse in educational institutions.

Keywords: UN, UNESCO, Child Abuse, violence, bullying, cyberbullying, aggression, ill treatment.

Kirish. Barcha bolalarning yashashi, Krivojlanishi, tarbiyasi va ta'lim olishi uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash, ularni zo'rvonlik va zo'rvonlikdan himoya qilish har qanday davlat uchun ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalaridan biridir. Bolalarga nisbatan zo'rvonlik hech qanaqsiga oqlanmaydi va har qanday zo'rvonlikning oldini olish mumkin.

Murakkab va og'riqli tabiatga ega bu muammo yaqin vaqtgacha jahon hamjamiyati tomonidan keng muhokama qilinmagan edi. 2006-yilda nashr etilgan BMTning Bolalarga nisbatan zo'rvonlik bo'yicha Jahon hisoboti nafaqat bolalarga nisbatan zo'rvonlik ko'lamini, balki uning salbiy oqibatlarini ham har tomonlama tahlil qilish bo'yicha birinchi

xalqaro tajriba bo'ldi¹. BMTning bolalarga nisbatan zo'rvonlik bo'yicha Jahon hisobotida ta'kidlanishicha, dunyoda har o'ninchi maktab o'quvchisi maktabda zo'rvonlikka duchor bo'ladi va bu ko'rsatkich yil sayin ortib bormoqda.

Asosiy qism. UNESCOning "Maktabdagi zo'rvonlik va bulling" global hisobotiga ko'ra, har yili dunyo bo'ylab 246 million nafarga yaqin bolalar va o'smirlar maktab zo'rvonligi va bezoriligiga duchor bo'lishadi. Zo'rvonlikdan jabr ko'rgan o'quvchilar ulushi mamlakatga qarab o'quvchilar umumiy sonining 10% dan 65% gacha o'zgarib turadi. 2016-yilda 18 mamlakatda 100 000 nafar yoshlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, ularning uchdan ikki qismi maktabda haqoratlangan². Yevropa va Shimoliy Amerikada har to'rt yilda bir marta o'tkaziladigan "Maktab yoshidagi bolalarning salomatlik xulq-atvori" bo'yicha so'rov natijalariga (2009–2010-yillarda) ko'ra, so'ralgan 11 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarning o'rtacha uchdan bir qismi maktabda zo'rvonlikka duchor bo'lgan, ya'ni janjallarda qatnashgan, ojizlarga ozor bergan yoki bezorining qurboniga aylangan³.

O'zbekistonda bolalarni himoya qilish tizimining tarkibiy qismlari institutsional darajada mavjud bo'lib, bolalarni himoya qilish kompleks normativ-huquqiy baza bilan tartibga solinadi. Jumladan, milliy ustuvor yo'nalishlar 2017–2021-yillar uchun rivojlanishning milliy strategiyasida bayon etilgan bo'lib, 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi doirasida Barqaror rivojlanish maqsadlarining (BRM) 16.2-sonli bandida "Bolalarga nisbatan zo'rvonlikning har qanday shakllarini to'xtatish"ni amalga oshirishga o'z hissasini qo'shish nazarda tutiladi⁴.

¹ В 2006 г. на 61-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН Генеральный секретарь ООН представил Доклад независимого эксперта для проведения исследования ООН по вопросу о насилии в отношении детей // http://www.unicef.org/violencestudy/reports/SG_violencestudy_ru.pdf.

² Глобальный доклад о положении дел «Насилие и буллинг в школе». ЮНЕСКО, 2016. // <http://unesdoc.unesco.org/images/0024/002469/246970e.pdf>

³ Исследование «Поведение детей школьного возраста в отношении здоровья»: международный отчет по результатам обследования 2009/2010 гг. Европейское региональное бюро ВОЗ, 2012. // http://www.euro.who.int/_data/assets/pdf_file/0010/181972/E96444-Rus-full.pdf?ua=1%20C

⁴ Баркарор ривожланиш мақсадлари (2019 йил). "Болаларга нисбатан зўравонлик". Манбадан

2016-yildan boshlab O'zbekiston bolalarni himoya qilish bo'yicha o'z huquqiy bazasini va amaliyotini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish borasida ahamiyatli ishlarni amalga oshirdi. 2008-yilda qabul qilingan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun bolaning bolaga nisbatan zo'rvonligining barcha shakllaridan himoya qilinish va oilaviy muhitga bo'lgan huquqlarini belgilab bergan. Himoya haqidagi moddalar bolalarni himoya qilish tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tuzilma va xizmatlar uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi boshqa qonunlarga ham kiritilgan. 2019-yilda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ulkan yutuq sifatida tan olindi. Bundan tashqari, 2019-yilda erkak va ayollarning nikoh yoshlarini 18 yosh qilib tenglashtirish maqsadida (avval nikoh yoshi erkaklar uchun o'n sakkiz yosh, ayollar uchun o'n yetti yosh etib belgilangan edi) Oilaviy kodeks qayta ko'rib chiqildi. Shuningdek, 2016-yildan e'tiboran mahalliy jamoalar miqyosida qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish orqali oilani qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlashga, ijtimoiy ish kasbini rivojlantirishga va voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatlarning oldini olishga bo'lgan e'tibor kuchaytirildi.

Biroq ko'rib chiqilayotgan masala sohalari bo'yicha xilma-xil nashrlarning ko'pligiga qaramay, bugungi kunda umumiy ta'lim sohasida zo'rvonlikni tushunishning ijtimoiy-psixologik muammolari bo'yicha ishlar deyarli yo'q. Umuman olganda, muammoning dolzarbligi va fandagi rivojlanish darajasini tahlil qilish quyidagi qarama-qarshiliklarni aniqlash imkonini beradi:

– umumta'lim muassasasida zo'rvonlik muammosining mavjudligi, ilmiy adabiyotlarda "zo'rvonlik", "tajovuzkorlik", "yomon muomala" tushunchalari o'rtasida aniq farqlanishining mavjud emasligi;

– zo'rvonlikning rivojlanishiga yordam beruvchi omillarning mavjudligi va ularning bolalarga ta'sirini aniqlaydigan tadqiqotlarning yetishmasligi.

Ta'lim muassasalaridagi zo'rvonlik – keng tarqalgan va jiddiy oqibatlariga olib keladigan global muammo. Ba'zi madaniy an'analarda,

куйидаги манзил бўйича фойдаланиш мумкин: <https://sustainabledevelopment.un.org/topics/violenceagainstchildren> (2019-yil 20-sentyabr holatiga)

ta'lim muassasalarida bolalarning tajovuzkor xatti-harakatlari yoki o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga og'riq keltirish yoki jismoniy va psixologik choralarni qo'llash me'yoriy "standart amaliyot" deb hisoblanadi.

Biroq zo'ravonlik davomatga, o'quvchilarning bilim olish qobiliyati va motivatsiyasiga, pirovardida ularning o'quv faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Zo'ravonlik tufayli bolalar ta'lim muassasasini muddatidan oldin tark etadilar va shu bilan o'zlarini to'liq ta'lim olish huquqini amalga oshirish imkoniyatidan mahrum qiladilar.


Muammoning kattaligi va murakkabligiga qaramay, ta'lim tizimi zo'ravonlikning oldini olish uchun katta imkoniyatlarga ega. Uning kasbiy va tashkiliy resurslari, ijtimoiy ta'sir doirasi o'zaro hurmat va shaxslararo munosabatlar hamda qo'shma munosabatlarda zo'ravonlikning oldini olishga asoslangan tadbirlar xulq-atvor modelini shakllantirish uchun ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga kompleks va tizimli ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.

Zo'ravonlikning turli xil ta'riflari mavjud. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) zo'ravonlikni qasddan qaratilgan jismoniy kuch yoki hukmronlikdan foydalanish sifatida belgilab, real yoki tahdid shaklida o'zingiz yoki boshqa shaxs yoki shaxslar guruhiga yetkaziladigan tan va ruhiy jarohat hamda rivojlanish nuqsonlar o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa zararli oqibatlar sifatida tushuniladi⁵.

Zo'ravonlik boshqa harakatlardan qasddan qilinganlik xarakteri bilan farq qiladi. Tasodifiy yiqilish, yo'l-transport hodisasi natijasida olingan jarohatlar hamda jismoniy yoki ruhiy shikastlanish zo'ravonlik hisoblanmaydi. O'z-o'zini himoya qilish uchun kurashda berilgan zarba jismoniy yoki boshqa zarar yetkazish o'z-o'zidan paydo bo'ladigan harakatdir. Agar himoyachi qasddan qilmagan bo'lsa, bunga zo'ravonlik sifatida qarash mumkin emas.

Ta'lim muassasasidagi zo'ravonlik deganda, ta'lim dargohi hududida yoki uning binolarida darslar, tanaffuslar davomida sodir bo'lgan, shuningdek, ta'lim muassasasi tomonidan


o'tkaziladigan tadbirlarda, darsdan tashqari mashg'ulotlar (ekskursiyalar)da rejalashtirilgan yoki o'z-o'zidan sodir bo'ladigan tajovuz va agressiv harakatlar tushuniladi. Ta'lim muassasasida o'qituvchilar, boshqa xodimlar, o'quvchilar va ularning ota-onalari zo'ravonlik subyektlari bo'lishi mumkin. Yuqoridagi guruhlarining har birining vakili zo'ravonlik harakatlarining tashabbuskori, jabrlanuvchisi yoki guvoh bo'lishi mumkin (1.1-rasm).



1.1-rasm. Zo'ravonlik ishtirokchilari

Ta'lim muassasasida turlariga qarab sodir bo'ladigan zo'ravonlik jabrlanuvchiga nisbatan tajovuzkor harakatlar jismoniy, psixologik (emotsional), jinsiy yoki e'tiborsizlik kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Shuningdek, zo'ravonlikka noto'g'ri fikrda namoyon bo'ladigan har qanday asosda kamsitishni o'z ichiga oladigan munosabat va faoliyat sifatida ham baho berish mumkin. Zo'ravonlik tabiatiga ko'ra, alohida, bir martalik zo'ravonlik harakatlari va tizimli, muntazam ravishda takrorlanadigan, misol uchun, *bulling* kabilarga ajratiladi. Nisbatan yangi, ammo keng tarqalgan zo'ravonlikni ajratish uchun virtual makonda zo'ravonlik shaklining "*kiberbulling*" atamasi ishlatiladi. Ko'pchilikda dominantga muvofiq zo'ravonlik holatlari (uning har qanday shaklida), gender komponenti gender zo'ravonlik bilan ajralib turadi (2-rasm)da zo'ravonlikning turlari tasnifi ko'rsatilgan).

⁵ Насилие и его влияние на здоровье. Доклад о ситуации в мире. ВОЗ, 2003. // http://www.who.int/violence_injury_prevention/violence/world_report/en/full_ru.pdf (дата обращения 30.09.2017).



1.2-rasm. Zo'ra'vonlik turlari

Jismoniy zo'ra'vonlik – shafqatsizlik va bolaga og'riq beruvchi hamda uning sog'lig'i va rivojlanishiga zarar yetkazuvchi insoniyatga mos bo'lmagan maqsadga yo'naltirilgan boshqa xatti-harakatlar tushuniladi, jumladan:

- bolaga yetkazilgan har qanday tan jarohati yoki og'riq berish (urish, chimchilash, tishlash, kuydirish, bolani bo'g'ish yoki cho'ktirish);
- bolaga tan jarohati yetkazilishiga qarshilik qilmaslik;
- bolani har qanday jismoniy jazolash – tarsaki, kaltaklash, tahqirlash;
- bolani dori yoki boshqa kimyoviy vositalar yordamida zaharlash.

Jismoniy zo'ra'vonlik jismoniy va ruhiy shikastlanishga, jarohat yoki o'z joniga qasd qilish natijasida yaralanish yoki nogironlikka va hatto vafot etishga olib kelishi mumkin. Shunga qaramasdan, qonunchilikdagi taqiqlar, o'qituvchilar va ta'lim muassasasining boshqa xodimlari ba'zan intizomni saqlash yoxud o'quvchilarni jazolash uchun jismoniy choralarga murojaat qiladi. Bunda ular ko'pincha shapaloq yoki zarbalardan foydalanadilar. Ularni noqulay holatda qolishga majbur qilish, qo'l yoki biror bir narsa bilan itarish, bolalarni burchakka qo'yish kabi ko'rinishlarda ham bo'lishi mumkin. Ta'lim tashkilotidagi o'quvchilarning ko'pchiligi mulkni (kiyim-kechak, o'quv qurollari, shaxsiy buyumlar, telefonlar va boshqalar) va pulni majburan tortib olish kabi tajovuzga duch keladi. Bu asosan bir martalik yoki muntazam pul talab qilish uchun bosim va majburlash, shu jumladan jismoniy kuch bilan repressiya qilish tahdidi, ba'zi ma'lumotlarning oshkor etilishi, mish-mishlar va g'iybatlarning tarqalishi, ya'ni tovlamachilik orqali o'zini namoyon

qiladi. Bunday harakatlar jabrlanuvchiga nafaqat moddiy, jismoniy va ma'naviy azob-uqubatlar (og'riq, qo'rquv, tahqirlash), balki ma'naviy zarar ham yetkazadi.

Jinsiy zo'ra'vonlik – kattalarning jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun bolalardan foydalanish. Bolani jinsiy foliyatga jalb qilish uchun tahdid, kuch, ayyorlik va ishonchdan foydalanish;

- bola bilan har qanday jinsiy aloqa yoki munosabatlar (kuch ishlatgan holda yoki ishlatmasdan);
- bolani jinsiy aloqaga jalb qiluvchi har qanday xulq-atvor;
- seksual tavsifdagi har qanday xatti-harakatlar – o'yinlar, suhbatlar, foto va video tasvirlarni tomosha qilish;
- seksual g'arazgo'ylik – bolani seksual maqsadda sotish, pornografik foto va videotasvirlarda foydalanish;
- fohishabozlikka jalb qilish.

Emotsional (ruhiy) zo'ra'vonlik deganda, bolaga lozim darajada e'tibor bermaslik, g'amxo'rlik qilmaslik, qo'llab-quvvatlamaslik, hissiy yaqinlik ko'rsatmaslik tushuniladi. Psixologik zo'ra'vonlik qasddan shaxsni rad etish, nazorat qilish yoki ijtimoiy izolyatsiya qilish, e'tiborsizlikka va kamsitishga qaratilgan og'zaki va kombinatsiyalangan xatti-harakatlar tizimi.

Psixologik zo'ra'vonlik masxara qilish, laqab qo'yish (haqoratli, taxalluslar berish) masxara qilish, muloqot qilishdan bosh tortish, guruhdan, o'yindan, sportdan chetlashtirish yoki boshqa voqea, shuningdek, haqorat, qo'pol va kamsituvchi bayonotlar orqali, insonning o'zini o'zi qadrlashi va hurmatiga putur yetkazadigan qasam ichish, uni “arzimas” ekanligiga ishontirish, tengdoshlari yoki butun jamiyat tomonidan rad etilishi yoki uning shaxsiyatining qadrsizlantirilishi orqali namoyon bo'lishi mumkin. Jismoniy va psixologik zo'ra'vonlik ko'pincha *qo'rqitish – tahdidlar* bilan boshlanadi, jumladan:

- og'zaki yoki yozma (shu jumladan, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar orqali);
- jismoniy hujumlar va qo'rquvni uyg'otishga qaratilgan boshqa harakatlar;
- jabrlanuvchini bo'ysundirish, uni har qanday harakatga majburlash.

Qo'rqitish jabrlanuvchining haqiqiy yoki idrok etilgan kuch nomutanosibligiga asoslangan. Agar

huquqbuzar tegishli javob olmasa, qoida tariqasida, u yana va yana qo‘rqitishga murojaat qiladi, bu tizimli bo‘ladi.

Bola doimiy ravishda e‘tibor va mehrning yetishmasligini his qilib turadi, tahdid va kamsitishlarga duchor bo‘ladi va bu o‘z qadrdimmatini bilmaslik va o‘ziga ishonchsizlikning oshishiga olib keladi, xususan:

- yolg‘on, tahdid, qo‘rqitish, kamsitish, haqorat qilish, so‘kish;
- boladan voz kechish, izolyatsiya qilish;
- noijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish va majburlash;
- bola bajara olmaydigan ishlarni bajarishini asossiz talab qilish;
- bolaning me‘yorida rivojlanishiga to‘siq bo‘luvchi ortiqcha g‘amxo‘rlik;
- kattalar tomonidan berilgan va‘dalarning bajarilmasligi bola ishonch tuyg‘usining buzilishi kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Ehtiyotsiz munosabat (befarqlik) – bolaning jismoniy, ruhiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatilishiga olib keluvchi hayotiy ehtiyojlarni qondirilmaligi bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- e‘tibor va qarovsiz, xavf ostida qoldirish;
- bola ehtiyojlariga nisbatan befarqlik (ovqatlanishga, tibbiy ko‘makka, ta‘limga, muloqotga, rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojlarining qondirilmaligi);
- hissiy yaqinlikning yo‘qligi (undan voz kechish);
- mavjud tahdiddan bolani himoya qila olmaslik (istamaslik).

Ekspluatatsiya – boladan o‘z manfaati yo‘lida foydalanish – og‘ir mehnat yoki seksual maqsadda ularni olib chiqib ketish, sotish.

Adabiyotlarda sinonimlar sifatida “zulm” va “nomunosib munosabat” so‘zlari ishlatiladigan “bolalarga nisbatan zulm” tushunchasi (ингл. Child Abuse) Butunjahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan 1999-yilda taklif etilgan quyidagi ta‘rifga tayanadi⁶:

“Zulm” yoki “bolalar bilan qo‘pol muomalada bo‘lish” “...bolaning sog‘lig‘iga, yashashiga, rivojlanishi va layoqatiga amaliy zarar keltiradigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan barcha

⁶ “Ўзбекистонда болаларни нолойиқ муносабатдан мухофаза қилиш тизими” тренинги материаллари асосида. Save the Children (UK), 2003.

turdagi jismoniy va/yoki emotsional salbiy munosabat, jinsiy zulm, ehtiyotsiz yoki befarq munosabat, kommersiya yoki boshqa maqsadlardagi ekspluatatsiya”ni anglatadi.

Demak, xalqaro amaliyotda qabul qilingan “bolaga nisbatan zulm” atamasi o‘zida “ehtiyotsiz munosabat” hamda “tashlab qo‘yilganlik” (ingl., Neglect) tushunchalarini ham o‘zida mujassam etadi.

O‘zbekistonda “bolalarga nisbatan zulm va ehtiyotsiz munosabat” tushunchasi, avvalo, qonuniy asosga tayanadi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, zulm deganda ehtiyotsiz va loqayd munosabatda bo‘lish nazarda tutilmaydi.

Zulm va loqayd munosabat quyidagicha ta‘riflanadi:

Bolaga nisbatan zulm – bolaning ixtiyoriga zid ravishda yoki uning ko‘makka muhtoj holatidan foydalanib, uning shaxsiy daxlsizlik huquqini buzuvchi jismoniy, jinsiy va ruhiy ta‘sir ko‘rsatishdir. Mazkur ta‘rifga binoan, zulmning jismoniy, jinsiy va ruhiy ko‘rinishlari ajratib ko‘rsatiladi.

Bolaga loqayd munosabatda bo‘lish deganda ota-onalar yoki ularni o‘rnini bosuvchi kishilar, shuningdek, boshqa shaxslar tomonidan bolalarni boqish, tarbiyalash, sog‘lom turmush kechirish sharoitlarini yaratish, to‘la ma‘lumot olish va shu kabilarni ta‘minlashga doir o‘z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik tushuniladi.

Bolalarga nisbatan nолойиқ munosabat zo‘ravonlikning quyidagi turlari mavjud:

Zo‘ravonlik sabablari

Dastlab bolaga zo‘ravonlik namoyon etishning sababi ota-onalarning psixologik og‘ishi deb hisoblandi, keyin diqqat ijtimoiy kontekstga ko‘chirildi, bundan xatar omili ota-onaning bolaga zo‘ravonlik munosabatini shartlovchi qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy yakkalanishda yashirin ekanligi haqidagi xulosa kelib chiqdi. So‘ng zo‘ravonlikni ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarning buzilgan interfaol ijtimoiy modeli sifatida sharhlashdi.

Keyingi tadqiqotchilar xatar omillarini shaxs, oila va jamiyat darajasida aniqladilar va bir omil emas, balki ularning o‘zaro ta‘siri bolalar ustidan zo‘ravonlik o‘tkazishga olib kelishini isbotladilar. Shuningdek, ular u yoki bu xatar omilining

mavjudligi zo‘ravonlikni namoyon etish degani emas, balki uning paydo bo‘lish ehtimoli yoki imkoniyati borligi ekanini ta’kidladilar. Bunda bir necha ijobiy omillarning mavjudligi (ijtimoiy ko‘nikmalar, “Men”ning ijobiy identifikatsiyasi va hokazo) xatar omilining ta’sirini kamaytiradi.

JISMONIY ZO‘RAVONLIK BELGILARI:

- ko‘kargan, tishlangan, kuygan, chandiqlik joylarning kutilmagan joylarda mavjudligi; bo‘g‘ish izlari;
- ota-onalar tomonidan qiyin izohlangan lat yeyishlar, jumladan, sinish;
- o‘z-o‘zini past baholash;
- uyga borishga qo‘rqish;
- ko‘kargan joylarni bekituvchi kiyim kiyib yurish;
- bolaning o‘zini zo‘ravonlik keltirib chiqarganlikda ayblash;
- bola qo‘rqoq, xafa va jahldor bo‘lib qolishi;
- urish va turtkilashni oilada tartibni saqlash usuli deb hisoblash;
- kattalar baland ovozda gaplashganda qo‘rquv va hayajonlanishni his qilish va hokazo.

JINSIY ZO‘RAVONLIK BELGILARI:

- jinsiy munosabatlar haqida yoshiga mos bo‘lmagan bilimlarga ega bo‘lish;
- ko‘karish, qichish, jinsiy a’zolar sohasida qon mavjudligi;
- yurish va o‘tirishda qiynalish;
- to‘xtovsiz o‘z-o‘zini lazzatlantirish (masturbatsiya);
- bolaning xulq-atvoridagi kutilmagan keskin o‘zgarish;
- xulq-atvorida hirsni qo‘zg‘atuvchi xatti-harakatlarning paydo bo‘lishi;
- ishtahaning yo‘qolishi yoki ko‘p yeyish;
- uyquning buzilishi, tungi qo‘rquvlar;
- o‘z tanasidan nafratlanish;
- kattalarga nisbatan ortiqcha bo‘ysunuvchanlik;
- ba’zan o‘z joniga qasd qilish yoki shu haqidagi xayollar bilan kechuvchi chuqur tushkunlik holati;
- uyga borishni istamaslik, uydan qochish;
- huquqbuzarlikka moyillik, dars qoldirish;

- alkogolli yoki giyohvand vositalarni iste’mol qilish;
- tartibsiz jinsiy aloqa;
- tanosil kasalliklar;
- homiladorlik va hokazo.

EMOTSIONAL (RUHIY) ZO‘RAVONLIK BELGILARI:

- o‘z-o‘zini past baholash, o‘zini hech kim yaxshi ko‘rmaydigan, keraksiz deb hisoblash;
- bola ota-onasi uni kamsitayotgan, tanqid qilayotgan, uydan haydash bilan qo‘rqitayotgan deb hisoblashi;
- bola xafa va hayajonlangan bo‘lishi;
- jismoniy zo‘ravonlikni kutishi;
- nutqiy rivojlanish va tushunishda tutilish;
- mantiqiy fikrlay olmaslik, qo‘yilgan vazifani hal qila olmaslik, sabab va oqibatni qidirishi;
- kattalarga hurmatsizlik va ishonchsizligi;
- tengdoshlariga, aka-uka va opa-singillariga nisbatan tajovuzkorligi;
- himoya sifatida kattalarning xulq-atvorini hamda mustaqilligini namoyon qilishi;
- o‘z joniga qasd qilishga urinishi;
- unga ko‘rsatilayotgan yordamning beg‘arazligiga ishonchsizligi;
- muvaffaqiyat va xursandchilikni ich-ichidan his qila olmaydi, o‘zini yaxshi hayotga loyiq emas deb hisoblashi va hokazo.

Xulosa. Xorijiy tajribaning asosiy xususiyati shundaki, bolalarni oiladagi zo‘ravonlikdan himoya qilish mas’uliyati va funksiyalari ijtimoiy ish mutaxassislari zimmasiga tushadi. Biroq ijtimoiy ishchilar faqat doimiy ravishda qiyin va xavfli hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalar bilan ishlaydi. Bunday hollarda faqat ijtimoiy ish xodimgina aybdorga eng qat’iy talablarni qo‘yish imkoniyati va to‘liq huquqiga ega⁷.

Chet elda ijtimoiy xodimlar keng vakolatlarga ega. Shuningdek, ushbu mamlakatlarda oilada bolalarga nisbatan zo‘ravonlik muammosini imkon qadar hal qilish asosiy vazifa hisoblanadi.

Shunday qilib, xorijiy davlatlarning zo‘ravonlikning oldini olish va ularga yordam

⁷ Кошелева А. Д., Алексеева Л. С. Психологическое насилие над ребенком в семье, его причины и следствия // Насилие в семье: с чего начинается семейное неблагополучие. – Москва: ГосНИИ семьи и воспитания, 2000. – С. 21-69.

ko'rsatish tajribasi bolani tarbiyalash jarayonida ota-onalarga samarali va tezkor yordam ko'rsatishni, shuningdek, moddiy yordamni, turmush sharoitini yaxshilashni, bolaga yordam berishni, ta'lim, ish bilan ta'minlash; oila ichidagi adekvat munosabatlarni saqlashda yordamga muhtoj bo'lgan tezkor javobni nazarda tutadi.

Mamlakatimizda ushbu muammoni hal qilish uchun ta'lim muassasasida bolalarga nisbatan zo'rvonlik muammosini hal qilishga barcha sa'y-harakatlarni yo'naltiradigan boshqa mamlakatlarda sinovdan o'tgan va amalga oshirilgan usul va dasturlardan foydalanish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir, bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli fakultativ protokolga (Nyu-York, 2000-yil 25-may) qo'shilishi haqida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni.
4. Ким Л., Исаева Д. "Практика социальной работы с детьми и семьями". – Тошкент, 2008.
5. Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности. – Москва: АСТ, 2004.
6. Юнг К.Г. Архетип и символ / Перевод: В.В. Зеленский. – Москва: Ренессанс, 1991. – 215 с.
7. Энциклопедия социальной работы. В 3-х томах. Т.1: пер. с англ. – Москва: Центр Общечеловеческих ценностей, 1993.
8. Дегтярев А.В. Семейное насилие. Факторы риска, диагностика, психотерапия // Психология и право. 2012. № 4. – С. 78.
9. Сафонова Т.Я., Сымбал Е.И. Жестокое обращение с детьми. Помощь детям, пострадавшим от жестокого обращения и их родителям. – Москва, 2001.
10. Насилие и его влияние на здоровье. Доклад о ситуации в мире. ВОЗ, 2003. // http://www.who.int/violence_injury_prevention/violence/world_report/en/full_ru.pdf (data obrazeniya 30.09.2017).
11. Лапа В.Г. Видение проблемы жестокого обращения с детьми за рубежом // Вестник Восточно-Сибирского института МВД России. 2011. № 1. – С. 101.
12. Sammon E. M. (2017). "O'zbekistonda bolalarni himoya qilish tizimi: hozir va kelajakda". UNICEF, Toshkent.
13. Tadjiyeva S., Sabirova D.. "Oila va bolalar bilan ijtimoiy ish". Kurs o'tkazish uchun xrestomatiya. – Toshkent, 2014
14. Ijtimoiy ishchining kasbiy talqini. – Toshkent, 2009.
15. В 2006 году на 61-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН Генеральный секретарь ООН представил Доклад независимого эксперта для проведения исследования ООН по вопросу о насилии в отношении детей // http://www.unicef.org/violencestudy/reports/SG_violencestudy_ru.pdf.
16. Глобальный доклад о положении дел «Насилие и буллинг в школе». ЮНЕСКО, 2016 // <http://unesdoc.unesco.org/images/0024/002469/246970e.pdf>
17. Исследование «Поведение детей школьного возраста в отношении здоровья: международный отчет по результатам обследования в 2009/2010 гг. Европейское региональное бюро ВОЗ, 2012 // http://www.euro.who.int/__data/assets/pdf_file/0010/181972/E96444-Rus-full.pdf?ua=1%20S
18. Barqaror rivojlanish maqsadlari (2019 y.). "Bolalarga nisbatan zo'rvonlik" // <https://sustainabledevelopment.un.org/topics/violenceagainstchildren>



Abduramanov Xamid Xudaybergenovich,

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti direktori o‘rinbosari, i.f.d., prof.

e-mail: khamid.abduramanov@bk.ru

DEMOGRAFIK RIVOJLANISHNING NORMATIV-HUQUQIY VA INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida demografik rivojlanishni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Shuningdek, demografik jarayonlarni o‘rganish va tahlil qilishning institusional asoslari keltirilgan hamda demografik rivojlanishning normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: aholini ro‘yxatga olish, demografik rivojlanish, migratsiya, oilani rejalashtirish, reproduktiv salomatlik, tug‘ilish, o‘lim.

Аннотация. В статье проводится анализ нормативно-правовых документов, направленных на регулирование демографического развития в Республике Узбекистан. Также представлены институциональные основы изучения и анализа демографических процессов, разработаны научные предложения и рекомендации по совершенствованию нормативно-правовой базы демографического развития.

Ключевые слова: перепись населения, демографическое развитие, миграция, планирование семьи, репродуктивное здоровье, рождение, смерть.

Annotation. The article analyzes legal documents aimed at regulating demographic development in the Republic of Uzbekistan. The institutional framework for the study and analysis of demographic processes is also presented, scientific proposals and recommendations for improving the regulatory framework for demographic development are developed.

Key words: census, demographic development, migration, family planning, reproductive health, birth, death.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining demografiya sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasi 20 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlardan iborat bo‘lib, ular ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini o‘z ichiga olgan.

Xususan, ilk bora demografik ma‘lumotlar har bir shaxsning axborotni erkin va moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, foydalanish va saqlash huquqlarining obyekt sifatida 2002-yil 12-dekabrda “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi 439-II-son Qonunida

belgilangan bo‘lib, uning 6-moddasida demografik ma‘lumotlar maxfiy ma‘lumotga kirmasligi ta‘kidlangan¹.

Oradan o‘n to‘qqiz yil o‘tib, 2021-yilning 11-avgustida “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘RQ-707-son Qonuni bilan “rasmiy statistika ma‘lumotlari” tushunchasiga ta‘rif berilib, unda statistika kuzatuvlari natijasida va (yoki) ma‘muriy ma‘lumotlar asosida tayyorlangan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil 1-son, 2-modda

ekologik xususiyatga hamda boshqa xususiyatga ega axborot sifatida ko'rsatildi. Shuningdek, ushbu Qonunning 24-moddasida ro'yxatga olish mamlakatni demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ayrim xususiyatlari hamda yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning muayyan hududlarida amalga oshirilishi mumkinligi belgilandi².

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan islohotlar demografiya sohasida ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Demografiyaning huquqiy ta'lim institusional asoslari takomillashtirildi. Xususan, 2019-yil 5-fevraldagi PF-5655-son Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasi qabul qilingan bo'lib, unda aholini ro'yxatga olishni o'tkazishning asosiy vazifalaridan biri sifatida aholi tarkibidagi global o'zgarishlarni baholash, demografik siyosatni, aholi sog'lig'ini mustahkamlash, ayollar va bolalar ahvolini yaxshilash va oilalarga yordam ko'rsatish chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun axborotlar bazasini kengaytirish belgilandi. So'ngra 2020-yil 16-martdagi "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi O'RQ-611-son Qonuni qabul qilinib, unda aholini ro'yxatga olish tizimi, shu jumladan, uni tashkil etish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar qonun darajasida tartibga solindi. Mazkur Qonunda

² Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.08.2021, 03/21/707/0780-son

"aholini ro'yxatga olish" tushunchasiga ta'rif berildi, shuningdek, mamlakatning demografik vaziyatdagi o'zgarishlarni baholashga doir ma'lumotlar bazasini kengaytirish aholini ro'yxatga olishning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi³.

Qolaversa, mazkur Qonun bilan aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy holatining asosiy ko'rsatkichlarini tavsiflovchi yakuniy ma'lumotlar jismoniy va yuridik shaxslar uchun ochiqdir hamda ular ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi va maxsus vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytiga joylashtirilish lozimligi qayd etildi.

Aholi bandligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda kasbga o'qitishga doir davlat buyurtmasi O'zbekiston Respublikasining demografik tahlili va demografik rivojlanish prognozlaridan kelib chiqqan holda kelgusi yil uchun shakllantirilishi 2020-yil 20-oktabrdagi "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'RQ-642-son Qonunda ko'rsatilgan⁴. Shuningdek, maktabgacha ta'lim sohasidagi pedagogning kasbiy standarti hududlarning madaniy, demografik va boshqa xususiyatlari inobatga olingan holda talablar bilan to'ldirilish mumkinligi haqida 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonun bilan belgilandi⁵.

Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan islohotlar demografiyaning institusional asoslarini takomillashtirdi (jadval).

³ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.03.2020, 03/20/611/0322-son

⁴ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020, 03/20/642/1396-son

⁵ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son

O'zbekistonda demografik jarayonlarni o'rganish va tahlil qilishning institusional asoslari*

№	Demografik tahlillar/asosiy muammo va masalalar	Shug'ullanuvchi tashkilot/idoralar	Manba	Davriyligi
1.	Aholi soni dinamikasi va tarkibi	Statistika agentligi, analitik markazlar, xalqaro tashkilotlar	Statistika agentligi ma'lumotlari	Choraklik/yillik
2.	Nikoh va oila munosabatlari	Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti <i>Qisman:</i> Statistika agentligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Adliya vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi	Statistika agentligi ma'lumotlari	Choraklik/yillik

№	Demografik tahlillar/asosiy muammo va masalalar	Shug'ullanuvchi tashkilot/idoralar	Manba	Davriyligi
3.	Mehnat bozori, bandlik, ishsizlik darajasi	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi <i>Qisman:</i> Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Statistika agentligi ma'lumotlari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari, ijtimoiy so'rovlar	Choraklik/ yillik
4.	Ishga joylashtirish	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi <i>Qisman:</i> Statistika agentligi	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi	Oylik
5.	Aholining joylashuvi va mobilligi	Iqtisodiyot va moliya vazirligi <i>Qisman:</i> Statistika agentligi	Statistika agentligi ma'lumotlari	Choraklik/ yillik
6.	Urbanizatsiya va aholining hududiy taqsimlanishidagi o'zgarishlar	Iqtisodiyot va moliya vazirligi <i>Qisman:</i> Statistika agentligi	Statistika agentligi ma'lumotlari	Choraklik/ yillik
7.	Aholining uy-joy bilan ta'minlanishi, infratuzilma hamda davlat xizmatlari ko'rsatilishi	Iqtisodiyot va moliya vazirligi <i>Qisman:</i> Tegishli vazirlik va idoralar	Markaziy va mahalliy davlat organlari ma'lumotlari, Statistika agentligi ma'lumotlari	Aniqlik mavjud emas
8.	Aholi daromadlari	Iqtisodiyot va moliya vazirligi <i>Qisman:</i> Statistika agentligi	Statistika agentligi ma'lumotlari	Choraklik/ yillik
9.	Kambag'allikni qisqartirish	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi <i>Qisman:</i> Tegishli vazirlik va idoralar	Statistika agentligi ma'lumotlari, ijtimoiy so'rovlar	Choraklik/ yillik
10.	Ichki migratsiya	Iqtisodiyot va moliya vazirligi <i>Qisman:</i> Statistika agentligi, Ichki ishlar vazirligi	Statistika agentligi ma'lumotlari	Choraklik/ yillik
11.	Xalqaro migratsiya	Statistika agentligi, Ichki ishlar vazirligi, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi <i>Qisman:</i> Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi	Statistika agentligi ma'lumotlari, Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlari, Mehnat migratsiyasi agentligi ma'lumotlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi; Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlari	Choraklik/ yillik
12.	Reproduktiv salomatlik bilan bog'liq vaziyatdagi o'zgarishlar	Sog'liqni saqlash vazirligi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi <i>Qisman:</i> Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Statistika agentligi ma'lumotlari, Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlari	Choraklik/ yillik

№	Demografik tahlillar/asosiy muammo va masalalar	Shug'ullanuvchi tashkilot/idoralar	Manba	Davriyligi
13.	Bolalar va onalar o'limidagi o'zgarishlar	Sog'liqni saqlash vazirligi <i>Qisman:</i> Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Statistika agentligi ma'lumotlari, Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlari	Choraklik/ yillik
14.	Kasallanish va o'lim	Sog'liqni saqlash vazirligi <i>Qisman:</i> Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Statistika agentligi ma'lumotlari, Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlari, Adliya vazirligi ma'lumotlari	Choraklik/ yillik
15.	Tug'ilish	Sog'liqni saqlash vazirligi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi <i>Qisman:</i> Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Statistika agentligi ma'lumotlari, Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlari, Adliya vazirligi ma'lumotlari	Choraklik/ yillik
16.	Aholining yosh tarkibidagi o'zgarishlar	Sog'liqni saqlash vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi <i>Qisman:</i> Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Statistika agentligi ma'lumotlari, Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlari	Choraklik/ yillik
17.	O'smirlar va yoshlar hamda ularning ustuvor guruh sifatida paydo bo'lishi	Yoshlar ishlari agentligi <i>Qisman:</i> Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi	Statistika agentligi ma'lumotlari, Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlari	Muntazam
18.	Aholi savodxonligi	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Statistika agentligi	Statistika agentligi ma'lumotlari	Choraklik/ yillik

*Jadval muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida tayyorlangan.

Bu, o'z navbatida, aholi demografiyasini tadqiq qilishning davlat va nodavlat sektorlari yaratilishiga xizmat qilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-fevraldagi "Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5667-son Farmon bilan O'zbekiston sotsiologlari assotsiatsiyasi tashkil etilib, uning vazifalaridan biri sifatida O'zbekistonda va xorijda demografik jarayonlarni o'rganish va tahlil qilishga ko'maklashish belgilandi⁶.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-apreldagi "Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ilmiy yondashuvlarni kengaytirish va boshqaruv kadrlarini tayyorlash

tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-108-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prognozlashtirish va hududiy tadqiqotlar institutining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlaridan biri etib "Mamlakatda iqtisodiy ko'rsatkichlarni doimiy ravishda hududlar kesimida tahlil qilib borish, erishilayotgan natijalar asosida kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadini oshirish borasida ilmiy va amaliy tadqiqotlarni olib borish hamda shular asosida sohadagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash va samarasi yuqori bo'lgan moliyaviy mexanizmlarni ishlab chiqish"⁷ belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrda "Malakalarni baholash

⁶ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.02.2019 y., 06/19/5667/2648-son

⁷ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.04.2023-y., 07/23/108/0192-son

tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4939-son qarori bilan tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzurida Mehnat bozori tadqiqotlari institutiga mehnat bozorining rivojlanish tendensiyalarini, uning kasbiy-malaka tuzilmasini, mehnat bozorining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish sohasidagi vazifalarni bajarish uchun mehnat resurslarining prognoz balanslarini, demografik rivojlanishning o'rta va uzoq muddatli prognozlarini tayyorlash funksiyasini bajarishi belgilandi⁸.

Demografik barqarorlikni ta'minlash maqsadida quyidagi yo'nalishlarda normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq:

a) aholini ro'yxatga olish tizimining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi Qonuniga aholini ro'yxatga olish varag'idagi ma'lumotlarni kiritish, qayta ishlash va yakuniy ma'lumotlarni joylashtirish imkoniyatini beruvchi "aholini ro'yxatga olish" axborot tizimi, shuningdek, "o'zini o'zi ro'yxatga olish" prinsipi asosida fuqaro o'zini va oila a'zolarini elektron ro'yxatdan o'tkazish, aholini ro'yxatga olish davrida davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga o'zgartirishlar kiritishga moratoriy (cheklov) joriy etishni nazarda tutuvchi normalarni kiritish;

b) Ichki migratsiyani boshqarish va uni tartibga solishning huquqiy asoslarini takomillashtirish:

birinchidan, ichki migratsiyani erkinlashtirish, turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasi hududida harakatlanishining huquqiy va tashkiliy asoslari, doimiy yashash joyi va vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish tartibi, bu borada vakolatli davlat organlarining huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi "**Ichki migratsiya to'g'risida"gi Qonunini** qabul qilish;

ikkinchidan, ichki migratsiyani oqilona qayta taqsimlash maqsadida aholi zich bo'lmagan hududlarga ishchi kuchini joylashtirish uchun quyidagilarni nazarda tutuvchi huquqiy asoslar yaratish:

– uzoq va keng maydonga ega hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari)da yangi shaharlar va shaharchalar barpo etish, shuningdek, ular uchun zarur bo'lgan muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilma obyektlari qurish. Bunda bo'sh turgan yer uchastkalari, yashash uchun yaroqsiz bo'lgan turar joylar hududlarini, shuningdek, foydalanilmayotgan yoki samarasiz foydalanilayotgan bino va inshootlarni investorlarga soddalashtirilgan tartibda va qulay qiymatda sotish;

– yangi barpo etiladigan shahar va shaharchalarga aholini, shu jumladan, mutaxassislarni jalb etish maqsadida soddalashtirilgan, qulay, o'rta va uzoq muddatli ipoteka kreditlash tizimini yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun subsidiyalar ajratish, ichki migrantlar hisobidan ishchi kuchini jalb etganlik uchun soliq va boshqa imtiyozlar berish;

– uzoq hududlarda ustuvor kasblar ro'yxatini shakllantirish hamda qishloq aholisini yangi sanoat ixtisosliklariga o'qitish va qayta tayyorlash hamda mehnat kuchlarining uzoq hududlarga ixtiyoriy ravishda ko'chishiga olib keluvchi investitsiya loyihalarini amalga oshiruvchi investor-tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash;

d) tug'ilishni nazorat qilish va reproduktiv salomatlikni asrash. Demografik tabiiy o'sishni barqarorlashtirish, oilani rejalashtirish, salomatlik va hayot sifatini yaxshilash maqsadida **oilani rejalashtirish⁹ dasturini** qabul qilish. Ushbu dastur doirasida erta va qarindoshlar **o'rtasida** nikohning oldini olish, nikohlanuvchilarning barchasini tibbiy ko'rikdan **o'tkazish**, rejalashtirilmagan homiladorlikning oldini olish. Aholiga bepul himoyalani vositalari tarqatish nikohning uzoq, rejali va mustahkam bo'lishini ta'minlovchi choralarni **o'z** ichiga qamrab oladi.

Ma'lumot o'rnida: 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy 3.7-vazifa "2030-yilgacha jinsiy va reproduktiv salomatlikni asrash bo'yicha xizmatlardan, shu jumladan, oilani rejalashtirish va o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan qizlar uchun nikoh yoshini uzaytirish xizmatlaridan umumiy foydalanishni

⁹ Oilani rejalashtirish deganda oila qurish, uni mustahkamlash va rivojlantirish, o'limni, ayniqsa bolalar orasidagi o'limni qisqartirish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish bo'yicha ilmiy asoslangan tadbirlar majmui tushuniladi.

⁸ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020 y., 07/20/4939/1703-son

hamda milliy strategiya va dasturlarda reproductiv salomatlikni asrash masalalarining hisobga olinishini ta'minlash" hisoblanadi;

d) Oila kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish. Bunda: nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar, jumladan, yon shajara bo'yicha yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzishning oldini olishga oid aniq normalarni kiritish; nikoh shartnomasini tuzish amaliyotini takomillashtirish; aliment majburiyatlari bilan bog'liq normalarni qayta ko'rib chiqish.

e) barvaqt o'limning olini olish va salomatlikni asrash. Bu borada majburiy tibbiy sug'urtani joriy etishning huquqiy asoslari, mexanizmlari va bosqichlari, sug'urta dasturlarini moliyalashtirish mablag'larini shakllantirish manbalarini o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasining "Majburiy tibbiy sug'urta to'g'risida"gi Qonunini ishlab chiqish.

f) pensiya ta'minoti, nafaqalar tayinlash, ijtimoiy yordam va ijtimoiy ta'minot tizimini jiddiy isloh qilish. Mamlakatimizda davlat ijtimoiy himoyasining yagona tizimini yaratish, shuningdek, fuqarolarni nafaqalar bilan

ta'minlashga oid munosabatlar tarqoq holda tartibga solinayotgan qonunchilik hujjatlarini birlashtirish va tizimlashtirish maqsadida "Ijtimoiy himoya tizimining 2030-yilgacha strategiyasi" hamda "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni ishlab chiqish;

g) O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha demografik barqarorlik konsepsiyasini ishlab chiqish. Dunyo mamlakatlarining aksariyatida demografiya sohasiga doir qonunlar va qonunosti hujjatlari mavjud. Masalan, aholisi 10 mln kishini tashkil qiladigan qo'shni Tojikistonda Prezidentning "Tojikiston Respublikasining davlat demografik Konsepsiyasini amalga oshirish dasturi to'g'risida"gi¹⁰ hamda aholisi 18,7 mln kishini tashkil qiladigan Qozog'istonda Prezidentning "Qozog'iston Respublikasining davlat demografik Konsepsiyasi to'g'risida"gi qaror¹¹ qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi aholisini 36 mln kishi tashkil qilishini inobatga olsak, mamlakat demografik rivojlanishini tartibga solishga qaratilgan qonun hujjatini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

¹⁰ <http://pdf.knigi-x.ru>

¹¹ http://adilet.zan.kz/rus/docs/P000001272_/links

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2003-yil, 1-son, 2-modda.
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 12.08.2021, 03/21/707/0780-son.
3. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 17.03.2020, 03/20/611/0322-son.
4. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 20.10.2020, 03/20/642/1396-son.
5. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 17.12.2019, 03/19/595/4160-son.
6. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 22.02.2019, 06/19/5667/2648-son.
7. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 04.04.2023, 07/23/108/0192-son
8. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 31.12.2020, 07/20/4939/1703-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 841-son [qaroriga](#) 1-ilova // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 23.10.2018, 09/18/841/2081-son
10. <http://pdf.knigi-x.ru>
11. http://adilet.zan.kz/rus/docs/P000001272_/links



To'xtayev Hakim Primovich,

O'zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti professori v.b.

E-mail: tuxtayevxakim0@gmail.com

YANGI MA'NAVIY MAKON QIYOFASI RIVOJIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGI

Annotatsiya. Maqolada Yangi O'zbekistonda bunyod etilayotgan yangi ma'naviy makon qiyofasining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan aloqadorligi, xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy hayotidagi islohotlarining jadallashuvi, ma'naviy-ma'rifiy sohasida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladigan taklif va tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: milliy va umuminsoniy qadriyatlar, umuminsoniy tamoyillar, ma'naviy makon, ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, ma'naviy tarbiya mezonlari, ma'naviy tarbiya, mintaqaviy mafkuraviy xurujlar, milliy g'oyani yanada rivojlantirish, Yangi O'zbekiston mafkurasi, ma'rifatli jamiyat.

Аннотация. В статье рассматривается связь образа нового духовного пространства, создаваемого в Новом Узбекистане, с национальными и общечеловеческими ценностями, ускорением реформ в духовно-просветительской жизни нашего народа, устранением недостатков в духовно-просветительской сфере даны полезные предложения и рекомендации.

Ключевые слова: национальные и общечеловеческие ценности, общечеловеческие принципы, духовное пространство, оздоровление духовной среды, критерии духовного воспитания, духовное воспитание, региональные идеологические атаки, дальнейшее развитие национальной идеи, идеология Нового Узбекистана, просвещенное общество.

Annotation. The article deals with the connection of the image of a new spiritual space created in New Uzbekistan with national and universal values, the acceleration of reforms in the spiritual and educational life of our people, the elimination of shortcomings in the spiritual and educational sphere, useful suggestions and recommendations are given.

Keywords: national and universal values, universal principles, spiritual space, improvement of the spiritual environment, criteria for spiritual education, spiritual education, regional ideological attacks, further development of the national idea, ideology of New Uzbekistan, enlightened society.

Kirish. Dunyo turli manfaatlar to'qnashuv maydoniga aylangan bugungi kunda insoniyatning baxtli va xotirjam turmushiga tahdid soladigan xatarlar qatorida milliy qadriyatlarining qadrsizlanishi va ma'naviyatning qashshoqlashuviga olib keladigan muammolar ham ko'payib bormoqda. Jahon xalqlari qatori yurtimiz aholisi ham yangi uyg'onish davri poydevorini yaratish asnosida erkin, zamonaviy talablarga javob beradigan, yangi ma'naviy makonni bunyod etishni maqsad qilgan.

Yangi O'zbekiston – faqatgina boy tabiiy zaxiralorigina yoki katta sarmoyalar sarflanadigan sohalargagina emas, balki ulkan aql-zakovatga, yuksak ma'naviy-madaniy imkoniyatlarga ega davlatdir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Biz bu yo‘lda islohotlarimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan jamiyatimiz a‘zolarining bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlarini, butun azm-u shijoatimizni ishga solishimiz lozim. Shundagina mamlakatimiz, xalqimiz orzu qilgan, jahon maydonida kuchli

salohiyat, munosib obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan, har tomonlama obod va farovon davlatga aylanadi”¹.

Yangi O‘zbekistonda bunyod etilayotgan yangi ma‘naviy makonning qiyofasi insonlar baxtli, tinch-totuv yashayotganligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar va ma‘naviyat tamoyillariga yo‘g‘rilgan jamiyat ekanligidan dalolatdir.

Dunyoviy va mintaqaviy mafkura xurujlari davrida bunday ezgu g‘oyalar, yuksak ma‘naviy tamoyillarga asoslangan ijtimoiy makonni yaratish imkoni bormi, bu maqsad yo‘lida nimalar qilish kerak, degan savol kun tartibiga chiqadi. Eng avvalo bu maqsad yo‘lida, o‘z-o‘zidan, yoshlarni ajdodlarimizdan qolgan ulkan ma‘naviy-axloqiy meros, milliy qadriyatlarga oshno qilish, ularda ma‘naviy yuksalish, bilim olish va komillikka intilishni rag‘batlantirish asosiy masalaga aylanadi. Shunday ekan, yoshlarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash, ularni zararli illatlardan saqlash, avvalo, jamiyatimizda sog‘lom fikr hamda qudratli kuch ustuvor bo‘lishiga zamin yaratishini bir daqiqqa ham unutmazlik kerak.

Asosiy qism. Mamlakatimiz yangi ma‘naviy makon yaratishni maqsad qilingan ekan, xalqimizning ma‘rifiy hayotidagi islohotlarini jadallashtirish, ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish ishida sustkashlikka yo‘l qo‘ymaslik talab qilinadi. Yangi ma‘naviy makon “u – biz orzu qilayotgan Yangi O‘zbekistonning ma‘naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma‘rifatli jamiyat”dir². Shuni hisobga olgan holda, jamiyat ma‘naviyatiga, yoshlar tarbiyasiga mas‘ul bo‘lgan ota-ona, mahalla, olimlar, ijodkorlar, huquq-tartibot idoralari va boshqalar o‘z faoliyatini jadallashtirishi kerak.

Jamiyatimiz rivoji yo‘lida bir qator, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi hamda ta‘lim-tarbiya, ilm-fanga qiziqishga doir bir necha tegishli qaror va farmonlar qabul qilindi.

¹ Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022 yildagi PQ-112-sonli Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5849580>

Ayniqsa, madaniyat va san‘at sohasiga alohida e‘tibor qaratilayotgani, respublikaning hamma hududlarida mashhur adabiyot va san‘at vakillari nomi bilan ataluvchi ijod maktablari tashkil etilayotgani ham ma‘naviy hayotimizda muhim voqeaga aylanmoqda.

Yosh ijodkorlarga qaratilayotgan e‘tibor, barcha joylarda zamon talabiga javob beruvchi kutubxonalarning bunyod etilishi, “yosh kitobxon” tanlovining tashkil etishi; “Adiblar xiyoboni” majmuasining ochilishi, buyuk san‘atkorlarimizning ijodiy maktablari tashkil etilishi, “Besh tashabbus”, “Obod qishloq”, “Obod mahalla” kabi ijtimoiy harakatlari, yuksak ma‘naviyat, sog‘lom dunyoqarash g‘oyalari asosida singdirilmoqda.

Ammo shunisi achinarliki, o‘tkazilgan tahlillar asosida amalga oshirilayotgan ayrim ishlarning natijasizligi, masalani qayta ko‘rib chiqis lozimligini talab qiladi. Jamiyat a‘zolariga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni sodiqlik ruhida singdirishning ma‘naviy asoslarini yaratish borasidagi ishlarda kamchiliklar kuzatilmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongiga virtual olam orqali qilinayotgan g‘oyaviy tajovuzlar, turli zararli ruhdagi ekstremistik oqimlar guruhlariga ergashtirish, “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi buzg‘unchi mafkuraviy xurujlarning ta‘siri uchramoqda.

Xo‘sh, ayni vaqtda bunday ta‘sirga tushib qolayotgan kimsalarning sababi nimada? – degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu ishlarni yoshlarni turli ko‘rinishdagi tahdidlardan asrash, ularni yuksak vatanparvarli g‘oyasi ruhida tarbiyalash mezonlarining nazariy asoslarini ishlab chiqish, zamonaviy ilmiy-tadqiqot ishlarni kengaytirish, yoshlar qalbiga har qanday g‘oyaviy xurujga qarshi mafkuraviy immunitetni tarbiyalash borasidagi ma‘naviy tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish kerakligidan dalolat beradi.

Demak, jamiyatimizda hamon ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ma‘naviy ongning yetarli tarbiyalanmaganligi, dunyodagi murakkab siyosiy, ma‘naviy, g‘oyaviy jarayonlarni anglash va tahlil qilish darajasining pastligi kabi omillar, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi va boshqa transchegaraviy tahdidlarga qarshi kurashishda ma‘naviyat-ma‘rifat omilidan asosiy qurol sifatida foydalanishga yo‘l bermaydi.

Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari hamda internet tarmog‘i orqali tarqatilayotgan audio

va video mahsulotlari orqali kirib kelayotgan ichkilikbozlik, giyohvandlik, zo'ravonlik va axloqiy buzqlik kabi yemiruvchi illatlarga qarshi tarbiyaviy g'oyaviy ishlar ta'sirini kuchaytirish zarur.

Yoshlar ongi va tafakkurini rivojlantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qitilishida yangicha yondashuv usullarini hamda bu fanlarni real hayot bilan bog'lanishi, zamonaviy yoshlarning qiziqishlari va ehtiyojlariga javob berishi kabi masalalarga e'tibor qaratish dolzarbdir.

Bugungi tahlikali zamonda rivojlanish yo'limizda ko'ndalang turgan qator masalalar bilan to'qnashmoqdamiz. Darhaqiqat, jamiyatimizda uzoq kelajakka mo'ljallangan ma'naviy tarbiya mezonlari va tamoyillarini ishlab chiqish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni butunlay yangi bosqichga olib chiqish kerak. Oxirgi yillarda O'zbekistonni 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirish bo'yicha ham qator qarorlar qabul qilindi va shu asosda ish olib borilmoqda.

Dunyo miqyosida ma'naviyat qashshoqlashuvi kuzatilayotgani sohaning tamoyillari ahamiyatini tobora oshirmoqda. Shu bois Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashiga raislik qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklandi. Hududiy bo'limlarni esa hudud hokimi boshqarishi belgilandi. Bu esa ma'naviy-ma'rifiy ishlarning davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani hamda barcha vazirlik, idoralar, nodavlat tashkilotlar, banklarning, qolaversa barcha tadbirkorlarning jiddiy vazifasiga aylanganini ko'rsatadi.

Joylarda ixtisoslashgan klasterlarni tashkil qilib, hudud hokimlarining qishloq xo'jaligi borasidagi mushkullarini yengil qilmoqdamiz. Endi ularning ma'naviyat targ'iboti bo'yicha faoliyatini tahlil qilish vaqti keldi. Chunki, ular boshqarayotgan hududdagi aholining kayfiyati, ma'naviy ehtiyojlari, qiziqish va intilishlari o'rganilmas ekan, jamiyatda ijobiy o'zgarishlar yuz bermaydi.

Dunyoda umuminsoniy va milliy qadriyatlarining oyoqosti bo'lish hollari kuchayib bormoqda. So'nggi yillarda jahonni larzaga solgan koronavirus pandemiyasi fonida esa xudbinlik, tajovuzkorlik kayfiyati insonlar ongiga xavf solib qo'ydi. Mana shunday vaziyatda bizga milliy ong, qadriyatlar, ming yillik axloqiy qarashlarimiz, xalqimizga xos mehr-oqibat, bag'rikenglik, sabrbardosh kabi fazilatlar qo'l keladi.

Jamiyatimizda so'z erkinligi, oshkorlik, ochiqlik va demokratiya yo'lida jamiyatda bu tamoyillar ustuvorligiga erishish yo'lida harakat amalga oshirilmoqda. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, so'z va ijod erkinligini ta'minlash, ijtimoiy sohaglarga oid qonunchilikni o'stirish, qonun ustuvorligiga erishish asosiy vazifalarimizdandir.

O'z o'rnida axborot maydonida faoliyat yuritayotgan mutaxassis va blogerlar mavjud qonuniy talablarga rioya qilishlari shart. Jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar, voqea-hodisalar to'g'risidagi xolis axborotlarni o'z vaqtida, ro'y-rost yetkazish ayrim g'arazli kimsalar tarqatadigan yolg'on xabarlarini yo'qqa chiqaradi. Shuning uchun vazirlik va idoralardagi axborot xizmatlari faoliyatini kuchaytirish, tezkorlikka e'tibor berish lozim.

Shu o'rinda Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi fidoyi olimlar, ijodkorlar boshini qovushtirib, ularning bugungi hayot nafasi, jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini yoritishga qaratilgan faoliyatni muvofiqlashtirish choralarini ko'rish kerak. Ijodkorlar, ziyoli insonlar xolis va ta'sirchan axborotlar tarqatishda oldingi safda bo'lishi kerak.

Bu yo'nalishdagi yana bir mahsuldor omil Internet tarmog'i bo'lib, "Ma'naviyat.uz" portalining yaratilishi va unda ma'naviyat sohasiga doir ma'lumotlar, yangiliklarni joylashtirib borilishi eng katta masaladir.

Ma'naviy tarbiya yo'lida amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar qatori xalq e'tiroziga sabab bo'layotgan holatlar ham mavjud. Ayniqsa, ayrim davlat va nodavlat telekanallarida namoyish etilayotgan ko'rsatuvlar, seriallar, ko'p sonli reklamalarning saviyasi talab darajasida emasligi. Ba'zi dasturlar ma'naviy oziq berish o'rniga yoshlarni yengil hayot tarziga odatlanishga, milliy ma'naviyatdan, mentalitetdan uzoqlashishiga olib keladi. Shu sababli odamlar orasida "Telekanallarda badiiy kengashlar bormi o'zi, ular qayoqqa qarayapti?" degan haqli e'tirozlar ko'payib bormoqda. Bundan kelib chiqadigan navbatdagi vazifa – sohaga aloqador bo'lgan barcha tashkilotlar huzuridagi Badiiy kengashlar faoliyatini tubdan yaxshilash masalasiga e'tibor qaratish kerak. To'g'ri, "yangilanish, tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining ajralmas qismidir,

lekin yangilanishning taraqqiyotdan farqi shuki, taraqqiyot ko'proq miqdoriy ko'rsatkichlar bilan ifodalansa, yangilanish uning sifat belgilarini ifodalaydi³. Demak, O'zbekiston telekanallarida namoyish etiladigan har bir ko'rsatuvning sifat jarajasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni xalqqa yetkazish, har bir fuqaroda o'zi va vatani taqdiriga befarq bo'lmaslik masalasiga jiddiy e'tibor qaratish kerak. Keskin globallasuv jarayonida ma'naviy tahdidlarga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirish, ma'naviy hayotni boyitish masalasi, davlat va jamoat tashkilotlarining bu yo'nalishdagi faoliyatini kuchaytirish vazifasi dolzarblashmoqda.

Yurtimizda yangi ma'naviy makonni, jamiyat a'zolarida yangicha tafakkur tarzini shakllantirish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish taklif etiladi:

- Ma'naviy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning mazmun-mohiyatini xalqqa yetkazish va bu boradagi faollikni oshirishga qaratilgan ishlarni jadallashtirish;

- joylarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash borasida oila-mahalla-ta'lim muassasasi-mehnat jamoalari shaklida tizimli ish olib borish va shu asosda zamonaviy texnologiyalarni jalb qilgan holda, hududlar kesimida ma'naviy muhitni optimallashtirish xaritasini shakllantirish;

- jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot-tashviqot ishlarini "Jaholatga qarshi ma'rifat" shiori ostida tashkil etish hamda kreativ va ta'sirchan usullar yordamida natijadorlikka erishish;

- ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotni amalga oshirishga qaratilgan dasturlarimizda, yoshlarimizni vatanparvar, fidoyi, mustaqil fikrli qilib tarbiyalashga doir chora-tadbirlarni aks ettirish va ularning ijrosini nazorat qilish, yosh avlod ongini zaharlash, yo'ldan adashtirishga urinadigan g'oyaviy tahdidlardan asrashga ustuvor ahamiyat qaratish;

- jamiyat taraqqiyotiga xalal beradigan korrupsiya, befarqlik, loqaydlik milliy qadriyatlarimizga nisbatan bepisandlik kabilarni yoqotish;

- mamlakatimiz a'zolarining mediamadaniyatini shakllantirish va yuksaltirish, madaniyat

³ Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 680-b.

va san'at sohasining hamma yo'nalishlarida, nashriyotlar ishida va ommaviy axborot vositalarida axloq mezonlari, milliy ruh va milliy qadriyatlarimizning ustuvorligini ta'minlash;

- dunyoning siyosiy va mafkuraviy jarayonlaridan har doim boxabar bo'lish, terrorizm, aqidaparastlik, narkobiznes va boshqa chegara bilmas jinoyatlarga qarshi kurash xalqaro hamkorligini kuchaytirish;

- yurtimizda mavjud ko'p millatlilik, azaliy totuvlik, diniy bag'rikenglik fazilatlarini mustahkamlash, yosh avlodga islom dini bilan bir qatorda boshqa diniy qarashlarni hurmat qilish, boshqa millat vakillariga ehtirom ko'rsatish kabi zarur tadbirlarni ishlab chiqish;

- tarbiyaviy ma'naviy ishlarni tashkil etishda yuqori natijalarni qo'lga kiritgan davlatlar tajribasini o'rganish, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilishda sohadagi faoliyatlarni yangi bosqichga ko'tarish;

- ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning yillik monitoringini maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, oliy ta'lim, mahalla va boshqa mas'ul idoralar kesimida organish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga ilmiy jihatdan yondashish;

- ma'naviy-ma'rifiy tarbiya hamda gumanitar fanlarga doir ilmiy tadqiqotlar, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, erishilgan natijalarni amaliyotga tatbiq etilishini ta'minlash va sohaga bo'lgan qiziqishlarni rag'batlantirish;

- ma'naviy targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil qilishda aholining yosh, hududga va kasbiga doir xususiyatlarini hisobga olib, maqsadga muvofiq, mazmunli va aniq yo'naltirilgan yondashuvni hamda uni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqishdan iborat.

Yuqoridagilardan kelib chib, "Mamlakatimizda yangi ma'naviy makonni samarali shakllantirish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar dasturi"ni amalga oshirishda ijtimoiy hayot sohalariga tatbiq etish zarur. Mazkur dastur doirasidagi ishlarni tashkil etish yo'l-yo'riqlarini belgilashda, sohaga doir qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini ommaga keng ko'lamda yetkazish orqali ularda daxldorlik hissini kuchaytirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratish kerak.

Pespublikamizda ma'naviyatni rivojlantirish o'zining g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviy-axloqiy

negizlariga ega bo'lib, ular "umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, insonparvarlik va vatanparvarlik"⁴dan iborat. Yangi O'zbekistonning milliy g'oyasi insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik asosiga quriladi. Jamiyatimiz mafkurasi insonning qadr-qimmati, haq-huquqlari, farovon hayotini ta'minlashga, ezgu va insonparvar g'oyalarni singdirishga xizmat qiladi. Bugun davlatimiz va jamiyatimiz milliy g'oya va ma'naviy yangilanish borasida ham yangi bosqichga ko'tarildi, bir qancha amaliy natijalarga erishildi. "Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manbayi – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tinchlik, ahil qo'shnicilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha asrab-avaylab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir"⁵.

Har sohada bo'lganidek, milliy g'oyani yanada rivojlantirish va ta'sirchanligini oshirishga to'siq bo'layotgan muammolar ham talaygina. Mintaqamiz va butun dunyoda geosiyosiy vaziyat murakkablashib, odamlarning qalbi va ongini egallashga urinishlar kuchaygan davrda mamlakat daxlsizligi va xalqimiz hayotini har jihatdan himoyalashda, ayniqsa zararli g'oyalarga qarshi immunitetni hosil qilishda zamon sur'atidan ortda qolish kuzatilmoqda. "Shuningdek, milliy g'oya targ'iboti, mafkuraviy profilaktikaning zamonaviy usul va vositalari ta'sirchanligini ta'minlaydigan azaliy qadriyatlarimiz, xalqimizning asrlar davomida shakllangan hayot tarzini barpo qilishga yo'naltirilgan buzg'uncha g'oyalar va yot mafkuralarga qarshi faoliyatni hozirgi davr talablari darajasida tashkil etishga yordam beradigan, samarali mexanizm shakllanmagam"⁶.

⁴ Mamashokirov S., Qodirova E., Tog'ayev Sh. O'zbekistonda yangi jamiyat qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. – Toshkent: TAQI, 2004. – B.28.

⁵ Karimov I.A. Inson manfaatlari ustvorligin ta'minlash barcha islohat va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. "Xalq so'zi" gazetasi, 9-fevral, 2008-yil.

⁶ Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.

Shuningdek, aholining ayrim qatlam va guruhlariga mafkuraviy tahdidlar mohiyatini yetarlicha anglamaslik, ularning xatari xususida bilim va tasavvurga ega emasligi natijasida milliy g'oya omilidan g'oyaviy himoyada samarali foydalana olinmayotganligini e'tiborga olgan holda, milliy g'oya mazmun-mohiyati xususida yaxlit tushuncha va tasavvurlarni chuqur singdirish, amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini rivojlanish jarayonlarini talab darajasida tashkil etishga qaratishdan iborat. Bu masala bilan shug'ullanadigan ilmiy xodimlar faoliyatini amaliyotga yetarlicha tatbiq etish masalasiga e'tibor qaratish hayotiy zaruriyatga aylanmog'i darkor.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda, milliy g'oyani targ'ib qilish bo'yicha tadbirlarda vatanparvarlik, fidoyilik, xalqparvarlik kabi ezgu g'oyalar faqat shior darajasida qolmasligini, bunda milliy g'oya bo'yicha umuminsoniy qonuniyatlar va yurtimizgagina xos bo'lgan tamoyillarni uzviylikda amaliyotga kiritish mexanizmlarini yaratish va uni amalga joriy etish, davlatimizni yuqori rivojlangan mamlakatlar safida ko'rishni istaydigan va fuqarolik mas'uliyatini chuqur his qiladigan, innovatsion va kreativ fikrlashga qodir barkamol insonlarni tarbiyalashning milliy g'oya asosidagi konseptual asoslari ishlab chiqishga e'tibor qaratish kerak.

Ayni vaqtda xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan umuminsoniy va milliy qadriyatlar, an'anal va urf-odatlar nisbatan e'tiborsizlik, ukarning qadrsizlanish holatlari ham kuzatilmoqda. Aynan shu omillar jamiyat hayotida dunyoviylik va diniy dunyoqarashning sog'lom muvozanatini ta'minlaydi, o'zining tarbiyaviy ta'siri bilan ajralib turadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "...biz barpo etayotgan Yangi O'zbekiston mafkurasi, avvalo, insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik mafkurasi bo'ladi"⁷. Shunga asosan, jamiyatimizda bunyodkor milliy g'oyani mustahkamlashga qaratilgan faoliyatimizni butunlay yangi pog'onaga olib chiqish vaqti keldi. Bu yangi davlat mafkurasini yaratishga urinish yoki oldingi milliy istiqloq mafkurasini zamonga moslashtirish emas, balki yangi g'oyaviy yangilanish sari qadamdir. Bu jarayon jahon ideosferasining ilg'or va ta'sirchan tarkibiy qismiga aylanishi zarur.

⁷ Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.

Demak, O‘zbekistonda jamiyatni reideologiyalash strategiyasi hamda hayotiy tamoyillarni g‘oyaviy yangilash konsepsiyasini va uni amalga oshirish dasturini ishlab chiqish asosiy zaruriyatlardan biriga aylanmoqda.

Ma’naviyat va ma’rifat sohasidagi kamchilliklarni bartaraf etish, zamonaviy fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy tamoyilarni o‘zlashtirgan, milliy g‘oya ruhida tarbiyalangan yosh avlodni kamol toptirish yo‘lida quyidagilarni hisobga olish lozim:

- Milliy g‘oya va Yangi O‘zbekiston mafkurasi targ‘ibotini kuchaytirish va bu ishga aloqador tashkilotlar faoliyatida ta’sirchanlikni, milliy g‘oya targ‘iboti hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning natijadorligi, ta’sirchanligini oshirish maqsadida jamiyatni reideologiyalash konsepsiyasini ishlab chiqish;

- mazkur sohadagi muammolarni, atrofda kechayotgan murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy jihatdan o‘rganish va baholash, faoliyatdagi ustuvor vazifalarni hamda bu jarayonlarning aholi turli qatlamlariga o‘tkazayotgan ta’sirini o‘rganib chiqish va ma’naviyatimizga, turmush va fikrlash tarzimizga zid bo‘lgan turli g‘oyalar, qarashlar va mafkuralarning asl mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan fundamental tadqiqotlar olib borilishini qo‘llab-quvvatlash;

- aholining turli yosh qatlamlari orasida milliy va axloqiy qarashlarimizni targ‘ib qilishga, yurtdoshlarimiz qalbida Vatan kelajagiga ishoch va sadoqat, insonparvarlik tuyg‘ularini singdirishga yo‘naltirilgan ma’rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, ma’naviyat darg‘alari bilan uchrashuvlar tashkillashtirish;

- olimlar, ijodkorlar, siyosatdonlar ishtirokida chegaralar daxlsizligi, Vatanimiz tinchligiga rahna soladigan mafkuraviy xurujlar va ulardan ko‘zlanayotgan maqsadlar haqida haqiqatlarni yetkazish, aholiga davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlarning maqsadi, qabul qilinayotgan qonunlar, qarorlar, davlat dasturlarining mohiyati xususida tushunchalar berib borish hamda hushyorlikka chaqirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish;

- uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tamoyillarni mustahkamlash, yoshlar qalbi va ongiga milliy g‘oyamizni singdirish, ularda chuqur idrok va yuksak ma’naviyat, keng dunyoqarash va

tanqidiy fikrlash fazilatlarini rivojlantirish hamda har qanday ma’naviy tahdidga nisbatan immunitetni hosil qilish;

- davlat va jamiyat ildiziga bolta uradigan yurt va yoshlar taqdiriga bepisandlik, shuningdek, loqaydlik, ta’magirlik, korrupsiya, mahalliychilik, kabi illatlarga ma’naviy-ma’rifiy qarshi kurash yo‘llarini topish;

- jahonda kechayotgan mafkuraviy jarayonlarni kuzatish va o‘rganish orqali jinoyatchilikka qarshi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, g‘oyaga qarshi g‘oya bilan kurashish yo‘llarini jadallashtirish zarur.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish vazifalari” borasidagi maqsadlarning aniq-tiniq belgilab berilgani esa bu jabhadagi ishlarni yanada jadallashtirmoqda. Mazkur sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlash, ma’naviyat jabhasiga doir zarur qonun hujjatlarini xalqaro hamda milliy tajribadan unumli foydalagan holda ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bu esa ma’naviyat sohasidagi davlat siyosatining asoslari to‘g‘risidagi tartib-qoidalarni, mazkur yo‘nalishda inson kamoloti va jamiyat taraqqiyoti uchun nihoyatda muhim bo‘lgan huquqiy normalarni konstitutsiyamizda muhrlab qo‘yish imkonini ham vujudga keltirmoqda.

Ma’rifatli jamiyat yaratishga kirishar ekanmiz, avvalo, ta’lim tizimini takomillashtirish, bor e’tiborimizni farzadlarimizning zamonaviy ilmlarni egallab, barkamol insonlar bo‘lib yetishishiga qaratish lozim. Bilim va ma’rifat yurtimiz tinchligiga rahna solmoqchi bo‘layotgan g‘arazli kimsalarga qarshi kurashning eng ishonchli qurolidir. Dunyo xalqlari orasiga sovuqchilik tushirib, o‘zlari urush olovida isinadigan yovuz kuchlarga qarshi turishda xalqning birdamligi, hushyor va ogohligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022 yildagi PQ-112-sonli qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-5849580>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.12.2020 yildagi 781-sonli qarori // <https://lex.uz/ru/docs/-5160827>
4. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 680-b.
5. Mamashokirov S., Qodirova E., Tog'ayev Sh. O'zbekistonda yangi jamiyat qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. – Toshkent: TAQI, 2004.
6. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustvorligin ta'minlash barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir “Xalq so'zi”, 9-fevral, 2008-yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



Alimov Sardor Komil o'g'li,
 “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i,
 falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
 e-mail: sardoralimov2507@mail.ru

OILALARDAGI IJTIMOY-MA'NAVIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISHDA KEKSALAR ISHTIROKINI QO‘LLAB-QUVVATLASH (Singapur va Malayziya tajribasi asosida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilalarning mustahkamligi, ularning ijtimoiy-ma'naviy barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy ahamiyati yoritib berilgan. Muallif Singapur va Malayziya tajribasi asosida ushbu mamlakatlarda davlat va jamiyat tomonidan oilalarning ijtimoiy-ma'naviy muhitini sog'lomlashtirish, oilaviy ajrashishlarning oldini olish, keksalar, xususan, qaynonalarning oila mustahkamligidagi rolini kuchaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga e'tibor qaratgan.

Tayanch so'zlar: oila, ijtimoiy-ma'naviy muhit, Singapur, Malayziya, nikoh va ajrashish, keksalar, keksa rezidentli uy xo'jaliklari, qaynona, mediatsiya.

Аннотация. В данной статье освещается социальное значение укрепления семей, обеспечения их социально-духовной стабильности. На основе опыта Сингапура и Малайзии автор обратил внимание на работу, проводимую государством и обществом в этих странах по улучшению социальной и духовной среды семьи, предотвращению семейных разводов, усилению роли пожилых людей, в частности свекрови, в укреплении семьи.

Ключевые слова: семья, социально-духовная среда, Сингапур, Малайзия, брак и развод, старшее поколение, домохозяйства пожилых людей, свекровь, медиация

Annotation. This article highlights the social significance of strengthening families, ensuring their social and spiritual stability. Based on the experience of Singapore and Malaysia, the author drew attention to the work carried out by the state and society in these countries to improve the social and spiritual environment of the family, prevent family divorces, strengthen the role of older people, in particular mothers-in-law, in strengthening the family.

Keywords: family, socio-spiritual environment, Singapore, Malaysia, marriage and divorce, older generation, elderly resident households, mother-in-law, mediation

Kirish. Oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, Khaqiqiy insoniy munosabatlar qaror topgan makon. Yurtimizda oila azaldan muqaddas dargoh sifatida yuksak qadrlanib kelinadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning 1-yanvar holatida mamlakatimizda **9 729 961 ta** oilalar mavjud¹. Mazkur oilalarning mustahkamligini, ularning ijtimoiy-ma'naviy

barqarorligini ta'minlash davlatimiz ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, oiladagi ma'naviy muhitning sog'lomligi jamiyatning ma'naviy barqarorligiga bevosita ta'sir etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: **“Oila – kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa – vatan tinch bo‘ladi”**.

Oilada sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitning qaror topishi uning mustahkamligiga, jamiyatning ma'naviy yuksalishiga sabab bo‘lsa, aksincha, kichik oilaviy nizolar, oila a'zolari, xususan,

¹ https://t.me/statistika_rasmiy/3569

qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashuvi, ularning o'z vazifalarini bilmadan, anglamasdan harakat qilishi oilaning darz ketishiga, munosabatlarning sovuqlashishiga, hatto oilaviy ajralishlarga olib kelishi mumkin.

Oilalarning mustahkamligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan shu kabi ijtimoiy muammolar faqatgina bir mamlakatga tegishli emas. Oila institutining inqirozi global dunyodagi ma'naviy yemirilish sifatida baholanib, bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari oilalarning mustahkamligini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining barqarorligini ta'minlash maqsadida tizimli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Shunday yetakchi mamlakatlar sifatida Janubiy-Sharqiy Osiyoda joylashgan **Singapur** va **Malayziyani** e'tirof etish mumkin.

Asosiy qism. Singapur va Malayziya Janubiy-Sharqiy Osiyoda joylashgan iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlatlar hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, mazkur mamlakatlarda kuchli ijtimoiy himoya tizimi, oilalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali islohotlar hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash bo'yicha samarali davlat siyosati mavjud. Singapur va Malayziyada oilaviy ajrashishlarning soni nisbatan kam, hukumatlar mazkur yo'nalishda ham samarali ishlarni amalga oshirmoqda. Shuningdek, mamlakatlarning aholisi orasida asosiy e'tiqod qilinuvchi din islom dini bo'lib, mazkur yo'nalishda har ikki mamlakatdagi holatni ham O'zbekistondagiga o'xshash deb hisoblash mumkin. Har ikki mamlakatning oilalarni mustahkamlash borasida amalga oshirayotgan ishlariga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

Dastavval, **Singapur** mamlakatiga to'xtalib o'tsak. Mazkur davlat iqtisodiy jihatdan rivojlangan, ijtimoiy jihatdan barqaror tizimga ega bo'lgan mamlakat hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiy jihatdan rivojlanishi unda qadriyatlar, xususan, oilaviy qadriyatlarining transformatsiyasi, an'anaviy oila institutining parokandalikka uchrashiga olib kelmagan. Bunda davlatning mamlakatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq samarali siyosatni amalga oshirishi katta rol o'ynagan.

Singapurda oila institutini mustahkamlash, har tomonlama qo'llab-quvvatlash **davlat siyosati** darajasida ko'riladi. Kundalik hayotda **islom dinining ta'siri** kuchli bo'lgani ham singapurliklarning hayotida oilani muqaddas dargoh darajasiga ko'tarilishiga ta'sir ko'rsatgan. Bugungi kunda Singapurda oila bilan shug'ullanuvchi bir

qator davlat tashkilotlari faoliyat yuritib, **ularning asosiylari quyidagilardan iborat:**

Ijtimoiy va oilaviy rivojlanish vazirligi. Bu mamlakatdagi oila bilan bog'liq **asosiy siyosatni amalga oshiruvchi davlat organi** hisoblanadi. Bugungi kunda Ijtimoiy va oilaviy rivojlanish vazirligining rahbari, vazir – **Masagos Zulkifli** hisoblanadi.

Vazirlikning asosiy missiyasi bardoshli shaxslar, kuchli oilalar va g'amxo'r jamiyatni tarbiyalashdan iborat.

Vazirlik **uch yo'nalishda** faoliyatini amalga oshiradi:

1. Kam ta'minlangan, muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash.
2. Oilalar va ota-onalikni rag'batlantirish.
3. Ijtimoiy xizmatlar sektorini mustahkamlash².

Erta bolalik va rivojlanish agentligi (Early Childhood and Development Agency (ECDA)) – **2013-yil 1-aprelda** tashkil etilgan, **avtonom agentlik**. Bosh **ijrochi direktori** – **Tan Chi Vi** (Tan Chee Vi). Ta'lim vazirligi va Ijtimoiy va oilaviy rivojlanish vazirligi tomonidan birgalikda nazorat qilinadi, Ijtimoiy va oilaviy rivojlanish vazirligi qoshida joylashgan³.

Agentlikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- **Bolalar ta'limi sektorining** sifat standartlarini oshirish, shu jumladan, tartibga solish va erta bolalikni **rivojlantirish resurslari** bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni nazorat qilish.

- Erta yoshdagi bolalarga xizmat qiluvchi **mutaxassislarni tayyorlash** va ularning **uzluksiz kasbiy rivojlanishiga ko'maklashish**.

- Erta bolalik sektorini qo'llab-quvvatlash uchun **infratuzilma** va **mehnat resurslari bo'yicha bosh rejani** ishlab chiqish.

- Sifatli maktabgacha ta'lim dasturlarini, ayniqsa, **kam va o'rta daromadli oilalar uchun** arzon narxlarda saqlashga **subsidiyalar** va **grantlar** taqdim etish.

- **Ota-onalarning xabardorligini oshirish** va farzandlarining rivojlanishiga yordam berish uchun targ'ibot ishlarini olib borish va boshqalar⁴.

Singapurda oilani mustahkamlash bilan bog'liq ko'plab **qonunlar, davlat dasturlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar** qabul qilingan. Ularning eng muhimlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

² <http://www.msf.gov.sg>

³ <https://www.ecda.gov.sg/home>

⁴ <https://www.msf.gov.sg/who-we-are/agencies-statutory-boards-councils/early-childhood-and-development-agency-ecda>

1. Singapur Respublikasi Parlamenti tomonidan **1961-yil 15-sentabr** kuni qabul qilingan **“Xotin-qizlar xartiyasi”** (Women’s Charter). Mazkur hujjatning **10-bob, 1-qism, 92-100-moddalari** oilaviy ajrashishlarga bag‘ishlangan.

94-modda 1-bandida “Nikohdan ajrashish to‘g‘risidagi ariza mazkur ariza berilgan sanada nikoh tuzilganiga **3 yil o‘tmagan bo‘lsa**, sud tomonidan qabul qilinmaydi” deb belgilab qo‘yilgan⁵.

2. Singapur Respublikasi Parlamenti tomonidan **1966-yil 17-avgust** kuni qabul qilingan **“Musulmon huquqini boshqarish to‘g‘risidagi qonun”** (Administration of Muslim Law Act). Mazkur Qonunning **6-qismi “Nikoh va ajrashish”** deb nomlangan bo‘lib, **89-109-moddalarni** o‘z ichiga oladi. Qonun Singapurdagi barcha musulmonlarning oilaviy munosabatlarini tartibga solib turadi⁶.

3. **2022-yil** Singapurda **“Singapur oilalari yili”** deb nomlangan bo‘lib, **2025-yilgacha mo‘ljallangan “Oilalar uchun Singapur – 2025” (A Singapore Made For Families 2025) Milliy dasturi** qabul qilingan. Mazkur Milliy dasturga ko‘ra, oilalar uchun nikoh, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash, farzand ko‘rish, tarbiyalash, keksa yoshli oila a‘zolarini qo‘llab-quvvatlash, oilaviy nizolarning oldini olish, yolg‘iz onalik, foster oilalar, nogironligi bor oila a‘zolarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha vazifalar belgilangan. Jumladan,

– yosh oilalarni uy-joy bilan ta‘minlash dasturi doirasida ular uchun **85-95 foiz** atrofida **3 va 4 xonali uylar** qurilishi belgilangan. Kam daromadli oilalarga yangi uylar uchun **80 ming dollar**, ikkilamchi uylar uchun **160 ming dollar** miqdorida grantlar ajratish belgilangan, subsidiyalash tizimi ham mavjud. **Yosh oilalarning o‘z ota-onalariga yaqin joydan uy xarid qilishlari qo‘llab-quvvatlanadi;**

– yangi tug‘ilgan chaqaloqlar uchun ular **16 yoshga kirguniga qadar 180 ming dollar** miqdorida ta‘lim uchun subsidiyalar ajratiladi. Chaqaloqlar tug‘ilganidan boshlab **“Baby Bonus” dasturi** doirasida salomatlik uchun subsidiya, **Medisave granti, MediShield Life loyihalari** doirasida tug‘ilgandan salomatlik sug‘urtasi beriladi. Ota-onalar uchun tug‘uruq va farzand tarbiyasi bilan bog‘liq **10 ga yaqin haq to‘lanadigan va to‘lanmaydigan ta‘tillar** ajratiladi⁷;

⁵ <https://sso.agc.gov.sg/Act/WC1961?ProvIds=P110-#P110->

⁶ <https://sso.agc.gov.sg/Act/AMLA1966?ProvIds=P16-#P16->

⁷ <https://www.madeforfamilies.gov.sg/parental-leave-and-benefits/government-paid-maternity-leave>

– har bir mahallada mavjud bo‘lgan **“Families for Life @ Community”** guruhlar yordamida **er va xotinni otalik va onalik, farzand tarbiyasi bilan bog‘liq mahoratlarini oshirib borish** belgilangan;

– 2023-yildan boshlab davlat maktabgacha ta‘lim muassasalarida to‘lov kamaytiriladi, oilalar uchun maxsus subsidiyalar ajratiladi;

– 2027-yilgacha 2500 dan ortiq bobo-buvilar bilan hamkorlikda bolalarni tarbiyalovchi **“Bobobuvilar dasturi”** joriy etiladi. **“Muvaffaqiyatli qarish bo‘yicha harakatlar rejasi”** qabul qilingan⁸.

Mamlakatdagi oilaviy ajrashishlar holati, davlatning mazkur holatga munosabati. Singapurda **2022-yil bo‘yicha 29 389 ta nikoh** qayd etilgan bo‘lib, bu tuzilgan nikohlar soni bo‘yicha 1961-yildan boshlab shakllantirilgan hisobga olish tizimi uchun **rekord hisoblanadi. 2022-yilda 7107 ta nikohdan ajrashish** qayd etilgan bo‘lib, mazkur ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan **9,9 foizga** kamaygan (**2021-yilda 7890 ta ajrashish**). Mamlakatda **nikohning o‘rtacha yoshi ham, oilaviy ajrashishlarning o‘rtacha yoshi ham** yildan yilga ortib bormoqda.

Masalan, **nikoh yoshi yigitlar uchun – 30,7 yosh, qizlar uchun – 29,3 yosh.** 2012-yilda bu ko‘rsatkich erkaklar uchun – **30,1 yosh**, ayollar uchun esa **28,0 yosh** ko‘rinishida bo‘lgan.

Ajrashishlar uchun o‘rtacha yosh erkaklarda – **44,4 yosh (2012-y. – 41,6);**

Ayollarda – **40,5 yosh (2012-y. – 38,0)**⁹.

Singapurda davlat oilaviy ajrashishlarning oldini olish, oilalarning barqarorligini mustahkamlash maqsadida oilaviy **ajrashish jarayonini murakkablashtirish**, yetarli asoslar ko‘rsatilmagan taqdirda **oilaviy ajrashish jarayonini bekor qilish** pozitsiyasini amalga oshiradi. Sud jarayoni eng tez holatda **6 oydan boshlab, bir necha yillargacha** cho‘zilishi mumkin. Shuningdek, ajrashishda faqatgina advokat xizmatining narxi **1500 dollardan 10 000 dollar va undan ham ko‘proq** bo‘lishi mumkin.

Singapurda oilaviy ajrashishlar 2 bosqichli jarayon hisoblanadi:

1-bosqich. Nikohni sud tomonidan vaqtinchalik bekor qilish.

2-bosqich. Yordamchi ishlarni (masalan, bolaga vasiy tayinlash, aliment belgilash kabi) amalga oshirish.

⁸ <https://www.msf.gov.sg/what-we-do/support-families-and-parents/article/resources/A-Singapore-Made-For-Families-2025-MFF-2025-Plan>

⁹ <https://www.singstat.gov.sg/-/media/files/news/press26072023.ashx>

Shuningdek, ajrashish jarayoni **musulmon huquqi** bo'yicha nikoh qurganlarda boshqacha shaklda amalga oshiriladi¹⁰.

Singapurda sud nikoh tuzilganidan **3 yil o'tmasdan ajrashish to'g'risida ishlarni ko'rib chiqmaydi**. Faqatgina **yetarli asos** bo'lganida 3 yil muddatgacha ajrashish ishini ko'rib chiqish bo'yicha sud qo'shimcha qaror qilishi mumkin. Shuningdek, "Xotin-qizlar xartiyasi"ning **94-moddasi 4-bandiga muvofiq**, sud ajrashish uchun ariza bergan oilalarni **yarashtiruvchi xodimga** jo'natishi mumkin¹¹.

Singapurda oilaviy ajrashish uchun ariza bergan oilalar quyidagi holatlarda majburiy "**Birgalikda ota-onalik majburiy dasturi**" (Mandatory Co-Parenting Programme ("CPP") – **2016-yildan 2023-yilgacha "Majburiy ota-onalik dasturi"** – Mandatory Parenting Programme ("MPP") deb atalgan)dan o'tishi lozim:

– ajrashish jarayonini boshlash yoki qarshi da'vo berishdan oldin;

– 21 yoshdan kichik kamida 1 ta farzand bo'lsa;

– er va xotin o'zaro ajrashish sabablari yoki yordamchi masalalar bo'yicha kelisha olmasa.

Mazkur dastur **1,5 soatlik onlayn elektron ta'lim** va **1 soatlik** Oilalarni mustahkamlash dasturi yoki Ajrashishlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus agentlik maslahatchisi bilan **maslahatlashuv (konsultatsiya)dan iborat**. Dastur asosida ta'lim olish bepul¹².

Mamlakatda farzandlarga munosabat (davlat va oila hamkorligi).

Singapur **2019-yilda Bolalarni asrang (Save the Children)** xalqaro xayriya tashkiloti tomonidan **176 davlat** ko'rsatkichlari asosida tuzilgan "**Bolalik tugashi indeksi**" (**End of Childhood Index**) da **birinchi o'rinni** egallagan va **bolalar uchun eng xavfsiz davlat** maqomini qo'lga kiritgan. Mamlakatda **5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi, bolalar zo'raonligi** va **ekspluatatsiyasi juda past** darajada¹³.

Singapurda farzandli bo'lganlik uchun hukumat tomonidan **pul mukofoti** taqdim etiladi. **2023-yil** uchun **Baby Bonus tizimi** orqali **birinchi farzand** uchun jami **20 000 AQSh dollarigacha** yordam ajratiladi. Mazkur summa **beshinchi farzand** uchun

¹⁰ <https://singaporelegaladvice.com/law-articles/divorce-in-singapore/>

¹¹ <https://sso.agc.gov.sg/Act/WC1961?ProvIds=P110-#P110->

¹² <https://www.singaporedivorcelawyer.com.sg/mandatory-co-parenting-programme-cpp-2023/>

¹³ <https://www.savethechildren.net/what-we-do/advocacy-campaigns>

33 000 AQSh dollariga yetishi mumkin¹⁴. Bundan tashqari, farzandli ayol ishlaganda unga **10–25 foizgacha soliq imtiyozlari** ham taqdim etiladi. Soliq imtiyozining miqdori farzand soniga qarab oshib boradi¹⁵.

Umuman olganda, Singapurda davlat oilalarning **ilk kundan boshlab** doimiy ravishda **moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlaydi**¹⁶.

2019-yilda Singapurda 1979-yildan 1981-yilgacha oraliqda tug'ilgan **101 180 nafar** singapurlik ishtirokda oilaviy ajrimlarning bolalar hayotiga ta'siri bo'yicha tadqiqot o'tkazilgan. Respondentlarning **8,8 foizining** ota-onasi ular 21 yoshga kirgunlariga qadar ajrashib ketishgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ota-onasi ajrashgan insonlar ajrashmaganlarga nisbatan:

1. **9,2 foiz kamroq** oliy ma'lumot olgan.

2. **4,9 foiz kamroq** daromad qilgan.

3. **2,3 foizga kamroq** oila qurgan (ajrashmagan oila farzandlari – 75,9 foiz, ajrashganlar farzandlarida – 73,6 foiz).

4. **7,9 foizga** o'zlarining ajrashish holatlari ko'proq (ajrashmagan oila farzandlari – **13,8 foiz**, ajrashganlar farzandlarida – **21,7 foiz**) kuzatilgan¹⁷.

Singapurda 2016–2020-yillar oralig'ida nikohsiz tug'ilgan bolalar soni **yiliga o'rtacha 830 tani** tashkil etgan. Davlat nikohsiz tug'ilgan bolalar uchun ba'zi bonusli to'lovlarni **amalga oshirmaydi**. Buning sababi sifatida hukumatning oilalarni qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilish bilan bog'liq siyosati ko'rsatiladi¹⁸.

Mamlakatda keksa insonlarga nisbatan munosabat.

Singapurda keksa yoshli aholi sonining barqaror o'sishi kuzatilmoqda. 2020-yilda **65 yosh va undan kattalar** umumiy aholining **15,2 foizini** tashkil etgan (2010-yilda **9,0 foiz** bo'lgan).

¹⁴ <https://www.income.com.sg/blog/baby-bonus-singapore#:~:text=For%20children%20born%20from%2014,child%20turns%2012%20years%20old.>

¹⁵ <https://www.cpf.gov.sg/member/infohub/educational-resources/baby-bonus-benefits-and-support-for-new-parents>

¹⁶ <https://www.madeforfamilies.gov.sg/home>

¹⁷ INTERGENERATIONAL EFFECTS OF DIVORCE ON CHILDREN IN SINGAPORE. Research Series Paper No. 01/2020. Ministry of Social and Family Development, Republic of Singapore. https://www.msf.gov.sg/docs/default-source/research-data/msf_research_series_intergenerational_effects_of_divorce_on_children_in_singapore.pdf

¹⁸ <https://www.straitstimes.com/singapore/politics/annual-births-to-single-unwed-mothers-trending-down-since-2013-sun-xueling>; <https://singaporelegaladvice.com/law-articles/having-an-illegitimate-child-singapore/>

Keksa rezidentli uy xo'jaliklari (ya'ni kamida 1 a'zosi 65 va undan katta yoshda bo'lgan rezident uy xo'jaliklari) ulushi barcha rezident uy xo'jaliklarining 2010-yildagi **24 foizidan** 2020-yilda **34,4 foizgacha** oshdi.

Singapurda oila keksalar uchun jismoniy, moddiy va ruhiy yordamning asosiy manbai hisoblanadi. 2018-yilgi tadqiqotlarga ko'ra, 65 yosh va undan keksalarning aksariyati oilali farzandlarining **jismoniy (70,9%), moddiy (89,6%) va ruhiy (94,9%)** yordam ko'rsatishiga ishonishadi. Turmush qurmagan farzandlari bo'yicha ham deyarli shunday natija qayd etilgan (**jismoniy (81,9%), moddiy (82,8%) va ruhiy (91,3%)**).

Ijtimoiy va oilaviy rivojlanish vazirligining 2019-yilgi tadqiqotlariga ko'ra, 65 yosh va undan keksalarning **93 foizi** ahil oilasi borligini qayd etishgan.

Singapurda keksalar o'z oilalariga jismoniy va emotsional jihatdan yordam ko'rsatishga tayyor. 2019-yilda 65 yosh va undan keksalarning **92 foizi** zarur bo'lganda oilalari uchun **jismoniy ko'makka tayyorligini** (nevaralarini o'qishdan olish, uy ishlarida ko'maklashish kabi) bildirgan. **95 foizi** esa oila a'zolariga tinglash, maslahatlar berish orqali **ruhiy ko'mak berishini** bildirishgan. Bu ko'rsatkichlar 2016-yilda **94 foizga** (jismoniy ko'mak) **97 foizni** (ruhiy ko'mak) tashkil etgan.

Singapur jamiyatida keksalarga nisbatan munosabat **juda ijobiy.** Ijtimoiy va oilaviy rivojlanish vazirligining 2019-yilgi tadqiqotlarida ishtirok etgan respondentlarning **97 foizi bobobuvilar va ularning nevaralari o'zaro yaqin munosabatda bo'lishlari muhim** ekanligini, bu avlodlararo aloqalarning muhim sharti ekanligini bildirishgan¹⁹.

Singapurda kelinlarning o'z turmush o'rtog'ining ota-onasi bilan birga yashashi holati **an'anaviy** hisoblanadi. Hozirgi kunda yashash uchun **uy-joyning qimmatligi** ham bunga sabab bo'lmoqda. Qaynonalarni zarurat bo'lganda kelinlariga farzand tarbiyasi, uy yumushlarida ko'maklashadi. Qaynona-kelin o'rtasidagi munosabatlarda kam bo'lsa-da, muammolar sodir bo'lib, oilaviy ajrashishlar kuzatilishi mumkin. Lekin bunday holatlar **kamdan kam uchraydi**²⁰.

Singapurda qaynonalarning oilaviy munosabatlarda **asosiy rol** o'ynashini kuzatish

¹⁹ AGEING FAMILIES IN SINGAPORE, 2010 – 2020, Insight Series Paper 01/2022. Ministry of Social and Family Development, Republic of Singapore. https://www.msf.gov.sg/docs/default-source/research-data/ageing_families_in_singapore_2010-2020.pdf

²⁰ <https://divorcelawyer-singapore.sg/2017/11/29/mother-law-problems-singapore/>

mumkin. Xususan, nikoh to'yi bilan bog'liq **marosimlarni** tashkil etishda ham qaynonaning o'rni yuqori²¹.

Endi **Malayziyada** oila institutini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlarga to'xtalib o'tsak.

Malayziyada oila institutini mustahkamlash, oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash **davlat siyosati** darajasida ko'riladi. Bugungi kunda Malayziyada oila bilan shug'ullanuvchi bir **qator davlat tashkilotlari** faoliyat yuritib, **ularning asosiy qayd qiladigan iborat:**

Xotin-qizlar, oila va jamiyatni rivojlantirish vazirligi (Kementerian Pembangunan Wanita, Keluargadan Masyarakat) – mazkur vazirlik Malayziyada **jamiyat va oila farovonligi uchun mas'ul bo'lib, 2001-yil 17-yanvarda** tashkil etilgan. Vazir – **Nensi Shukri**²².

Vazirlikning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

– *mamlakatning taraqqiyotida ayollar, oilalar va ijtimoiy guruhlarining roli hamda faol ishtirokini ta'minlash;*

– *ayollar, oilalar va ijtimoiy guruhlarining huquqlarini ta'minlash, ularni himoya qilishda adolatli va xolis, kamsitishsiz yondashish;*

– *ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida ayollar va ijtimoiy guruhlar uchun teng imkoniyatlar yaratish;*

– *oila institutini mustahkamlash va boshqalar*²³.

Aholi va oilani rivojlantirish milliy Kengashi (LPPKN) – 1966-yilda **“Oilani rejalashtirish to'g'risida”gi Qonunga** muvofiq tashkil etilgan. Milliy Kengash (LPPKN) **2001-yildan** buyon Xotin-qizlar, oila va jamiyatni rivojlantirish vazirligi tarkibida faoliyat yuritmoqda²⁴.

Aholi va oilani rivojlantirish milliy Kengashining missiyasi – tadqiqotlar, xizmatlar va innovatsion oilani rivojlantirish dasturlari orqali **aholi, nikoh va oila** kun tartibini umumiy farovonlikka yo'naltirish²⁵.

Malayziyadagi oilani mustahkamlash bilan bog'liq qabul qilingan qonunlar, davlat dasturlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar:

²¹ <https://singaporebrides.com/articles/2012/03/dealing-with-the-mother-in-law/>

²² https://en.wikipedia.org/wiki/Ministry_of_Women,_Family_and_Community_Development

²³ <https://www.kpwkm.gov.my/kpwkm/index.php?r=portal/about&id=ck80LzFHSTA4a2paK2o1eEloZGRGUT09>

²⁴ <http://www.lppkn.gov.my/lppkngateway/frontend/web/index.php?r=portal/index>

²⁵ <http://www.lppkn.gov.my/lppkngateway/frontend/web/index.php?r=portal/article&menu=60&id=MmZPV04xYlgIdINLbm9HNURQUU9Yz09>

1. Malayziya Parlamenti tomonidan 1966-yilda qabul qilingan “**Aholi va oilani rivojlantirish to‘g‘risidagi Qonun**” (Population and family development act 1966). Mazkur qonunda oila va aholini rivojlantirish bo‘yicha mas‘ul davlat tashkilotlarining funksiyalari belgilab berilgan²⁶.

2. **Xotin-qizlar, oila va jamiyatni rivojlantirish vazirligining 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan Strategik rejasi** qabul qilingan.

Reja 8 ta strategik maqsad va 34 ta strategik qadamdan iborat. Shuningdek, 274 ta maqsadli ko‘rsatkich va unga erishish uchun 201 ta dastur ham belgilangan.

8 ta strategik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Oila instituti mustahkamlash.
2. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash.
3. Bolalarni himoya qilish va rivojlantirish.
4. Keksalar uchun qulay muhitni yaratish.
5. Nogironlarning imkoniyatlarini kengaytirish.
6. Ehtiyojmand aholiga ko‘mak berish.
7. Mamlakatning xalqaro maydonda imijini rivojlantirish.
8. Xizmat ko‘rsatishning samaradorligini oshirish²⁷.

Mamlakatda 2020-yilda jami 45 754 ta nikohdan ajrashish holati qayd etilgan bo‘lib, shundan 37 853 holatda nikoh Islom shariatiga muvofiq, taloq asosida, 7901 ta ajrashish esa umumiy talablarga ko‘ra rasmiylashtirilgan. Oilaviy ajrashishning mamlakat bo‘yicha ko‘rsatkichi 1,4 promilleni tashkil etib, mazkur ko‘rsatkich musulmonlar orasida 1,9 promilleni, musulmon bo‘lmaganlar orasida esa 0,6 promilleni tashkil etgan²⁸.

Malayziyada oilaviy munosabatlar to‘liq shariat qoidalari asosida amalga oshiriladi. Nikoh, ajrashish, meros taqsimlash, nafaqa belgilash va boshqa masalalar shariatga muvofiq amalga oshiriladi²⁹.

Musulmon bo‘lmaganlarga ajrashish jarayonini boshlash uchun nikoh tuzilganidan keyin kamida 2 yil o‘tgan bo‘lishi talab etiladi. Ajrashishga oid sud Milliy ro‘yxatga olish

²⁶ <https://online.fliphtml5.com/kxud/kqyc/#p=30>

²⁷ <https://www.kpwkm.gov.my/kpwkm/uploads/files/Dokumen/Pelan%20Strategik/PELAN%20STRATEGIK%20KPWKM%202021%20-%202025.pdf>

²⁸ 2020-2021. STATISTICS ON WOMEN, FAMILY AND COMMUNITY. P. 79. – <https://www.kpwkm.gov.my/kpwkm/uploads/files/Penerbitan/Buku%20Perangkaan/e-book%E2%80%A2KPWKM%202020-2021%20291122.pdf>

²⁹ <https://jksnpp.penang.gov.my/index.php/18-penerbitan-mahkamah/86-hak-wanita-selepas-perceraian>

bo‘limidagi Nikoh sudida amalga oshiriladi. Sudya nikohdagi bolalar manfaatini inobatga olishi, yarashtirish choralari ko‘rishi talab etiladi³⁰. Musulmon bo‘lmaganlarning nikoh va ajrim bilan bog‘liq oilaviy munosabatlari 1976-yilda qabul qilingan 164-sonli qonun bilan tartibga solinadi³¹.

Mamlakatda farzandlarga munosabat (davlat va oila hamkorligi).

Mamlakatda 2020-yilda jami 184 589 ta nikoh holati qayd etilgan bo‘lib, shundan 145 202 ta nikoh Islom shariati asosida, 39 387 ta nikoh umumiy asoslarga ko‘ra rasmiylashtirilgan³².

Malayziyada hukumat bolalar tarbiyasi bo‘yicha to‘liq tizim yaratgan bo‘lib, 2020-yilda 5326 ta ijtimoiy ta‘minot bo‘limida ro‘yxatdan o‘tgan bolalarni parvarish qilish markazlari faoliyat yuritgan. Mazkur markazlar alohida tashkilot sifatida (4006 ta), ish joylarida (344 ta), alohida jamiyat shaklida (25 ta) yoki uy xo‘jaligi asosida (951 ta) tashkil etilishi mumkin. Mazkur markazlarda jami 18 261 nafar tarbiyachilar faoliyat yuritadi³³.

Xotin-qizlar, oila va jamiyatni rivojlantirish vazirligining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2015-yilda mamlakat bo‘yicha jami 1144 ta farzand olish uchun arizalar taqdim etilgan. Davlat boquvchisini yo‘qotgan farzandlarning oilada tarbiyalanishini rag‘batlantiradi³⁴.

Mamlakatda keksa insonlarga nisbatan munosabat.

Malayziyada 2020-yilda jami 3,5 mln nafardan ortiq 60 va undan katta yoshdagi keksalar mavjud bo‘lib, ularning 48,8 foizini (1,7 mln nafari) keksa ayollar tashkil etadi³⁵.

2016-yilda Malayziyada “**Keksalar salomatligini mustahkamlash bo‘yicha harakatlar rejasi**” ishlab chiqilgan bo‘lib, unda

³⁰ https://www-malaysia-gov-my.translate.goog/portal/content/27695?language=my&_x_tr_sl=ms&_x_tr_tl=uz&_x_tr_hl=ru&_x_tr_pto=wapp&_x_tr_hist=true

³¹ <https://www.jpn.gov.my/en/faq/faq-marriage-and-divorce>

³² 2020-2021. STATISTICS ON WOMEN, FAMILY AND COMMUNITY. P. 78. – <https://www.kpwkm.gov.my/kpwkm/uploads/files/Penerbitan/Buku%20Perangkaan/e-book%E2%80%A2KPWKM%202020-2021%20291122.pdf>

³³ 2020-2021. STATISTICS ON WOMEN, FAMILY AND COMMUNITY. P. 80. – <https://www.kpwkm.gov.my/kpwkm/uploads/files/Penerbitan/Buku%20Perangkaan/e-book%E2%80%A2KPWKM%202020-2021%20291122.pdf>

³⁴ https://www.data.gov.my/data/ms_MY/dataset/statistik-permohonan-anak-pelihara

³⁵ 2020-2021. STATISTICS ON WOMEN, FAMILY AND COMMUNITY. P. 17. – <https://www.kpwkm.gov.my/kpwkm/uploads/files/Penerbitan/Buku%20Perangkaan/e-book%E2%80%A2KPWKM%202020-2021%20291122.pdf>

keksa yoshli fuqarolarning **jismoniy va ruhiy salomatligi, ularga tibbiy yordam ko'rsatish** masalalariga e'tibor qaratilgan³⁶.

Malayziyada oila instituti **an'analar asosida** qurilgan. Bugungi kunda ham mamlakatda yosh oilalarning **qaynota-qaynonalar bilan birgalikda** yashashlari odatiy hol hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, qaynonalar aralashuvi oilaviy ajrashishlarning **asosiy sabablaridan biri** sifatida qayd etiladi³⁷.

Xulosa. Singapur va Malayziya tajribasi asosida oilalarni mustahkamlash, ularda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni taqdim etish mumkin:

1. Oilaviy ajrashish bilan bog'liq sud ishlarida agarda mazkur ajrashish jarayonidagi oilada voyaga yetmagan farzandlar bo'lsa, **"majburiy ota-onalik dasturi"** singari bepul dasturlaridan o'tishni, **majburiy mediatsiya institutini** joriy etish.

2. Oilaviy ajrashish bilan bog'liq sud jarayonida mazkur ajrashish tufayli vujudga keladigan **boshqa turdagi nizolar** (mol-mulkka oid, aliment belgilash va hokazo) **to'liq hal bo'lmaguncha yakuniy ajrim belgilamaslik** amaliyotini joriy etish.

3. Oilalarning mustahkamligida keksa avlodning rolini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan

³⁶ <https://www.kpwkm.gov.my/kpwkm/uploads/files/Penerbitan/Plan/Pelan%20Tindakan%20Perkhidmatan%20Kesihatan%20Warga%20Emas.pdf>

³⁷ <https://hellodoktor.com/kesihatan-mental/hubungan-yang-sihat/punca-penceraian-di-malaysia/>

ilmiy loyihalarni rag'batlantirish, sohaga nisbatan **ko'p tarmoqli yondashuvni** shakllantirish.

4. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash kurslari doirasida bo'lg'usi **kelinlar** va **qaynonalar** uchun **shaxslararo munosabatlarni barqarorlashtirish, oilaviy nizolarning oldini olish** bo'yicha psixologik seminar-treninglar o'tkazish.

5. Yosh oilalarning o'z ota-onalari bilan doimiy aloqada bo'lib turishlari, bobo va buvilarning farzand tarbiyasida faol ishtirok etishlarini ta'minlash maqsadida uy-joy xarid qilish bilan bog'liq imtiyozli ipoteka kreditlari, subsidiyalar ajratishda **yosh oilalarning o'z ota-onalariga yaqin joydan uy xarid qilishlarini qo'llab-quvvatlash**.

6. Keksalarning oilaviy muhitini sog'lomlashtirish, farzand tarbiyasida bobo va buvilarning ishtirokini ta'minlash maqsadida an'anaviy oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash **maqsadida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish**.

7. Nikohdan ajrashish uchun **nikoh qayd etilgandan keyin minimum 2 yil o'tishi** bilan bog'liq talabni oila qonunchiligiga kiritish.

8. **Yolg'iz onalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha harakatlar rejasini** ishlab chiqish va amalga oshirish.

9. Qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash maqsadida **oilaviy psixologik ko'mak beruvchi markazlarni tashkil etish**, oila psixologi mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. https://t.me/statistika_rasmiy/3569
2. <http://www.msf.gov.sg>
3. <https://www.ecda.gov.sg/home>
4. <https://www.msf.gov.sg/who-we-are/agencies-statutory-boards-councils/early-childhood-and-development-agency-ecda>
5. <https://sso.agc.gov.sg/Act/WC1961?ProvIds=P110-#P110->
6. <https://www.singstat.gov.sg/-/media/files/news/press26072023.ashx>
7. <https://singaporelegaladvice.com/law-articles/divorce-in-singapore/>
8. <https://www.savethechildren.net/what-we-do/advocacy-campaigns>
9. <https://www.madeforfamilies.gov.sg/home>
10. Intergenerational effects of divorce on children in singapore. Research Series Paper No. 01/2020. Ministry of Social and Family Development, Republic of Singapore // https://www.msf.gov.sg/docs/default-source/research-data/msf_research_series_intergenerational_effects_of_divorce_on_children_in_singapore.pdf
11. Ageing families in singapore, 2010 – 2020, Insight Series Paper 01/2022. Ministry of Social and Family Development, Republic of Singapore. https://www.msf.gov.sg/docs/default-source/research-data/ageing_families_in_singapore_2010-2020.pdf
12. <https://www.kpwkm.gov.my/kpwkm/index.php?r=portal/about&id=ck80LzFHSTA4a2paK2o1eEloZGRGUT09>
13. <http://www.lppkn.gov.my/lppkngateway/frontend/web/index.php?r=portal/index>
14. 2020-2021. Statistics on women, family and community. P. 80. – <https://www.kpwkm.gov.my/kpwkm/uploads/files/Penerbitan/Buku%20Perangkaan/e-book%E2%80%A2KPWK%202020-2021%20291122.pdf>
15. <https://www.jpn.gov.my/en/faq/faq-marriage-and-divorce>



Hojiyev Rasulbek Boynazar o'g'li,
 "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

KREATIVLIK FENOMENI: ETIMOLOGIK VA NAZARIY EKSPLIKATSIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kreativlik fenomenini etimologik va nazariy jihatdan eksplikatsiya qilish, ya'ni izohlashga e'tibor qaratilgan. Kreativlik, fikrlash, kreativ fikrlash, kreativlikning o'lchamlari, kreativ yondashuvlar, ijodkor shaxsning xususiyatlari, kreativlik haqida noto'g'ri qarashlar, kreativlikning o'lchamlari yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: kreativlik, kreativ fikrlash, kreativ yondashuvlar, kreativ mahsulot, kreativlikning o'lchamlari, tafakkur, tushuncha.

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется этимологическому и теоретическому объяснению феномена креативности. Освещены критерии креативности, мышление, креативное мышление, измерения креативности, креативные подходы, характеристики творческой личности, заблуждения о креативности, измерения креативности.

Ключевые слова: креативность, креативное мышление, креативные подходы, креативный продукт, измерения креативности, мышление, понятие.

Annotation. This article focuses on the etymological and theoretical explanation of the phenomenon of creativity. Creativity, thinking, creative thinking, measurements of creativity, creative approaches, characteristics of a creative personality, misconceptions about creativity, measurements of creativity are covered.

Keywords: creativity, creative thinking, creative approaches, creative product, measurements of creativity, creativity, thinking, concept.

Kirish. Hozirgi dunyoda jamiyat yoki davlatlarni boshqa jamiyat va davlatlardan farqlovchi asosiy tushunchalar rivojlanish hamda taraqqiyotdir. Rivojlanish va taraqqiyot ko'plab jihatlarga ega bo'lib, ular quyidagi sohalarda namoyon bo'ladi: iqtisodiy, gumanitar, ijtimoiy, texnologik va boshqalar. Albatta, har qanday taraqqiyotning asosiy manbai – bu ta'limdir. Ta'lim va ta'lim tizimi orqali ushbu vazifalarning amalga oshirilishi insonlarning bilim va tafakkurini rivojlantirishda, mahsulotlar yaratish va boshqa sohalarda kreativ fikrlaydigan shaxsni yetishtirishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Insonni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi eng asosiy jihatlardan biri bo'lgan

kreativlik va kreativ fikrlash qobiliyatlari qadimgi mutafakkir va faylasuflardan tortib zamonamiz olimlarining qiziqishlarini o'ziga jalb qila olgan, bugungi kungacha o'z sirini saqlab kelayotgan masalalardan biridir¹.

Kreativlik bilan bog'liq bo'lgan fikrlarning Platongacha borib taqalishi haqida qarashlar mavjud².

Shu nuqtayi nazardan, kreativlik borasida dastlab falsafada, keyinchalik psixologiya, ijtimoiy

¹ Eker, A., Sak, U. Yaratıcı zıt düşünme tekniğinin (yazıd) sosyal geçerliğı, Türk Üstün Zekâ ve Eğitim Dergisi, 2016. 6(2), 71-87.

² Maba, A. Güncel yaklaşımlar çerçevesinde müziksel yaratıcılık ve değerlendirilmesi, Turkish Studies Educational Sciences, 14(3), 2019. 681-697.

fanlar, tasviriy san'at, pedagogika va boshqa fanlar bo'yicha nazariyalar ishlab chiqarilgan³.

Kreativlik va kreativ fikrlash tarixning har bir davrida jamiyatlarning diqqat-e'tiborini tortgan, biroq jamiyatlar uzoq yillar davomida buni faqat tug'ma iste'dodli va daho odamlarga xos bo'lgan intellektual jarayon yoki qobiliyat sifatida ko'rdilar. XX asrning ikkinchi yarmidan keyin kreativ fikrlashni tadqiq qilishga qaratilgan izlanishlar bu qarashning barham topishini ta'minladi. Olimlar har bir shaxsning ozmi-ko'pmi kreativlik qobiliyatiga ega ekanligini aniqladilar⁴.

Ko'p yillar davomida san'at va adabiyot kontekstida baholangan kreativlik uzoq vaqt davomida fan va texnologiyada ixtiro qilgan olimlar yoki ixtirochilarga xos xususiyat sifatida faraz qilindi⁵.

Kreativlik va kreativ fikrlash arxitektura, reklama va san'at kabi sohalarda o'zini namoyon qilgan bo'lishiga qaramasdan, XX va XXI asrda ta'limdan iqtisodiyotgacha, sog'liqni saqlashdan texnologiyagacha bo'lgan ko'plab sohalarni rivojlantirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda⁶.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda harbiy mudofaa tizimi, muhandislik va kosmonavtika sohaslarida jadal rivojlanishga erishildi. Bu holat natijasida keyingi yillarda, ayniqsa, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ham kreativlik, kreativ fikrlashni o'rganish bilan aloqador bo'lgan tadqiqotlar ko'payganini hamda kreativlik va kreativ fikrlash esa ta'limning asosiy maqsadi sifatida belgilanganini ko'rishimiz mumkin⁷.

Asosiy qism. Ta'limning asosiy maqsadlarini belgilashda muhim funksiyaga ega bo'lgan va Bloom tahriri ostida chop etilgan asarida kognitiv sohaning tasnifida ta'limning maqsadlari bilish,

³ Onur, D., Zorlu, T. Tasarım eğitiminde duyuşsal farkındalık ve yaratıcılık ilişkisi üzerine, METU Journal of the Faculty of Architecture, 2018. 35(2), 89-118.

⁴ Ariođlu, E. Yaratıcı düşünce ve eğitim. <http://www.arioglu.net/bildiriler/yaratıcıdüşünceveegitim.pdf>

⁵ Kanlı, E. Üstün yetenekli öğrencilerin bilimsel yaratıcılık düzeyleri, cinsiyet ve bilimsel tutumları arasındaki ilişkilerin incelenmesi, İlköğretim Online, 2017. 16(4), 1999. 1792-1802.

⁶ Koray, Ö. Altı düşünme şapkası ve nitelik sıralama tekniklerinin fen derslerinde uygulanmasına yönelik öğrenci görüşleri, Kuram ve Uygulamada Eğitim Yönetimi, 43, 2005. 379-400.

⁷ Rawat, K.J., Qazi, W., Hamid, S. Creativity and education, Academic Research International, 2(2), 2012. 264-275

tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash sifatida tasniflanadi⁸.

Biroq o'tgan davr mobaynida kreativlik haqidagi tadqiqotlar fan nuqtayi nazaridan kreativlik va kreativ fikrlashning ahamiyatini yanada aniqroq ochib berdi. Birginga ko'ra, sintez bosqichi baholash bosqichidan ko'ra murakkabroq ruhiy jarayonlarni o'z ichiga olgani haqidagi tanqidiy fikrlar inobatga olinib, sintez bosqichining o'rni baholash bosqichi bilan almashtirildi va ularning orasida kreativ fikrlash ham joy olgan "yuqori darajadagi fikrlash" jarayoniga alohida urg'u berilib, "ishlab chiqarish bu – yaratish" deb o'zgartirildi.

Shunday qilib, dastlabki tasniflash bilim, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash bosqichlari qayta ko'rib chiqilganidan keyin eslash, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash, ishlab chiqarish (yaratish) shaklida namoyon bo'lmoqda.

Ahamiyati va funksiyasi tufayli ta'lim maqsadlari iyerarxiyasining eng yuqori pog'onasidan joy olgan kreativlik bugungi kunda ko'plab mamlakatlar qatori bizning mamlakatimiz ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biriga aylanib bormoqda.

Boshlang'ich ta'limdan to universitetgacha bo'lgan barcha ta'lim dasturlarida va darslarda shaxslarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan.

Kreativlik va kreativ fikrlash bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu qobiliyatlar har bir insonda mavjud va uni ta'lim orqali rivojlantirish mumkin.

Demak, yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim bilan rivojlanishi mumkin bo'lgan kreativlik va kreativ fikrlash qobiliyatlari ham ta'lim tizimining muhim natijasi sifatida baholanadi.

Ushbu jarayonda ta'lim muassasalari kreativ fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalashi, shaxsning bunday xususiyatlarini rivojlantirishi, hech bo'lmaganda, bu boradagi mavjud salohiyatini ham yo'q qilmasligi lozim.

Kreativlik bugungi ilm-fan taraqqiyotiga qaramay, anglash va ta'riflash qiyin bo'lgan tushunchalardan biridir. Ko'p qirrali fenomen

⁸ Bloom, B.S. (Ed.), Engelhart, M. D., Furst, E. J., Hill, W. H., Krathwohl, D. R. (1956). Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals, Handbook 1: Cognitive Domain, New York: David McKay.

bo'lgan kreativlik tushunchasi tadqiqotchilar tomonidan yo'nalishlar, oqimlarning yondashuvlari va xususiyatlariga ko'ra turli nuqtayi nazarlardan ko'rib chiqilmoqda va adabiyotlarda turli xil shakllarda ta'riflanmoqda⁹.

Kreativlik tushunchasi lotincha "creare" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uning ingliz tilidagi ekvivalenti "creativity"dir. Bu so'z "yaratmoq, tug'dirmoq, yuzaga keltirmoq" ma'nosida qo'llanmoqda¹⁰.

Kreativlik so'zma-so'z holatda "yaratuvchanlik holati; har bir shaxsda u mavjud deb qabul qilingan va biror narsani yaratishga undaydigan gipotetik moyillik" sifatida ta'riflanadi¹¹.

Kreativlik tushunchasining lug'aviy ma'nosi ingliz tilida "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, yaratish qobiliyati bo'lgan, tasavvur qilish va taffakur kuchi yordamida yangi bilimlarni yoki narsalarni yaratuvchi ijodkor shaxs ma'nolarini anglatadi¹².

Kreativlik tushunchasiga ma'no jihatdan yaqin bo'lsa-da, adabiyotlarda turli yondashuvlardan kelib chiqqan holda o'ziga xos ko'plab ta'riflar mavjud. Quyida ularning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz.

Kreativlikni nuqsonlarni, muammolarni, bilim yetishmasligi, yetishmayotgan narsalar va nomuvofiqlikni ilg'ay olish, ularga yechim izlash, qiyinchiliklarni aniqlash, hozirjavoblik, kamchiliklar haqida gipotezalarni ishlab chiqish va qo'llash, ularni almashtirish hamda qayta sinovdan o'tkazish va natijani e'lon qilish deb ta'riflash mumkin¹³.

Kreativlik stereotiplarni buzish, odatiy fikrlashdan tashqariga chiqish, boshqalarning tajribalariga nisbatan ochiq bo'lish, dogmatik qarashlarni parchalash, noma'lum va yangi fikrlar tomon intilish, yangi g'oyalar ishlab chiqish, muammo uchun muqobil yechimlarni o'rtaga qo'yish, boshqa g'oyalarga sabab bo'ladigan yangi g'oya topish, boshqalarning yo'lidan yurmaslik, yangi fikrlarni ilgari surish, yangi munosabatlarga

⁹ Onur, D., Zorlu, T. Yaratıcılık kavramı ile ilişkili kuramsal yaklaşımlar, İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi, 6(3), 2017. 1535-1552.

¹⁰ San, İ. Sanat ve eğitimi: Yaratıcılık, temel sanat kuramları, sanat eleştirisi yaklaşımları, Ankara:Ütopya Yayınla, 2004.

¹¹ <https://sozluk.gov.tr>

¹² <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/creativity>

¹³ Özden, Y. Öğrenme ve öğretme, Ankara: Pegem A Yayıncılık, 2005.

kirishish, noma'lum bo'lgan yangi metodlarni ixtiro qilish yoki odamlar uchun foydali bo'lgan jihozlar va asbob-uskunalarini yasashdir¹⁴.

P.Torrens ta'rifiga ko'ra, kreativlik kamchiliklar, yetishmayotgan qismlar, muammolar, bilimlardagi bo'shliqlar, nomuvofiqliklar (tartibsizliklar) va hokazolarga nisbatan sezgir bo'lish, qiyinchiliklarni aniqlash hamda ularga yechim izlash, bashorat qilish yoki bu kamchiliklar haqida farazlarni yaratish, ushbu farazlarni sinovdan o'tkazish, qayta sinovdan o'tkazish va farazlarni o'zgartirish orqali xulosaga kelish jarayonidir¹⁵.

Kreativlik faqat original va yangi mahsulot yaratish emas, balki mavjud ma'lumotlarni sintez qilish, muammolarga alternativ yechimlarni topish, yangi vaziyatlarga moslashish va obyektlarning funksiyasi haqida g'ayrioddiy fikrlay olishdir¹⁶.

Bessis va Jaquilarning fikricha, kreativlik faqatgina yo'qdan bor qilishni anglatmaydi. Chunki yangi g'oya ko'pincha yo ma'lum g'oyalar birikmasi yoki eski g'oyaning yangicha shakldagi ko'rinishidir. Bu nuqtayi nazardan kreativlik eski g'oyalarga yangi o'ziga xosliklar berish va ma'lumlaridan yangi sintezlarni yaratish faoliyati sifatida ham belgilanishi mumkin¹⁷.

Ta'riflardan ko'rinib turibdiki, kreativlik har bir sohada intellektual va ta'sirchan qobiliyat sifatida qabul qilinsa-da, unga aniq ta'rif berish qiyin. Tegishli ta'riflar kreativlikni murakkab fikrlash usuli ekanligidan dalolat bermoqda¹⁸.

Shunga qaramay, kreativlikning ta'riflaridagi umumiy nuqta – bu "yangi g'oya, noodatiy fikrlash yoki original mahsulot" ekanligi va yuzaga kelgan natijaga qarab baholash mumkinligida¹⁹.

¹⁴ Rıza, E.T. Kalıplaşma ve yaratıcılık, Yaşadıkça Eğitim, 2000. 65, 4-7.

¹⁵ Güngör, İ. Anadolu Lisesi öğrencilerinin yaratıcı düşünme düzeylerinin kişisel uyum, sosyal uyum, genel yetenek ve akademik başarı ile ilişkisi, Yüksek lisans tezi, Ankara Üniversitesi, Eğitim Bilimleri Enstitüsü. 2007.

¹⁶ Karataş, S., Özcan, S. Yaratıcı düşünme etkinliklerinin öğrencilerin yaratıcı düşüncelerine ve proje geliştirmelerine etkisi, Ahi Evran Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi, 2010. 11(1), 225-243.

¹⁷ Bessis, P., Jaqui, H. Yaratıcılık nedir? (Çev. S. Gürbaşkan), İstanbul: İstanbul Reklam Yayınl. 1973.

¹⁸ Özerbaş, M.A. Yaratıcı düşünme öğrenme ortamının akademik başarı ve bilgilerin kalıcılığına etkisi, Gazi Eğitim Fakültesi Dergisi, 2011. 31(3), 675-705

¹⁹ Çeliköz, N. Okul öncesi dönem 5-6 yaş çocukların yaratıcılık düzeylerinin incelenmesi, YILDIZ Journal of Educational Research, 2017. 2(1), 125.

Umumiy olib qaraganda, kreativlikka oid ta'riflardan shu narsa anglashiladiki, yangilik, innovatsiya, o'ziga xoslik va ixtiro tushunchalariga alohida urg'u berilgani yaqqol ko'zga tashlanadi²⁰.

Kreativlik, innovatsiya va o'zgarish bir-birini chalkashtirib yuborishi mumkin bo'lgan uchta tushunchadir.

Xususan, kreativlik va innovatsiyani sinonim deb o'ylash mumkin.

Kreativlik – bu har bir sohada foydali yangi g'oyalalar va ma'lumotlar ishlab chiqarishdir. Innovatsiyani esa kreativ g'oyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish deb ta'riflash mumkin. Shunday ekan, kreativlik innovatsiyaning psixologik in'ikoslarining urug'i va innovatsiyaning boshlang'ich nuqtasi sifatida qaraladi. Kreativlik innovatsiya uchun zarurdir, lekin faqat o'zi yetarli emas²¹.

Kreativlik innovatsiyalarni keltirib chiqaradigan aqliy faoliyat, innovatsiya esa kreativlikning tashqi ko'rinishi va aniq natijasidir. Kreativlik har qanday mavzuda yoki darajada mavjud vaziyatni yaxshilash va innovatsiyalarni vujudga keltirish uchun ishlatiladi. Shuning uchun ham innovatsiya tushunchasi rivojlanish va o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq. O'zgarish yangi narsalar yaratilishini yoki o'rta chiqishini, taraqqiyot esa innovatsiyalarning mavjud ekanligini anglatadi²².

P.Torrensning fikricha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagilar yotadi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik. Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin²³.

²⁰ Gizir Ergen, Z., Köksal Akyol, A. Anaokuluna devam eden çocukların yaratıcılıklarının incelenmesi, Kuramsal Eğitim ilim Dergisi, 2012. 5(2), 156-170.

²¹ Duran, C., Saraçoğlu, M. Yeniliğin yaratıcılıkla olan ilişkisi ve yeniliği geliştirme süreci, Yönetim ve Ekonomi, 2009. 16(1), 57-71

²² Yıldırım, E. Bilgi çağında yaratıcılığın ve yaratıcılığı yönetmenin önemi, Selçuk Üniversitesi Karaman İ.İ.B.F. Dergisi, 2007. 12(9), 109-120.

²³ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

Torrensning ushbu fikrlari, asosan, maktab yoshidagi bolalarda kreativlik qobiliyatlarini aniqlashga bag'ishlangani uchun tor doirada yondashilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bizning fikrimizcha esa kreativlik negizida quyidagi elementlar yotadi:

- aql;
- bilim;
- fikrlash uslublari;
- shaxsiyat;
- motivatsiya;
- atrof-muhit.

Ushbu faktorlar bevosita bir-biri bilan bog'liq bo'lgan va biri ikkinchisini taqozo etadigan elementlardir, aslida. Zero, aql yordamida bilimga ega bo'lishimiz, bilim yordamida fikrlashimiz, shaxsiy qobiliyatlarimiz yordamida fikrlash uslublarmiz ham o'ziga xos bo'lishini, fikrlash uslublarmizga atrof-muhitning ham ta'siri mavjud ekanligini unutmasligimiz kerak. Motivatsiya esa kreativ fikrlarni vujudga keltirishda ozuqa manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Kreativlik, aslida, oldinda mavjud bo'lgan fikrlarning ustida yangi aloqlarni o'rnatishdir. Oldindan mavjud bo'lgan ikki fikrni, oldindan mavjud bo'lmagan shaklda bir joyga jamlashdir. Ya'ni kreativlik bir fikrni yoki g'oyani ilk marotaba yaratish degani emas. Bir nechta fikrlarni o'zaro birlashtirib, yangi bir ma'no kasb etish demakdir.

Kreativ yondashuvlar.

Kreativlik tushunchasining adabiyotlarda o'z o'rnini egallashiga imkon beradigan manbalar va ta'riflari xususidagi yondashuvlarini beshta guruhga bo'lish mumkin²⁴:

Ratsional yondashuv. Ushbu yondashuvni qo'llab-quvvatlovchi tadqiqotchilar kreativlik aqliy va kognitiv faoliyat ekanligini ta'kidlaydi. Kreativlikka sirli hodisa sifatida emas, balki shaxsning o'z ongidan original va samarali foydalanish usuli sifatida yondashadi. Ratsional yondashuvga ko'ra, kreativlik: fikrlash, muhokama qilish, birlashtirish yoki muammoni hal qilishning bir turi sifatida ko'riladi.

Shaxsiyat va individual xususiyatlar. Berkley Shaxsiyatni baholash ilmiy-tadqiqoti instituti (IPAR – Institute of Personality Assessment and Research)

²⁴ Aslan, E. Torrance yaratıcı düşünce testi'nin Türkçe versiyonu, M.Ü. Atatürk Eğitim Fakültesi Eğitim Bilimleri Dergisi, 2001. 14, 19-40.

tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda olimlar, rassomlar, yozuvchilar va boshqa shaxslardan tashkil topgan tajriba guruhlarida juda kreativ va kreativ bo'lmagan juftlarni taqqoslash orqali kreativ shaxslarning determinantlarini psixoanalitik tahlillar hamda klassik shaxsiyat nazariyalariga asoslangan nazariyalar tomonidan yaratilgan ma'lumotlar bilan solishtirib, shaxsiyat xususiyatlarini aniqladi. Xulosalarga asoslanib, u kreativlikni individual xususiyatlar nuqtayi nazaridan belgilaydi.

Ijtimoiy va shaxslararo omillar. Hayotdagi rolimiz, qadriyatlar va umidlar, mukofotlar, normalar va sertifikatlashtirish organlariga tayanib qo'llab-quvvatlanadigan kreativ ifodalarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Antropologik, ekologik va sotsiologik jihatdan kreativlikni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillarni belgilaydi.

Hayot tarzi. Ijodkor shaxslarning turmush tarziga asoslangan kreativlik kundalik hayotga moslashish nuqtayi nazarini qabul qiladigan yondashuv bo'lib, o'zligini anglash, kamolotga erishish, shaxsiy qoniqish, shaxsiy o'sish yoki o'zini hurmat qilishi orqali namoyon bo'ladi.

Mantiqiy bo'lmagan jihat. Biokimyo, neyropsixologiya va boshqa fanlardagi tadqiqotlar jismoniy, biologik va psixologik omillarning o'zaro ta'sirini o'rganadi. Kreativlikni qabul qilingan ma'lumotlarni boshqacha tarzda qayta ishlash, dunyoni boshqacha idrok qilish yoki uni original tizim sifatida qabul qilish shaklida ko'radi.

Ijodkor shaxsning xususiyatlari.

Ijodkor shaxsda, avvalo, qiziquvchanlik, ixtiro qilish qobiliyati, sabr-toqat, sarguzashtli fikrlash, xayolparast (tasavvur qila oladigan) va tasvirlay oladigan, tajriba va izlanishlardan qochmaslik, xulosa chiqarish jarayonida analiz va sintez qila olish kabi xususiyatlar bo'lishi kerak.

Kreativlik va kreativ fikrlashning ta'riflari fanlar, yondashuvlar va oqimlarga ko'ra farq qilsada, kreativ shaxsning xususiyatlari haqida umumiy tushunchalar mavjud. Ijodkor shaxsning umumiy xususiyatlari quyidagilardir:

- mag'rur va kamtar;
- sokin va erkin, yuqori energiyaga ega;
- fantaziyalarga boy, xayol va haqiqat o'rtasida yashaydi;
- intizom, zavq va mas'uliyatni birlashtira oladi;
- konfliktlardan o'zini himoya qiladi;

- aqlli, havaskor va tajribasiz, lekin yangi tajribalarga ochiq;

- sarguzasht izlovchi, qiziquvchan, quvnoq, jonli va intuitiv xarakterga ega;

- hodisalarga sezgir, qiziquvchan va e'tiborli, kuzatish qobiliyati yuqori;

- to'g'ri deb qabul qilingan fikrlarni ham tanqid qiladi, bilimlardagi kamchiliklarni topa oladi, baham ko'rishga doimo tayyor;

- jasur, tavakkalchi, o'ziga bo'lgan ishonchi yuqori, sofdil va ishonchli;

- g'ayratli, irodali, idealist, qat'iyatli, tajriba o'tkazishga ishtiyoqli;

- mustaqil va yolg'iz qolishni yaxshi ko'radi, kerak bo'lsa, uzoq vaqt ishlay oladi;

- ta'sirchan va ochiq fikrli bo'lishi, hatto bu unga zarar yetkazsa ham, ushbu xislatini boshqalardan berkitmaydi;

- o'z ishida shijoatli va otashin, subyektiv fikrlay oladi, oson yechimlarni yoqtirmaydi;

- vaqti-vaqti bilan yolg'iz qolishga ehtiyoj sezadi, chuqur o'ylaydi va o'zgaruvchan voqeliklarga yechim topa oladi;

- oddiy odamning ko'rinishini aks ettirishiga qaramasdan, o'ziga xos va noyob shaxsning mayllarini namoyon qiladi;

- ravonlik (belgilangan vaqt ichida turli takliflar berish), moslashuvchanlik (obyektlar uchun turli xil foydalanishni taklif qilish) va ishlab chiqish (og'zaki yoki vizual tafsilot, tafsilotlarni sezish va ko'rish);

- o'zini hurmat qilish, muvaffaqiyat, mantiqiy fikrlash, shubhalanish, taxmin qila olish, idealist bo'lish, o'ziga ishonch, hazilkashlik, qiyoslash, moslashuvchanlik, originallik, mulohazalar va g'oyalarda erkin bo'lish, yangi g'oyalarga ochiqlik, tanqid qila olish va tanqidga ochiqlik, ravonlik, tez fikrlash va harakat qilish, tez tushunish, yangilikka o'chlik, betakrorlik, fikrlarni birlashtira olish kreativ shaxsning asosiy xususiyatlaridir²⁵.

²⁵ Saban, A. Öğrenme öğretme süreci: Yeni teori ve yaklaşımlar, Ankara: Nobel Yayın Dağıtım, 2004; Ercivan Zencirci, D. Görsel sanatlar öğretmeni adaylarında özgün baskının yaratıcı düşünme becerileri ve öz-yeterlik algısı üzerindeki yansımaları. Doktora tezi, Dokuz Eylül Üniversitesi, Eğitim Bilimleri Enstitüsü, 2008; Starko, A.J. Creativity in the classroom: Schools of curious delight, New York, Routledge Madison Ave, 2010; Öztürk, Ş. Eğitimde yaratıcı düşünme, Ondokuz Mayıs Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi, 2004. (18), 77-84.

Kreativlik haqida noto'g'ri qarashlar.

Kreativlik – bu bugungi kunda muhim bo'lgan, ammo tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradigan tushunchadir. Kreativlik haqidagi tushunmovchiliklarni quyidagicha umumlashtirish mumkin²⁶:

Ijod faqat ma'lum sohalarda sodir bo'ladi: kreativlik odatda musiqa, adabiyot va san'at kabi sohalarda bo'ladi, degan umumiy fikr mavjud. Faqat ushbu sohalargagina xos tushuncha bo'lmagan kreativlik hamma joyda, hayotning har bir qismida, har sohada va boshqa fanlarda ham mavjud.

Kreativlik yuqori darajadagi iste'dod va aql-zakovatni talab qiladi: “kreativlik yuksak aql-zakovat va iste'dodni talab qiladi”, degan qarash kreativlikka oid yana bir yangilash yondashuvdir. Kreativlik bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori intellektga ega odamlar har doim ham ijodkor bo'lavermaydi.

Ijodkor odamlar hech qanday kuch sarflamasdan kreativ mahsulotlarni yaratishi mumkin: “kreativlik birdaniga ilhom kelishi natijasida to'satdan paydo bo'ladi, hech qanday harakat qilishga hojat yo'q” degan qarash kreativlik haqidagi yana bir noto'g'ri yondashuvdir. Aksincha, kreativ mahsulot uchun ishlab chiqarish qizg'in va doimiy harakat talab etiladi. Fan va insoniyat sivilizatsiyasi tarixida bunga yetarlicha misol keltirish mumkin. Zero, Edison uzoq va mashaqqatli sinovlardan so'nggina elektr lampasini ixtiro qildi.

Giyohvand va psixotrop moddalarni iste'mol qilish kreativlikni oshiradi: “giyohvand moddalar yoki boshqa psixotrop moddalardan foydalanish ongni sokinlashtiradi, kreativlik esa bunday erkin muhitda yaxshiroq va ko'proq rivojlanadi”, degan qarash yana bir noto'g'ri yondashuvdir. To'g'ri, ijod moslashuvchan va erkin muhitda ongda rivojlanadi. Biroq shu bilan birga, ong tizimli va nazorat ostida ishlashi kerak. Ushbu vaziyatda esa giyohvand va psixotrop moddalar bunga to'sqinlik qiluvchi omildir.

Ijodkor odamlar ruhiy jihatdan beqaror bo'ladi: ba'zi odamlar ijodkorlar va jamiyatda “aqlidan ozgan” deb qaraladigan odamlarni bir-biriga juda o'xshash deb hisoblashadi. Biroq bu nuqtayi nazardan farqli o'laroq, tadqiqotlar natijasi

²⁶ Doğanay, A. Öğretim ilke ve yöntemleri (Ed. A.Doğanay), Üst düzey düşünme becerilerinin öğretimi içinde (s. 303-356), Ankara, Pegem Akademi Yayınları, 2012.

kreativlik sog'lom zehnga ega bo'lgan kishilarda uchrashini ko'rsatdi. Bunday fikrga borishning asosiy sababi kreativ shaxslarning jamiyatdagi ma'lum qoidalarga va normalarga nisbatan farqli yondashishlari sababli jamiyatda ularga nisbatan “telba” deb qarashlaridadir.

Kreativlikning o'lechlari. Kreativlik bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar kreativlik to'rtta asosiy o'lehovdan iborat ekanligini ta'kidlaganlar. Kreativlikning asosiy o'lechlari va o'lechlarning umumiy xususiyatlarini quyidagicha tushuntirish mumkin:

Ravonlik: xotirada saqlangan ma'lumotlardan kerak bo'lganda ravon va tez foydalanish mumkinligi. Ravonlik, shuningdek, tezda yechim topish va ko'p g'oyalarga ega bo'lishni anglatadi. Masalan, meteorologiya so'zidan metr, gol, temir, tor, rom, litr, va boshqa shu kabi so'zlarni hosil qilish mumkin.

Moslashuvchanlik: muammoni hal qilishda, ongda mavjud qoliplarni buzish orqali erkin fikrlashga urg'u beradi. Kreativ xatti-harakatlarni turli yo'llar bilan ko'rsatish, vazifa ichidagi o'zgarishlar hamda vazifani bajarishda strategiyani o'zgartirish uslubiga o'tish orqali fikrni bir yo'nalishdan ikkinchisiga o'zgartirishdir. Tanqidiy fikrlaydigan shaxslar nuqtayi nazaridan aqliy moslashuvchanlikning yo'qligi yoki kamligi salbiy omil hisoblanadi. Dogmatik qarash nafaqat tanqidiy fikrlash kuchini, balki ko'plab shaxsiy xususiyatlarning yo'qolishiga ham olib kelishi mumkin.

O'ziga xoslik (originallik): bu duch kelgan muammoga turli xil yoki g'ayrioddiy yechimlarni ishlab chiqarish qobiliyatidir. Bu hodisa yoki mavzu bo'yicha turli va o'ziga xos reaksiyalarni ko'rsata olishdir. “Chiqindi qog'ozlardan qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?” muammosini hal qilishda erishilgan yechim boshqa bironing yechimi bilan bir xil bo'lsa, bu yerda o'ziga xoslik haqida gapirishga hojat yo'q.

Mukammallik (tafsilotlarni o'rganish – boyitish): boyitish, fikrlash doirasini kengaytirishni, g'oyalarni to'plashni va tafsilotlarni berishni talab qiladi. Bayon etilgan fikrlar yoki g'oyalar natijalaridagi barcha tafsilotlarning aks etishi bu – berilgan tafsilotlarda ham eng yaxshi fikrlarni o'z ichiga olishidir. Hodisa, obyekt, ma'lumotlarning mayda tafsilotlarigacha sinchkovlik bilan tahlil

qilish baholashdan iborat. Mukammallik – biror narsaning o‘xshash va farqli jihatini aniqlab, uni tasniflash va saralash orqali unga estetik qiymat berishdir²⁷.

Tafakkur va tushuncha.

Tafakkur (arabcha “fikrlash, aqliy bilish”) – predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya’ni qonuniy bog‘lanishlarni aks ettiradigan bilishning ratsional bosqichi²⁸.

Arabchadan olingan “tafakkur” va ingliz tilidagi “thinking” so‘zlarining ekvivalenti hisoblanadigan “fikrlash” tushunchasi; ajratish, qiyoslash, bog‘lanishlarni birlashtirish va shakllarni tushunish qobiliyatidir²⁹.

Lingvistik ramzlar orqali shakllanadigan va uyushgan aqliy jarayonning mahsuli bo‘lgan tafakkur kontseptual bo‘lib, til orqali paydo bo‘ladi. Tafakkur; tajriba, kuzatish, sezgi, fikrlash va boshqa kanallar orqali olingan bilimlarni konsepsiyalash, qo‘llash, tahlil qilish va baholash intizomi shaklini ifodalaydi. Fikrlashni mavjud bilimlardan boshqa yangi narsalar hosil qilish, boshqa narsaga erishish va olingan bilimdan ham yuqoriroq natijaga erishish sifatida belgilash ham mumkin³⁰.

Tafakkur tushunchasi ba’zan tushuncha termini bilan aralashib ketadi va natijada noto‘g‘ri tushuncha paydo bo‘ladi. Tushuncha zamon va makondan tashqari, subyektga bog‘liq bo‘lmagan holda, o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lgan, faqat hislar orqali emas, balki ruhan idrok etiladigan real voqelik haqidagi fikr, g‘oya sifatida belgilanadi³¹.

²⁷ Duman, B. Öğretim ilke ve yöntemleri (Ed. G. Ocak), Eğitimde çağdaş yaklaşımlar içinde (s. 337-441), Ankara, Pegem Akademi, 2011.; Doğanay, A. Öğretim ilke ve yöntemleri (Ed. A. Doğanay), Üst düzey düşünme becerilerinin öğretimi içinde (s. 303-356), Ankara, Pegem Akademi Yayınları, 2012; Ersoy, E. ve Başer, N. İlköğretim 6. sınıf öğrencilerinin yaratıcı düşünme düzeyleri, Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi, 2009. 2(9), 128-137; Dere, Z. Yaratıcılık ve geliştirilmesi dersinin öğretmen adaylarının yaratıcılıklarına etkisinin incelenmesi. Social Sciences Studies Journal, 2017. 3(10), 119.

²⁸ Falsafa qomusiy lug‘at. – T. “Sharq”, 2004. – B. 390. [https://n.ziyouz.com/books/lugatlar/Falsafa%20\(qomusiy%20lug'at\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/lugatlar/Falsafa%20(qomusiy%20lug'at).pdf)

²⁹ <https://sozluk.gov.tr>

³⁰ Aydın, A. Gelişim ve öğrenme psikolojisi, İstanbul:Alfa Yayıncılık, 2000; Özden, Y. Öğrenme ve öğretme, Ankara:Pegem A Yayıncılık; 2005; Yıldırım, E. Bilgi çağında yaratıcılığın ve yaratıcılığı yönetmenin önemi, Selçuk Üniversitesi Karaman İ.İ.B.F. Dergisi, 2007. 12(9), 109-120.

³¹ <https://sozluk.gov.tr>

Tushuncha – narsa va hodisalarning umumiy muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli³².

Mavzu bo‘yicha Binboshio‘g‘li (Binbaşioğlu) tafakkurni aqlning muayyan mavzu bo‘yicha tegishli ma’lumotlarni solishtirish va ular orasidagi aloqalarni tekshirish orqali qaror qabul qilish jarayoni; tushunchani esa tafakkur natijasida vujudga keladigan yoki ongda paydo bo‘ladigan fikr, g‘oya, mahsulot sifatida ta’riflaydi.

Tafakkur ta’limi dasturida tafakkur muayyan natijaga erishish uchun ma’lumot va tushunchalarni o‘rganishni, ularni o‘zaro taqqoslash orqali ular o‘rtasida bog‘liqlikni vujudga keltirish jarayoni; tushuncha esa tafakkur jarayoni natijasida paydo bo‘lgan aqliy mahsulot sifatida ta’riflanadi³³.

Kreativ fikrlash. Shaxslar duch keladigan notanish vaziyatlarga turli xil yechimlarni taklif qilishda, samarali muloqot qilishda va o‘zlarini rivojlantirish uchun foydali fikrlar, imkoniyatlar yoki muqobil variantlarni vujudga keltirishda kreativ fikrlash qobiliyati muhim masala sifatida e’tiborni o‘ziga jalb qilmoqda³⁴ (Karlıdağ, 2018).

Kreativ fikrlash ehtiyojlarimiz doirasida duch kelishimiz mumkin bo‘lgan, yangi g‘oyalarimizga shakl berish qobiliyatidir. Muammo bilan bog‘liq zarur mezonlarni hisobga olgan holda asl, boshqacha qilib aytganda, tegishli mahsulot yoki natijalarni olishdir³⁵.

Kreativ fikrlash shaxslar duch keladigan muammolarni tushunish orqali ularning ichigacha kirib borish, hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini ta’minlash natijasida muammoni hal qilish uchun turli taxmin va takliflar berish, ushbu muammolarni hal qilish uchun muqobil yechimlar ishlab chiqish, natijalarni taqqoslash orqali o‘zgarishlarga ochiq bo‘lgan turli xil mahsulotlarni yaratish, original va innovatsion nuqtayi nazar bilan odatdagidan tashqariga chiqish usulidir³⁶.

³² Falsafa qomusiy lug‘at. – Toshkent: “Sharq”, 2004. – B. 406.

³³ MEB. Düşünme eğitimi dersi 6,7,8. sınıf öğretmen kılavuz kitabı, Ankara, MEB Yayınları. 2007.

³⁴ Karlıdağ, İ. Okul öncesi öğretmenlerinin yaratıcılık kavramına ilişkin görüşleri, Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi, 2018. 11(56), 36.

³⁵ Kaya, B. Sosyal bilgiler öğretmen adaylarının düşünme becerilerinin öğretimine yönelik öz-yeterliklerinin değerlendirilmesi, Doktora tezi, Gazi Üniversitesi, Eğitim Bilimleri Enstitüsü. 2008.

³⁶ Üstündağ, T. Yaratıcılığa yolculuk, Ankara, Pegem Akademi. 2014.

Yangilik izlovchi yoki eski savollarga yangi yechimlar taklif qiladigan va original fikrlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladigan tafakkur shaklidir³⁷.

Yuqori darajadagi kognitiv qobiliyatlardan biri bo'lgan kreativ fikrlash, mahsulot yaratish, ixtiro va uning qanday paydo bo'lishini ko'rsatish, taxmin qilish, belgilash, tasavvur qilish, original fikrlarni yaratish va turli vaziyatlarda nima bo'lishi mumkinligini oldindan bashorat qilish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi³⁸.

Ushbu ta'riflar va adabiyotlardagi boshqa ta'riflarga asoslanib, kreativ fikrlashning xarakterli xususiyatlarini quyidagicha sanab o'tish mumkin³⁹:

Fikrlashning moslashuvchanligi, fikrlashning ravonligi, o'ziga xosligi, muammolarni ko'rish yoki ularga nisbatan sezgirlik, qayta aniqlash, noaniqlikka toqat qilish, tafsilotlarga kirish, konvergent va divergent fikrlashga qiziqish, yuqori darajadagi o'z-o'zini tarbiyalash, boshqalardan farqli bo'lish va an'analarga qarshi chiqish istagi, yuqori darajadagi mukammallik standarti, tavakkal qilishga tayyorlik, o'zi faoliyat ko'rsatayotgan muhitga innovatsiyalar olib kelishi.

Kreativlik va kreativ fikrlash turli tushunchalar bo'lsa-da, ular ba'zan bir-birining o'rnida ishlatiladi. Kreativlik aqliy va mehnatga asoslangan faoliyatga o'xshasa, kreativ fikrlash, asosan, aqliy faoliyatga asoslanishiga ishora qilmoqda. Kreativlik kreativ fikrlashdan ko'ra kengroq tushunchadir⁴⁰.

Kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish (qobiliyat, o'zlashtirish) bevosita shaxslarning kreativligiga ta'sir qiladi. Kreativlik va kreativ fikrlash tug'ma bo'lgan va tug'ilgandan so'ng ijobiy muhit sharoitlarida rivojlanadigan, noqulay ijtimoiy muhit sharoitlarda esa turg'unlik kasb etadigan yoki unutilib ketadigan mahorat sifatida qaraladi. Albatta, shaxslar, jamiyatlar va davlatlar

³⁷ Özden, Y. Öğrenme ve öğretme, Ankara: Pegem A Yayıncılık. 2005.

³⁸ Hançerlioğlu, O. Felsefe ansiklopedisi: Kavramlar ve akımlar-7. İstanbul: Remzi Kitabevi 2000; Sternberg, R.J. ve Grigorenko, E.I. Successful intelligence in the classroom, Theory into Practice, 2004. 43(4), 274-280.

³⁹ İnan, C. ve Özgen, K. Matematik öğretmen adaylarının öğretmenlik uygulaması sürecinde öğrencilere düşünme becerilerini kazandırmadaki yeterliliklerine yönelik görüşlerinin değerlendirilmesi, Elektronik Sosyal Bilimler Dergisi, 2008.7(25), 39-54.

⁴⁰ Doğan, N. Eğitimde yeni yönelimler (Ed. Ö. Demirel), Yaratıcı düşünme ve yaratıcılık içinde (s. 167-192), Ankara, Pegem A Yayıncılık. 2007.

bu mahoratning rivojlanishini xohlaydi yoki istashi kerak. Iqtisodiyot, fan, sanoat, texnika, qishloq xo'jaligi, savdo va hakoza kabi ko'plab sohalarda taraqqiyot shiddat bilan kechayotgan bugungi dunyoda shaxsning kreativligi, kreativ fikrlash qobiliyatlari o'tmishdagiga qaraganda ko'proq birinchi o'ringa chiqib, ularning ahamiyati tobora ortib bormoqda⁴¹.

Xulosa. Kreativlik va kreativ fikrlash ko'plab sohalarda, jumladan, mamlakatimizda ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan va milliy ta'lim dasturlarining umumiy maqsadlaridan biridir. Hozirgi paytda mamlakatlar bir-biri bilan ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, harbiy va boshqa jihatdan o'zaro raqobat qilishlari va eng muhimi ushbu jabhalarda mamlakatning rivojlanishi uchun ta'lim jarayonining mahsuli bo'lgan talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs bo'lishi orqaligina amalga oshirilishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, kreativlik va kreativ fikrlash qobiliyatlariga ega bo'lish, bu ko'nikmalarni ro'yobga chiqarish, payqash va ulardan foydalanishning asosiy shartlaridan biri tegishli tushunchalarni qamrab oluvchi va nazariy bir butunlik sifatida ko'rib chiqish hamda bilishdir.

⁴¹ Yeşilyurt, E. (2020). Yaratıcılık ve yaratıcı düşünme: Tüm boyut ve paydaşlarıyla kapsayıcı bir derleme çalışması. OPUS-Uluslararası Toplum Araştırmaları Dergisi, 15(25), 3874-3915.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aslan, E. Torrance yaratıcı düşünce testi'nin Türkçe versiyonu, M.Ü. Atatürk Eğitim Fakültesi Eğitim Bilimleri Dergisi, 2001.14, – S.19-40.
2. Dere, Z. Yaratıcılık ve geliştirilmesi dersinin öğretmen adaylarının yaratıcılıklarına etkisinin incelenmesi. Social Sciences Studies Journal, 3(10), 119.
3. Duran, C., Saraçoğlu, M. (2009). Yeniliğin yaratıcılıkla olan ilişkisi ve yeniliği geliştirme süreci, Yönetim ve Ekonomi, 2017. 16(1), – S. 57-71.
4. Eker, A., Sak, U. Yaratıcı zıt düşünme tekniğinin (yazıd) sosyal geçerliği, Türk Üstün Zekâ ve Eğitim Dergisi, 2016. 6(2), – S. 71-87.
5. Ersoy, E. ve Başer, N. İlköğretim 6. sınıf öğrencilerinin yaratıcı düşünme düzeyleri, Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi, 2009. 2(9), – S. 128-137.
6. Gizir, Z., Köksal, A. Anaokuluna devam eden çocukların yaratıcılıklarının incelenmesi, Kuramsal Eğitim ilim Dergisi, 2012. 5(2), – S. 156-170.
7. Hojiyev R. Kreativ fikrlash – jamiyat taraqqiyotining muhim omili. FarDU. Ilmiy xabarları. 2022. №6. – B. 74-76.
8. Karataş, S., Özcan, S. Yaratıcı düşünme etkinliklerinin öğrencilerin yaratıcı düşüncelerine ve proje geliştirmelerine etkisi, Ahi Evran Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi, 2010. 11(1), – S. 225-243.
9. Onur, D., Zorlu, T. Yaratıcılık kavramı ile ilişkili kuramsal yaklaşımlar, İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi, 2017. 6(3), – S. 1535-1552.
10. Özerbaş, M.A. Yaratıcı düşünme öğrenme ortamının akademik başarı ve bilgilerin kalıcılığa etkisi, Gazi Eğitim Fakültesi Dergisi, 2011. 31(3), – S. 675-705.
11. Öztürk, Ş. Eğitimde yaratıcı düşünme, Ondokuz Mayıs Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi, 2004. (18), – S. 77-84.
12. Rawat, K.J., Qazi, W., Hamid, S. Creativity and education, Academic Research International, 2012. 2(2), – S. 264-275
13. Rıza, E. T. Kalıplaşma ve yaratıcılık, Yaşadıkça Eğitim, 2000. 65, 4-7.
14. Yeşilyurt, E. Yaratıcılık ve yaratıcı düşünme: Tüm boyut ve paydaşlarıyla kapsayıcı bir derleme çalışması. OPUS–Uluslararası Toplum Araştırmaları Dergisi, 2020. 15(25), – S. 3874-3915.
15. Yıldırım, E. Bilgi çağında yaratıcılığın ve yaratıcılığı yönetmenin önemi, Selçuk Üniversitesi Karaman İ.İ.B.F. Dergisi, 2007.12(9), – S. 109-120



Dusmatov Nodir Muxtorovich,
Vazirlar Mahkamasining Oila va xotin-qizlar
masalalari kotibiyati mudiri

OILA VA JAMIYAT ALOQADORLIGINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya. Oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlash muammosi bugungi kunda murakkab, fanlararo masalalardan hisoblanadi. Uning nazariy metodologik bazasi sifatida umumiy ijtimoiy-psixologik, pedagogik, falsafiy tadqiqotlar, balki sotsiologik asarlar bilan ifodalanadi. Ushbu maqolada ham oila va jamiyat aloqadorligi masalasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar: oila, o'zbek oilasi tarixi, oilaviy munosabatlar, ibtidoiy jamoa tuzumi, ijtimoiylashuv.

Аннотация. Проблема обеспечения стабильных социальных отношений в семье сегодня является одной из сложных, междисциплинарных проблем. Её теоретическая и методологическая основа представлена общими социально-психологическими, педагогическими, философскими исследованиями, а также социологическими работами. В данной статье также анализируется проблема семьи и общества с социально-философской точки зрения.

Ключевые слова: семья, семейно-историческая история узбеков, семейные отношения, первобытнообщинный строй, социализация.

Annotation. The problem of ensuring stable social relations in the family today is one of the complex, interdisciplinary issues. Its theoretical and methodological basis is represented by general socio-psychological, pedagogical, philosophical research, as well as sociological works. This article also analyzes the issue of family and society from a socio-philosophical point of view.

Key words: family, family history of Uzbeks, family relationships, primitive communal system, socialization.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-87-sonli¹ hamda 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmonlari², O'zbekiston Respublikasi

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 175-son qarorida ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan respublikamizda oilalarning mustahkamligini oshirish, ularning farovonligini ta’minlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, farzandlarimizga “oila muqaddas” tushunchasini singdirib borish yuzasidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Maqsad va uni asoslash. Oila masalasi ilmiy doirada bir qancha jahon va o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilgan. Zero, oila, nikoh, oilaviy munosabatlar masalasi qadim-qadimdan har bir jamiyatning diqqat-e’tiborida bo‘lgan. Shu o‘rinda oila kelib chiqishiga doir falasafiy qarashlarga e’tibor qaratish va tahlilga tortish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu maqolada ham mazkur masalaga alohida e’tibor qaratilgan.

Zardushtiylikning bundan 2700 yil avval yozilgan kitobi “Avesto”da oila muqaddas dargoh ekanligi, oilaviy munosabatlar barqarorligida, ayniqsa, farzand tarbiyasida otionalarning birgalikda mas’ulligi xususida fikrlar alohida keltirib o‘tilgan. Oilaning barqarorligi qanday omillarga bog‘liq ekanligi borasida: “Porso, inson uy tiklab olovga, oilasiga, xotin va farzandlariga o‘rin ajratib bersa, uyida nozne’matlari muhayyo bo‘lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e’tiqodi sobit, boshqa narsalari ham mo‘l-ko‘l bo‘lsa, o‘sha manzil muhtaramdir”, deyiladi³.

Oila XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy va falsafiy tafakkur markazida bo‘ldi. Bu vaqtda oila haqidagi qarashlarning ratsionalizatsiyasi kuchaydi, ilohiylik va o‘zgarimaslikni rad etuvchi tushunchalar paydo bo‘ldi. Evolyutsiya nazariyasi doirasidagi oila tadqiqotlarining boshlanishi I.Y.Baxofen, M.M.Kovalevskiy, J.F.Mak Lennan, L.Morgan, G.Spenser, P.Sorokin, F.Engels nomlari bilan bog‘liq.

³ Авесто: тарихий-адабий ёдгорлик // А.Махкамов таржимаси. – Т.: Шарк, 2001.– 383 б.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida oilani tadqiq qilish bilan shug‘ullanadigan yo‘nalishlar shakllandi. Oilani ijtimoiy institut sifatida tahlil qilishning nazariy va uslubiy tamoyillarini ishlab chiqishga A.I.Antonov, I.V.Bestujev-Lada, V.I.Boyko, A.G.Vishnevskiy, V.Good, T.A.Gurko, SV.Darmodexin, M.S.Maskovskiy, T.Parsons, V.M.Rozin, N.Y.Solovyov, A.G.Xarchev, N.D.Shimin va boshqalar katta hissa qo‘shgan.

Oilani kichik ijtimoiy guruh sifatida rivojlanishini nazariy tushunish G.M.Andreyeva, E.Burgess, V.B.Holofast, C.Cooley, J.G.Mead, D.Homans, Z.Yankovoy nomlari bilan bog‘liq.

Oilani institutsional va guruh mohiyati birligida har tomonlama ko‘rib chiqish Y.V.Bromley, O.A.Ganskoy, M.S.Maskovskiyning asarlarida keltirilgan. Oila rivojlanishini tadqiq qilish sohasida tarixiy va sotsiologik xarakterdagi asarlar katta ahamiyatga ega. Bu tadqiqotlar orasida S.Y.Volfson, S.I.Goloda, Y.I.Semenov va boshqalarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy tadqiqotlarni rivojlantirishga va oila rivojlanishining nazariy muammolarini tushunishga Azarov, Grebennikov, Kon o‘zlarining oila sotsializatsiyasi bo‘yicha tadqiqotlari bilan katta hissa qo‘shdilar.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Oila – bu qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog‘langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Ko‘p jamiyatlarda oila bolalar sotsializatsiyasi uchun asosiy institut vazifasini o‘taydi. Antropologlar oilalarni matrilokal (ona va uning bolalari), er-xotin (bolalari bo‘lsa, nuklear oila deyiladi) va qon-qarindosh (nuklear oila va qaynata-qaynana birga yashovchi) tiplarga ajratishadi.

Oila – nikoh yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a’zolari ro‘zg‘orining birligi, o‘zaro yordami va ma’naviy mas’uliyati bilan bir-biriga bog‘langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari – inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a’zolarining turmush sharoitini va bo‘sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy

munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsada, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq har bir jamiyat o'zgarib, mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi⁴.

Oila jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va demografik rivojlanishiga poydevor bo'ladigan asosiy institutdir. O'zbekistonda oilaning mavqeyi yuqori bo'lib, respublika aholisining mutlaq ko'pchiligi oila muhitida va oila a'zosi bo'lib yashashi oilaning respublika taraqqiyotidagi o'rnini belgilab beradi. Oilalarda qanchadan qancha bolalar tetapoya qilib, tarbiya topib, voyaga yetib jamiyat uchun kerakli shaxsga aylanadi.

Professor O. Musurmonova ta'kidlaganidek, "Oilaning asosi er-xotin yoxud ota-onadir. Modomiki er-xotin oilaning tamal toshlarini mustahkam bunyod etishga mas'ul ekanlar, ular unda uchraydigan turmush qiynchiliklari, hayot quvonchlari-yu, tashvishlarini boshdan kechirishda, oilani idora etishda, farzand tarbiyasida mas'uldirlar"⁵.

Oila jamiyatning mikrotuzilmasi sifatida unda sodir bo'layotgan barcha jarayonlar ta'sirida bo'lib, uning rivojlanishi ko'p jihatdan jamiyatning mazmuniga bog'liq. Ijtimoiy hayotning dinamikasi doimiy ravishda oila hayotiga yangi xususiyatlarni kiritadi. Jamiyatning yangi ehtiyojlariga muvofiq oilaning tuzilishi, uning vazifalari, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning tabiati, tashqi dunyo bilan munosabatlari o'zgarib bormoqda.

Jamiyatning oilaga ta'sir etish jarayoni biryoqlama bo'lmaydi, teskari jarayon – oilaning jamiyatga ta'siri mavjud bo'lib, unda kelajakdagi shaxsni har tomonlama shakllantirishning murakkab va nozik jarayoni sodir bo'ladi. Oilada shaxsning qirralari aniqlanadi, uning ichki dunyosi rivojlanadi, jamiyat madaniyatiga bosqichma-bosqich kirib boradi. Inson oilada ong va xarakter asoslarini oladi, bu yerda uning qarashlari va

⁴ Нажмидинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлокий маданиятнинг ўрни / . – Т.: "Адолат", 2016. – 28 б.

⁵ Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. – Т.: "Ўқитувчи", 2000. – Б. 60.

munosabatlari, axloqiy va irodaviy fazilatlarini, jamiyat oldidagi burchlari, dunyoqarashi e'tiqodi va ijtimoiy yo'nalishi haqida tushunchalar shakllanadi. Jamiyat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari shaxsning oilada nima olib, keyinchalik jamiyatga olib kelishiga bog'liq.

Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlanishi har tomonlama kamolga yetgan shaxsning shakllanishiga, uning siyosiy, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetukligiga bog'liq. Qachonki inson vatani, unda mavjud bo'lgan oilalar va undagi tarbiya tarixini chuqur bilib, qanday buyuk ajdodlar avlodi ekanligini bilsa va his etsa, u o'zligini anglaydi, yuragida shu yurt, shu millat farzandi ekanidan chuqur milliy g'ururni, faxrni tuyib yashay boshlaydi.

Xalqimizning tarixini ko'zdan kechirsak, oila, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini xususida qimmatli fikrlar aytilgan. Demak, o'zbek oilasi tarixi va milliy oila pedagogikasi tarixi juda qadimiydir.

Ajdodlarimiz azaldan oila mustahkamligi sog'lom avlodning dunyoga kelishi borasida juda e'tiborli bo'lishgan. Buni tarixiy manbalarni kuzatishning o'ziyoq anglatib turibdi. Yuqorida ta'kidlanganidek, zardushtiylikning muqaddas kitobi "Aveto"da oila, uning mustahkamligi, tarbiya masalalariga katta e'tibor berilgani uning isbotidir.

Ko'rinib turibdiki, eramizgacha bo'lgan uzoq o'tmishda ham biologik-fiziologik jihatdan sog'lom erkak yoxud ayol kishilar oila qurishga majbur bo'lishgani holda ular (insonlar) qavm-urug'ni toza saqlash, milliy qonni (avlod ma'nosida) buzmaslik, nikoh tushmaydigan qarindoshlar o'rtasida oila qurmaslik kabi axloq-odob me'yorlariga amal qilishgan.

Darhaqiqat, eng buyuk tarixiy ildizlarga ega xalqimiz bugungi kunda mustaqillikka erishib, bu jarayonda oilaning o'rni, mas'uliyati va oilada farzand tarbiyasiga katta e'tibor berilayotganini e'tirof etish lozim. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, oilalarning paydo bo'lishida, odamzodni o'troq, madaniy hayotga o'tishida ayol – onalar o'ta muhim rol o'ynaganini ko'rish mumkin. Amerikalik Uolt Uitmen va rus olimasi O.P.Valyanskayalarning fikrlariga ko'ra, bolalarning g'amini yegan onalar ko'p

vaqtlarini ovchi erlarini kutib o'tkazganlar. Ana shunda vaqtdan unumli foydalanish maqsadida hunarmandchilikni ham, omonat kulba atrofida ekin ekishni ham ayollar boshlab berishgan. Keyinchalik ular erlariga ko'chmanchilikni tark etib, uy qurish, uy atrofida dehqonchilik qilish g'oyasini uqtirishgan. Bu esa hozirgi sivilizatsiyaning – o'troq yashash, shaharlar paydo bo'lishining avvalida onalar ma'naviyati va tarbiyasi turganini ko'rsatadi.

Yangi tuzilgan besh jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "oila" so'zining arabchadan kelib chiqqani ta'kidlanib, uning ma'nosi farqlanadi. Bunda: "Er-xotinlarning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmuyi; xonadon". "Bir maqsad, maslak bilan birlashgan ko'p kishilar, xalqlar, mamlakatlar" hamda "Rafiq, xotin"⁶. Arabchadan xotin "zavja" deyilib, uning erkak bilan qo'shiluvdan bola-chaqa dunyoga kelib, ayolmandlik yuzaga kelgan, binobarin, oila shakllangan. Aftidan, oilaning ibtidoiy ko'rinishlari sanaluvchi qon-qarindosh oila, undan keyingi bosqichda esa bir guruhga mansub opa-singillarning boshqa jamoa guruhidagi erlarga xotinlik qiladigan oila dastlab "oil"dan iborat demografik birliknigina anglatgan ko'rinadi.

Inson hamjamiyati taraqqiyotining birinchi bosqichlarida bizning tushunchamizdagi oila yo'q edi, tartibsiz aloqalar o'rin olgan edi. Erkak va ayol intim munosabatlaridagi birinchi ijtimoiy sanksiya jinsiy aloqadan ota-onalar va ularning farzandlarini mustasno qilish bo'ldi. Bu o'sha tarixiy chegara bo'lib, undan boshlab ibtidoiy jamiyatning nikohgacha bo'lgan holati ijtimoiy boshqariladigan munosabatlarga o'tdi.

Agar ibtidoiy jamiyatning boshlarida oilada bolalar kattalarning mehnati jarayonida bevosita ishtirok etish bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egallab borgan bo'lsa, keyinchalik ibtidoiy jamiyatning tabaqalanishi natijasida mehnat turlari ham o'zgarib bordi. Ayrim oilalarda bolalarni diniy aqidalarni ado etishga o'rgatish zaruriyati tug'ildi. Shunday qilib, ibtidoiy jamiyatning o'zidayoq oila va

uning tabaqalanish an'anasi paydo bo'ldi. Jamiyat va oila taraqqiyoti, mehnat qurollarini takomillashtirish natijasida keyingi avlodga meros qoldiriladigan tajribalar hajmi ham o'sib boraverdi.

Garchi ibtidoiy oila faqat shu maqsadda yuzaga kelgan bo'lsa-da, davrlar osha bu maqsad o'zgarib bordi, nasl qoldirish, zurriyotni davom ettirish va shu asosda insoniyatning davomiyligini ta'minlashdan iborat ijtimoiy ma'no bilan boyib bordi. Yigit va qiz o'rtasidagi jinsiy munosabat o'z-o'zidan sodir bo'luvchi hayvoniy – instinktivlik ruhidan qutula borib, ularning bir-birlarini tanlab, sevib-sevilib, bir-birlariga o'zlarini baxshida etish darajasidagi ichki ma'naviy ehtiyoj zamiridagi taqdirdoshlikka aylandi.

Oilaning birinchi tarixiy shakli deb, matriarxat davridagi urug'chilik tarkibida bo'lgan ona oilasini hisoblash mumkin, ba'zan uni totemik oila deb ham ataydilar. Bu birinchi to'rt-besh avlodidagi ona tomonidan yaqin qarindoshlarning katta guruhi bo'lgan. Bu tipdagi oilada guruhli nikoh mavjud bo'lib, bolalarning otasini aniqlashning iloji bo'lmagan, shuning uchun ham bolalarning kelib chiqishi ona tomondan aniqlangan.

Oila va oilada tarbiyaning tarixi uzoq vaqt davomida, taxminan, XIX asrning o'rtalarigacha jamiyatning birlamchi monogam yacheykasi sifatida o'rganilgan. Shu sababli ham oila antik, o'rta asr, qisman yangi davrda olimlarini o'ziga xos sotsial institut sifatida emas, balki uning ijtimoiy tuzumga va davlatga bo'lgan munosabati ko'proq qiziqtirgan.

Demak, oila tarixiy-ijtimoiy hodisa sifatida kishilik jamiyatida qator vazifalarni bajarib, ham o'zi, ham jamiyatimizning takomillashuvini ta'minlab kelmoqda. Chunonchi, oilaning dastlabki va bosh vazifasi – demografik vazifadir. Umuman olganda, oilani nafaqat jinsiy aloqani tartibga soluvchi, balki zurriyotni davom ettirish ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan ijtimoiy-biologik hodisa ham deyish mumkin.

XIX-XX asrlar oxirida oilaning rivojlanishida quyidagi omillar aniqlana boshladi: hech qachon turmushga chiqmagan ayollar va erkaklar sonining ko'payishi,

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 3-жилд. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 97.

tugʻilishning pasayishi, ajralishlarning koʻpayishi, oiladan tashqari jinsiy aloqalarning keng tarqalishi; din tomonidan nazoratning yoʻqolishi va ayollarning (ularning kasbiy faoliyatga jalb qilinganligi sababli) patriarxal qaramlikdan ozod qilinishi.

XXI asr boshlaridagi dunyo XX asrning boshlari yoki hatto oʻrtalaridagi dunyodan juda farq qiladi. Oilalar yangi voqeliklarga moslashish uchun qoʻldan kelganini qilmoqda. Koʻpgina mamlakatlarda oila instituti hali ham oʻz rivojlanishining yagona toʻgʻri yoʻlini tanlay olmaydi. Shu oʻrinda oila kechagi meʼyor va qadriyatlarga amal qilish kerakmi, zamonaviy voqelik qonunlari asosida yashash kerakmi yoki noaniq kelajakka eʼtibor qaratish kerakmi, degan savol tugʻiladi.

Gʻarb olimlari – familistlar oilada soʻnggi paytlarda sodir boʻlgan uchta asosiy oʻzgarishlarni aniqlaydilar:

1. Postindustrial oilaning rivojlanishi.

Zamonaviy iqtisod ayollar, ayniqsa, turmush qurgan ayollar soni ortib bormoqda. Xizmat koʻrsatish va axborot sanoati ayollarni, masalan, zavod ishlaridan koʻra koʻproq jalb qiladigan ish oʻrinlarining yuqori foizini ishlab chiqaradi. Uy bekalarining oʻz uyidan tashqaridagi ishlarga aylanishi oilaviy munosabatlardagi nizolarning kuchayishiga, koʻproq “simmetrik” oilalarning paydo boʻlishiga olib keladi⁷.

2. Oilaning hayot siklidagi inqilob. XX-asrda boshlangan demografik oʻzgarishlar oilaga iqtisodiy oʻzgarishlardan kam boʻlmagan muhim oʻzgarishlar olib keldi. Ushbu oʻzgarishlar ayollarning hayot aylanishiga koʻproq taʼsir koʻrsatdi. Oldinlari oilada ayolning roli haqidagi anʼanaviy gʻoyalar bolani tarbiyalash, oʻqitish, uy-roʻzgʻor ishlariga bosh-qosh boʻlishga asoslangan boʻlsa, bugunga kelib ayol oilada madaniy qadriyatlarining tashuvchisi rolini ham bajarmoqda. Madaniy qadriyatlar va mavjud ijtimoiy voqelikni toʻgʻri oʻzaro bogʻlashda yordam, ehtimol, postindustrial oilada ayollar uchun yangi rol sifatida qaralishi mumkin. Zamonaviy oiladagi eng katta oʻzgarish - bu nikoh muddatining koʻpayishi (insonning

umrining davomiyligi bilan bogʻliq) va turmush oʻrtoqlarning farzandsiz nikohda oʻtkazgan yillar soni.

Statistik maʼlumotlarga koʻra, 1970-yillarda turmush oʻrtoqlar birgalikda hayotlarining 18 foizini bolalarni tarbiyalashga bagʻishlashgan, oʻtgan asrda bu koʻrsatkich 54 foizni tashkil etgan⁸.

Shu sababli, bugungi kunda oilani kamroq darajada bolalarni tarbiyalayotgan otalarning ittifoqi sifatida belgilash mumkin. Ehtimol, zamonaviy oila ikki shaxs oʻrtasidagi shaxsiy munosabatlar sohasidir.

3. Psixologik inqilob. Psixologik inqilob ostida Gʻarb olimlari familistlar zamonaviy insonning dam olish, sayohat qilish, axborot portlashi va turmush darajasini oshirish uchun sarflagan vaqtini tushunishadi.

Ijtimoiy-falsafiy tafakkurning eng koʻzga koʻringan namoyandalaridan biri oʻz asarida oila masalalariga toʻxtalib oʻtgan O.Kontdir.

U oilani ijtimoiy statika nuqtayi nazaridan universal umuminsoniy hodisa deb hisobladi. Uning aytishicha, oila haqiqiy sotsiologik elementdir. Jamiyat oilalar majmuyidan shakllanadi. Insoniyat oila, qabila, millatdan tortib, davlatga qadar ketma-ket tarixiy bosqichlarni bosib oʻtdi⁹.

Yakuniy qism. Xulosa qilib aytganda, oilaning eng muhim vazifasi jamiyatda ijtimoiy uzluksizlikni taʼminlaydigan anʼanalarni yetkazishdir. Oila tufayli oʻtmish bugun va kelajak bilan bogʻliq. Oila jamiyatning mikrotuzilmasi sifatida unda sodir boʻlayotgan barcha jarayonlar taʼsirida boʻlib, uning rivojlanishi koʻp jihatdan jamiyatning mazmuniga bogʻliq. Ijtimoiy hayotning dinamikasi doimiy ravishda oila hayotiga yangi xususiyatlarni kiritib boradi. Jamiyatning yangi ehtiyojlariga muvofiq oilaning tuzilishi, uning vazifalari, oila aʼzolari oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlarning tabiati, tashqi dunyo bilan munosabatlari oʻzgarib bormoqda.

⁸ Bane M.J. Values of Postpartum Women from the Inner City: An Exploratory Study - N.Y., 1997. – 285 p

⁹ Конт О. Дух позитивной философии. – СПб, 2001. – 146 с.

⁷ Bernard, J. The Future of Marriage. – New York, 2000. – 383 p.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-87-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5899498>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5938-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4740345>
3. Авесто: тарихий-адабий ёдгорлик // А.Маҳкамов таржимаси. – Т.: Шарқ, 2001.– 383 б.
4. Нажмидинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни. – Т.: "Адолат", 2016. – 28 б.
5. Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. – Т.: "Ўқитувчи", 2000. – Б. 60.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 97.
7. Bernard J. The Future of Marriage. – New York, 2000. – 383 p.
8. Vane M.J. Values of Postpartum Women from the Inner City: An Exploratory Study. – N.Y., 1997. – 285 p.
9. Конт О. Дух позитивной философии. – СПб, 2001. – 146 с.



Saydivaliyeva Xurshida Xodjiakbarovna,
 “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
 “Oila huquqi va gender tengligi” bo‘limi boshlig‘i
 yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR VA ERKAKLAR UCHUN TENG HUQUQ HAMDA IMKONIYATLARNI TA‘MINLASHNING JORIY HOLATI TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada gender tengligini ta‘minlash borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, davlat va jamiyat hayotida ayollarning roli va ularni yanada rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi va rahbarlik lavozimlarida, sud-huquq, ta‘lim, mehnat hamda bandlik yo‘nalishlarida gender statistikasi tahlili yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: inson huquqlari, gender tengligi, gender statistikasi, gender tafovuti, davlat boshqaruvi, ta‘lim, mehnat, bandlik.

Аннотация. В данной статье описаны меры, реализуемые в нашей стране по обеспечению гендерного равенства, роль женщины в жизни государства и общества, а также предложения и рекомендации по их дальнейшему развитию. Также освещен анализ гендерной статистики в государственном управлении и на руководящих должностях, в судебной системе, образовании, труде и занятости в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: права человека, гендерное равенство, гендерная статистика, гендерный разрыв, государственное управление, образование, труд, занятость.

Annotation. This article describes the measures implemented in our country to ensure gender equality, the role of women in the life of the state and society, as well as proposals and recommendations for their further development. It also highlights the analysis of gender statistics in public administration and in leadership positions, in the judicial system, education, labor and employment in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: human rights, gender equality, gender statistics, gender gap, public administration, education, labor, employment.

Kirish. Bugungi kunga kelib ijtimoiy hayotning asosiy sohalarida gender tengligiga erishish hamda uni jamiyatda ta‘minlash kun tartibiga qo‘yilayotgan asosiy maqsadlardan biriga aylanib bormoqda. BMT Bosh Assambleyasining 2015-yil sentabr oyida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida 70-son rezolyutsiyasi qabul qilinib, 17 ta maqsadga erishish bo‘yicha 169 ta maqsadli vazifa tasdiqlangan. Bevosita barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqsad

– Gender tenglikni ta‘minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga erishishdan iborat.

Xususan, mamlakatimizda so‘nggi yillarda gender tenglik tamoyilini jamiyatga singdirish bilan bog‘liq amalga oshirilayotgan islohotlar diqqatga sazovordir. Jumladan, 2016-yildan bugungi kunga qadar gender tenglikni ta‘minlash, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat boshqaruvida rolini oshirish bo‘yicha O‘zbekiston

Respublikasining 2 ta qonuni, Prezidentning 9 ta farmon va qarori, hukumatning 18 ta qarori qabul qilindi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining tegishli qarori bilan “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” ishlab chiqildi¹ va hayotga tatbiq etilmoqda.

Maqsad va uni asoslash. Jamiyatda gender tenglik tamoyilini singdirish va tatbiq etish, albatta, oson kechadigan jarayonlardan emas, bu borada “gender tenglik” tushunchasining talqini bilan bog‘liq bo‘lgan bahsli, stereotipli munozaralar, faqat ayol huquqlarini himoya qilish deb tushunishlik hollari uchrab turgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan amaliyotda normativ huquqiy hujjatlar bilan hayotga tatbiq qilinib kelinayotgan gender tengligining talablari, o‘z navbatida, muayyan tarzdagi yangi mexanizm va chora-tadbirlarni ham joriy qilishni hamda o‘ziga xos tarzdagi kuzatuv, tahlil ishlarini amalga oshirishni taqozo etadi. Bular orasida gender statistika, gender ekspertiza va gender audit kabi yangi kuzatuv tahlil usullariga ham ehtiyoj tug‘ilmoqda.

Jumladan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Gender tenglikni ta‘minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, parlament yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahat kengashlari, Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi Qarori bilan “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” tasdiqlandi. Gender strategiyasining sakkizinchi ustuvor yo‘nalishi qilib “Gender statistikasi yuritilishini takomillashtirish” belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar

kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-sonli² Qonunning asosiy tushunchalarida ham gender statistikasi – davlat statistikasining jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holati to‘g‘risida har bir jins bo‘yicha alohida ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan, har xil jinsdagi shaxslarning ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalaridagi tegishli holatini aks ettiradigan, gender muammolarini va jamiyatdagi munosabatlarni yoritadigan qismi ekanligi o‘rnatilgan. Qonunning 8-moddasiga ko‘ra, gender statistikasini shakllantirish:

- ✓ davlat statistika organlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat statistik kuzatuvlariga;
- ✓ davlat boshqaruvi organlarining ma‘muriyatga oid ma‘lumotlariga;
- ✓ davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan muntazam ravishda amalga oshiriladigan statistik kuzatuvlarga asoslanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (UNECE)ning ta‘rifiga ko‘ra, gender statistikasi ayollar va erkaklar, qizlar va o‘g‘il bolalar hayotining haqiqatlarini o‘lchash va kuzatish uchun zarur. Gender statistikasi sarlavhasi ostida ayollar va erkaklarning jamiyat, iqtisodiyot, oila va uy xo‘jaliklaridagi o‘zgaruvchan rolini aks ettiruvchi turli mavzular va masalalar yoritilgan³.

Gender statistikasi har bir an‘anaviy statistika sohasining ajralmas qismi bo‘lib, ularni aniqlash, ishlab chiqarish va tarqatish uchun xizmat qiladi. Ayollar va erkaklarning real hayotini aks ettiruvchi statistik ma‘lumotlar hamda gender siyosatini ishlab chiqishda hisobga olinadi⁴.

Jamiyatda erkak va ayolning roli, resurslari, ehtiyojlari va manfaatlari har xil. Ular qaror qabul qilish jarayonida tengsiz ishtirok etadilar. “Ayollar mehnati” va “erkak mehnati”ning tan olinishini baholash bir xil emas. Bu tafovutlar turli davlatlar, jamiyatlar va madaniyatlar o‘rtasida bir-biridan farq qiladi. Ko‘pgina siyosat va strategiyalarda bu farqlar hisobga olinmaydi va natijada bandlik,

² Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.09.2019 й., 03/19/562/3681-сон

³ <https://unece.org/statistics/gender-statistics>

⁴ United Nations Economic Commission for Europe and World Bank Institute. 2010. Developing Gender Statistics: A Practical Tool. // https://unece.org/DAM/stats/publications/Developing_Gender_StatisticsRUS.pdf C.1

ta'lim, biznes va siyosat kabi sohalardagi davlat va xususiy xizmatlar hamda infratuzilmalar har doim ham ayollar va erkaklarning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olmaydi. Ko'pgina hollarda faqat erkak standartlari hisobga olinadi.

Gender statistikasini aniqlash bo'yicha hozirgi konsensusning katta qismi Shvetsiya Statistika byurosining gender statistikasini milliy darajada targ'ib qilish va uni global miqyosda rivojlantirishdagi yetakchi roldan kelib chiqadi. Umuman olganda, gender statistikasini tuzishda uchta asosiy talab mavjud⁵:

- ✓ jismoniy shaxslarga tegishli barcha statistik ma'lumotlar to'planishi, markazlashtirilishi va jinsi bo'yicha taqdim etilishi kerak;

- ✓ barcha o'zgaruvchi xususiyatlar, tasniflashning boshlang'ich va umumiy mezoni sifatida "jinsiy" mezoni tahlil qilingan va taqdim etilgan bo'lishi kerak;

- ✓ gender muammolarini aniqlash va tegishli masalalar bo'yicha ma'lumotlar to'planishi va ommaga tarqatilishini ta'minlash uchun alohida sa'y-harakatlarni amalga oshirish kerak.

Ayollar va erkaklar o'rtasidagi farqni aks ettiruvchi va ular hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi ma'lumotlarni yig'ish jarayonida foydalaniladigan tushunchalar va ta'riflarni shakllantirish; gender stereotiplarini, ma'lumotlarni talqin qilishda gender chalkashliklariga olib kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy va madaniy omillarni hisobga oladigan ma'lumotlarni yig'ish usullarini ishlab chiqish; Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasi (CEDAW) tomonidan gender statistikasi uchun xalqaro normalar yaratilgan.

Pekin harakatlar platformasi va Mingyillik rivojlanish maqsadlari, konvensiyasi ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qiladigan yagona xalqaro shartnoma hisoblanadi. CEDAWni ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan davlatlar Konvensiyaning barcha qoidalarini amalda qo'llash va har to'rt yilda bir marta CEDAW qo'mitasiga hisobotlarni taqdim etishi qonuniy ravishda

⁵ Вайляну К, Русу В., Кантаржи В. РУКОВОДСТВО ПОЛЬЗОВАТЕЛЯ ГЕНДЕРНОЙ СТАТИСТИКОЙ 2008 г., – С.8-9. https://statistica.gov.md/public/files/publicatii_electronice/Gender/Ghid_Gen_rus_2008.pdf

majburiydir. Ushbu hisobot uchun muhim asos gender statistikasi va CEDAW qo'mitasidir⁶.

Gender statistikasining ahamiyatini belgilab beruvchi yana bir xalqaro hujjat – 1995-yilda IV Jahon ayollar konferensiyasi tomonidan qabul qilingan Pekin harakat platformasida alohida ta'kidlangan. Uning vazifasi – mintaqaviy, milliy tashkilotlarga murojaat qiladi hamda xalqaro miqyosda siyosat va dasturlarni ishlab chiqishda barcha muhim soha/sohalarda ayollar va erkaklarning ahvolini munosib aks ettirish uchun jinsi (shuningdek, yosh va boshqa omillar) bo'yicha ajratilgan ma'lumotlarni muntazam ravishda to'plash, tahlil qilish va taqdim etish.

Statistikani "institutsional tuzilmalar"ning asosiy elementi sifatida joylashtirish orqali Platforma milliy hukumatlarning quyidagilardagi rolini ta'kidlaydi:

- ✓ jins bo'yicha bo'lingan ma'lumotlarni shakllantirish va tarqatish;

- ✓ rejalashtirish va baholash uchun ma'lumotlarni taqdim etish;

- ✓ ma'lumotlarni yig'ish tushunchalari va usullarini takomillashtirish;

- ✓ nashrlar va tadqiqotlarga gender tahlilini kiritish uchun statistik tizimlarni mustahkamlash.

Ma'lumot to'plashning muvaffaqiyati ko'p jihatdan qo'llanadigan metodologiyaning maqsadga muvofiqligiga bog'liq.

Turli mamlakatlarda telefon, pochta, shaxsiy suhbatlar, o'z-o'zidan so'rovnoman to'ldirish va ma'lumotlarni veb-sayt, shuningdek, turli ma'muriy tizimlar orqali taqdim etishni o'z ichiga olgan turli xil samarali usullar qo'llanadi (masalan, joriy aholi yozuvlari).

Ma'lumot to'plash usulini tanlashda⁷ bir qator omillarni hisobga olish kerak. Ijtimoiy me'yorlar, texnologik infratuzilma va cheklangan tadqiqot byudjeti tanlovga ko'proq ta'sir qilishi mumkin. To'plash parametrlari, masalan, asosiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar turi, savollarning murakkabligi va sezgirligi, ularning

⁶ United Nations guidelines on reporting to the CEDAW Committee. United Nations (UN), Compilation of Guidelines on the Form and Content of Reports Submitted by States Parties to the International Human Rights Treaties (Geneva, 2003), HRI/GEN/2/Rev.1/Add.2.

⁷ План лекций практико-ориентированного комплекса учебно-методических материалов по курсу «Гендерная статистика»// <http://new.cisstat.org/metadata-guides>

mazmuni va maxfiyligi ham tegishli bo'lishi mumkin. Boshqa muhim omillar – javob darajasiga ta'sir qilish imkoniyati, respondentlarning afzalliklari, respondentlarning joylashuvi, tanlanma tuzilmasining xususiyatlari va maqsadli aholining xususiyatlari.

Gender statistikasi boshqa har qanday rasmiy statistika bilan bir xil tarzda olinadi⁸. Ular barcha an'anaviy manbalardan olinadi: aholini ro'yxatga olish, so'rovlar va davlat organlari tomonidan yuritiladigan ma'muriy hujjatlar. Har bir ma'lumot manbasining o'ziga xos kuchli va zaif tomonlari bor, lekin, albatta, ularning barchasi birgalikda gender statistikasini ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydi.

Gender statistikasining uch turdagi manbalari keng tarqalgan:

1. Aholini ro'yxatga olish.
2. So'rovlar.
3. Ma'muriy tashkilotlar ma'lumotlari.

Aholini ro'yxatga olish – bu ma'lum bir mamlakat, mintaq, aholi punkti, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqalarning butun aholisi darajasidagi ma'lumotlar to'plami. Axborotni to'plash va qayta ishlash odatda qimmatga tushadi, lekin shunga qaramay, ma'lum hududlar va guruhlar uchun ajratilgan ma'lumotlarni ishlab chiqarishda asosiy rol o'ynaydi va tanlama so'rovlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Mamlakat aholisi, uy-joy fondi va qishloq xo'jaligi yerlari mavzusidagi ro'yxatga olishlar eng keng tarqalgan. Odatda, har 10 yilda parallel ravishda o'tkaziladigan milliy aholi va uy-joylarni ro'yxatga olish gender statistikasi uchun qimmatli ma'lumot manbayi hisoblanadi. Ular mamlakatning butun aholisi uchun asosiy demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlarni o'z ichiga olganini hisobga olsak, ular bir qator xususiyatlarni solishtirish, shuningdek, mintaqalar bo'yicha gender farqlari va o'xshashliklarini o'rganish imkoniyatini beradi.

Gender munosabatlari va ularning dinamikasini kuzatishda demografik ko'rsatkichlar asosiy hisoblanadi⁹. Ayollar va erkaklar nisbati qanday? O'g'il bolalar qizlarga qaraganda nechta tug'iladi?

⁸ Гендерная статистика в странах Закавказья, Центральной и Западной Азии Ситуационный анализ.// <https://www.adb.org/ru/publications/gender-statistics-southern-caucasus-and-central-and-west-asia-situational-analysis> 2012. – С. 6.

⁹ <https://unece.org/using-gender-statistics-toolkit-training-data-users> p.30.

Mamlakat yoki mintaqadagi erkaklar va ayollarni ro'yxatga olish ayollar sonining erkaklar soniga (jinsiy nisbat) nisbatan qisqacha tasvirini beradi. Bu yerda siz aholining jinsi va yoshi tarkibidagi nomutanosibliklarni ko'rishingiz mumkin, bu esa siyosatchilarni xavotirga solishi, ularni davlat xizmatlarini kengaytirishga va qat'iyroq harakat qilishga undashi mumkin.

So'rovlar rasmiy statistikani ishlab chiqarishning eng muhim vositalaridan biridir. Ular butun davlat darajasida aniq tasvirni beradi, aholining vakillik namunasi asosida ma'lumotlarni yig'ish, kam sonli respondentlar orasida so'rov o'tkazish arzonroq aholini ro'yxatga olish va shu bilan birga, ishonchli natijalarni beradi. Bir qator so'rovlar asosiy gender statistikasini olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bularga quyidagilar kiradi:

- ✓ demografik va salomatlik tadqiqotlari;
- ✓ ko'p ko'rsatkichli klaster tadqiqotlari;
- ✓ bandlik so'rovlari;
- ✓ turmush darajasini o'rganish va farovonlik;
- ✓ vaqtni boshqarish so'rovlari;
- ✓ zo'ravonlik bo'yicha so'rovlar (ayollar haqida).

Ma'muriy tashkilotlar ma'lumotlari – bu davlat organlari hamda vazirliklar tomonidan to'planadigan va saqlanadigan ma'lumotlar. Ular gender statistikasining muhim manbasi hisoblanadi, chunki ular ta'lim, sog'liqni saqlash, jinoyatchilik, davlat sektori bandligi va saylangan mansabdor shaxslarga tegishli asosiy ko'rsatkichlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ma'muriy ma'lumotlarni to'plash vazirliklar o'rtasida va vazirliklar ichida muvofiqlashtirishning yo'qligi bilan murakkablashadi, bu esa bir-birini takrorlaydigan harakatlarni keltirib chiqaradi hamda tushunchalar, ta'riflar, tasniflar va metodologiyalarni uyg'unlashtirishga xavf tug'diradi.

Gender statistikasi jins bo'yicha ajratilgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi¹⁰ (ular asosiy omil – jinsni hisobga olgan holda to'planadi va qayta ishlanadi), shuningdek, quyidagilarni ham o'z ichiga oladi:

• gender masalalarini tushunish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlar (masalan, erkaklar va ayollar

¹⁰ БМТ Статистика Департаменти (2015с), Гендер статистикаси бўйича қўлланма; Гендер статистикаси нима? <http://unstats.un.org/unsd/genderstatmanual/What-are-gender-stats.ashx>

vaqtni qanday taqsimlashi, oiladagi zo‘ravonlikdan kim ko‘proq aziyat chekishi);

- erkaklar va ayollarning xilma-xilligini real aks ettiruvchi va ularning hayotining barcha jabhalarini ko‘rsatadigan tushunchalar va ta‘riflarga asoslangan ma‘lumotlar;

- ma‘lumotlarni yig‘ish usullari ma‘lumotlarda gender kamsitishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan stereotiplar, ijtimoiy va madaniy omillarni hisobga oladi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. O‘zbekistonda gender statistikasini rivojlantirish bo‘yicha dastlabki qadamlar 1990-yillarning oxirlarida amalga oshirildi¹¹. O‘sha vaqtdan beri respublikada gender ko‘rsatkichlari bilan risolalar muntazam ravishda nashr etilib kelinmoqda. Har bir nashr gender ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va tarqatishda oldinga qadam muhim bosqichga aylanadi. Masalan, 2002-yilda Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi va Xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan (BMT Taraqqiyot dasturi va OTB ko‘magi bilan) nashr etilgan.

“O‘zbekistonda ayollar va erkaklar” risolasining 9 ta strategik yo‘nalish bo‘yicha ko‘rsatkichlarni, shu jumladan, boshqaruv, siyosiy hayot va tadbirkorlik sohasida birinchi marta ma‘lumotlarni birlashtirgan nashri e‘lon qilindi. Shundan keyin xalqaro tashkilotlar yordamida ma‘muriy manbalarda mavjud bo‘lgan asosiy gender ko‘rsatkichlari va so‘rov natijalarini taqdim etgan bir qator o‘xshash xarakterdagi nashrlar paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-sonli Farmoni bilan Davlat statistika qo‘mitasiga O‘zbekiston Respublikasining qator vazirliklari va idoralari bilan birgalikda BMTning Statistika Komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan minimal gender ko‘rsatkichlari va boshqa ma‘lumotlar “gender.stat.uz” veb-saytiga joylashtirilishini hamda ma‘lumotlarni doimiy ravishda yangilab borishni ta‘minlash yuklatildi.

Milliy darajada ayollar maqomini oshirish va ularning iqtisodiy huquqlarini mustahkamlash bo‘yicha dasturlar va tadbirlar amalga oshirilmogda. Gender muammolarini hal qilishda respublika davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat va ilmiy tashkilotlari faoliyatining faollashishi gender tengligi masalalarini tavsiflovchi statistik ma‘lumotlarga ichki talabning o‘shishiga yordam

beradi va ushbu ma‘lumotdan foydalanuvchilar doirasi ham kengaymoqda.

Davlat boshqaruvi va rahbarlik lavozimlari yo‘nalishida. Davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1300 nafardan ortiq, shu jumladan, vazirlik va idoralarda 45 nafar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasida 39 nafar, mahalliy davlat hokimiyati organlarida 207 nafar ayol rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga 2019-yilda bo‘lib o‘tgan saylovlarda ro‘yxatdan o‘tgan 21 435 000 nafar saylovchining qariyb 50 foizi yoki 10 825 641 nafari xotin-qizlardir.

Ushbu saylovlarda ko‘rsatilgan nomzodlarning 41 foizi xotin-qizlar bo‘lib, ularning soni O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksida belgilangan 30 foizlik kvotadan ortdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizi, Senat a‘zolarining hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, mahalliy Kengashlar deputatlarining qariyb 25 foizini xotin-qizlar tashkil etadi.

O‘zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda xotin-qizlar soni BMTning tavsiyalariga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti xotin-qizlar soni bo‘yicha dunyodagi 190 ta milliy parlamentlar o‘rtasida 37-o‘ringa ko‘tarildi.

Shuningdek, O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi a‘zolarining 49 foizini, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi a‘zolarining 46 foizini, O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va O‘zbekiston Ekologik partiya a‘zolarining 41 foizini xotin-qizlar tashkil qiladi.

Bundan tashqari, 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining tasdiqlangan 61 ta maqsadli ko‘rsatkichlarining¹² 9 tasi xotin-qizlarning siyosiy faolligi bilan bog‘liq.

Sud-huquq yo‘nalishida. O‘zbekistonda gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlariga ko‘ra, sudyalor orasida xotin-qizlar ulushini 2025-yilda 20 foizga, 2030-yilda 30 foizga yetkazish nazarda tutilgan. Ayni paytda

¹¹ <https://gender.stat.uz/uz/umumiy-ma-lumotlar>

¹² <https://lex.uz/uz/docs/-5466673>

O‘zbekistonda sudyalarda orasidagi xotin-qizlarning ulushi 14 foiz (bu ko‘rsatkich Qozog‘istonda 51%, Rossiyada 66%, Sloveniyada 70%, Portugaliyada 75%)ni tashkil etadi¹³.

Ta’lim yo‘nalishida. 2022/2023-o‘quv yilida respublikamizdagi oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni 1 029 609 nafar bo‘lib, xotin-qizlar jami talabalarning 47,8 foiz (4 923 333 nafar)ni, magistratura bosqichida o‘qishini davom ettirayotgan talaba-qizlar soni 17 122 nafar bo‘lib, jami talabalar soniga nisbatan 55,8 foizni tashkil etadi¹⁴.

Mehnat va bandlik yo‘nalishida. 2022-yilning 10 oyi davomida¹⁵ O‘zbekistonda jami bo‘lib 95 325 nafar xotin-qiz tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ular tomonidan 183 566 ta ish o‘rni yaratilgan. Bu ko‘rsatkich 2021-yilning mos davriga (52 925 nafar) nisbatan 42 400 nafarga, ya’ni 80,1 foizga oshgan. Xotin-qiz tadbirkorlar tomonidan 2022-yilda 183 566 ta ish o‘rni yaratilgan bo‘lsa, bu miqdor 2021-yilga (83 202 ta) nisbatan 100 364 taga, ya’ni 2,2 barobarga ko‘paygan.

2022-yilning 10 oyida 40 165 nafar xotin-qizga kredit ajratilgan. 2021-yilning shu davriga nisbatan olib qaraganda kredit olgan xotin-qizlar soni 8741 nafarga oshgan.

Yakuniy qism. O‘zbekistonda ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash borasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yo‘nalishida:

➤ rahbar ayollardagi o‘z bilim va ko‘nikmalarini yanada takomillashtirishga bo‘lgan intilishlarini inobatga olib, ularning o‘z imkoniyat va qobiliyatlarini rivojlantirishga turtki bo‘luvchi g‘oyalardan o‘rinli foydalanish va istiqbolni yanada aniq ko‘rishga qaratilgan ijtimoiy psixologik treninglar majmuyini ishlab chiqish;

➤ xotin-qizlarning professional va boshqaruv faoliyatlarida muvaffaqiyatli ishlashlarini ta’minlovchi milliy dasturlar qabul qilish.

¹³ @sudyaloroliykengash – rasmiy telegram kanali ma’lumoti asosida.

¹⁴ Ўзбекистон Республикаси Фан, таълим ва инновациялар вазирлиги тақдим қилган маълумотлар таҳлили асосида

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Оила ва хотин-қизлар қўмитаси маълумотлари асосида таҳлил қилинган.

Xotin-qizlarning ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida:

➤ yuqori malakali xotin-qizlarning salohiyatini shakllantirishda sanoat ehtiyojlariga mos ravishda o‘quv metodologiyasi va dasturlarni ishlab chiqish;

➤ mamlakatda xotin-qizlarning malakasini oshirish va ilm-fanda ularning ulushini yanada oshirish maqsadida “vaucher” ta’lim tizimini joriy qilish;

➤ xotin-qizlarni kasbga o‘qitish bo‘yicha ommaviy ochiq onlayn kurslar ta’limidan (massive open online courses) keng foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish, “Khan academy”, “Coursera”, “Udacity”, “Edx” platformalaridan foydalanish va ushbu platformalarga xotin-qizlarni keng jalb qilish;

➤ xotin-qizlar o‘rtasida “raqamli savodxonlik” va yumshoq ko‘nikmalar (soft skills)ni targ‘ib qilish va kengaytirish bo‘yicha tadqiqot olib borish, tezlashirilgan ayol kadrlar tayyorlash tizimini yaratish;

➤ hududlarda ilm-fan va ilmiy lavozimlarga ko‘proq ayollarni jalb qilish, ayollarni ilmdan voz kechishga majbur qiladigan ijtimoiy stereotiplar tizimini o‘zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

➤ ilm-fanda yuksak natijalarga erishib kelayotgan olim ayollarni elga tanitish, ularni muvaffaqiyat etaloniga aylantirish hamda ishlarini keng targ‘ib qilish, O‘zbekistonda ilg‘or olim ayollar reytingini tuzish;

➤ qizlarni an’anaviy “erkaklar kasbi” deb hisoblangan kasblar bo‘yicha o‘qishga kirishida maqsadli yordam berish, kvotalar va rag‘batlantiruvchi stipendiyalar joriy etish;

➤ oliy ta’lim muassasalarida xotin-qizlarning farzandlari uchun bog‘chalar tashkil etish.

Ommaviy axborot vositalarida gender tengligi targ‘iboti yo‘nalishida:

➤ mediada ayol va erkaklarning bor imkoniyatlarini ochib beruvchi qiyofalarini yaratish;

➤ stereotiplarga bog‘lanmagan holda ayollarning turli xil kasblarini yoritish;

➤ har qanday zo‘ravonlikni qoralovchi film, jurnalistik materiallar tayyorlash;

➤ STEM muxatassislik yo‘nalishlarida xotin-qizlar ulushini oshirish, jumladan, muhandislik yo‘nalishi, axborot va kompyuter texnologiyalari yo‘nalishiga qiziqtirish.

Ish joylarida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish yo‘nalishida:

➤ tashkilotlar ishtirokchilari, xodimlari va ish beruvchilarning ta‘qib nima, uning tabiati, ko‘lami va oqibatlarini to‘g‘risida xabardorligini oshirish kerak, bu xususida ochiq munozaralar, axborot materiallari, gender tengligi va ta‘qiblar bo‘yicha treninglar o‘tkazish;

➤ tashkilotlarda, shu jumladan, ma‘muriy idoralarda ochiq joy yaratish kerak, shisha devorlar va shaffof eshiklar har qanday kamsitish, korrupsiya va rasmiy lavozimni suiiste‘mol qilishning oldini olish, har bir ofis/auditoriyada 24/7 videokameralar ishlashi ijobiy samarani oshirishi;

➤ tashkilotlar ma‘muriyati ta‘qib qilish faktini inson huquqlari buzilishining bir shakli sifatida tan olishi va zo‘ravonlik hamda ta‘qiblarning oldini olish choralarini ko‘rishi;

➤ zo‘ravonlik masalalari bo‘yicha mutaxassis, shuningdek, psixologik yordam ko‘rsatadigan, agar kerak bo‘lsa, jabrlangan tomonning vakili sifatida vositachi sifatida ishlaydigan psixolog lavozimini joriy etish;

➤ zo‘ravonlikka qarshi kurashuvchi tashkilotlar ish joylarida kamsitish va ta‘qib qilishning barcha shakllariga qarshi siyosat olib borishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2021 йил 28 майдаги “2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида”ги СҚ-297-IV-сон қарори (<https://lex.uz/docs/5466673>)
2. <https://unece.org/statistics/gender-statistics>
3. United Nations Economic Commission for Europe and World Bank Institute. 2010. Developing Gender Statistics: A Practical Tool. // https://unece.org/dam/stats/publications/developing_gender_statisticsrus.pdf Б.1
4. <https://gender.stat.uz/uz/umumiy-ma-lumotlar>
5. Лушников А., Лушникова М, Тарусина Н. Гендер в законе: Монография. – Москва: Проспект, 2021. – С. 22.
6. Вайляну К, Русу В., Кантаржи В. Руководство пользователя гендерной статистикой. – Москва, 2008. – С. 8-9.
7. Эгамбердиева Н., Хотураев Б. Гендер тадқиқотлари, гендер таҳлили, мониторинг ва баҳолаш. Монография. – Тошкент: “Маҳалла ва оила” 2023. – Б. 8-12.
8. Холикова М, Ишанханова Г., Пўлатова Ш. Гендер тенглиги: ғоядан қонунга қадар: услубий қўлланма. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – Б. 11-13.



Nazarova Ra'no Sidiq qizi,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti
e-mail: ranonazarova741@gmail.com

OILAVIY DAM OLISH TADBIRLARI VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGINING OLDINI OLISH VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi kelib chiqishida oiladagi o'zaro munosabatlar, ota-ona va bolaning do'stona aloqalari sustligi muhim sabablardan biridir. Ushbu maqolada oilaviy dam olish tadbirlari ana shunday munosabatlarni mustahkamlash vositalaridan biri sifatida ochib beriladi. Shuningdek, oilaviy dam olish tadbirlari notinch oilalar, xatar guruhidagi bolalar uchun tuzilgan rehabilitatsion dasturning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladi.

Tayanch so'zlar: huquqbuzarlik, oilaviy dam olish tadbirlari, nazoratsiz bola, rehabilitatsiya dasturlari, ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish.

Аннотация. Одной из важных причин возникновения правонарушений несовершеннолетних является отсутствие семейных и дружеских отношений между родителями и детьми. В этой статье семейный отдых рассматривается как один из способов укрепить отношения. Также семейно-оздоровительные мероприятия рассматриваются как составная часть реабилитационной программы для неблагополучных семей и детей группы риска.

Ключевые слова: правонарушение, семейно-оздоровительная деятельность, беспризорный ребенок, реабилитационные программы, оказание социально-педагогической помощи.

Annotation. One of the important reasons for the origin of juvenile delinquency is the lack of family relations and friendly relations between parents and children. This article explores family vacations as one of those ways to strengthen relationships. Family recreation activities are considered as a component of the rehabilitation program for troubled families and children in the risk group.

Key words: delinquency, family recreation activities, unsupervised child, rehabilitation programs, provision of socio-pedagogical assistance.

Kirish. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olishning eng samarali usullaridan biri, shubhasiz, huquqbuzarlikka moyil bolalar va ularning oilalariga erta yordam ko'rsatishdir. Ko'plab davlat dasturlari bunday bolalar va ularning oilalariga erta aralashuv va erta yordam ko'rsatishga harakat qiladi. Huquqbuzarlikka moyil bolalarning oilalari bilan olib boriladigan profilaktika va rehabilitatsiya dasturlarida oilaviy dam olish tadbirlarini tashkil etish ham alohida ahamiyatga ega. 2019-yil 18-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining

Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Yoshlar jinoyati profilaktikasi va jinoiy sudlov strategiyasiga sportning integratsiyasi” (Integrating sport into youth crime prevention and criminal justice strategies) rezolyutsiyasining 17-bandida “... taraqqiyot va tinchlik uchun huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoiy sudlov sohasidagi yoshlarga qaratilgan sa'y-harakatlarning va sport sohasining bir-birini to'ldiruvchi tabiatini tan olgan holda, shuningdek, bunday tashabbuslarni jamoalarga, oilalarga, bolalar va yoshlarga, shu jumladan, nochor ahvolda bo'lganlarga alohida e'tibor

qaratgan holda kompleks yondashuv asosida amalga oshirish yanada izchil bo'lishini hisobga olib"¹ choralar ko'rishni taklif etadi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 67-maqsadida Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish bo'yicha bir qancha vazifalar keltirib o'tilgan. Shuningdek, 70-maqсадda Yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish vazifasi ham e'tirof etiladi.

Maqsad va uni asoslash. Erta aralashuv yoki erda yordam ko'rsatish g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar chizig'ining boshlanish nuqtasiga qanchalik yaqin bo'lsa, uning samarasi shunchalik yuqori bo'lishi kuzatiladi. Ko'pgina davlatlarda huquqbuzarliklarning oldini olish dasturlariga yaxshi iqtisodiy vosita sifatida qarashadi. Masalan, AQShdagi Vashington davlat siyosati instituti (WSIPP) tadqiqotlarida samarali profilaktika dasturlarining umumiy foydasi ularning xarajatlaridan kattaroq ekanligini aniqlagan. Erta aralashuv yoshlarning hayoti behuda o'tishidan saqlab qoladi, jinoiy tajriba boshlanishining oldini oladi va yoshlarning og'ir jinoyatlaridan jabr ko'rganlar sonining kamayishiga sabab bo'ladi. Bu, o'z navbatida, jamiyat zimmasiga tushadigan jinoyatdan zarar yukini kamaytiradi va soliq to'lovchi fuqarolarning ko'plab pul mablag'larini oqilona yo'naltirishga olib keladi². Shuningdek, yoshlarning ijobiy rivojlanishi ularning ehtiyojlarini qondirish asosida sodir bo'ladi va mutaxassislar yoshlarning rivojlanish dasturiga ta'lim, sog'liq, muloqot, ish, jamiyat va ijodkorlik kabi oltita sohadan chora-tadbirlar kiritishadi³. Ushbu olti soha bo'yicha huquqbuzarlikka moyil bo'lgan bolaga yordam ko'rsatilsa, profilaktika samaradorligi bo'yicha ijobiy natijalar kutiladi.

¹ Integrating sport into youth crime prevention and criminal justice strategies: resolution / adopted by the General Assembly. UN. General Assembly (74th session: 2019-2020). <https://digitallibrary.un.org/record/3847134>

² Peter Greenwood. Prevention and intervention programs for Juvenile offenders. 2008. p. 186. // <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ815085.pdf>

³ Butts, Bazemore, & Meroe. Positive Youth Justice: Framing Justice Interventions Using the Concepts of Positive Youth Development. 2010.

Bolaning darsi tamom bo'lishi va ota-onasining ishdan qaytish davri orasidagi nazoratsiz davrda bolaning jinoyat sodir etishi, ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar qilishi yoki jinoyat qurboniga aylanib qolishi ehtimoli ham mavjud. Ba'zi adabiyotlarda "Latchey kid" iborasi qo'llanadi va ushbu ibora maktabdan yoki boshqa mashg'ulotlardan so'ng kattalarsiz uyga qaytadigan bola ma'nosini ifodalaydi. Bunday bolalar ota-onasi ishda bo'lgani uchun nazoratsiz qoladigan bolalarni anglatadi va bo'ynida uyning kalitini osib yuradigan bola timsolida tasvirlanadi. Bunday bola har qanday yoshda (asosan, 5 yoshdan 13 yoshgacha) va aka-uka, opa-singillari bilan birgalikda bo'lishi mumkin⁴. Tadqiqotlardan birida maktab o'quvchilari kuniga uch soatdan ko'proq vaqt davomida uyda yolg'iz qolishgan va ular o'zlarida ruhiy tushkunlik, xulq-atvor o'zgarishi, o'zini o'zi qadrlash darajasi pasaygani haqida ma'lumot berishgan⁵. Bunday xavfning oldini olish maqsadida maktablarda turli to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilishi ijobiy samara beradi. Shuningdek, boshqa bir qancha muassasalar maktabdan keyingi tizimli tadbirlar dasturlarini taqdim etishi (bola ushbu dastur tadbirlariga muntazam qatnashi samaraliroq natija beradi) bola nazoratsiz qolishining oldini oladi hamda vaqti unumli o'tishiga ko'maklashadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ishtirok etadigan yoshlar qatnashmaydigan bolalarga qaraganda o'z-o'zini ko'proq hurmat qilishi, o'qishdagi yutuqlari ko'proq va huquqbuzarligi kamroq bo'lishi kuzatiladi⁶. Shuningdek, turli tashkilotlar qoshida 16-18 yoshli o'quvchilardan volontyorlik jamoalarining tuzilishi kelgusida yuqori malakaga ega mutaxassislar shakllanishiga yordam beradi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Huquqbuzarlikka moyil bo'lgan voyaga yetmaganlar va ularning oilasi bilan olib boriladigan profilaktika va rehabilitatsiya tadbirlari oilaviy ko'ngilochar dam olish tadbirlari tashkil etilishini ham qamrab oladi. Oilaviy ko'ngilochar dam olish tadbirlariga

⁴ Latchkey kid. Wikipedia ochiq ensiklopediyasi. https://en.wikipedia.org/wiki/Latchkey_kid.

⁵ Steven B. Mertens, Nancy Flowers & Peter F. Mulhall. Research on Middle School Renewal: Should Middle Grades Students Be Left Alone after School? 2003. <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/00940771.2003.11494517>.

⁶ David Kurtz. Structured Recreation Programming Can Help Reduce Juvenile Crime. <https://www.nrpa.org/parks-recreation-magazine/2015/september/structured-recreation-programming-can-help-reduce-juvenile-crime/>

oilaviy sayohatga chiqish, sayr qilish, ko'ngilochar maskanlarga borish, oilaviy jismoniy yoki stol o'yinlarini o'ynash, raqsga tushish va boshqalar kiradi. Ba'zi tadqiqotchilar bunday tadbirlarga oilaviy sport musobaqalarini o'tkazishni ham kiritishadi. L. Y. Arxipova oilaviy dam olish tadbirlarini quyidagicha tasniflaydi:

1. Suhbatlar – bular oilaning turli muammolarni hal qilishga, biror mavzu bo'yicha fikr almashishga qaratilgan muloqot shakli. Ular oila a'zolarining o'zlarini yoki mutaxassis ishtirokida, oila a'zolarining bir nechta bilan alohida yoki birgalikda o'tkazilishi mumkin. Muammoli oilalarda mutaxassislar bilan suhbatlar o'tkazilishi mutaxassis maslahatlari asosida muammoni hal qilish, tarbiyaviy ish tajribasini almashish, oilaviy munosabatlarni tushunish qobiliyatini oshiradi.

2. Oilaviy o'yinlar – bo'sh vaqtni o'tkazishda "kattalar" o'zlarini bir muncha vaqt boladek his qilishi va bolalar psixologiyasi olamiga sho'ng'ish usuli. Bunday o'yinlar va musobaqalarda ota-onalar bolalari bilan birga ishtirok etganda o'zlarini bir jamoa ekanligini ko'proq his eta boshlaydilar.

3. Rekreatsiya oilaviy dam olish – turizm, piyoda sayr qilish.

4. Oilaviy sport musobaqalari – dam olishning faol jismoniy ko'rinishi bo'lib, estafeta, poygalar, oilaviy turnirlar shaklida tashkil etiladi. Bunda bir oila a'zolari o'rtasida yoki oilalar o'rtasida biror sport turi bo'yicha tashkil etilishi mumkin.

5. Kinoteatr, konsert, ommaviy sayllarga oilaviy tashrif buyurish.

6. Ekskursiya ishi – muzeylarga, ko'rgazmalarga, san'at va me'morchilik yodgorligi, tarixiy obidalarga oilaviy tashriflar.

7. Oilaviy tanlovlarda ishtirok etish⁷.

8. Fasllarga mos oilaviy tadbirlar (qish faslida chana uchish, qorbobo yasash; bahorda guldasta yasash, ko'chatlar ekish; yozda suv sepish o'yinlari, hovuzda cho'milish; kuz faslida gerbariylar yasash, barglardan guldastalar yasash).

Shuningdek, ba'zi olimlar oilaviy ko'ngilochar tadbirlarni uyda va uydin tashqarida kabi guruhlarga ajratishadi va uydagi ko'ngilochar tadbirlarga quyidagilarni kiritadi:

⁷ Архипова Л.Е. Роль игры и игровых технологий в структуре семейного досуга // https://www.tsutmb.ru/nayk/nauchnye_meropriyatiya/int_konf/vseross/17_06_2015_v_vysheslavtsevskie_chteniya/rol-igry-i-igrovykh-tekhnologiy-v-strukture-semeynogo-dosugaarkhipova-l-e/.

▪ havaskorlik faoliyati (masalan, gulchilik, kolleksionerlik, uy hayvonlariga g'amxo'rlik qilish, birgalikda rasm chizish, she'riyat, musiqa, qo'shiqchilik, kashtachilik, havaskor videofilm olish, fotosessiya va boshqalar);

▪ oilaviy birgalikda televizor ko'rish;

▪ uy tomoshalari (masalan, oilaviy teatrlar, kiyimlar namoyishi, soyalar o'yini);

▪ oilaviy mutolaa, o'yinlar;

▪ bayramlar (tug'ilgan kunlar, marosimlar)⁸.

Inson tanasi faqat mehnat va dam olishning to'g'ri almashinuvi bilan normal rivojlanadi. Oilalar bilan ishlash orqali voyaga yetmaganlarning huquqbuzarligi xavfining oldini olish va kamaytirish, xavf omillarining salbiy ta'sirlarini kamaytirish, himoya omillarini kuchaytirish, huquqbuzarlik xavfi ostida bo'lgan bolalar va oilalar bilan samarali ishlash mumkin. Dam olish inson uchun mehnat bilan band bo'lish kabi zarurdir. Ota-ona va bolalar bilan birgalikda tashkillashtirilgan tadbirlar faqat yoshlar yoki ota-onalarga qaratilgan dasturlardan ko'ra ko'proq ijobiy ta'sir qiladi. Turli interaktiv metodlarni birlashtirgan, qulay vaqt va bir nechta manfaatdor tomonlarni qamrab olgan dasturlar muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ko'proq imkoniyatga ega. Bundan kelib chiqqan holda, asosan, oila va maktab hamkorligida tadbirlarni tashkil etish qulay va samaraliroq bo'lishini ta'kidlash lozim.

Dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda tizimli va strukturaviy yondashgan holda bir qator tadbirlarni taklif etish hamda ushbu dasturlarga ota-ona va farzandlar o'rtasida muammolar bo'lgan oilalar, yangi farzandlikka olingan bolalar va ularning ota-onalari, deviant xulqli bolalar va ularning ota-onalari jalb qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Dastur ijrosida ishtirokchilarning yoshi, jinsi, etnik va madaniy xususiyatlari hisobga olinishi zarur. Ba'zi loyihalar qisqa muddatligi, ota-ona va bolalarga yangi ko'nikmalarni egallashi uchun yetarli vaqt berilmasligi sababli muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin⁹. Xavf ostida bo'lgan oilalarning

⁸ Беляков О.И., Мещерякова И.В. Семейный туризм как форма досуговой деятельности. Известия Пензенского государственного педагогического университета им. В.Г.Белинского. Общественные науки – №28, 2012. – С. 690-693.

⁹ Julie Savignac. Families, Youth and Delinquency: The State of Knowledge, and Family-based Juvenile Delinquency Prevention Programs. 2009. <https://www.publicsafety.gc.ca/cnt/rsrscs/pblctns/fmls-yth-dlnqnc/fmls-yth-dlnqnc-eng.pdf>.

ehtiyotlari, sharoitlari va imkoniyatlari baholanib, ushbu oilaga mos dastur ishlab chiqish lozim, har bir oilaning dasturi o'ziga xos bo'lib, har oilada turlicha natija namoyon etadi.

Oilaviy dam olish faoliyatining psixologik afzalliklari quyidagilardan iborat:

- erkinlik, mustaqillik hissini oshirish;
- o'z-o'zini qadrlash, o'ziga ishonch hissini oshirish orqali o'z-o'zining kompetensiyasini oshirish;
- boshqalar bilan muloqot qilish, tushunish qobiliyatini oshirish;
- jamoaga a'zo bo'lish imkoniyatlarini kengaytirish;
- ijodiy qobiliyatni oshirish;
- shaxsiy ma'naviy g'oyalarni ifodalash va ularni aks ettirishni takomillashtirish;
- moslashuvchanlik va chidamlilik ko'nikmalarini oshirish;
- raqobatga nisbatan muvozanatli qarash va hayotga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish¹⁰;
- har bir oila a'zosining bo'sh vaqtlarida jismoniy va ruhiy muvozanatni saqlash, bir vaqtning o'zida oila a'zolarining barchasini jalb qilish;
- oila a'zolari o'rtasida muloqot va uyg'unlikni saqlash¹¹;
- dam olish shaxs va uning qobiliyatlarini rivojlantiradi, salomatlikni mustahkamlash;
- tabiat qo'ynida tashkillashtirilgan dam olish tabiat bilan uyg'unlikni shakllantirish, bolalarda tabiiy fanlarga muhabbatini oshirish.

Xorijiy davlatlarning aksariyatida dam olish markazlari mavjud bo'lib, ular yakka, oilaviy yoki jamoaviy dam olishni tashkil etishga ko'maklashadilar, dam olish uchun xizmatlar taklif etadilar, bayramlar tashkil etishga ko'maklashadilar. Shuningdek, ijtimoiy ishchi, ijtimoiy pedagog xavf ostidagi oilalar va xatar guruhidagi bolalar bilan ishlayotganda profilaktika va reabilitatsiya dasturlari doirasida oilalarning dam olishini tashkil etishga

¹⁰ David K. Howard. The Role of Recreation in Preventing Youth With Disabilities From Coming Into Contact With the Juvenile Justice System and Preventing Recidivism. 2002. <https://citeseerx.ist.psu.edu/document?repid=rep1&type=pdf&doi=9bdd3f4598087382c7a4f5dd6c8aeecca8a47659e>.

¹¹ Архипова Л.Е. Роль игры и игровых технологий в структуре семейного досуга. https://www.tsutmb.ru/nayk/nauchnyie_meropriyatiya/int_konf/vseross/17_06_2015_v_vysheslavtsevskie_chteniya/rol-igrv-i-igrovyykh-tekhnologiy-v-strukture-semeynogo-dosugaarkhipova-l-e/.

yordam berishlari mumkin. Oilalarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish (ta'limiy, psixologik, vositachilik)ning vositachilik faoliyati (tashkil qilishga yordam, tartibga solishga yordam, axborot berishga yordam) doirasida ham oilaviy tadbirlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratiladi. Tashkil qilishga yordam faoliyati oilaviy dam olishni tashkil etishga ko'maklashish bo'lib, xayriya auksionlarini rejalashtirish va o'tkazish, oilaviy bayramlar va tanlovlar uyushtirishni, uy xo'jaligini yuritish bo'yicha kurslar tashkil qilishni o'z ichiga oladi¹². Ijtimoiy pedagog deviant xulqli bolalarning oilalar bilan ishlaganda oilaviy birdamlikni mustahkamlash maqsadida oilaviy dam olish bo'yicha tavsiyalar berib boradi.

Yakuniy qism. Yoshlarning katta qismi bo'sh vaqtlarini qanday to'g'ri tashkil etish hamda manfaatli va qiziqarli o'tkazish haqida tasavvurga ega emas. Bu ruhiy jihatdan va jismonan sog'lom, yuksak axloqiy, intellektual rivojlangan shaxsni shakllantirishga ma'lum doirada to'sqinlik qiladi. To'g'ri tanlangan, puxta tashkillashtirilgan oilaviy ko'ngilochar dam olish tadbirlari oilaning qiziqarli, taassurotlarga boy, xilma-xil shakli bo'lib, u oilaviy munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy dam olish ota-onalar va bolalar o'rtasidagi ishonch va do'stlikni mustahkamlashga yordam beradi, g'ayrioddiy tarzda o'tkazilgan oilaviy tadbirlar butun oila a'zolari uchun yorqin taassurotlar beradi, baxtli bolalik xotiralari esa bir umrga qoladi. Mutaxassislar oilaviy dam olish bolalarda yangi g'oyalarni rag'batlantirishini, ish va o'qishga qayta kuch berishini, qiziqarli hayot kechirishga yordam berishini ta'kidlaydilar. Qiziqarli dam olish inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositasidir.

¹² Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika/ O'quv qo'llanma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009. – B. 115.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Integrating sport into youth crime prevention and criminal justice strategies: resolution / adopted by the General Assembly. UN. General Assembly (74th session: 2019-2020). <https://digitallibrary.un.org/record/3847134>.
2. Peter Greenwood. Prevention and intervention programs for Juvenile offenders. 2008. p. 186. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ815085.pdf>.
3. Butts, Bazemore, & Meroe. Positive Youth Justice: Framing Justice Interventions Using the Concepts of Positive Youth Development. 2010.
4. Latchkey kid. Wikipedia ochiq ensiklopediyasi. https://en.wikipedia.org/wiki/Latchkey_kid.
5. Steven B. Mertens, Nancy Flowers & Peter F. Mulhall. Research on Middle School Renewal: Should Middle Grades Students Be Left Alone after School? 2003. <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/00940771.2003.11494517>.
6. David Kurtz. Structured Recreation Programming Can Help Reduce Juvenile Crime // <https://www.nrpa.org/parks-recreation-magazine/2015/september/structured-recreation-programming-can-help-reduce-juvenile-crime/>.
7. Архипова Л.Е. Роль игры и игровых технологий в структуре семейного досуга // https://www.tsutmb.ru/nayk/nauchnyie_meropriyatiya/int_konf/vseross/17_06_2015_v_vysheslavtsevskie_chteniya/rol-igry-i-igrovykh-tekhnologiy-v-strukture-semeynogo-dosugaarkhipova-l-e/.
8. Беляков О.И., Мещерякова И.В. Семейный туризм как форма досуговой деятельности. Известия Пензенского государственного педагогического университета имени В.Г. Белинского Общественные науки. – №28, 2012. – С. 690-693.
9. Julie Savignac. Families, Youth and Delinquency: The State of Knowledge, and Family-based Juvenile Delinquency Prevention Programs. 2009. <https://www.publicsafety.gc.ca/cnt/rsrscs/pblctns/fmls-yth-dlnqnc/fmls-yth-dlnqnc-eng.pdf>.
10. David K. Howard. The Role of Recreation in Preventing Youth With Disabilities From Coming Into Contact With the Juvenile Justice System and Preventing Recidivism. 2002. <https://citeseerx.ist.psu.edu/document?repid=rep1&type=pdf&doi=9bdd3f4598087382c7a4f5dd6c8aecca8a47659e>.
11. Архипова Л.Е. Роль игры и игровых технологий в структуре семейного досуга // https://www.tsutmb.ru/nayk/nauchnyie_meropriyatiya/int_konf/vseross/17_06_2015_v_vysheslavtsevskie_chteniya/rol-igry-i-igrovykh-tekhnologiy-v-strukture-semeynogo-dosugaarkhipova-l-e/.
12. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika/ O'quv qo'llanma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009. – B. 115.



Nomozova O'g'iloy Akmaljon qizi,
 "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti
 tayanch doktoranti

OILAVIY MUNOSABATLARDAGI MULOQOTNING O'RNI

Annotatsiya. Bugungi kunda oilaviy ajrimlarning oldini olish yuzasidan bir qancha ishlar hamda tadqiqotlar olib borilayotgani holda, oilaviy ajrimlarga sabab bo'layotgan omillarni aniqlash ham dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Bu borada bir qancha omillar qatorida muloqot ham eng asosiy e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan dolzarblik kasb etmoqda. Shu jihatdan muloqot oila mustahkamligiga ta'sir etuvchi eng muhim omil ekanligi mazkur maqolada tahlilga tortilib, misollar asosida dalillangan. Shuningdek, maqola so'ngida tahlilga tortilgan muammo yuzasidan xulosa va tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: oila, jamiyat, adaptatsiya, an'ana, muloqot, nutq madaniyati, nutqiy mahorat, oilaviy muloqot.

Аннотация. Сегодня, когда проводятся ряд работ и исследований по профилактике семейных разводов, определение факторов, вызывающих семейные разводы, становится одним из актуальных вопросов. В связи с этим, среди ряда факторов актуальность приобретает коммуникация, которой необходимо уделять основное внимание. С этой точки зрения общение является важнейшим фактором, влияющим на прочность семьи, анализируемым в данной статье и доказываемым на примерах. Также в конце статьи даны выводы и рекомендации относительно анализируемой проблемы.

Ключевые слова: семья, общество, адаптация, традиция, общение, культура речи, речевые навыки, семейное общение.

Annotation. Today, when a number of works and studies are being carried out on the prevention of family divorces, identifying the factors that cause family divorces is becoming one of the pressing issues. In this regard, among a number of factors, communication becomes relevant, and it is necessary to pay special attention to it. From this point of view, communication is the most important factor that influences the strength of families, which is analyzed in this article and proven with examples. Also, at the end of the article, conclusions and recommendations regarding the problem being analyzed are given.

Key words: family, society, adaptation, tradition, communication, speech culture, speech skills, family communication.

Kirish. Har bir jamiyatda ma'lum bir qarashlar, qadriyatlar, mentalitet turlicha bo'lgani holda ma'lum jamiyatda istiqomat qilayotgan oilalarning ham qadriyatlari shu jamiyat qarashlariga mos bo'ladi. Jamiyat oilaga nisbatan kengroq bo'lsa, oila uning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Jamiyat ichidagi oilalar ham o'z qadriyat va urf-odatlarini, oilaviy tutumi bilan bir-biridan farq qiladi. Natijada har xil oilada voyaga yetgan ikki yosh oila qurganda yuqoridagi omillar tufayli yangi hayotning dastlabki kunlarida adaptatsiya jarayonini boshdan kechiradi. Bu vaqt mobaynida ular turli

muammolarga duch kelishi mumkin. Bunga sabab esa ularning boshqa-boshqa oilada tarbiyalangani, har xil dunyoqarashga ega ekani, hattoki urf-odatlarini ham turlicha bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi. Biroq ular turli oilalarda ulg'ayganidan qat'i nazar, ular bir jamiyat vakillari bo'lsa, ana shu jamiyat qabul qilgan qadriyatlar, an'analar umumiy bo'ladi.

Maqsad va uni asoslash. Yangi oilaga moslashish jarayonida yuqorida qayd etganimiz kabi omillar bilan bir qatorda muloqot masalasi ham alohida o'z o'rniga ega va oilaviy munosabatlardagi eng nozik, dolzarb masallardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada ham muloqotning oilaviy munosabatlarga ta'siri va o'rni tahlilga tortilgan.

Dastlab "muloqot" atamasiga qisqacha to'xtalib o'tsak: Muloqot so'zi arabchadan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi "uchrashish, ko'rishish, qabul qilish" degan ma'nolarni anglatadi¹.

Muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilarning affektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashinishidan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishidir.

Muloqot – odamlar o'rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi².

Psixologiya lug'atida muloqot tushunchasiga ikki xil ta'rif beriladi:

1. Muloqot – hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni.

2. Muloqot – belgilar tizimi orqali subyektlarning o'zaro ta'sirlashuvi³. Bunda "belgilar tizimi" deyilganda, albatta, muloqot qilish uchun kerakli vositalar tizimi tushuniladi. Bunday vositalar nutq orqali, ya'ni nutqda til birliklarini qo'llash hamda imo-ishoralar (paralingvistik vositalar) hisoblanib, ular yordamida muloqot jarayoni amalga oshiriladi.

Demak, yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, muloqot bu kishilar o'rtasida o'zaro axborot almashinuv, bir-biriga nutqiy ta'sir etish jarayoni hisoblanadi.

Muloqotning samarali kechishida esa shaxsning nutq madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq madaniyati tushunchasi ikki ma'noda tushuniladi:

– kishilarning nutq sharoiti va vaziyatiga mos ravishda tildan foydalanish salohiyati;

– kishilarning nutq sharoiti va vaziyatiga mos ravishda tildan foydalanishi masalalari bilan shug'ullanuvchi soha. Shuningdek, Nutq madaniyati shaxs nutqidagi ikki holatni qamrab oladi: a) shaxs nutqining to'g'riligi; b) nutqiy mahorat⁴. Demak, nutq madaniyatiga umumiy va qisqacha ta'rifni keltiradigan bo'lsak, u muloqot jarayonida insonning nutqiy vositalardan to'g'ri va o'rinni, ifodali foydalanish mahoratidir.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. М ҳарфи. <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/>

² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muloqot>

³ Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Turon-Iqbol" nashriyoti, 2006. – 119 b.

⁴ Raupova L. Nutq madaniyati. – Toshkent: "Innovatsiya-ziyoz", 2019. – B. 25.

Nutq madaniyatiga ega bo'lish nafaqat samarali muloqotni ta'minlasa, samarali muloqot esa shaxs uchun ko'plab ijobiy natijalar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, samarali muloqot har bir jabhada inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fikrimizcha, muloqotning umumiy hamda muayyan bir sohada, vaziyatda amal qilish lozim bo'lgan tartib-qoidalari bor. Jumladan, muloqot jarayonida so'zlaganda harflarni to'g'ri talaffuz qilish, aniq, ravon, ifodali, mazmunli so'zlash kabilar muloqotning umumiy qoidalari sirasiga kiradi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Kishilar munosabatga kirishishda, avvalo, tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati shundaki, munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati – nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham muloqot yuritishdan iborat. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'lamiz. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi⁵.

Oilaviy muhit farzand tarbiyasi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Chunki bolaning fikrlashi, olamni idrok etishi, dunyoqarashi va uning nutqi, avvalo, oiladagi muhit, oila a'zolarining xatti-harakatlari ta'sirida shakllanadi. Uning nutqiy madaniyati, muloqot odobiga ham bevosita oilaviy muhit ta'sir etmasdan qolmaydi. Bu ta'sir esa ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.

O'zaro oilaviy munosabatlarda muloqot eng nozik masalalardan biri hisoblanadi. Oilaviy muloqotning, albatta, o'z qoidalari bor. Oila a'zolari bir-biri bilan o'zaro oilaviy munosabatga – muloqotga kirishar ekan, yuqorida tilga olingan muloqotning umumiy xususiyatlari bilan birga ayrim oilaviy vaziyatlarga xos xususiy belgilariga ham e'tibor qilgan holda yondashishi kerak. Xo'sh, "bu qanday amalga oshadi?" degan savol tug'iladi. Shu o'rinda ushbu masala yuzasdan olib borilgan tadqiqotlarga murojaat qilsak, maqsadga muvofiq

⁵ Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Turon-Iqbol" nashriyoti, 2006. – B. 5.

bo'ladi. Xususan, oilaviy munosabatlar masalasi o'zbek olimlaridan F. Akramovning tadqiqotida batasfil yoritib berilgan. Olimaning "Oilada shaxslararo munosabatlarning oila mustahkamligiga ta'siri masalalari" nomli monografiyasida shaxslararo munosabatlar ichida oiladagi muloqot masalasiga ham e'tibor qaratib o'tgan. Xususan, olimaning fikriga ko'ra, farzand bilan ota-ona o'rtasidagi munosabatlarda bolaga nisbatan talabchanlik hissi uning yoshi, jinsi, individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Lekin ota-ona bolaning shaxsiga o'ta jiddiylilik bilan yondashishsa yoki aksincha, e'tiborsiz bo'lsa, ular o'ratsida psixologik to'siq paydo bo'ladi. Natijada samimiy muloqot o'rnatib olish qiyinlashadi⁶. Fikrimizcha, oilada ota-onaning farzandi bilan munosabatida uning yosh xususiyatini inobatga olgan holda, unga so'zlayotgan har bir so'ziga e'tibor bilan yondashishi, qo'pol so'zlardan tiyilishi, nutq odobiga amal qilgan holda muloqot olib borishi, bola bilan ko'proq suhbatlashishi munosabatlarni mustahkamlashda juda samarali yo'l hisoblanadi.

Oilaviy munosabatlarda ota-onaning faqatgina farzand bilan emas, umuman, butun oila a'zolari bir-biriga samimiy muloqot qila olishi oila barqarorligini ta'minlaydi. Oilaviy muloqotda mensimaslik, buyruq ohangi, doimiy qo'pollik, so'kish, bir-birini hurmat qilmaslik kabilar muloqotning samarali kechishiga, samimiy muloqot yuzaga kelishiga to'siq bo'ladi. Shuning uchun ham oilada oila a'zolari oiladagi o'z mavqeyiga qarab nutq madaniyatini ham shakllantirib, kichiklarga o'rnak bo'ladigan shaxs sifatida o'z-o'zini tarbiyalab borishi zarur.

Xalqimizda bir qancha urf-odatlar qatorida oilada oila a'zolarining muloqotida ham ana shunday an'analar mavjud, bu, albatta, har bir xalqda kuzatiladigan tabiiy holat. Masalan, o'zbek oilalalarida kelin turmush o'rtog'ining oila a'zolariga hurmat bilan murojaat qilishi, ya'ni qaynona, qaynota, qaynsingil va boshqalarni bilan muloqotda ularga muayyan so'zlar bilan murojaat qilishi urf-odatga aylangan (dadajon, oyijon, akajon, ammajon va h.k.). Bunday hurmat-e'tibor, albatta, kuyov tomonidan kelinning oila a'olariga nisbatan ham kuzatiladi, ammo kelin bu borada juda e'tiborli bo'lishi talab etiladi. Yoki qaynona va qaynotalar

⁶ Акрамова Ф. Оилада шахслараро муносабатларнинг оила мустаҳкамлигига таъсири масалалари. Монография. – Тошкент: "Lesson-press" нашриёти, 2021.

yoshlarga qarab "sizni kelin emas, qizim deyman / kuyov emas o'g'lim deyman" kabi jumlaridayoq muloqot jarayoniga ijobiy ta'sir seziladi. Yana bir misol: o'zbek xonadonlarida ayol o'z turmush o'rtog'iga "siz" deb murojaat qilishi o'rtadagi o'zaro hurmatni yanada mustahkamlaydi. Demak, oilaviy munosabatlarda muloqot jarayoniga e'tibor aratar ekanmiz, bunda xalqimizga xos bo'lgan ba'zi urf-odatlar ham muhim o'ringa ega.

Shu o'rinda jamiyatimizda oilada otaning roliga ahamiyat qaratiladi. Ota har jabhada, shuningdek, muloqotda ham barchaga o'rnak bo'lmog'i lozim. Bu borada taniqli ijodkor, pedagog-olima Tursunoy Sodiqovning "Oila ilmi" asarida shunday fikrlar e'tiborimizni tortadi: "O'zini tutolmay, ayoliga qo'l ko'tarayotgan yoki og'zidan bodi kirib-shodi chiqib so'kinayotgan erkaklarni yaxshilab kuzat. Undan ozor yeyayotganning ahvolini ko'r. Atrofdan olayotgan qarg'ishlariga guvoh bo'! Va uning o'rniga bir zum o'zingni qo'y, tasavvur qilki, shu sen! Hamda bu kepatangni bolang ko'rib turibdi deylik!

O'g'lonim, agar bolangning ro'parasida shu ko'yga bir marta tushgan bo'lsang ham, kezi kelib, unga nasihat qilolmay qolasan! Aybini aytding deguncha, ichida ustingdan kulaveradi. Ko'zlari "o'zing-chi?" deb turaveradi! Seni hurmat qilmay qo'ydimi, unga nasihatning toshga suv sepganday gap! Qani ayt-chi, o'zingning bolangni o'zing yetaklay olmasang, kim bo'lding endi!?"⁷

Ko'rinib turganidek, ota obrazi, ayniqsa, farzandlar uchun andoza bo'ladi. Uning o'g'zidan chiqayotgan har bir so'z oila a'zolariga ta'sir etmay qolmaydi.

Oilaviy munosabatlarda muloqot jarayonida e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan shaxsning bir qancha muhim jihatlari mavjud. Ular quyidagilar:

Shaxsning yoshi – bu eng muhim belgi hisoblanadi, chunki har bir yosh davrida shaxsning psixologik xususiyatlari, atrofidagilarni, olamni idrok etishi ham turlicha bo'ladi. Masalan, 3-4 yoshli bolaga uning tilida emas, kattalar tilida, ya'ni oiladagi muhim yechimini kutayotgan masalalar yuzasidan murojaat qilib yoki o'ta jiddiy ohangda suhbtlashib bo'lmaganidek, voyaga yetgan shaxs bilan ham xuddi yosh Bolani erkalatgandek munosabatda muloqot olib borilmaydi, u bilan eni

⁷ Sodiqova T. Oila ilmi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 8.

jiddiy masalalarni ham muhokama qilish, undan muamoga yechim bo‘la oladigan maslahatni qabul qilish mumkin. Yoki oilada Yoshi ulug‘ keksalar bilan muomalada hamisha chiroyli so‘zlar bilan murojaat qilish, hurmat qilib munosabatda bo‘lish maqsadga muvofiq, chunki yosh jihatdan ular ko‘pincha ta’sirchan bo‘lib qoladi.

Shaxsning jinsi – jins bu munosabatlarni to‘g‘ri yo‘naltirishda muhim faktor. Oilada ayol bor – erkak bor. Ularning har birida o‘ziga xos jins bilan bog‘liq fikrlashi, idrok etishi, shaxsiy o‘ziga xos xususiyatlari bor. Shu jihatdan oilada ayol va erkak bilan muomalada ehtiyotkorlik lozim. Jins bilan bog‘liq xususiyatlar ularning nutqida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Oilaviy maqomi – o‘zaro muloqot jarayonida oiladagi har bir a’zoning oilaviy maqomini e’tiborga olib murojaat qilish kerak. Masalan, bola o‘z otasi bilan muloqot jarayonida xuddi tengquri bilan muomala qilgandek muloqot qilolmaydi yoki aksincha, ota farzandi bilan muloqotda bir pog‘ona undan yuqori turadi.

Yaqinlik darajasi – oilada oila a’zolarining yaqinlik darajasi ham muloqotd muhim omil sanaladi. Masalan, ota yoki ona bilan bo‘lgan suhbat xola yoki amaki/tog‘a bilan bo‘lgan suhbatdan farq qilishi mumkin. Bunda juda ham yaqinlik ko‘rsatkichi asosiy o‘rinda turadi.

Kasbi – oila a’zolari turli xil kasb bilan faoliyat yuritishlari mumkin, bu esa ularning nutqida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, oilada oila boshlig‘i harbiy faoliyat bilan shug‘ullansa, u ko‘proq jiddiy nutq ohangiga ega bo‘lishi hayotiy tajribalarda

kuzatilgan. Vaholonki, oilada doim bunday jiddiy nutq bilan muloqot qilib bo‘lmaydi, ba’zida quvnoqlik ham kerak bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan ushbu shaxs xususiyatlari muloqotga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Shinng uchun oilviy muloqotda bu jihatlariga ham e’tibor qaratisa, foydadan xoli bo‘lmaydi. Umuman olganda, insonning ichki dunyosi uning atrofida uchun murakkab tuyuladi. Ana shu murakkablikni tushunishda, ya’ni bir-birini tushunishda xushmuomalalikka amal qilish kerak. Zotan, Shirinso‘zlik doimo muammolar kaliti bo‘la oladi.

Yakuniy qism. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosa va tavsiyalarni keltirib o‘tamiz:

– oiladagi muloqot to‘g‘ri olib borilmasa, ba’zida nizolarga sabab bo‘lgani holda, shuningdek, uni samarali tashkil etish nizolarni bartaraf eta olishi ham kuzatilgan holat;

– shuni e’tiborga olgan holda har bir ta’lim muassasida, muloqot madaniyati darslarini tashkil etish maqsadga muvofiq;

– turmush qurishga tayyorgarlik ko‘rayotgan, turmush qurish arafasida turgan yoshlarga nikoholdi darslarida mutaxassislar tomonidan samarali oilaviy muloqot darsini ham o‘tib borish;

– shuningdek, har bir oila vakillari o‘zidan tortib farzandigacha, oilada kitobxonlik muhitini yaratishi va bu o‘rinda nutq odobi, muomala odobi xususidagi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan kitolarni ham o‘qishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. М ҳарфи. <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muloqot>
3. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Turon-Iqbol” nashriyoti, 2006. – 119 b.
4. Raupova L. Nutq madaniyati. – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo”, 2019. –140 b.
5. Акрамова Ф. Оилада шахслараро муносабатларнинг оила мустаҳкамлигига таъсири масалалари. Монография. – Тошкент: “Lesson-press” нашриёти, 2021. – 124 б.
6. Sodiqova T. Oila ilmi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 144 b.



Ikramova Kamola Shavkatovna,
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
 instituti tayanch doktoranti*

YOSH ER-XOTINLARDA ZIDDIYATLAR PAYDO BO‘LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada yosh er-xotin munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari, oila-nikoh aloqalarining ahamiyatli jihatlari, er-xotin o‘rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlarning ijtimoiy-psixologik omillari keng yoritilgan. Shu bilan bir qatorda, yosh er-xotinlar o‘rtasida ziddiyatlar yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot ishining tahlillari keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: hayotiy tajriba, er-xotin munosabatlari, moslashuv jarayoni, nikoh, ajrim, oilaviy ziddiyatlar, nikoh mustahkamligi, ijtimoiy-psixologik omillar, moliyaviy taqchillik.

Аннотация. В данной статье широко освещаются особенности взаимоотношений молодой пары, важные аспекты семейно-брачных отношений, социально-психологические факторы конфликтов, возникающих между супругами. Кроме того, представлен анализ научно-исследовательской работы, проведенной с целью определения социально-психологических факторов, влияющих на возникновение конфликтов между молодыми парами.

Ключевые понятия: жизненный опыт, супружеские отношения, процесс приспособления, брак, развод, семейный конфликт, стабильность брака, социально-психологические факторы, финансовый дефицит.

Annotation. In this article, the characteristics of the relationship of a young couple, the important aspects of family-marriage relations, and the socio-psychological factors of conflicts arising between the couple are widely covered. In addition, the analysis of the scientific research work conducted to determine the socio-psychological factors affecting the occurrence of conflicts between young couples is presented.

Key words: life experience, marital relationship, adjustment process, marriage, divorce, family conflict, marital stability, socio-psychological factors, financial deficit.

Kirish. Tadqiqot ishimizda ilgari surilgan asosiy muammo yosh oilalarda er-xotinlar o‘rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Bundan ko‘zlangan maqsad asosida yosh er-xotinlar orasida namoyon bo‘ladigan nizoli holatlarga ta’sir etuvchi omillar o‘rganiladi.

Yosh oilada er-xotinlar o‘rtasida ziddiyatlar yuzaga kelishiga qaratilgan diagnostika ishimiz uchun maxsus ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma o‘tkazildi. Mazkur so‘rovnomada

yosh oilada namoyon bo‘luvchi turli nizolarga munosabatni tavsiflovchi holatlar keltirilgan bo‘lib, yosh oilada kuzatilishi mumkin bo‘lgan muammolar, er-xotinlar o‘rtasidagi ziddiyatlarga sabab bo‘luvchi omillar, yosh oilalarda sodir bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘lgan ziddiyatlarning oldini olish bo‘yicha sinaluvchilarning munosabatlarini o‘rganish mumkin. Tadqiqot so‘rovnomasi sinaluvchilar guruhida o‘tkazilib, to‘plangan ma’lumotlar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi hamda jadval va diagrammalarda aks ettirildi.

Ta'kidlash joizki, sinaluvchilarga so'rovnoma bir qancha javob variantlarini tanlash imkoni berilgani sababli umumiy ko'rsatkichlarda foizlar yig'indisi 100% ga teng kelmaydi.

1-jadval

Yosh oilalarda ko'p uchraydigan muammolarning namoyon bo'lishi

№	Muammolar	Tanlovlar qiymati
1	Hayotiy tajribaning yetishmasligi	43,4%
2	Moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklar	71,3%
3	Moliyaviy taqchilik	69,8%
4	Bir-birini tushunishdagi noaniqliklar	21,8%
5	Kelishmovchiliklar	28,2%
6	Oilaning kelajagi uchun xavotirlanish	15,9%
7	Farzand tarbiyasidagi qiyinchiliklar	14,7%
8	Ijtimoiy rollarni to'liq bajarishda vaqt kamligi	33,6%

1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar yosh oilalarda ko'p hollarda yuzaga keluvchi qiyinchiliklarni aniqlash maqsadida "Yosh oilalarda qanday muammolar ko'p uchraydi deb o'ylaysiz?" deya berilgan savolning javoblaridan olingan. Natijalardan ma'lumki, sinaluvchilarning 43,4 foizi hayotiy tajribaning yetishmasligi, 71,3 foizi moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklar yosh er-xotinlar orasida ko'pincha paydo bo'luvchi asosiy muammolardan deb hisoblashadi. Ularning fikricha, nikohga kiruvchilarning juda yoshligi, hayotda ko'p tajribalarni egallamaganligi, amaliy bilimlarning yetishmasligi, shuningdek, yangi shakllangan oilada kuzatiladigan adaptatsiya jarayonlari va unga nisbatan adekvat munosabat bildirilmasligi yosh oilalardagi er-xotinlarda muammolarga sabab bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda, yosh er-xotinlarning 69,8 foizi moliyaviy taqchilik, 21,8 foizi bir-birini tushunishdagi noaniqliklarni tez-tez uchraydigan muammo sifatida baholashadi. Bundan ko'rinadiki, oilani iqtisodiy ta'minlashdagi qiyinchiliklar, uy-ro'zg'or xarajatlari uchun pulning yetishmasligi, er yoki xotinning o'z fikrlari, xatti-harakatlari to'g'ri idrok etilmasligi, bir-birini qo'llab-quvvatlamasliklari ularda oilaviy muammolarning namoyon bo'lishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Sinaluvchilarning 28,2 foizi kelishmovchiliklar, 10,6 foizi oilaning kelajagi uchun xavotirlanish yosh er-xotinlar orasida kuzatiladigan muammolar ichida yetakchi o'rin tutishini ta'kidlashgan. Qaror qabul qilishdagi murosasizlik, bir-birining fikriga hurmat bilan qaramaslik, kelgusi hayotda nikohga xavf soluvchi omillardan tashvishlanish, ishonchsizlik hislari yosh er-xotinlar uchun oilaviy muammolar kuchayishiga olib kelishi mumkinligi tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldi.


Shuningdek, yosh er-xotinlarning 14,7 foizi farzand tarbiyasidagi qiyinchiliklar, 33,6 foizi ijtimoiy rollarni to'liq bajarishda vaqtning kamligini oilada yuzaga keluvchi asosiy muammo sifatida qayd etishlari aniqlandi. Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, tug'ilgan farzandlar (ayniqsa, birinchi farzand)ni tarbiyalashdagi tajribaning yetishmasligi, to'g'ri tarbiya berish bilan bog'liq tashvishlanish holatlari, oila qurish bilan shakllanadigan er, xotin, ota, ona, kuyov, kelin kabi ijtimoiy rollarning ortishi, undagi mas'uliyat, vazifalarni to'liq amalga oshirish uchun vaqtning kamligi yosh er-xotinlarda bir qator muammolarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan natijalardan ma'lum bo'ladiki, yosh er-xotinlar oilada ko'plab muammolar yuzaga kelishi mumkinligini qayd etishgan, ayniqsa, hayotiy tajribaning yetishmasligi, moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklar, moliyaviy taqchilik, ijtimoiy rollarni to'liq bajarishda vaqtning kamligi boshqa omillarga qaraganda ko'proq yetakchi o'rin tutadi.

Tadqiqot davomida yosh er-xotinlarda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarga sabab bo'ladigan omillarni o'rganishga harakat qildik. Buning uchun ularga "Yosh er-xotinlar o'rtasidagi ziddiyatlarga, asosan, nima sabab bo'ladi deb hisoblaysiz?" savoli bilan murojaat qilindi. Mazkur savolga sinaluvchilar tomonidan berilgan javoblar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi hamda 1-rasmda aks ettirildi.

1-rasmda keltirilgan natijalarga ko'ra, sinaluvchilarning 41,3 foizi majburiy nikoh, 58,7 foizi moddiy yetishmovchilik yosh oilada ziddiyatlar kelib chiqishiga ta'sir etuvchi asosiy omil ekanligini ta'kidlashgan. Mazkur ko'rsatkichlardan anglash mumkinki, yosh er-xotinlardan birining yoki ikkalasining ham nikohni o'z roziligi bilan emas, o'zgaralar talabi bilan qurishi, ularning oilaviy hayot to'g'risidagi fikrlarining boshqalar tomonidan inobatga olinmasligi, bundan tashqari, pul bilan

bog‘liq yetishmovchiliklar, oilaning iqtisodiy ta‘minotidagi uzilishlar oilada nizoli holatlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.



1-rasm. Yosh er-xotinlar o‘rtasida ziddiyatlar yuzaga kelishiga ta‘sir etuvchi omillarning namoyon bo‘lishi

Shuningdek, yosh er-xotinlarning 32,5 foizi sevgining yetishmasligi, 14,6 foizi rashk tufayli oilaviy nizolar kelib chiqadi deb hisoblashlari aniqlandi. Natijalardan ko‘rinib turibdiki, yoshlarning bir-biriga nisbatan muhabbat hislarining yetishmasligi, sevib oila qurmaslik holatlari, notanish insonlardan asossiz rashk qilish, ishonchsizlik hislari endi shakllangan yangi oilalarda turli tushunmovchilik va ziddiyatlarga olib kelishi mumkin.

Sinaluvchilarning 19,4 foizi oilaga boshqa insonlar aralashuvi, 35,9 foizi er-xotinlik vazifalarining to‘liq bajarilmasligi ziddiyatlarga sabab bo‘lishini ma‘lum qilishgan. Mazkur natijalardan shu narsa ayon bo‘ladiki, yosh er-xotinlar oilasidagi turli holatlarga shu oilaning boshqa a‘zolari aralashuvi, xususan, qaynona va kelin, qaynopa (qaynsingil) va kelin orasidagi kelishmovchiliklar, shuningdek, er yoki xotinning o‘z majburiyatlarini to‘la ado etmasligi, oilaviy tartib-intizomga sovuqqonlik bilan qarash kabi omillar nizolarning paydo bo‘lishi va kuchayishiga zamin hozirlaydi.

Shu bilan birga, yosh er-xotinlarning 51,7 foizi ziddiyatlar yuzaga kelishiga xarakterdagi nomuvofiqlik, 10,1 foizi mustaqillikka intilish, 44,5 foizi oilaga nisbatan mas‘uliyatni his qilmaslik holatlari ta‘sir o‘tkazadi, deb javob berishgan. Natijalardan ko‘rinib turibdiki, nikohlanuvchi yoshlarning fe‘l-atvoridagi xilma-xillik, ikki insonning xarakteridagi tafovutlar, mustaqil yashash istagi, itoat qilishni xohlamaslik, oilani muqaddas deb bilmaslik, javobgarlikni o‘z bo‘yniga olmaslik

kabilar oilaviy nizolarning kelib chiqishiga turtki bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlardan ta‘kidlash joizki, yosh er-xotinlar o‘rtasida nizoli holatlarning yuzaga kelishiga turli omillar o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Xususan, ular orasida majburiy nikoh, moddiy yetishmovchilik, xarakterdagi nomuvofiqlik, oilaga nisbatan mas‘uliyatni his qilmaslik singari holatlar yetakchi o‘rinda turadi.

Tadqiqot davomida yosh er-xotinlarda kuzatilishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarning oldini olish bo‘yicha ishtirokchilarning munosabatlari o‘rganildi. Shu nuqtayi nazardan ularga “Er-xotinlar orasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarning oldini olish uchun nimalarga e‘tibor berish zarur?” degan savol bilan murojaat qilindi. Mazkur savolga sinaluvchilar tomonidan berilgan javoblar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi hamda quyidagi jadvalda aks ettirildi.

2-jadval

Yosh er-xotinlar o‘rtasida ziddiyatlarning oldini olish bo‘yicha bildirilgan munosabatlar tahlili

№	Chora-tadbirlar	Tanlovlar qiymati
1	Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash	60,1%
2	Oila haqida to‘g‘ri tasavvurlarni hosil qilish	41,5%
3	Erta nikohlarga barham berish	87,8%
4	O‘zaro hurmat hissini shakllantirish	32,3%
5	Vaziyatga oqilona baho berishga o‘rgatish	15,2%
6	Yoshlarni ish bilan ta‘minlash	56,9%
7	Er-xotinlarda stressga bardoshlilikni rivojlantirish	19,7%
8	Shaxslararo munosabatlarni yaxshilash	25,3%

2-jadvalda keltirilgan natijalarga ko‘ra, sinaluvchilarning 60,1 foizi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, 41,5 foizi oila haqida to‘g‘ri tasavvurlarni hosil qilish, 87,8 foizi erta nikohlarga barham berish yosh oilalarda ziddiyatlar yuzaga kelishining oldini olishda samarali yechim bo‘lishini ta‘kidlashgan. Mazkur natijalardan anglash mumkinki, ota-ona va kattalar tomonidan o‘spirinlarda katta hayotda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarning shakllantirilishi, oila atalmish dargoh to‘g‘risida tayanch bilimlar

berilishi, ularda mas'uliyat, sadoqat, vafo hislarining tarkib toptirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tadqiqot ishtirokchilarining katta qismi yosh oilada sodir bo'ladigan ziddiyatlarning asosini erta nikoh deb hisoblab, mazkur holatlarga barham berish nizolarning ham oldini olishga ta'sir ko'rsatishini qayd etishgan.

Shu bilan birga, yosh er-xotinlarning 32,3 foizi o'zaro hurmat hissini shakllantirish, 15,2 foizi vaziyatga oqilona baho berishga o'rgatish, 56,9 foizi yoshlarni ish bilan ta'minlash ziddiyatlarning oldini olishga zamin hozirlashini ma'lum qilishgan. Natijalardan ko'rinib turibdiki, yosh er-xotinlarda o'zaro hurmat hissini tarkib toptirish, yuzaga kelgan tushunmovchiliklarda aql bilan ish tutishga o'rgatish, salbiy hissiyotlarga berilmaslik, ikkinchi tomon fikrlarini qabul qilish, shuningdek, oilada moddiy yetishmovchiliklar kuzatilmaligi uchun yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish kelgusida turli oilaviy ziddiyat va kelishmovchiliklarning oldini olishga yordam berishini ta'kidlashgan.

Sinaluvchilarning 19,7 foizi er-xotinlarda stressga bardoshlilikni rivojlantirish, 25,3 foizi shaxslararo munosabatlarni yaxshilash kabi jihatlarni aynan oilaviy nizolarning oldini oluvchi bosh omillar deb bilishadi. Bundan shuni anglash mumkin, psixologik-emotsional zo'riqishlarga nisbatan chidamlilikni oshirish, salbiy his-tuyg'ular ta'sirini pasaytirish, oilaning boshqa a'zolari bilan o'zaro munosabatlarni ijobiy tomonga o'zgartirish, yangi muhitga moslashishga ko'maklashish kabi jihatlarda yosh er-xotinlarning nizolashuvchanlik darajalarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalardan ma'lum bo'ladiki, yosh er-xotinlar oilaviy nizolarning oldini olish bo'yicha turlicha munosabatlarni bildirishgan, xususan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oila haqida to'g'ri tasavvurlarni hosil qilish, erta nikohlarga barham berish, yoshlarni ish bilan ta'minlash kabi omillar boshqa chora-tadbirlarga nisbatan ko'proq samaraliligini ta'kidlashadi.

Umuman olganda, yosh er-xotinlarning oilada kuzatilishi mumkin bo'lgan muammolar, er-xotinlar o'rtasidagi ziddiyatlarga sabab bo'luvchi omillar, yosh oilalarda sodir bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan ziddiyatlarning oldini olish bo'yicha bildiradigan munosabatlari bir-biridan farq qiladi, bu esa ularning yashash sharoiti, ijtimoiy muhiti, hayotiy tajribasi, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan izohlanilishi mumkin.

Yosh er-xotinlar o'rtasida ziddiyatlar namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillardan biri sifatida nizoli xulq-atvor shakllari belgilab olingan. Shu nuqtayi nazardan, mazkur ikki hodisa o'rtasidagi aloqadorliklarni o'rganishdan oldin sinaluvchilarda nizoli xulq-atvoriga moyillikning qay darajada tarkib topganini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Ushbu vazifani amalga oshirish maqsadida K.N.Tomasning "Shaxsning konfliktli xulq-atvoriga moyilligini diagnostika qilish" metodikasi tanlab olindi. Mazkur metodika yosh er-xotinlarda kuzatiladigan nizoli xulq-atvor shakllarini aniqlash imkonini berib, ushbu xususiyatning raqobat, hamkorlik, murosaliqlik, tortishuvdan qochish, moslashuvchanlik ko'rinishlarida namoyon bo'lish jihatlari o'z ichiga qamrab oladi.

3-jadval

Toshkent shahridagi yosh er-xotinlarda nizoli xulq-atvor shakllari bo'yicha tafovutlarning namoyon bo'lishi

Shkalalar nomi	Sinaluvchilar	O'rtacha qiymat	t (Styudent mezon qiymati)	p (Ishonchli-lik darajasi)
Raqobat	Er	10,12	2,93	p>0,05
	Xotin	9,87		
Hamkorlik	Er	9,17	2,08**	p≤0,01
	Xotin	11,64		
Murosaliqlik	Er	8,98	3,11*	p≤0,05
	Xotin	10,37		
Tortishuvdan qochish	Er	11,77	-2,67	p>0,05
	Xotin	13,87		
Moslashuvchanlik	Er	8,36	2,46*	p≤0,05
	Xotin	11,78		

So'rovnoma tanlab olingan sinaluvchilar guruhida o'tkazilib, natijalar hududlar kesimida alohida miqdor va sifat jihatidan tahlil qilingan. Dastlab Toshkent shahrida istiqmot qiladigan yosh er va xotirlarda kuzatiladigan konfliktli xulq-atvoriga moyillik darajalariga e'tibor qaratilib, ushbu so'rovnoma bo'yicha qayd etgan natijalari hamda tafvutli jihatlari quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Jadvalda (3-jadval) keltirilgan ko'rsatkichlarga ko'ra, hamkorlik bo'yicha yosh oilalardagi er-xotinlarning natijalari qiyosiy o'rganilganda, ular o'rtasida ahamiyatli farqlar aniqlandi ($t=2,08$; $p\leq 0,01$). Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan nizoli holatlarda turmush o'rtog'ining manfaatlarini hurmat qilish, ziddiyatlar kuchayib ketishining oldini olish, shaxslararo munosabatlarda ijobiy qaror qabul qilish jarayonlari Toshkent shahrida yashaydigan yosh oilalardagi ayollarda erkaklarga qaraganda ko'proq namoyon bo'ladi. Oila rahbarlarida esa bunday holatlar qolgan sinaluvchilarga qaraganda kamroq kuzatilishi tadqiqot natijalari orqali tasdiqlandi.

Murosaliilik bo'yicha yosh oilalardagi er va xotinlarning natijalari o'rtasida ahamiyatli tafvutlar kuzatildi ($t=3,11$; $p\leq 0,05$). Buni shunday izohlash mumkinki, erkaklar va ayollar o'rtasida ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelganda ulardagi kelishuvga asoslangan xulq-atvor shakllari o'zaro farq qilib, nikoh-oila munosabatlarida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarda murosa yo'lini qidirish, sherigining emotsional holatiga e'tibor qaratish, vaziyatni yengil hal qilishga intilish kabi

holatlar ayol kishilarda erkaklarga nisbatan ko'proq namoyon bo'ladi.

Moslashuvchanlik bo'yicha yosh er-xotinlarning ko'rsatkichlari taqqoslanganda, ushbu qiymatlar orasida ahamiyatli farqlar mavjudligi kuzatildi ($t=2,46$; $p\leq 0,05$). Ko'rsatkichlardan ma'lumki, nizoli holatlarda juftiga yon bosish, mojaroning oldini olishga harakat qilish, turmush o'rtog'ining manfaatlarini ustun qo'yish, uning emotsional holatini to'g'ri tushunish xususiyatlari erkak kishilarga nisbatan ayollarda yuqoriroq kuzatilishi aniqlandi.

Natijalardan ma'lum bo'ladiki, tadqiqot jarayonida Toshkent shahrida istiqomat qiladigan yosh er-xotinlar natijalari o'rtasida raqobat, tortishuvdan qochish bo'yicha ahamiyatli farqlar kuzatilmadi. Bundan ko'rish mumkinki, turmush davomida paydo bo'ladigan ziddiyatli holatlarda umr yo'ldoshi bilan agressiv munosabatda bo'lish, qasd olishga intilish, shuningdek, bahs-munozaradan qochish, tortishishni xohlamaslik darajalari er-xotinlik ijtimoiy rollarida tubdan farq qilmaydi va bir xil tarzda namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida ta'kidlash mumkinki, Toshkent shahrida yashovchi yosh er-xotinlarda kuzatiladigan nizoli xulq-atvor shakllarining ayrim turlari er-xotinlik ijtimoiy rollari kesimida ahamiyatli tarzda tafvutlanadi, shu jumladan, hamkorlik, murosaliilik, moslashuvchanlik kabi jihatlar sezilarli ravishda bir-biridan farq qiladi. Mazkur so'rovnoma Navoiy viloyatidagi yosh er-xotinlarda ham o'tkazilib, ularning qayd etgan ko'rsatkichlari 2-jadvalda ifodalangan.

4-jadval

Navoiy viloyatidagi yosh er-xotinlarda nizoli xulq-atvor shakllari bo'yicha tafvutlarning namoyon bo'lishi

Shkalalar nomi	Sinaluvchilar	O'rtacha qiymat	t (Styudent me- zoni qiymati)	p (Ishonchlilik darajasi)
Raqobat	Er	12,74	-2,38	$p>0,05$
	Xotin	11,14		
Hamkorlik	Er	12,47	1,78	$p>0,05$
	Xotin	13,96		
Murosaliilik	Er	10,23	2,57*	$p\leq 0,05$
	Xotin	11,71		
Tortishuvdan qochish	Er	10,52	3,37*	$p\leq 0,05$
	Xotin	13,36		
Moslashuvchanlik	Er	9,93	-2,09	$p>0,05$
	Xotin	10,81		

Jadvalda (4-jadval) qayd etilgan natijalarga binoan, murosallilikning namoyon bo'lishi bo'yicha Navoiy viloyatida yashovchi yosh er-xotinlar o'rtasidagi ko'rsatkichlarda ahamiyatli farqlar mavjudligi aniqlandi ($t=2,57$; $p\leq 0,05$). Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, oilaviy hayotda kuzatiladigan muammoli vaziyatlarga nisbatan vazmin munosabatda bo'lish, turmush o'rtog'i bilan kelishuvni ta'minlash, ikki tomonga ham mos keluvchi qaror qabul qilish bilan vaziyatni yumshatishga harakat qilish kabi holatlar ayollarda erkak kishilarga qaraganda ko'proq namoyon bo'ladi.

Tortishuvdan qochish bo'yicha yosh oilalardagi er-xotinlarning ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslanganda, ushbu qiymatlar orasida ahamiyatli tafovutlar mavjudligi kuzatildi ($t=3,37$; $p\leq 0,05$). Natijalardan ma'lumki, mojaroli jarayonda o'zining huquqlarini himoya qilishni istamaslik, nizoning mavjudligini tan olmaslik, qaror qabul qilishda ishtirok etmaslik, o'z fikrini bildirishdan bosh tortish, bahslashishni xohlamaslik holatlari ayol kishilarda erkaklarga nisbatan yuqoriroq namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Qayd etish joizki, tadqiqot natijalarida Navoiy viloyatida istiqomat qiluvchi yosh er-xotinlar o'rtasida raqobat ($t=-2,38$; $p>0,05$), hamkorlik ($t=1,78$; $p>0,05$), moslashuvchanlik ($t=-2,09$; $p>0,05$) xususiyatlari bo'yicha ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Bundan ma'lum bo'ladi, turmush tarzi davomida nizoli vaziyatlarda umr yo'ldoshi bilan tortishishni davom ettirish, har ikki shaxs uchun manfaatli qaror qabul qilish, yon bosishga

intilish darajasi jinslar kesimida bir xil tarzda namoyon bo'ladi.

Natijalardan ayon bo'ladi, Navoiy viloyatida yashovchi yosh er-xotinlarda kuzatiladigan nizoli xulq-atvor shakllarining ayrim toifalari bo'yicha er-xotinlik ijtimoiy rollari jihatidan ahamiyatli farqlar mavjud, jumladan, mazkur holatni murosallilik, tortishuvdan qochishning ifodalanishida yaqqol ko'rish mumkin. Shu bilan bir qatorda, Xorazm viloyatida istiqomat qiladigan yosh oila vakillarining ushbu so'rovnomaga bo'yicha qayd etgan ko'rsatkichlari esa 3-jadvalda ifodalangan.

Jadvalda (5-jadval) aks ettirilgan natijalarga ko'ra, hamkorlikning namoyon bo'lishi bo'yicha yosh oilalardagi er-xotinlar natijalari o'rtasida ahamiyatli tafovutlar qayd etildi ($t=2,16$; $p\leq 0,01$). Mazkur ko'rsatkichdan anglash mumkinki, Xorazm viloyatidagi yosh oila qurgan ayollarda turmush o'rtoqlariga qaraganda ikkala tomonning shaxsiy manfaatlarini nizoni keltirib chiqargan muammodan ustun qo'yish, yechim topishda faol ishtirok etish, o'zi va umr yo'ldoshining istagini qondirish maqsadida harakat qilish, ochiqdan ochiq fikr almashish ko'proq kuzatiladi. Erkaklarda esa bunday holatlar ayollarga nisbatan kamroq kuzatilib, tadqiqot natijalari orqali aniqlandi.

Moslashuvchanlik bo'yicha yosh er-xotinlarning natijalari solishtirilganda, ushbu qiymatlar orasida ahamiyatli farqlar mavjudligi kuzatildi ($t=2,24$; $p\leq 0,05$). Ko'rsatkichlardan ma'lumki, ziddiyatli holatlarda nizolashuvchi tomonni mavjud holatga "ko'ndirish", moslashtirish hamda shu yo'l orqali o'zining ham muayyan manfaatlarini himoya

5-jadval

Xorazm viloyatidagi yosh er-xotinlarda nizoli xulq-atvor shakllari bo'yicha tafovutlarning namoyon bo'lishi

Shkalalar nomi	Sinaluvchilar	O'rtacha qiymat	t (Student mezon qiymati)	p (Ishonchlilik darajasi)
Raqobat	Er	9,18	2,62	$p>0,05$
	Xotin	9,11		
Hamkorlik	Er	12,56	2,16**	$p\leq 0,01$
	Xotin	14,19		
Murosallilik	Er	11,58	3,21	$p>0,05$
	Xotin	12,67		
Tortishuvdan qochish	Er	9,21	2,14	$p>0,05$
	Xotin	10,42		
Moslashuvchanlik	Er	9,07	2,24*	$p\leq 0,05$
	Xotin	13,53		

qilish, yarashib ketish uchun barcha imkoniyatni ishga solish, turmush o'rtog'i bilan bo'lgan munosabatlarni saqlab qolish va barqarorlashtirish, maqsadga erishish uchun o'z manfaatining qisman amalga oshmasligiga rozi bo'lish xususiyatlari yosh oilalarda erkaklarga nisbatan ayollarda yuqoriroq ifodalanishi aniqlandi.

Xulosa. Natijalardan ko'rinadiki, tadqiqot jarayonida Xorazm viloyatida yashaydigan yosh oiladagi er-xotinlar o'rtasida raqobat ($t=2,62$; $p>0,05$), murosallilik ($t=3,21$; $p>0,05$), tortishuvdan qochish ($t=2,14$; $p>0,05$) bo'yicha ahamiyatli tafovutlar qayd etilmadi. Bundan anglash mumkinki, oilaviy hayotda ziddiyatlar paydo bo'lganda

turmush o'rtog'i bilan bahsli munosabatda bo'lish, kelishib ish qilish, munozaraga borishni istamaslik darajalari er-xotinlik rollari kesimida o'zaro yaqqol farqlanmasligi tadqiqot natijalari orqali qayd etildi.

O'tkazilgan so'rovnomalar natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, yosh er-xotinlarda oilaviy munosabatlarda kuzatiladigan ziddiyatli vaziyatlarda nizoli xulq-atvor shakllari turli darajalarda namoyon bo'lib, shaxs xatti-harakatlarida bevosita aks etadi. Turmush davomida konfliktli xulq-atvorga moyillik darajalarining ifodalanishi va uning kechishi bo'yicha yosh er-xotinlar bir-biridan farq qiladi, ushbu holatni hududlar va ijtimoiy rollar kesimida aniqlangan natijalar bevosita tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Зайцева Т.В. Факторы и условия супружеской удовлетворенности браком: дилемма двойной идентичности // Семейная психология и семейная терапия. – № 1, 2017. – С. 3–12.
2. Обозов Н.Н. Психология межличностных отношений. – Киев: изд-во Ун-та. 1990. – 192 с.
3. Келли Дж. Психология личности: теория личностных конструктов. – Санкт-Петербург, 2000. – 356 с.
4. Винивидова Е.П. Структура понимания конфликтной ситуации молодыми супругами с разным стажем совместной жизни: диссертация ... канд. психол. наук [Место защиты: Кур. гос. ун-т]. – Б. м., 2012. – 130 с.
5. Дзагоев А.К. Молодая семья в современных условиях: На материале Республики Северная Осетия-Алания. Автореф. дис. канд. соц. н. – Москва, 2000. – 42 с.
6. Орлова И.Н. Социально-психологическая готовность студенческой молодежи к созданию семьи. – Санкт-Петербург, 2013. – 130 с.



Safoyeva Ra'no Jalolovna,
"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot
ilmiy xodimi

OILALAR FAROVONLIGIDA OTA-ONA VA INSON QADR-QIYMATINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda oilalarimiz farovonligini ta'minlashda nimalarga e'tibor qaratishimiz kerakligi, ota-ona tarbiyasi, milliy qadriyatlarimiz, ota-ona o'g'itida oilaning muqaddasligi, oilani asrab-avaylashning o'ziga xosligini har tomonlama o'rganish kabilar dolzarb ekani haqida to'xtalib, o'g'il-qizlarni qadriyatlar tizimida tarbiyalash masalalari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: oila, o'g'il-qizlar manfaatlari, oilaviy qadriyatlar, oila turlari, ota-ona o'g'itlari, oilada qaynonalarning o'rni.

Аннотация. В статье говорится о том, что нам в сегодняшний день следует обратить внимание на обеспечение благополучия наших семей, воспитание детей на основе национальных ценностей, святость семьи в воспитании детей. Всесторонне изучать уникальности сохранения семьи, вопросы воспитания юношей и девушек в системе ценностей и т. д.

Ключевые слова: семья, интересы сыновей и дочерей, семейные ценности, типы семьи, воспитание родителей, роль свекрови в семье.

Annotation. The article states that today we should pay attention to ensuring the well-being of our families, raising children on the basis of national values, and the sanctity of the family in raising children. Comprehensively study the uniqueness of preserving the family, the issues of educating boys and girls in the value system, etc.

Keywords: family, interests of sons and daughters, family values, types of families, parental education, role of mother-in-law in the family.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish hamda ularning huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash maqsadida 2022-yil 7-martda qabul qilingan "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmon oila institutini rivojlantirishga doir madaniy meros, oilaviy qadriyatlar muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarni amalga oshirish, ular asosida oila institutini mustahkamlash, yoshlarni

oilaga tayyorlash hamda oilaviy ajrimlarning oldini olishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish va amalga oshirish kabi vazifalarni har qachongidan ham dolzarb ekanligini qat'iy belgiladi¹. Bu esa mamlakatimizda oilalarning farovonligiga xizmat qiluvchi umuminsoniy, milliy qadriyatlarini, er-xotin, ota-onalar, farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni, oilaning ma'naviy, axloqiy, huquqiy asoslarini mustahkamlash va takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor berishimiz kerakligidan dalolat beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7-mart 2022-yildagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5899498>

Maqsad va uni asoslash. Jismonan sog‘lom, ma‘naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti, ota-onalar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta‘lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini mustahkamlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 27-fevraldagi “Mustahkam oila yili” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-1717-son qarorining 69-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi 175-sonli qarori bilan 4 ta yo‘nalish hamda 25 ta banddan iborat “Oila – mahalla – ta‘lim muassasasi” hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasi tasdiqlandi².

Darhaqiqat, bugungi kunda yigit-qizlarimizni ziyoli, har tomonlama yetuk, barkamol shaxs qilib tarbiyalashda “Oila – mahalla – ta‘lim muassasasi” tizimi hamkorlikda ish olib borsagina farzandlarimiz go‘zal xulqli, oilalarimiz esa farovon bo‘ladi.

Yigit va qiz oila qurganda ularning baxt qo‘rg‘oni – farzand orqali ular o‘rtasidagi rishtalar mustahkamlanadi. Erkak kishi oila nima ekanini farzandli bo‘lgandagina his qila boshlaydi, oilasiga nisbatan qadrlash hissi yanada kuchayadi. Ayolning tafakkuri erkaknikiga nisbatan histuyg‘uga moyilligi bilan farqlanadi, erkakniki esa oilasi oldidagi mas‘uliyati farzandli bo‘lgach yanada oshadi. Endi u o‘zining zurriyodi uchun poydevor yaratishga intila boshlaydi. Farzand unib-o‘shida eng muhim o‘rin egallaydigan ota-ona esa uning tarbiyasi va sog‘-salomat voyaga yetishi uchun o‘zining bor kuch va salohiyatini safarbar etadi. Farzand shunday ne‘matki, uni Yaratgan kimgadir beradi, yana kimgadir sinov tariqasida bermaydi. Zero, farzandsiz oilalar ham yo‘q emas bu hayotda. Ammo farzandli oilalarning barchasi ham mukammal emas, ayrim ota-onalar arzimagan sabablarni ro‘kach qilib ajrashib ketishadi. Ashurali Jo‘rayevdan ajoyib o‘xshatish: “Oila seysmologik hududda turgan imorataga o‘xshaydi, qachon silkinib, qachon darz ketishini Ollohdan boshqa hech kim bilmaydi”³. Oila bino obrazida chiroyli tasvirlangani ayni haqiqat. Haqiqatan, ham oilaning mustahkam saqlanishida qaynona va qaynotaning roli ham muhim. Ayrim oilalarda yoshlarning baxtli

² Республика “Маҳалла” жамоат фонди Хоразм вилояти бўлими жорий архив материаллари. – Урганч, 2013.

³ Jo‘rayev A. Sahifaga sig‘magan satrlar. – Toshkent: Istiqol, 2008. – 64 b.

bo‘lib yashab ketishida kattalar ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi, ammo ayrim oilalarda 3-shaxslar aralashuvi hamda turli xil janjal va kelishmovchiliklar oqibatida oilalar barbod bo‘layotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz.

Shunday ekan, barchaga pand-nasihath qiluvchi yoshi ulug‘ bobo-buvilarimizning maqollar bilan keltirilgan gaplari ba‘zida yurak-yuragimizga ta‘sir ko‘rsatadi. Ularni eshitar ekanmiz haqiqatan ham hayotda qiyinchilik ko‘rmay turib noshukrlik qilayotganday tuyulamiz o‘zimizga. Oilada yaxshi kun ham, yomon kun ham bo‘ladi. Kelishmovchilik deymiz, lekin inson sabr qilsa, barchasi iziga tushib ketishi ham mumkin. Ayrim hollarda sabrning ham chegarasi bo‘ladi, bu azob-uqubatlar ortida yaxshi kunlar ham bor. Biz hayotga shubha-gumon bilan nazar solar ekanmiz, o‘zgarishlar bo‘lmaydi, alabatta. Agar hayotimizda ko‘p narsalar o‘zgarishini xohlasak, o‘zgarishni o‘zimizdan boshlashimiz darkor, chunki insonlarga siz qanday muomala qilsangiz, ular sizga nisbatan shunday muomalada bo‘lishi ayni haqiqat. Ayrim oilalarda mehr beruvchi bir shaxs bo‘lsa-yu, qolganlar g‘azabini sochar ekan, u oilada parokandalik bo‘lishi tayin. Shuning uchun hayotdagi turli vaziyatlarga faqatgina bir insonni eshitib emas, balki ikkala tomonga ham quloq solgan holda xulosa qilish kerak. Ayrim oilalarda bularga nima yetishmaydi ekan, nega farzandlari taqdirini o‘ylamay ajrashish qarorini tanlashdi ekan, deb o‘ylab qolamiz.

Masalan, betoblik sabab ayrim oilalar ajrim holatida, ba‘zilari esa 3-shaxslar aralashuvi yoki erkakning oilada o‘rni yo‘qligi yoxud kelinning qaynonasiga yoqmagani sabab u oilada yasholmasligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Aslini olganda, hayot – yoshlarniki. Juftlik kelishgan holda bir-birining xato-kamchiliklarni bartaraf etib, o‘z ustida shiddat bilan ishlasa va oila mas‘uliyatini erkak kishi bo‘yniga olsa – olam guliston. Natijada esa bir oilani saqlab qolish imkoni paydo bo‘ladi. Biz oilalarni o‘rganar ekanmiz, ikkala tomonni ham eshitib, ulardagi kamchilikni aytsak, ba‘zilar “aql o‘rgatma, yashaydigan menman”, deya quloq solmaydi. Vaholonki, arablarda ajoyib maqol bor: “insonga aytilgan nasihat faqatgina xato qilgach, haqiqat ekanligini tushunib yetadi”. Balki shu xatoning oldini olishning iloji bo‘lganida edi, bu hayotda hech kim adashmas va xato qilmas edi. Rus millatida ham ajoyib naql bor: “o‘z xatoyimdan xulosa chiqaraman, xato qilamadan yashab bo‘lmaydi”.

Inson xato qilib bo'lgach, nega ota-onamning gapiga kirmadim, quloq solmadim deya afsusnadomatlar iskanjasida qolar ekan. Shunday ekan, hayotda eng yaqin bo'lgan ota-ona farzandining hayotda qiynalmasligingi istaydi va to'g'ri yo'lga chorlaydi.

To'y bu dabdaba ostida o'tadigan jarayon, ayriliq esa azaga o'xshaydi, insonni faqatgina qayg'u chekishga majbur qiladi. Qush uyida ko'rganini qiladi, deb bejiz aytishmagan. Zero, biz uchun ideal inson o'z ota-onamiz bo'ladi. Qiz bola turmushga chiqar ekan, uni oilada olgan tarbiyasi juda muhim ahamiyatga ega. Ular boshqa oila a'zosi bo'lgach, ota-onasidan olgan ta'limi va tarbiyasi uchun ularga yoki rahmat oladi yoki la'nat. Qiz farzandni tarbiya qilar ekanmiz, unga, avvalambor, ota-onaga ko'rsatiladigan hurmat-ehtirom hamda ularni qadrlash hissini chuqur tushuntirish lozim, chunki begona oilaga borganda ularni o'z ota-onasidek yaxshi ko'rib, mehr bilan munosabatda bo'lsa, albatta, qaynona va qaynotasining duolari soyasida yaxshi yashashi, farovon turmush tarzini kechirishi kafolatlanadi. Qiz farzand o'g'il farzandga nisbatan emotsionalroq bo'ladi.

Bundan tashqari, qaynonaning oiladagi muhitni sog'lom saqlashi ham katta ahamiyatga ega. Nima bo'lgan taqdirda ham yosh qizlarni qaynona va qaynotani e'zozlashga, ularni xuddi o'z ota-onasidek qabul qilib, ularga mehr berish va xizmatlarini qilishga, yangi oilasida o'z o'rmini mehnati orqali mehrini qozonish kerakligini yaxshilab tushuntirishi lozim. Ayrim oilalarda qaynonalar kelinlarini o'z qizlaridan-da ziyoda yaxshi ko'rishganiga ko'p marta guvoh bo'lganlar bor. Bunday bo'lishiga sabab – kelinning uyida olgan tarbiyasi. Uning mehri va mehnatining mevasi qaynona va qaynotasining duolarida, chunki qiz farzand uzoqda bo'lgan paytda kelin qaynona va qaynotaning joniga oro kirishi va ularga fidokorona xizmat qilishi, ularni qadrlashi, ularning barcha injiqliklari va ba'zida nohaq bo'lsada, koyigan vaqtlari yuzlariga tik qaramay, albatta, kechirim so'rashi zarur. Zero, shuning o'zi ham eng katta kelinlik jasorati hisoblanadi. O'ylashimizcha, hozirgi ayrim yoshlarimizda shunday jasorat va farosat yetishmaganligi ortidan qaynona-qaynota yomon bo'lib qolmoqda. Afsuski, tarbiya berishda onalarga ham hayron qolasan kishi. Ular farzandlariga: “o'zingni hech qachon xafa qildirib qo'yma”, deb o'rgatishadi. Ammo bu bilan nimaga erishishadi? Bu orqali ular faqatgina tarbiya qilgan ota-onasiga la'nat keltiradi xolos.

Qiz farzandlarda egiluvchanlik xususiyatini shakllantirishda tog'ri yo'nalish berishimiz, ularni, birinchi navbatda, farosatli va har bir narsaga ahamiyatli, sergak bo'lishlarida, ayniqsa, oilada muomala madaniyatiga katta ahamiyat qaratishlarini, kezi kelganda “xo'p bo'ladi” deya tinglashlari kerakligini uqtirishimiz kerak. Zero, yaxshi gap ham, yomon gap ham bir og'izdan chiqadi. Ammo oilada ko'ngil atalmish guldonning darz ketishiga ham, asosan, shu tilimiz sabab bo'ladi. Jahl chiqqanda uni jilovlay bilish, ortga chekinish, kattalarning g'azabini qo'zg'atmasdan ularning biroz vaqt sovushini kutish kerak. Axir inson sabrli bo'lsa, hammasi iziga tushib ketishi muqarrar ekanligini yoshlarga tushuntirsa bo'ladi-ku.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Ma'lumki, yoshlarimiz turli oila turlarida tarbiya topadilar, jumladan:

– tinch, baxtli oilalar o'z vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshiradilar, o'z bolalarining ehtiyojlariga tez ko'nikadilar. Muammo paydo bo'lib qolsa, ularga bir karra yordam ko'rsatish kifoya;

– xavf mavjud bo'lgan oilalarda adaptativ qobiliyatlar birmuncha pastroq bo'ladi. Ular bola tarbiyasini qiyinchilik bilan amallaydilar va ijtimoiy-pedagog yordam hamda nazoratga ehtiyoj sezadilar;

– notinch oilalar hayotiy faoliyatning ma'lum bir sohasida past ijtimoiy maqomga ega bo'lib, ular o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydilar. Bunday oilalarning adaptativ imkoniyatlari past bo'lib, ularda bola tarbiyasi jarayoni katta qiyinchiliklar bilan sekin kechadi. Bu oila turi uchun ijtimoiy pedagogning faol yordami zarur. Muammolari xarakteridan kelib chiqib, pedagog ularga pedagogik yoki psixologik yordamlar ko'rsatadi;

– asotsial oilalar tubdan isloh qilinishi lozim, chunki bu oilalarda ota-onalar g'ayriaxloqiy va g'ayrihuquqiy hayot tarzini olib borishadi, yashash sharoitlari oddiy tozalik-gigiyenik talablarga ham javob bermaydi. Bu kabi oilalarda bolalar tarbiyasi bilan, tabiiyki, hech kim shug'ullanmaydi, bolalar nazoratsiz qolib ketishadi, rivojlanishda ortda qolishadi. Ijtimoiy pedagog bu oilalar bilan ishlaganida huquqni muhofaza qilish organlari bilan yaqin hamkorlik asosida ish yuritishi zarur⁴.

⁴ Эгамбердиева Н. “Ижтимоий педагогика” / Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – Б. 106.

Oila atalmish qo'rg'onda kelinlarda yaxshi taassurot qoldirish uchun, avvalambor, kuyovlarning o'zlari harakat qilishlari kerak. Shundagina erkak kishi ham turmush o'rtog'ining qilgan munosabatiga qarab rag'bat sifatida qo'llab-quvvatlashni boshlaydi. Axir qaysi erkakka ota-onasini qadrlagan va ularni sadoqat bilan ardoqlab yaxshi ko'rgan ayol yoqmaydi? Agar yaxshilab tafakkur qilsak, aslida, eng maqbul yechim – farovon oilaning mustahkam bo'lishi – qaynona va qaynotasidan olgan duolari emasmi? Ayrim oilalarda ota-onasini ayoliga xor-zor qildirib qo'ygan erkaklar ham bor. Ammo bu qaytar dunyo – nima eksang, shuni o'rasan. Ota-onasi qariganida ayanchli ahvolda qoldirayotgan ekaklarga qarasang nafratlanasan kishi, axir seni shu ota-onang qiynalib voyaga yetkazsa-yu, xotingga gaping o'tmasa, ularni qariganida xor qildirib qo'ysang. Bu kabi nobakor farzandlarga nima desang ham foydasi yo'q, chunki ular bag'ritosh bo'lib ketishgan.

Ota oilaning boshi hisoblanadi. Har bir farzand uchun ota – ideal qahramon. Hozirgi kunda oilalar arzimagan maishiy muammolarni deb ajrim yoqasiga kelib qolmoqda. Natijada esa bundan, asosan, farzandlar aziyat chekadi. Afsuski, bugungi kunda bola taqdiri va kelajagini, uni voyaga yetkazish mas'uliyatini ayolga yuklab, befarqlik qilayotgan otalar ham bor. Ayrim farzandlar ota mehrini his qilmay voyaga yetadilar, bunda ularning aybi nimada? Aybi otasini sog'inishi, hayotida otasi bo'lishini xohlashi yoki uning jajji qalbi o'ksinishimi? Hayot insonni ko'nikishga majbur qilsa-da, taslim bo'lishga aslo yo'l qo'ymaydi.

Shunday voyaga yetgan ko'p farzandlar kelajakda o'z oilalarini qadrlab, o'zida bo'lmagan shart-sharoitni farzandlariga yaratib yashaydilar. Ammo yoshlikdagi armonlari, o'zlari kechirgan qiyinchilik hamda ushalmagan orzularini farzandlarida takrorlanishini istamaydilar, o'z otasi qilgan xatoni takrorlamaslikka qat'iy harakat qilishadi. Hayot bergan tarbiyani biror inson berolmaydi, hayot qiyinchiliklarida ulg'ayib, qiyinchiliklarni boshdan kechirgan inson ancha tajribali hisoblanadi. Biz bu hayotni bir kitob timsolida ko'rishimiz mumkin. Inson voyaga yetish jarayonida hayot kitobini varaqlab umri davomida sinovlarda sinalib o'z hayot maktabini kitob timsolida yaratadi.

Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, har bir inson bu hayotga kelar ekan, taqdir atalmish yo'l

unga har xil sinovlar orqali baxt, omadga erishganda, albatta, kulib boqishini hamda qiyinchiliklar abadiy emasligini, har bir sinov ortida, albatta, yaxshi kunlar kelishini umid qilib yashaydi. Mana shu histuyg'ularni his qilish umid deya atalib, inson taslim bo'lmashligi kerak ekanligini sinovlardan keyingina tafakkur qila oladi. Ungacha esa irodasizlik qilib, noumid bo'lish bu nodonlik belgisidir. Aql-idrok bilan qilingan har bir ishda unumdorlik, samara bo'ladi. Inson ongli mavjudot deya ta'riflanishi ham bejizga emas, u tafakkur qila olsagina, hayotga to'g'ri baho bera oladi, oilada va jamiyatda o'z o'rnini topa oladi. Shunday ekan, oila atalmish qo'rg'ondagi har bir kishi o'z vazifasi va mas'uliyatini to'laqonli his qila olsa, jamiyatda ulkan o'sish hamda baxtli insonlar soni ortadi. Albatta, bunday natijalarga erishishimizda, avvalambor, farzand sifatida ota-ona roziligini olish katta ahamiyatga ega. Ota-onaning roziligi, ularning duolari oilamizda va jamiyatda o'z o'rnimizga ega bo'lishimizga qanot bo'ladi. Shunday ekan, farzand o'z burchini ado eta olishi uchun unga beriladigan tarbiyaga katta ahamiyat berish va to'g'ri yo'nalish berish – biz ota-onalarning vazifamiz. Baxtli oila siri bu – oiladagi har bir shaxs o'z mas'uliyatini his qilib yashashidir. Oilani mustahkam bo'lishida esa erkak va ayolning fikrlashi, dunyoqarashi, qiziqishi, tengligi hamda yashashdan maqsadi mutanosib bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi. Faylasuflardan biri: "...bizga aqlli va ma'naviy yetuk ayollarni bering, biz sizga daholarni beramiz", – degan. Ayol va erkak teng ma'naviyatli bo'lsagina, oiladagi ko'prikning yillar davomida qurilishi mustahkam bo'ladi va biz faxr bilan baxtli oila deb atay olamiz.

Yakuniy qism. Xulosa qilib aytganda, ota-onalar oila farovonligini ta'minlashda:

- o'g'il-qizlarini oilaviy hayotga tayyorlab borishga mas'ul ekanliklarini anglab yetishlari;

- ta'lim muassasalarida yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash mavzusini umumiy psixologiya ishchi dasturiga mavzu sifatida o'qitishni yo'lga qo'yishi;

- oilalarda er-xotin munosabatlarida bir-biriga bo'lgan ishonch hurmatni oshirishi;

- shuningdek, oilada qizlarga, uy-ro'zg'orni yuritish, o'g'il bolalarda oila boshlig'i – ota obrazini shakllantirib voyaga yetkazish masalariga alohida e'tibor berish kerak. Natijada, yoshlarimiz har tomonlama o'z farzandlariga namuna bo'ladigan ota-ona bo'lib yetishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 7-mart 2022-yildagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5899498>
2. Республика “Маҳалла” жамоат фонди Хоразм вилояти бўлими жорий архив материаллари. – Урганч, 2013.
3. 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси.
4. Ўзбекистон Республикаси Оила кодексига шарҳлар. – Тошкент, 2000. – Б. 52.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Оила кодекси”. – Тошкент, 1998.
6. Каримова В.М. Оила психологияси: Дарслик. Педагогика олийгоҳлари талабалари учун. – Тошкент: “Фан ва технология”, 2008. – 170 б.
7. Эгамбердиева Н.М. “Ижтимоий педагогика” / Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – Б. 106.
8. Jo‘rayev A. Sahifaga sig‘magan satrlar. – Toshkent: Istiqlol, 2008.



Ermatov Shuhrat Teshaboyevich,
 “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
 instituti ilmiy xodimi

XOTIN-QIZLARNING HAYOTIY VA OILAVIY STRATEGIYALARI BO‘YICHA ROSSIYA TAJRIBASI

Annotatsiya. Tadqiqot “ayolning hayotiy strategiyalari uning shaxsiyatini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va mazmunli hayot yo‘nalishlari va hayot qadriyatlarini o‘z ichiga olgan hayotiy dunyoni qurishga hissa qo‘shadi” degan konsepsiyaga asoslanadi. Ushbu maqolada ayollarning turmushga, farzandlarga, kasbiy faoliyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga munosabati uch bosqichli yosh guruhida tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: hayotiy strategiya, ijtimoiy funktsiya, rivojlanish yo‘nalishi, shaxs, hayot dunyosi, o‘zini o‘zi anglash, mazmunli hayot yo‘nalishlari, qadriyatlar, nazoratning subyektiv darajasi.

Аннотация. В основу исследования положена концепция о том, что жизненные стратегии женщины служат основой развития ее личности и способствуют построению жизненного мира, включающего в себя осмысленные жизненные направления и жизненные ценности. Отношение женщин к браку, детям, профессиональной деятельности, общественно-политической жизни анализировалось в трех возрастных этапах.

Ключевые слова: жизненная стратегия, социальная функция, направленность развития, личность, жизненный мир, самоактуализация, смысловые ориентации, ценности, субъективный уровень контроля.

Annotation. The research is based on the concept that a woman’s life strategies serve as the basis for the development of her personality and contribute to the construction of a life-world that includes meaningful life directions and life values. The attitude of women towards marriage, children, professional activity, social and political life was analyzed in three age stages.

Keywords: life strategy, social function, direction of development, personality, life world, self-actualization, meaningful life orientations, values, subjective level of control.

Kirish. Xotin-qizlarning hayotiy va oilaviy qadriyatlarini tadqiq qilish Rossiya Federatsiyasining sanoat shaharlari va qishloq joylarida o‘tkazilgan. Empirik tadqiqotda millati, ta’lim darajasi, ijtimoiy va oilaviy ahvoli bo‘yicha bir-biridan farq qiluvchi 500 nafar 17 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar ishtirok etdi. Psixodiagnostika natijalariga ko‘ra, barcha subyektlar uch guruhga bo‘lingan holda tegishli nomlarni olgan:

- 1-guruh – 17–24 yoshli qizlar guruhi;

- 2-guruh – o‘rtacha ayollar guruhi yoshi yoki birinchi yetuklik yoshi – 25–44 yosh;

- 3-guruh – 45–65 yoshdagi yetuk yoshdagi ayollar.

Ushbu guruhlashtirish tadqiqot maqsadlariga javob beradi va umumiy qabul qilinganidan sezilarli darajada farq qilmaydi¹.

Hayotiy strategiyalar ayol shaxsining rivojlanishiga hissa qo‘shadi, uning hayotini

¹ Бочаров В.В. Антропология возраста: Учебное пособие. – Санкт-Петербург, 2001.

uyg'unlashtiradi va unga hayotning asosiy sohalari – sevgi va nikoh, kasbiy faoliyat va jamiyatdagi hayotda muvaffaqiyatga erishishga imkon beradi. "Hayot strategiyasi" kategoriyasini tadqiq qilish metodologiyasi S.L. Rubinshteyn, B.G. Ananiyev, K.A. Abulxanova-Slavskayalar tomonidan hayot strategiyasi tushunchalari tahliliga asoslanadi.

Maqsad va uni asoslash. Ayol o'z hayotiy strategiyasini asosiy ijtimoiy funksiyalar asosida shakllantiradi. Bu, o'z navbatida, hayot strategiyasi shaxsga o'z hayotiy dunyosini, shu jumladan, shaxsning semantik sohasini yaratishga yordam beradi.

Hayotiy strategiya – bu substantivlik xususiyatiga ega bo'lgan hamda rivojlanishga "intilish" nuqtayi nazaridan yo'nalishga ega bo'lgan kategoriya bo'lib, bizning fikrimizcha, u A.V. Petrovskiyning kategorial tizimida metapsixologik va sotsiosentrik kategoriyalar o'rtasida oraliq o'rinni egallaydi. Hayot strategiyasi nafaqat faoliyat, balki o'z borlig'ini, o'z-o'zini qurishidir. Masalan, ayol faqat onalik faoliyatini amalga oshiribgina qolmay, onaga aylangandan so'ng u o'zining ona sifatida, shu jumladan, bola borlig'ini ham qura boshlaydi².

Hayotiy strategiyalar, ular asosida yotadigan funksiyalar kabi rivojlanish yo'nalishi bilan bog'liq. B.G. Ananiyev, S.L. Rubinshteyn, K.K. Platonov yo'nalishni intilish, rivojlanish vektori sifatida tushunadi. Kengroq, lekin rivojlanish vektorini saqlab qolish bilan birga, A. Adler rivojlanish yo'nalishlari haqida gapiradi. U inson hayotida uchta asosiy yo'nalish yoki uchta asosiy savol – jamiyatdagi hayot masalasi, faoliyat masalasi, sevgi va nikoh masalasi mavkud ekanligini ta'kidlaydi. Bizning fikrimizcha, hayotning ushbu uch yo'nalishi ayolning asosiy funksiyalari va hayot strategiyasini belgilaydi. Sevgi va nikoh yo'nalishi ikkita asosiy funksiya – ayol – xotin, ayol – onani belgilaydi. Faoliyat yo'nalishi funksiyani shakllantiradi – ijtimoiy ishlab chiqarishning ayol mehnatkashi. Jamiyatdagi hayot masalasi ijtimoiy individ funksiyasi orqali hal qilinadi³.

² Петровский А. В., Ярошевский М. Г. Теоретическая психология: Учебное пособие. – Москва, 2003.

³ Адлер А. Наука жить. – Киев, 1997. Платонов К. К. Структура и развитие личности. – Москва, 1986.

Funksiya qanday shakllantiriladi?

A.N. Leontiyevning faoliyat nazariyasiga ko'ra, ayolning oilada va jamiyatdagi mustaqil faoliyati – ongli harakati – birinchi harakat sifatida boshlanadi, keyin u operatsiyalar majmuyi sifatida o'zlashtiriladi va keyinchalik funktsiyaga aylanadi. Ayolning ijtimoiy funksiyalari haqida gapirganda, biz xotin, ona, ijtimoiy ishlab chiqarishda ishchi, shuningdek, ijtimoiy hayotning ishtirokchisi sifatidagi faoliyatni amalga oshirishni nazarda tutamiz. Bu pozitsiya B.G. Ananiyevning "Inson ijtimoiy individ sifatida doimo ma'lum bir ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Ularning har biri o'ziga xos ijtimoiy xulq-atvor orqali amalga oshiriladi, taniqli xulq-atvor tizimlari va ularni belgilovchi motivlar shaklida quriladi. Bu xulq-atvor tizimlari, motivlari va umuman, shaxsning ijtimoiy funksiyalari axloq normalari, huquq va ijtimoiy taraqqiyotning boshqa hodisalari bilan belgilanishi" pozitsiyasiga asoslanadi⁴.

Ayollar bajaradigan funksiyalar orasida hozirgi kun uchun asosiylari bor. Ya'ni ular XX asrda shunday bo'lgan va XXI asrning birinchi yarmida ham shundayligicha qoladi. Biz asosiy – fundamental funksiyalar maqomini quyidagilarga ajratamiz: ayol – xotin, ayol – ona, ijtimoiy ishlab chiqarish xodimi va ijtimoiy shaxs. Ushbu funksiyalarning har biri ijtimoiy funksiya bo'lib, uni belgilovchi xatti-harakatlar va motivatsiyalar tizimi shaklida qurilgan va ularning har biri jamiyat tomonidan belgilanadi.

Hayot strategiyasi hajmi va ma'nosi bo'yicha kengroq tushunchadir, garchi u unga asoslangan bo'lsa ham. Hayot strategiyasi ayol hayot yo'lining turli bosqichlarida bu funksiyani bajarish qobiliyatini nazarda tutadi. Strategiyalarni amalga oshirishning to'liqligi, ayol borligining to'liqligi yoki uyg'unligi hayotning maqsadiga, ayolning mazmunli hayotiy yo'nalishlariga, uning shaxsiy rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Yuqorida aytilganlarning barchasini hisobga olgan holda, biz quyidagi ta'rifni beramiz: hayot strategiyalari bu shaxsning ijtimoiy funksiyalarni bajarishi, shahsiyatlikni rivojlantirish va o'z hayotiy dunyosini shakllantirish qobiliyatidir.

Ayol har doim ongli yoki ongsiz ravishda shaxs bo'lishga intilgan va jamiyat u qanday funksiyalar

⁴ Ананьев Б. Г. Человек как предмет познания / Избр. психол. труды: В 2-х т. Т. I. – Москва, 1980. Леонтьев А. Н. Деятельность, сознание, личность. – Москва, 1975.

yoki rollarni bajarishi kerakligini aniqlab beradi. C.G. Jungga ergashgan holda, biz “shaxs darajasiga erishish individual mohiyatning yaxlitligini maksimal darajada oshirish demakdir”, degan fikrga to‘liq qo‘shilamiz. Shuningdek, u butunlik va kamolotsiz odam namoyon bo‘lmasligini yozadi. Hayotiy faoliyat jarayonida bu individuallik shaxs sifatida tashqarida paydo bo‘ladi, xuddi daraxt urug‘dan o‘tib chiqqanidek, urug‘ allaqachon daraxtning salohiyatini va daraxtning “qiyofasi”ni o‘z ichiga oladi, keyinchalik u rivojlanadi. Rivojlanish kengayish va murakkablashuv jarayonidir. Ammo C.G. Jung ta’kidlaganidek, “bizning borlig‘imiz yaxlitligini mukammal anglash sifatida shaxsiyat erishib bo‘lmaydigan idealdir”. Ammo inson ideal sifatida erishib bo‘lmaydigan bo‘lganligining o‘zi ham ideal yo‘lga ko‘rsatma bo‘lishi mumkin. Va idealga intilishda rivojlanish darajasi sifatida muhim bosqich, A. Maslou fikricha, o‘zini o‘zi amalga oshirish bo‘lishi mumkin⁵.

Muammoning tavsifi va yechimi. “Ayol – xotin” strategiyasi va uni turli yosh guruhlari amalga oshirish

Xotin va onaning vazifalari ko‘p asrlar davomida ayollar tomonidan bajarilganligi sababli aynan ular shu qadar rivojlangan va shakllangan, ayolga o‘z hayot strategiyasini ular asosida shakllantirishi osonroq bo‘ladi. Ayollarning psixodiagnostik tekshiruv qanday natijalarni ko‘rsatdi?

Ayolning xotin sifatida strategiyasini o‘rganar ekanmiz, biz turli yoshdagi ayollar o‘rtasida strategiyani amalga oshirishda tafovutlar bor-yo‘qligi, turmush qurgan yoki turmushga chiqmagan subyektlarning nikohga munosabati qanday ekanligi bilan qiziqdik.

V.I. Garbuzovning anketasi va muallifning fikricha, inson tabiatining birinchi tarkibiy qismi bo‘lgan, uning dunyoga moslashishini ta’minlaydigan yetakchi instinktlarni aniqlashga imkon beradi. Anketa muallifi yettita instinkt, xususan, o‘zini saqlash, nasl berish, altruistik, izlanish, hukmronlik, erkinlik va qadr-qimmatni saqlash kabilarni aniqlaydi. Odatda, shaxsning bir yoki bir nechta instinktlari hukmronlik qiladi, qolganlari esa kamroq namoyon bo‘ladi. Ushbu

⁵ Юнг К. Г. Структура психики и процесс индивидуации. – Москва, 1996. Маслоу А. Психология бытия. – Москва, 1997.

uslubiyatdan foydalangan holda olingan natijalar quyidagilarni ko‘rsatdi⁶:

1. Barcha yosh toifalaridagi ayollar quyidagi fazilatlarni o‘z ichiga olgan genofil tip bilan ajralib turishini ta’kidlaydilar:

- farzandlarini haddan tashqari sevish;
- oilaparvarlik;
- o‘z farzandlarining xavfsizligi va sog‘lig‘iga yaxshi darajada g‘amxo‘rlik qilish;
- “men”ni “biz” foydasiga almashtirishga moyillik.

2. 45 yoshdan keyin ayollar o‘zlarini tavsiflab, mavjud bo‘lganlarga digitofil tipdagi fazilatlarni qo‘shadilar:

- har qanday kamsitishga toqat qilmaslik;
- o‘z qadr-qimmatini yo‘lida farovonlik va ijtimoiy mavqeyidan voz kechishga tayyorlik;
- sharaf va g‘ururning xavfsizlikdan ustunligi;
- inson huquqlari buzilishining barcha shakllariga toqat qilmaslik.

Olingan natijalar qizlar va ayollar quyidagilarga yo‘naltirilgan degan xulosaga kelishimizga imkon beradi:

- birinchi navbatda, oila va bolalar uchun;
- ikkinchidan, ayollar – altruistik;
- uchinchidan, ular tadqiqotchi sifatleri bilan ajralib turadi.

Bizni “ta’lim tipologiyaga o‘z tuzatishlarini kiritadimi?” degan savol qiziqtirgan edi.

Biz 17 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan barcha turmush qurgan oliy ma’lumotli ayollar va o‘rta ma’lumotli ayollar, shu jumladan, ushbu guruhdagi o‘rta maxsus ma’lumotlilarni solishtirdik. Farqlar Student mezoniga ko‘ra ahamiyatsiz va statistik jihatdan jiddiy emas edi.

Biz Y.V. Aleksandrovaning “Voyaga yetgan odam bilan munosabatlarning rol modellarini o‘rganish metodologiyasi” nomli ilmiy ishi (MIRP) yordamida ayolning nikohga va uning eriga bo‘lgan munosabatini aniqladik. Olingan natijalarni tahlil qilsak, turmushga chiqmagan va turmushga chiqqan ayollarning 17 yoshdan boshlab har qanday yoshdagi turmush qurishga bo‘lgan munosabati bir xil darajada ijobiy degan xulosaga kelish mumkin. Binobarin, qarama-qarshi jinsga

⁶ Гарбузов В. И. Практическая психотерапия, или как вернуть ребенку и подростку уверенность в себе, истинное достоинство и здоровье. – Санкт-Петербург, 1994.

bo'lgan qiziqish ayolning hayoti davomida o'zini namoyon qiladi va yoshi o'tishi bilan zaiflashmaydi. Ta'lim ham, oilaviy ahvol ham nikohga bo'lgan munosabatga ta'sir qilmaydi. Qolaversa, nikoh ayol uchun ahamiyatli va yangi asrda ham shunday bo'lib qolaveradi, buni qizlar va nikoh yoshidagi ayollarning metodologiyaga oid savollariga bergan javoblari tasdiqlaydi⁷.

Ayollarning nikohga va xotin roliga bo'lgan munosabatining ishonchliligini oshirish uchun biz qo'shimcha diagnostika usuli sifatida A.S. Kocharyanning "Er-xotinning nizolarga munosabati" so'rovnomasini tanladik. Shuningdek, undan ayollarning oilaviy nizolarga, ularning nikohga bo'lgan konstruktiv bo'lmagan munosabati, ruhiy tushkunlik va psixologik himoya munosabatlarini tahlil qilish uchun foydalanish mumkin⁸.

Olingan ma'lumotlarni o'rta, yuqori va past ko'rsatkichlar bo'yicha tavsiflasak, u holda 1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar o'rtacha deb baholanadi.

Styudent mezoniga ko'ra, ayollarning yosh guruhlari o'rtasidagi ko'rsatkichlardagi farqlar ahamiyatsiz, "depressiya" shkalasi esa bundan mustasno. Ikkinchi yetuklikdagi ayollar birinchi yetuk yoshdagi ayollarga qaraganda oilaviy muammolarga ruhiy tushkunlik bilan munosabatda bo'lishadi.

⁷ Александрова Ю. В. Методика исследования ролевых паттернов отношения к другому взрослому человеку (МИРП) / Журнал практического психолога. – № 8, 1998.

⁸ Кочарян Г.С., Кочарян А.С. Психотерапия сексуальных расстройств и супружеских конфликтов. – Москва, 1994.

Umuman olganda, tekshirilayotgan turli yoshdagi ayollarning nikohga nisbatan salbiy munosabati yo'qligini, tajovuzkorlik qo'llamasligini, nikohdan tashvishlanishni somatizatsiya qilmasligini, nikoh paytida uzoq vaqt davomida psixotravmada tiqilib qolmasligini aytib o'tish mumkin.

Bizni yana "oiladagi nizolarga turmushga chiqqan va turmushga chiqmagan ayollar, ajrashgan va bevalar uchun munosabat har xilmi?" degan savol ham qiziqirdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, nikoh yoshidagi, lekin turmushga chiqmagan yoki ajrashgan ayollar turmush qurishga turmushga chiqqan ayollar kabi ijobiy munosabatda bo'lishadi. Nikohga nisbatan konstruktiv bo'lmagan munosabatlar darajasi, ruhiy tushkunlik, himoya mexanizmlari, tajovuzkorlik, ulardagi tashvishlarning somatizatsiyasi, taxminan, turmush qurgan ayollar bilan bir xil. Turli ma'lumotga ega bo'lgan turmush qurgan ayollarning nikohga, oilaviy nizolarga, turmush o'rtog'iga bo'lgan munosabatida farq mavjud emas (1-jadval).

Shunday qilib, ikkita, ya'ni nikohga va turmush o'rtog'iga bo'lgan munosabatni o'rganuvchi MIRP va "Er-xotinning nizolarga munosabati" usulidan biz quyidagi natijalarni qo'lga kiritdik:

- barcha so'rov ishtirokchilari, hatto nikoh yoshiga yetgan bo'lsa ham, oilasi (er va bolalari) bo'lmagan yoki faqat eri bo'lmaganlar tomonidan nikoh zarurligini tan olish to'g'risida;
- ayol ajrashgan yoki turmushidan norozi bo'lsa ham, ijtimoiy institut sifatida turmush qurishga ayollarning ijobiy munosabati.


1-jadval

Oilaviy ziddiyatlarga ayollarning munosabatlari (shkala bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar, ballarda)

So'rovnoma shkalasi	25–44 yoshdagi ayollar (200 nafar tadqiqot qilinayotganlar)		45–64 yoshdagi ayollar (100 nafar tadqiqot qilinayotganlar)		Styudent mezoni ($p < 0,05$ da farqlar ishonchliligi)
	O'rtacha qiymat (M)	Standart og'ish (S)	O'rtacha qiymat (M)	Standart og'ish (S)	
Nikohga no-konstruktiv o'rnatmalar	4,49	1,81	4,78	1,81	-
Depressiya	5,07	2,82	5,7	2,55	1,81
Himoyaning mexanizmlari	5,44	2,22	5,3	2,24	-
Agressiya	5,04	2,22	4,7	2,49	-
Tashvishning somatizatsiyasi	3,54	1,9	3,89	1,77	-
Psixotravmani qayd etish	3,33	1,78	3,22	1,69	-

O‘z-o‘zini anglash testi yordamida biz “Hislar bloki”ga berilgan javoblarni tahlil qildik. Bu blok odamning o‘z his-tuyg‘ularini va o‘ziga nisbatan sezgirlikni o‘z-o‘zidan va to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalash qobiliyati sifatida spontanlikni o‘z ichiga oladi, bu odam o‘z his-tuyg‘ulari va ehtiyojlarini qay darajada bilishini, ularni qanchalik yaxshi his qilishini va aks ettirishini belgilaydi⁹.

Olingan natijalar 1-diagramma shaklida keltirilgan.



1-diagramma. Qizlar va ayollarda o‘ziga sensitivlik va tasodifiylik: 1 – 18-24 yoshli qizlar, 2 – 25-44 yoshli ayollar, 3 – 45-65 yoshli ayollar

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, his-tuyg‘ular hamda ularning qizlar va ayollar tomonidan qabul qilinishi yoshga qarab farqlanadi (farqlar Student

⁹ Алешина Ю.Е., Гозман Л.Я., Загика М.В., Кроз М.В. Самоактуализационный тест. – Москва, 1991.

testiga ko‘ra statistik ahamiyatga ega). Ayol xotin sifatida turli yoshda o‘z his-tuyg‘ularini boshqacha ko‘rsatadi: u yoshligida o‘z-o‘zidan sezgir. Ammo umuman olganda, ayollarning natijalari aqliy va statistik me‘yorning ko‘rsatkichlari (test mualliflari tomonidan taklif qilingan) va o‘z-o‘zini namoyon qiluvchi shaxslarning ko‘rsatkichlari emas.

Tadqiqot shuni tasdiqladiki, turmush qurgan yoki qurmagan barcha ayollar ijtimoiy institut sifatida nikohga ijobiy munosabatda bo‘lishadi. Kelajakda oila instituti nafaqat saqlanib qoladi, balki sifat jihatidan ham o‘zgaradi, chunki turmush o‘rtoqlar ko‘proq o‘zini namoyon qiladigan shaxslar bo‘ladi va nikoh sevgi tuyg‘usi asosida quriladi.

“Ayol – ona” strategiyasi va uning yosh xususiyatlari

Tashxis bo‘yicha ayol – ona qanday tasavvur qilinadi? U onaning hayot strategiyasini qanday ishlab chiqadi? Yosh farqlari bormi? U ona sifatida o‘zini namoyon qiladigan shaxsga mos keladimi? (A.S. Spivakovskaya ta’kidlaganidek, o‘zini namoyon qiladigan, barkamol rivojlangan shaxslar bolani tarbiyalash uchun juda mos keladi)¹⁰.

Ona sifatida qanday fazilatlar, xususiyatlar, shaxsiy fazilatlar mavjud?

¹⁰ Спиваковская А.С. Психотерапия: игра, детство, семья. В 2-х томах. Т. 2. – Москва, 1999.

2-jadval

MIRP testi bo‘yicha ayolning bolaga munosabati (shkala bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar, ballarda)

Shkalalar	18-24 yoshli qizlar			25-44 yoshli ayollar			45-65 yoshli ayollar (jami) – 100 nafar tekshirila-yotganlar
	Jami (200 nafar tekshirila-yotganlar)	Turmushga chiqqan (50 nafar tekshirila-yotganlar)	Turmushga chiqmagan (150 nafar tekshirila-yotganlar)	Jami (200 nafar tekshirila-yotganlar)	Turmushga chiqqan (150 nafar tekshirila-yotganlar)	Turmushga chiqmagan (40 nafar tekshirila-yotganlar)	
Tajribali ota-onaning bolaga munosabati	12,81	12,88	12,73	13,47	13,04	12,3	13,65
Ota-ona munosabatining nevroitik patternlari	4,68	4,67	4,71	4,63	4,31	4,9	4,25

MIRP metodologiyasidan foydalanib, biz ayolning yoshi va oilaviy ahvoriga qarab bolaga munosabatini solishtirdik, ma'lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.


2-jadvaldagi ma'lumotlarga asoslanib, quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin:

1. Bolaga nisbatan xuddi shunday munosabat 1- va 2-yosh guruhidagi ayollarda kuzatiladi.

2. Tajribali ota-onaning turi bo'yicha ularning munosabati qizlar guruhining o'xshash munosabatidan sezilarli darajada farq qiladi ($t = 2,5; n = 400; p < 0,05$).

Oilaviy holat bo'yicha yosh guruhlari orasidagi farqlar jiddiy emas va statistik jihatdan ahamiyati yo'q. Umuman olganda, turli yoshdagi ayollar o'zlarini g'amxo'r onalar deb e'lon qilishadi. Ular bolani qanday bo'lsa, shunday yoqtirishlarini ta'kidlashadi, agar iloji bo'lsa, bo'sh vaqtini bolalar bilan o'tkazishni istaydi.

Ayol – ona uchun yuqori o'zini o'zi qadrlash, faollik, kayfiyat kabi shaxsiy xususiyatlar muhim bo'lib, bu bolada o'xshash shaxsiy xususiyatlarni shakllantiradi. Shaxsiy differensial usulidan foydalanib, biz ayollar o'zlariga qanday baho berishlarini, ularning kuchlari va faolligini qanday baholashlarini aniqlashga harakat qildik. Sinab ko'rilayotganlar o'zlarini juda yuqori baholadilar: maksimal 49 balldan ular o'zlarini 40-42 ballga baholaydilar. Barcha uchta test shkalasi uchun natijalar 2-diagrammada ko'rsatilgan¹¹.



2-diagramma. "Shaxsiy differensial" uslubiyati bo'yicha ayollar o'zlarining xususiyatlarini baholashlari: 1 – 18-24 yoshli qizlar, 2 – 25-44 yoshli ayollar, 3 – 45-65 yoshli ayollar

2-diagrammadan ko'rinib turibdiki, barcha yosh guruhlarida kuch umumiy baholash va faollikdan

¹¹ Энциклопедия психологических тестов. Личность, мотивация, потребность. – Москва, 1997.


past. Yosh o'tishi bilan kuch va faollik zaiflashadi. Ammo, umuman olganda, turli yoshdagi ayol o'zini maftunkor, mehribon, hamdard, do'stona, halol inson sifatida tavsiflaydi.

Bu usulga ko'ra, o'zini ikki qarama-qarshi sifat asosida baholash va bu sifat qay darajada xosligini qayd etish talab qilingan.

O'z-o'zini amalga oshirish testiga javob berish qiyinroq, chunki ikkita bayonotdan birini tanlashingiz kerak va birida to'xtash juda qiyin bo'lishi mumkin. Tahlil qilish uchun biz ikkita shkalani ko'rib chiqdik: "o'zini o'zi qadrlash" va "o'zini o'zi qabul qilish".

"O'zini o'zi hurmat qilish" shkalasi subyektning o'z fazilatlarini, ijobiy fazilatlarini qadrlash va ularga nisbatan o'zini hurmat qilish qobiliyatini diagnostika qiladi.

"O'zini o'zi qabul qilish" shkalasi o'zining afzalliklari va kamchiliklarini baholashdan qat'i nazar, inson o'zini o'zi qabul qilish darajasini qayd etadi. Bu ikkala tarozi ham "o'z-o'zini idrok etish" blokini tashkil qiladi. Usul orqali olingan ma'lumotlar 3-diagrammada ko'rsatilgan.



3-diagramma. Qizlar va ayollar tomonidan o'zini o'zi hurmat qilishi va o'zini o'zi qabul qilishi: 1 – 18-24 yoshli qizlar, 2 – 25-44 yoshli ayollar, 3 – 45-65 yoshli ayollar

3-diagrammada keltirilgan natijalardan ko'rinib turibdiki, o'zini namoyon qiladigan odamlar 55-70 birlik oralig'ida ball to'plashdi. Bizning respondentlarimiz esa o'zlarini faqat statistik va aqliy me'yor (45-55 ball) darajasida baholaydilar. O'z-o'zini hurmat qilish ballari o'z-o'zini qabul qilish shkalasidagi ballardan sezilarli darajada yuqori. Bu shuni ko'rsatadiki, ayollar, ayniqsa, yoshi oshishi bilan o'zlariga nisbatan ko'proq tanqidiy munosabatda bo'lishadi.

Farzandi uchun dunyoni bilish tashkilotchisi sifatida ayol – ona (“O‘z-o‘zini anglash testi” natijalariga ko‘ra) o‘zining eng yaxshi tomonlarini ko‘rsatmaydi. Uning bilimga bo‘lgan ehtiyoji, shaxsiyatning ijodiy yo‘nalishi o‘zini o‘zi anglaydigan shaxsdan uzoqdir. Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, yosh farqlari ham rol o‘ynamaydi.

Bundan tashqari, biz turli shaharlardagi ayollar o‘rtasida “kognitiv ehtiyojlar”, “ijodkorlik” va “sinergiya” shkalalari bo‘yicha diagnostika ma’lumotlarini taqqoslaganimizda, farqlar ahamiyatsiz bo‘lib chiqdi. Binobarin, kutubxonalar, kitob do‘konlarining mavjudligi ayollarning kognitiv ehtiyojlari, ijodkorligi va sinergiyasiga (dunyoga yaxlit qarash) sezilarli ta’sir ko‘rsatmasligi aniqlandi. Biz kutganimizdek, bu parametrlarda sezilarli farqlar shahar va qishloq ayollarida kuzatiladi.

Ona bola uchun mikroduyo yaratadi va uni hissiy mazmun bilan to‘ldiradi. Lekin, birinchi navbatda, uning motivlari va xatti-harakatlari bilan uning o‘zi bu dunyoni qanchalik qabul qilishini, unda o‘zini qanchalik qulay his qilishini aks ettiradi.

“O‘zini o‘zi baholash shkalasi” usuli yordamida olingan ma’lumotlar ayolning shaxsiy tashvishining haddan tashqari oshirilgan darajasini ko‘rsatadi (metodika – mualliflarning fikriga ko‘ra, shaxsiy tashvish insonning barqaror xususiyatidir). Respondentlarning ta’kidlashicha, ular shubhada va ular yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muvaffaqiyatsizliklardan xavotirda bo‘ladi¹².

Xavotirlanish darajasidagi farqlar yosh oshishiga qarab paydo bo‘ladi. Yosh, turmushga chiqmagan yoki oilaviy tajribasi kam respondentlar o‘zlarini yanada quvnoq, erkin his qiladilar, o‘ziga ishonadilar. Ayolning yoshi qanchalik katta bo‘lsa, u shunchalik tashvishli yashaydi, chunki uning kelajagi va sog‘lig‘i uchun tashvish kuchayadi, u ham bolalarning o‘sishi haqida ko‘proq qayg‘uradi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning “ayol – ishchi” va “ayol – ijtimoiy individ” strategiyalari va ularning yosh xususiyatlari

XX asrda ayollar yangi funksiyalarga ega bo‘ldilar: ijtimoiy ishlab chiqarish xodimlari va ijtimoiy shaxs, ular asosida yangi hayot strategiyalari

shakllana boshladi. Psixodiagnostik tekshiruvda biz ayolning ishchi va ijtimoiy shaxs sifatida qanday ekanligi bilan qiziqdik. “Shaxsning yo‘nalishini aniqlash” uslubiga ko‘ra, ayollarning aksariyati o‘zlarini biznesga yo‘naltirilganlar deb bilishadi (Diagnostika natijalari 3-jadvalda keltirilgan).

3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, barcha yoshdagi respondentlarida o‘ziga va muloqotga e’tibor qaratish bilan bog‘liq holda biznesga e’tiborli bo‘lish ustunlik qiladi. Yoshi oshishi bilan o‘z-o‘zini baholash pasaysa ham (shaxsiy differensial usul bo‘yicha ma’lumotlar bundan dalolat beradi), biznes xususiyatlari ortadi.

Oliy ma’lumotli o‘rta va yetuk yoshdagi ayollar biznesga yo‘naltirilganlikning eng yuqori darajasiga ega, tadbirkorlik qiziqishlari bo‘yicha o‘rta ma’lumotli ayollar esa ulardan past. O‘rta ma’lumotli ayollarning o‘ziga nisbatan qiziqishi va talablari yuqori, mehnatga qiziqishi past, chunki ularning ishi unchalik ijodiy emas va bu o‘z qobiliyatlarini amalga oshirish imkoniyatini bermaydi. Oliy ma’lumotli ayollar biznesga ko‘proq e’tibor qaratishadi, bu esa ularga o‘zlarining shaxsiy imkoniyatlarini ko‘rsatish va ochish imkonini beradi.

Ammo, umuman olganda, shuni ta’kidlash kerakki, tadqiqotda ishtirok etayotgan ayollar uchun ular o‘zlarini amalga oshirishlari, bajarishlari mumkin bo‘lgan kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy shaxsning subyektlardagi funksiyasi qanchalik rivojlangan?

Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, qizlar, ayniqsa, ayollar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etmaydilar. Ko‘pgina ayollar intervyu savollariga javob berishda shunday deb o‘ylashadi: siyosat va iqtisod erkaklarning ishi bo‘lib, ular allaqachon bolalar va uy hayoti bilan bog‘liq muammolarga duch kelishmoqda. Ijtimoiy shaxsning funksiyasi hozirgi vaqtda ayol uchun ahamiyatli emas va shuning uchun ham bu funksiyaga asoslangan strategiya uning shakllanishining dastlabki bosqichidir.

¹² Энциклопедия психологических тестов. Личность, мотивация, потребность. – Москва, 1997.

**Qizlar va ayollarning shaxsiy yo‘naltirilganliklari
(shkala bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar, ballarda)**

Shkalalar	18-24 yoshli qizlar			25-44 yoshli ayollar			45-65 yoshli ayollar		
	Jami (200 nafar odam)	Yuqori (75)	O‘rta (110)	Jami (200 nafar odam)	Yuqori (67)	O‘rta (108)	Jami (100 nafar odam)	Yuqori (37)	O‘rta (59)
O‘ziga yo‘nalti- rilganlik	25,96	24,4	25,3	23,4	22,8	22,0	22,0	20,3	25,2
Muomalaga yo‘nalti- rilganlik	26,4	26,2	25,9	26,4	25,6	26,5	27,9	27,9	23,9
Ishga yo‘nalti- rilganlik	28,63	30,5	29,8	31,2	32,6	32,6	32,7	32,7	31,9

**Ayollarning hayot mazmuni yo‘nalishlari va
o‘zini o‘zi anglash darajasi**

Ayollarning hayot strategiyalarini ko‘rib chiqib, ularning hayotiy dunyosini tahlil qilishga harakat qildik. Hayotiy dunyoning shakllanishi hayot maqsadi va mazmunli hayot yo‘nalishlari asosida sodir bo‘ladi. D.A. Leontev tomonidan o‘tkazilgan hayot mazmuniga yo‘naltirilganlik sinovi natijalari shuni ko‘rsatadiki, barcha yoshdagi ayollar aniq hayotiy ma‘no yo‘nalishlari va aniq maqsadlarga ega. Ular uchun hayot juda mazmunli va maqsadli, shuningdek, har doim hayajonli va zavqli ko‘rinadi. Respondentlarning aksariyati o‘zlarini intizomli, baquvvat va o‘z taqdirining ustasi sifatida tavsiflaydi. Bundan tashqari, ta‘lim darajasi bo‘yicha ayollar guruhlari o‘rtasida natijalarda sezilarli farqlar yo‘q.


Shuni ta‘kidlash kerakki, 45 yoshdan keyin ayollar faol va maqsadli hayotga qiziqishni yo‘qotadilar. “O‘z-o‘zini nazorat qilish joyi” ham o‘zgarib, o‘z kuchiga ishonmaslik paydo bo‘ladi, o‘z hayotini nazorat qilish kamayadi. “Hayotni nazorat qilish joyi” yoki “hayotni boshqarish” qizlar tomonidan 29,0 ballga, o‘rta yoshli ayollarda 31,3 ballga baholanadi, keyin esa pasayadi va 45 yoshdan keyin ayollarda 27,04 ballga yetadi (farqlar Student testiga ko‘ra ishonchli). Oliy ma‘lumotli o‘rta yoshli ayollarda hayotni boshqarish eng yuqori darajada.

O‘rta yoshdagi yoki birinchi yetuk yoshdagi ayollarda ushbu ko‘rsatkichning yuqori darajasi ularning o‘ziga ishonganligi, hayot, uning maqsadlari to‘g‘risida erkin qaror qabul qilish va ularni amalda

qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi. Ikkinchi yetuk yoshdagi ayollar hayotga bo‘lgan munosabatda fatalistik an‘analarga nisbatan pastroqdirlar, ular hayot darajasi pasayishiga ishonishadi va kelajak uchun jiddiy rejalar tuzish befoyda, chunki ular amalga oshmaydi deb hisoblaydi. Buni intervyu bayonotlari ham tasdiqlaydi. 45 yoshgacha bo‘lgan ayollar o‘zlarining hayotdagi maqsadlari sifatida quyidagilarni ko‘rishadi: bolalarni o‘stirish va tarbiyalash, ularga ta‘lim berish, bolalarning sog‘lig‘i, o‘z sog‘lig‘i, erining sog‘lig‘i haqida g‘amxo‘rlik qilish, shuningdek, kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishni xohlash. 45 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollar birinchi o‘ringa salomatlikni qo‘yishadi, ikkinchi o‘ringa esa nafaqaga chiqish. Ular uchun bolalarni o‘qitish va farzandlariga nabiralarini tarbiyalashda yordam berish uchinchi o‘rinda turadi. 55 yoshdan keyin ayollar, asosan, o‘zlariga va yaqinlariga salomatlik, pensiyalari oshishini tilaydilar.

Biz turmush qurgan va turmushga chiqmagan, turmush qurgan, ammo ta‘lim darajasi turlicha bo‘lgan ayollar o‘rtasida hayotning mazmunliligi, maqsadliligi va unumdorligida tafovutlar bor-yo‘qligi bilan qiziqdik.

Biz olgan ma‘lumotlar 4-diagrammada ko‘rsatilgan.



4-diagramma. Ma'lumoti va oilaviy holati bog'liq ravishda ayollarning hayot mazmuni oriyentatsiyalari: 1 – ayollarning umumiy oriyentatsiyasi; 2 – maqsadlari; 3 – jarayon; 4 – natija; 1-guruh – oliy ma'lumotli 18-65 yoshli barcha oilali ayollar; 2-guruh – o'rta ma'lumotli 18-65 yoshli barcha oilali ayollar; 3-guruh – 18-65 yoshli barcha turmushga chiqmagan, ajrashgan va beva ayollar.

Subyektlarning ta'lim va oilaviy ahvolidagi farqlarni solishtirganda biz quyidagi xulosalarga keldik:

- ayolning oilaviy ahvoli uning hayotiy maqsadlari, jarayoni, hayotning mazmunlilik natijalariga ta'sir qilmaydi;
- oliy ma'lumot ayollarga hayotning maqsadi va mazmunini aniqlashga yordam beradi, keyin esa ularning hayoti jarayoni va natijasi o'rta ma'lumotli ayollarga qaraganda samaraliroq bo'ladi.

Oliy ma'lumotli ayollar tevarak-atrofdagi dunyo ularni tashvish va sarosimaga solmasligini, ularning hayoti muntazam emas, balki har doim hayajonli va zavqqa boy ekanini, hayotda o'z oldiga da'vat va aniq maqsadlar qo'ya olganini ta'kidlaydi.

Subyektiv nazorat darajasini o'rganish usulining natijalari turli xil hayotiy vaziyatlarda subyektlarda shakllangan subyektiv nazorat darajasini (ichki yoki tashqi) baholashga imkon beradi.

Biz tahlil qilish uchun to'rtta test shkalasini tanladik va ma'lumotlar 4-jadvalda keltirildi.

Barcha yosh guruhlari respondentlari tomonidan umumiy ichkililik shkalasi bo'yicha olingan ma'lumotlar testni ishlab chiquvchilar tomonidan belgilangan o'rtacha qiymatlar bilan taqqoslaganda, farq aniq. Taqdim etilgan natijalarga asosanib, respondentlar tashqi nazorat darajasiga ega ekanligi va ularning hayoti butunlay ularning ijodi emasligi, tashqi sharoitlar subyektning istaklari va intilishlaridan ko'ra muhimroq degan fikrni bildirish mumkin. Ular o'zlari bilan sodir bo'lgan hamma narsani vaziyatga, boshqa odamlarga, taqdirga, omadga bog'lashga moyil. Yosh guruhlari bo'yicha sezilarli farqlar yo'q. Yetuk ayol o'z hayotining bekasi kabi his qilishi kerak, lekin u o'zini tashqi hodisalarga ham bog'liq deb hisoblaydi.

“Yutuqlar sohasidagi ichkililik” shkalasiga ko'ra, so'rovda qatnashgan ayollarning natijalari o'rtacha ko'rsatkichlardan yuqori. Ular, asosan, o'zlarining faolligi va mustaqilligini tavsiflovchi test bayonotlarini tanlaydilar, masalan, “Muvaffaqiyat

4-jadval


**Qizlar va ayollarda ichkililik darajasi
(shkala bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar va standart og'ishlar, ballarda)**

Ichkililik shkalasi	Test yaratuvchilar shkalasi bo'yicha o'rtacha	18-24 yoshli qizlar (200 nafar tekshirilayotganlar)		25-44 yoshli ayollar (200 nafar tekshirilayotganlar)		Qizlar va 25-44 yoshli ayollar o'rtasidagi farqlar	45-65 yoshli ayollar (100 nafar tekshirilayotganlar)		24-44 yoshli va 45-65 yoshli ayollar guruhlar o'rtasidagi farqlar
	M	M	S	M	S	T	M	S	T
Umumiy ichkililik	33,4	27,0	5,7	27,1	5,6	-	26,3	5,5	-
Yutuqlar sohasidagi ichkililik	6,2	8,0	8,1	7,5	2,1	2,2	6,8	2,3	2,9
Omadsizliklar sohasidagi ichkililik	8,4	6,8	2,2	6,8	2,1	-	6,3	1,7	2,5
Oilaviy munosabatlar ichkililigi	6,3	5,2	1,9	5,8	1,9	2,7	4,9	1,7	3,7

– mashaqqatli mehnat natijasi va tasodif yoki omadga bog‘liq emas. Agar chindan ham xohlasam, deyarli hamma ustidan g‘alaba qozonishim mumkin”. Ammo muvaffaqiyatsizliklar va oilaviy munosabatlar sohasida barcha yoshdagi respondentlar nazoratning tashqi darajasiga mos keladigan ball to‘pladilar.

Turmushga chiqqan va turmushga chiqmagan ayollar o‘rtasida subyektiv nazorat darajasida farqlar yo‘q edi, ammo farqlar ta‘lim darajasi turlicha bo‘lgan subyektlarda eng aniq namoyon bo‘ldi. Oliy ma‘lumotli ayollar o‘rta ma‘lumotli ayollardan farqli o‘laroq, ularning xarakterli tashqi nazorat darajasi bilan yutuqlar, muvaffaqiyatsizliklar va oilaviy munosabatlar sohasida subyektiv nazoratning ichki darajasini amalga oshiradilar.

Ayol o‘zini namoyon qilishning qaysi darajasida turibdi? Biz shaxsiy rivojlanish mezoni sifatida o‘z-o‘zini namoyon qilish darajasini tanladik. O‘z-o‘zini amalga oshirish testining natijalari 5-diagrammada ko‘rsatilgan.



5-diagramma. Qizlar va ayollarning o‘z-o‘zini dolzarblashtirish darajasi: 1 – vaqt bo‘yicha oriyentatsiya; 2 – qo‘llab-quvvatlash; 3 – qadriyatli oriyentatsiya; 4 – jamiyatga moslashuvchanlik; 5 – o‘ziga nisbatan sensitivlik; 6 – tasodifiylik; 7 – o‘zini o‘zi hurmat qilish; 8 – o‘zini o‘zi qabul qilish; 9 – anglashga bo‘lgan ehtiyoj; 10 – sinergiya; 11 – tijajovuzni qabul qilish; 12 – kontaktlilik; 13 – anglashga bo‘lgan ehtiyoj; 14 – kreativlik.

Diagrammada keltirilgan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, tekshirilgan ayollar o‘zini o‘zi anglaydigan shaxslar emas. Shaxsning o‘zini namoyon qilish diapazoni 55–70 ballni tashkil qiladi. Respondentlarning aksariyati statistik va aqliy me‘yorda – 45–55 ball (bu me‘yor test mualliflari tomonidan o‘rnatilgan). Sinovga javob bergan ayollar o‘z kelajagi haqida qayg‘uradilar, bu haqda o‘ylashadi, ularda tashvish hissi paydo

bo‘ladi. Ayolning yoshi qanchalik katta bo‘lsa, u hozirgi kunni uning xilma-xilligi bilan shunchalik kam his qiladi. 45–55 yoshdagi ayollar uchun eng yuqori qayg‘urish (A. Maslou yozganidek) ularning yoshligida saqlanib qolgan, shuning uchun ular hozirgi yoshlarga qaraganda kamroq his-tuyg‘ularga ega.

O‘rta yoshdagi yoki birinchi yetuk yoshdagi ayollar ko‘pincha o‘zlari uchun yoqimsiz narsalarni eslashadi, muayyan harakatlar uchun o‘zlarini ayblashadi va o‘zlarini oqlashga intilishadi. Ularning haddan tashqari aks etishi ularning faol hayotidan zavqlanishlariga to‘sqinlik qiladi va shuning uchun ular ko‘pincha passiv pozitsiyani egallaydi. Buni subyektning qadriyatlari va xatti-harakatlarining tashqi ta‘sirlardan mustaqillik darajasini o‘lchaydigan qo‘llab-quvvatlash shkalasi ma‘lumotlari ham tasdiqlaydi. 45 yoshgacha bo‘lgan qizlar va ayollar o‘z qarashlari va mulohazalari bo‘yicha mustaqilroq, zero, bu yoshdan katta ayollar konservativ bo‘lishadi. Agar balog‘atga yetgunga qadar ayollar o‘zlaridagi qarama-qarshiliklarga chidashsa, ular hali ham o‘z-o‘zidan qaror qabul qilishlari, xatolari, zaif tomonlari bilan kelisha olishlariga ishonishsa, balog‘at yoshida ular o‘zlarini turli xil his-tuyg‘ular, harakatlar bilan cheklaydilar, chunki ular omadsizlik holatlari va undan ham ko‘proq muvaffaqiyatsizliklarga duchor bo‘ladi.

“Qadriyatli yo‘nalishlar” shkalasi bo‘yicha olingan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotda ishtirok etayotgan ayollar tomonidan e‘tirof etilgan qadriyatlar o‘z darajasida faqat statistik me‘yorga mos keladi, lekin o‘zini o‘zi anglaydigan shaxslar tomonidan baham ko‘rilgan qadriyatlar darajasiga emas. Diagnostika natijalari shuni ko‘rsatadiki, ular o‘zlarining his-tuyg‘ulari va istaklari bilan normal diapazonda boshqariladi. Va ular o‘zlari xohlagan harakat qilishadi, lekin o‘zini namoyon qiladigan odamlar o‘zlari ruxsat berganidek emas.

Xulosalar. 1. Ayolning asosiy hayotiy strategiyalari quyidagilardan iborat: xotin, ona, ijtimoiy ishlab chiqarish xodimi va ijtimoiy shaxs. Turli yosh guruhlaridagi ayollar tomonidan xotinning strategiyasini amalga oshirishda sezilarli farqlar yo‘q. Qizlar va ayollar oila va bolaga qaratilgan, mo‘ljallangan. Turmushga chiqmagan va turmush qurgan har qanday yoshdagi 17 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan ayollarning turmush qurishga munosabati bir xil: nikoh ayol uchun muhim. Nikohga bo‘lgan munosabat ta‘lim yoki oilaviy ahvolga ta‘sir qilmaydi. Hatto ajrashgan

yoki turmush o'rtog'idan norozi bo'lganlar ham ijtimoiy institut sifatida nikohga ijobiy munosabatda bo'lishadi. Ayol uchun ikkinchi eng muhim hayotiy strategiya bu onalik strategiyasidir. Ayollar bolalarga ijobiy munosabatda bo'lishadi, ayol qanchalik katta bo'lsa, u shunchalik g'amxo'r onaga aylanadi.

2. So'rovda qatnashgan ayollar hayotda o'zlarini ancha noqulay his qiladilar: ularda shaxsiy tashvish darajasi haddan tashqari yuqori.

3. Farzandi uchun dunyoni bilish tashkilotchisi sifatida ona o'zining eng yaxshi tomonlarini ko'rsatmaydi. Uning bilimga bo'lgan ehtiyoji, o'zini o'zi anglash testiga ko'ra, shaxsiyatning ijodiy yo'nalishi o'zini o'zi anglatuvchi shaxsdan uzoqdir.

4. Ayolning ijtimoiy hayot strategiyalariga tegishli: ijtimoiy ishlab chiqarish xodimi va ijtimoiy individ. Barcha yosh guruhlaridagi respondentlar o'zlariga va muloqotga e'tibor qaratish bilan bog'liq holda biznesga e'tibor qaratishadi. Kasbiy faoliyat ayollar uchun o'zini shaxs sifatida anglash uchun muhimdir. Ammo respondentlar orasida ijtimoiy shaxs strategiyasi kam rivojlangan. Qizlar va ayniqsa, ikkinchi balog'at yoshidagi ayollar, ularning fikricha, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga faol kiritilmagan.

5. Hayotiy strategiyalar ayolning hayot dunyosi asosida yotadi, lekin uning shakllanishiga mazmunli hayot yo'nalishlari va shaxsiy o'sish ta'sir qiladi.

6. D.A. Leontevning "Hayot ma'nosi yo'nalishlari" testiga ko'ra, ayollar o'zlarining

aniq mazmunli hayotiy yo'nalishlari va hayotda aniq maqsadlari borligini ta'kidlaydilar. Ko'pchilik, o'zlarining qiziqishlarini topdilar, ularning hayoti qiziqarli narsalarga to'la bo'ladi deb hisoblashadi.

7. "O'z-o'zini namoyon qilish testi"ga ko'ra, natijalar ularning kelajagi haqida qayg'urish, bu haqda o'ylash, ayollarda tashvish hissi paydo bo'lishini ko'rsatadi. Barcha yoshdagi respondentlar juda siqilib yashaydi, ayniqsa, yetuk yoshdagilar, ular o'zlariga, o'zlarining baholariga ishonmaydilar, o'z manfaatlarini qanday himoya qilishni bilmaydilar.

8. Tadqiqot qilinuvchilarning fikriga ko'ra, ularning hayoti umuman o'zlarining ijodkorligi emas. "Subyektiv nazorat darajasini o'rganish usuli" natijalari shuni ko'rsatadiki, tashqi sharoitlar subyektning xohish va intilishlaridan ko'ra muhimroqdir. Ular o'zlari bilan sodir bo'lgan hamma narsani vaziyatga, boshqa odamlarga, taqdirga, omadga bog'lashga moyil.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Rossiya viloyatlaridagi ayol ijtimoiy ishlab chiqarishda muhim o'rin egallagan, lekin siyosiy va ijtimoiy hayotda o'zini erkak bilan teng deb bilmaydigan ishbilarmon ayoldir.

Ayol shaxsining rivojlanishi va uning hayotiy dunyosining shakllanishi asosiy hayot strategiyalarini yanada rivojlantirishni nazarda tutadi va bu rivojlanish jarayoni ayolning o'ziga ham, jamiyatga ham bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. – Москва: Изд-во «Мысль», 1991.
2. Адлер А. Наука жить. – Киев: Изд-во «Port-Royal», 1997.
3. Александрова Ю.В. Методика исследования ролевых паттернов отношения к другому взрослого человека (МИРП) / Журнал практического психолога. 1998. № 8.
4. Алешина Ю.Е., Гозман Л.Я., Загика М.В., Кроз М.В. Самоактуализационный тест. – Москва, 1991.
5. Ананьев Б. Г. Человек как предмет познания / Избр. психол труды: В 2-х томах. Т. I. – Москва, 1980.
6. Бочаров В.В. Антропология возраста: Учебное пособие. – Санкт-Петербург, 2001.
7. Гарбузов В.И. Практическая психотерапия, или как вернуть ребенку и подростку уверенность в себе, истинное достоинство и здоровье. – СПб., 1994.
8. Кочарян Г.С., Кочарян А.С. Психотерапия сексуальных расстройств и супружеских конфликтов. – Москва, 1994.
9. Леонтьев А.Н. Деятельность, сознание, личность. – Москва, 1975.
10. Леонтьев Д. А. Тест смысловых ориентаций // Психологический журнал. – № 1, 1993.
11. Маслоу А. Психология бытия. – Москва, 1997.
12. Платонов К. К. Структура и развитие личности. – Москва, 1986.
13. Петровский А.В., Ярошевский М. Г. Теоретическая психология: Учебное пособие. – Москва, 2003.
14. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии: в 2-х т. Т. II. – Москва, 1989.
15. Спиваковская А.С. Психотерапия: игра, детство, семья. В 2-х т. Т. II. – Москва, 1999.
16. Энциклопедия психологических тестов. Личность, мотивация, потребность. – Москва, 1997.
17. Юнг К.Г. Структура психики и процесс индивидуации. – Москва, 1996.



Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich,

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti "Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash" kafedrasini boshlig'i o'rinbosari,
p.f.f.d. (PhD), podpolkovnik*

ADAPTATSIYA JARAYONINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada adaptatsiya jarayonining psixologik etimologiyasi, o'ziga xos xususiyatlari, uning turlari, shakllari va mazkur jarayonning ijtimoiy muhitga ijobiy va salbiy ta'sirlari bo'yicha eng so'nggi tadqiqotlarning ilmiy xulosalari keltirilgan.

Tayanch so'zlar: adaptatsiya, dezadaptatsiya, sezgi, idrok, analizator, retseptor, ijtimoiy muhit.

Аннотация. В данной статье представлены научные выводы новейших исследований по психологической этимологии процесса адаптации, его характеристикам, типам, формам, а также положительному и отрицательному влиянию этого процесса на социальную среду.

Ключевые слова: адаптация, дезадаптация, интуиция, восприятие, анализатор, рецептор, социальная среда.

Annotation. This article presents the scientific conclusions of the latest research on the psychological etymology of the adaptation process, its characteristics, types, forms, as well as the positive and negative impact of this process on the social environment.

Keywords: adaptation, disadaptation, intuition, perception, analyzer, receptor, social environment.

Kirish. Hozirgi kunda globallashuvning kmutatsiyalashib, virtuallashishining oshib borishi ijtimoiy kishilik jamiyati uchun murakkab vaziyat hisoblanadi. Qolaversa, mazkur murakkab vaziyat odamlarda marginalizm (ijtimoiy yakkalanish va ijtimoiy begonalashuv) ni kuchaytirmoqda. Shuningdek, mazkur holatlar odamlarning real hayot qoidalariga moslashishlarini qiyinlashtiradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, urbanizatsiyaning kuchayishi, yashash sharoitlarining tobora yaxshilanib borishi yoshlarda ijtimoiy adaptatsiya bilan bog'liq mo'rtlikni keltirib chiqarmoqda. Ya'ni yashash sharoitlarining yaxshilanib borishi, og'ir mehnat va qiyinchiliklarning mavjud emasligi kurashuvchanlikning susayishiga olib kelmoqda.

Adaptatsiya jarayoni o'ziga xos xususiyatga ega murakkab jarayon hisoblanib, uni pedagogik-psixologik jihatdan o'rganish jarayon haqida yanada ko'proq ma'lumot olish imkonini beradi.

Maqsad va uni asoslash. Biz mazkur maqolada adaptatsiya (moslashish) jarayonining o'ziga xosligini o'rganishni maqsad qildik. Sababi yuqorida sanab o'tilgan omillarni sog'lomlashtirish uchun odamlarning zamon va makonga, har bir kasb egasining o'z kasbiga, har bir insonning o'z ijtimoiy rollariga sog'lom va to'laqonli moslashishi juda muhim sanaladi. Demak, biz mazkur maqolada adaptatsiya jarayonining etimologiyasi, o'ziga xosligi va xususiyatlarini tadqiq qilishimiz keyinchalik mazkur masala bilan bog'liq ishlarni amaliyotga joriy qilishimizning asosi hisoblanadi.

Hozirgi tez o'zgaruvchan zamonaviy dunyoda adaptatsiya dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada ko'plab tadqiqot amalga oshirilayotgani ham muammoning salmog'idan dalolat beradi. Olib borilayotgan tadqiqotlar tahlili shundan darak beradiki, adaptatsiya, asosan, shaxsning o'qish, mehnat faoliyati va muloqotini amalga oshira bilish sifatida baholanadi.

A.A. Nalchajyana tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, adaptatsiyaning natijasi shaxsning guruhlar bilan o'zaro munosabati, ichki va tashqi nizolarsiz o'zining yetakchi faoliyatini bajarishi, o'zining badiiy qobiliyatlarini erkin va o'ziga ishongan holda namoyon etishi bilan bog'liq moslashuvchanlik tashkil etishi deb hisoblaydi¹. Ammo adaptatsiya jarayonini yaxlit qamrab oluvchi xulosa hanuzgacha mavjud emasligi bu borada fundamental tadqiqotlar amalga oshirish zaruriyatini ko'rsatadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Adaptatsiya (lot. *adaptatio* – moslashmoq) – sezgi organlari, ya'ni a'zolari (analizatorlar)ning ta'sir kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishidan iboratdir. Adaptatsiya hodisasida sezgirlik ortishi yoki kamayishi mumkin. Kuchli ta'sirdan kuchsiz taassurotga o'tganda sezgirlik asta-sekin ortib boradi, taassurot kuchayganda esa sezgirlik kamayib boradi (ko'rish, eshitish, hid bilish, teri-tuyish va hokazo). Demak, adaptatsiya jarayoni sezgi bilish jarayonining asosiy qonuniyatlaridan biri ekan.

Adaptatsiya umumilmiy tushunchalar tasnifiga kirib, turli fanlar kesimida paydo bo'lgan tushuncha hisoblanadi². Binobarin, har bir fanning tadqiqot muammosi bir-biridan farq qiladi. Tabiiy fanlar sirasiga kiruvchi biologiya fanida adaptatsiya tirik organizmning atrof-olamga moslashish imkonini beruvchi ichki gomeostaz (*gomeo* va yun. *stasis* – harakatsizlik, holat)ni qo'llab-quvvatlovchi

¹ Налчаджян А. А. Социально-психическая адаптация личности (формы, механизмы и стратегии). / А. А. Налчаджян. – Ереван: Изд-во АН Армянской ССР, 1988. – 264 с.

² Пляскина Т. В. Клинико-диагностические характеристики психических нарушений у военнослужащих срочной службы по призыву в практике военно-врачебной экспертизы внутренних войск Министерства внутренних дел Российской Федерации.: дис. ...канд. мед. наук. – Москва, 2007. – 220 с.

jarayon sifatida o'rganiladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida adaptatsiya tushunchasi faoliyatning amaliy jabhasida faol qo'llana boshlangan. Sotsiolog olimlar adaptatsiyaga ijtimoiy harakatlar, muammoli vaziyatlar, nizolar va ularning oqibatlarini yechishdagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik sifatida qarashadi. Psixologlar insonning atrof-muhitga adaptatsiyasi qanday amalga oshishini, ularning qanday harakatlarga qodir bo'lishlarini hamda ulardan qaysi biri samarali va yuqori daraja bo'lishini tadqiq etishadi.

Psixologik adaptatsiya – bu shaxsning ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik va kasbiy-faoliyat aloqalari va munosabatlari tizimiga, tegishli rol funksiyalarini bajarishda psixologik moslashish jarayoni. Insonning psixologik moslashuvi uning hayoti va faoliyatining quyidagi sohalarida amalga oshiriladi:

- ✓ ijtimoiy sohada uning mazmunli tomonlari va tarkibiy qismlarining (axloqiy, siyosiy, huquqiy va boshqalar) barcha xilma-xilligi bilan;

- ✓ ijtimoiy-psixologik sohada, ya'ni shaxsning psixologik aloqalari va munosabatlari tizimlarida, shu jumladan, uning turli ijtimoiy-psixologik rollarni bajarishida;

- ✓ shaxsning kasbiy, ta'lim va kognitiv va boshqa faoliyat aloqalari hamda munosabatlari sohasida;

- ✓ ekologik muhit bilan o'zaro bog'liqlik sohasida.

Inson hayoti va faoliyatining ushbu sohalariga ko'ra psixologik adaptatsiyaning asosiy turlari quyidagilarga ajratiladi:

- shaxsning ijtimoiy psixologik moslashuvi;
- shaxsning kasbiy faoliyatga psixologik moslashuvi;

- shaxsning ekologik-psixologik moslashuvi.

Shaxsning psixologik moslashuvi jarayoni har xil vositalar yordamida ham, unga bo'ysunadigan adaptiv harakatlar bilan ham voqelikni, atrof-muhitni o'zgartirishga qaratilgan harakatlarning maqsadga muvofiqiqligi bilan ifodalanadigan shaxsning faolligi bilan tavsiflanadi.

Binobarin, insonning faol maqsadli moslashuv faoliyatida 2 ta tendensiya namoyon bo'lib, ular turli darajada namoyon bo'ladi va parallel ravishda ishlaydi:

- moslashish tendensiyasi;
- muhitni shaxsga moslashtiradigan, o'zgartiradigan, moslashtiradigan tendensiya.

– shaxsning moslashish darajasi moslashish jarayonining natijasidir. Shaxsning moslashuvi ichki, tashqi va aralash bo‘linadi.

Shaxsning ichki moslashuvi uning hayotiy faoliyati muhitida ma’lum bir o‘zgarish bilan uning funksional tuzilmalari va tizimlarini qayta qurish bilan tavsiflanib, uning ma’noli, to‘liq, umumlashtirilgan moslashuv turi mavjud.

Shaxsning tashqi (xulq-atvor, adaptiv) moslashuvi ichki (substansial) qayta qurishning yo‘qligi, o‘zini va mustaqilligini saqlab qolish bilan ajralib turadi va shaxsning instrumental moslashuvi mavjud.

Shaxsning aralash moslashuvi qisman atrof-muhitga, uning qadriyatlarini va me’yorlariga ichki qayta qurish va moslashish, qisman instrumental moslashish xulq-atvor, o‘z “meni”, o‘z mustaqilligi, “men”ini saqlab qolish orqali namoyon bo‘ladi (V.A. Slastenin, V.P. Kashirin, 2001).

Qayta moslashish – bu shaxsning hayoti va faoliyatining shartlari hamda mazmuni tubdan o‘zgartirish (masalan, tinchlik davridan urush davriga, oilaviy hayotdan yolg‘iz hayotga va hokazo) qayta qurish jarayoni sodir bo‘lishi. Agar shaxsni qayta moslashtirishning iloji bo‘lmasa, uning deadaptatsiyasi sodir bo‘ladi. Moslashish va qayta moslashish faqat shaxsning individual tuzilmalarini qayta qurish darajasini va ularni tuzatishni yoki umuman shaxsni qayta qurish darajasini ifodalaydi.

Moslashuv jarayoni psixikaning individual funksional tizimlarini yoki umuman shaxsni tuzatish, tugatish, qisman qayta qurish bilan bog‘liq. Qayta moslashish – bu shaxsning qadriyatlarini, maqsadlarini, me’yorlarini, semantik shakllanishi va uning mazmuni, usullari va vositalarida aksincha qayta tiklanadigan (yoki qayta tuzilishi kerak bo‘lgan) motivatsion soha.

Qayta moslashish jarayoni g‘ayrioddiy sharoitlarda shaxsning funksional tizimlarini tubdan qayta qurish yoki shaxsning ma’lum sharoitlarda barqaror aqliy moslashuv holatidan nisbatan barqaror holatga o‘tishi bilan bog‘liq. Hayot va faoliyatning oldingi sharoitlaridan farq qiladigan yangi sharoitlarda aqliy moslashuv (masalan, fuqarolik sharoitidan harbiy xizmat sharoitiga o‘tishda va boshqalar).

Readaptatsiya – bu odamning avvalgi hayot va faoliyat sharoitlariga o‘tish jarayoni, u ilgari

moslashgan sharoitlardan sezilarli darajada farq qilishi.

Psixologik moslashuv – bu ko‘p bosqichli va xilma-xil hodisa bo‘lib, u insonning individual xususiyatlariga (uning psixikasi), uning mavjudligining barcha tomonlariga (uning yaqin hayotining ijtimoiy muhiti) va turli xil faoliyat turlariga (birinchi navbatda, professional) ta’sir qilishi.

Shaxsning psixologik moslashuvi – bu ikki tomonlama o‘zaro ta’sir jarayoni bo‘lib, uning davomida shaxsda (butun inson psixikasida) va atrof-muhitda (uning me’yorlari, qoidalari, qadriyatlarini) barcha sohalarida o‘zgarishlar sodir bo‘lishi. Moslashuv jarayonida shaxs va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar uyg‘unlashadi. O‘zgarishlar shaxs va muhitda (birinchi navbatda, ijtimoiy) sodir bo‘ladi, ularning tabiati va ko‘lami ko‘plab holatlar bilan belgilanadi. Ushbu holatlar orasida quyidagilar asosiy rol o‘ynaydi:

- atrof-muhitning ijtimoiy parametrlari;
- ijtimoiy muhitning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (uning me’yorlari, qoidalari, talablari, shaxsdan kutishlari; qadriyatlarining umumiylik darajasi va uning boshqa hayotiy asoslari);
- yetakchi (va boshqa turdagi) faoliyatning mazmuni, vositalari, shartlari va boshqa xususiyatlari.

Psixologik moslashuv – shaxsning aqliy faoliyatini atrof-muhitning ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik talablariga, inson faoliyatining shart-sharoitlari va mazmuniga yaqinlashtirish jarayoni.

Binobarin, psixologik moslashuv – bu shaxs va atrof-muhit hayoti va faoliyatining ichki va tashqi sharoitlarini uyg‘unlashtirish jarayoni hamdir.

Shaxsning moslashuvi jarayonida insonning aqliy faoliyatini berilgan atrof-muhit sharoitlari va uning muayyan sharoitlardagi faoliyati bilan uyg‘unlashtirish sodir bo‘ladi.

Shu bilan birga, insonning ichki, psixologik qulaylik darajasi insonning ijobiy va salbiy his-tuyg‘ularining muvozanati va uning ehtiyojlarini qondirish darajasi bilan belgilanadigan insonning psixologik moslashuvining ko‘rsatkichi bo‘lishi mumkin.

Odatda, genetik nuqtayi nazardan adaptatsiya uch xil xususiyatli negiz (manba) ta’sirida vujudga keladi:

1. Qo'zg'atuvchilarning davomli ta'siri jarayonida sezgilarning to'la yo'qolishi tarzidagi adaptatsiya. Doimiy ta'sir qilib turadigan qo'zg'atuvchi ta'sir o'tkazadigan bo'lsa, bunday holatda sezgi so'nib qoladi. Masalan, teriga tegib turadigan yengilgina bir yuk tez orada sezilmay qoladi. Yoqimsiz hidli bir joyga kirib qolganimizda birozdan so'ng bu hidni batamom yo'qolib ketganday his qilamiz. Og'izda biron-bir narsa ushlab turiladigan bo'lsa, ta'm sezgisining intensivligi susayadi.

Doimiy va harakatsiz qo'zg'atuvchining ta'siriga nisbatan ko'rish analizatorlarida to'la adaptatsiya hodisasini shu bilan tushuntirib berish mumkin. Bunday holatda qo'zg'atuvchining harakatsizligini ko'rish retseptorlari apparatining harakatchanligi bosib yuboradi. Ko'zni har doim ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda harakatlanib turishi ko'rish sezgisining uzluksizligini ta'minlaydi. Qo'zg'atuvchi ta'siridan 2–3 sekund o'tgach, ko'rish sezgisi yo'qoladi, ya'ni adaptatsiya hodisasi yuzaga keladi.

2. Kuchli qo'zg'atuvchining ta'siri ostida ham sezgilar zaiflashadi. Masalan, qo'lni muzdek suvga tutib turgan paytda, sovuq qo'zg'atuvchi ta'siri bilan yuzaga kelgan sezgining intensivligi susayadi. Qorong'iroq xonadan juda yorug' joyga kirib qolsak, biz avval boshqa yorug'likdan "ko'r" bo'lib qolib, atrofimizdagi narsalarni ajrata olmaymiz. Ma'lum fursat o'tgandan so'ng ko'rish analizatorlarning sezgirligi keskin sur'atda pasayadi va biz mo'tadil ko'rish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ko'rish sezgirligining intensiv yorug'lik qo'zg'atuvchisi bilan ta'sir qilganda pasayishdan iborat hodisa yorug'lik adaptatsiyasi deb yuritiladi.

Ko'rib o'tilgan ikki turdagi adaptatsiya psixologiya fanida negativ adaptatsiya deb ataladi. Chunki har ikkala adaptatsiya natijasida ham analizatorlarning sezgirligi keskin pasayadi.

3. Sezgirlikni kuchsiz qo'zg'atuvchi ta'siri ostida sodir bo'ladigan ortib borishini ham adaptatsiya deb atash an'anaga aylanib qolgan. Aksariyat sezgi turlariga xos bo'lgan adaptatsiyaning mazkur turi pozitiv adaptatsiya deyiladi.

Qorong'ilik adaptatsiyasida ko'rish sezgirligi ortadi. Sokinlikka nisbatan adaptatsiya eshitish adaptatsiyasi zamirida yuzaga keladi. Masalan, sovuq suvda (sovuq yegan) qo'l – bir harorat – issiqday; issiq suvda qo'l sovuq suvda

o'zgarmaganday tuyuladi. Harorat sezish bilan bog'liq bo'lgan pozitiv adaptatsiyalar yuqoridagi xususiyatlarga ega.

Tibbiyot psixologiyasida negativ og'riq adaptatsiyasining mavjudligi to'g'risidagi gipoteza (ignaga, issiq nurlanishga nisbatan) ham hukm surishi ta'kidlab o'tiladi.

Adaptatsiyaning hosil bo'lish xususiyatlari to'g'risida ma'lumot:

a) taktil (teri) adaptatsiya (juda tez hosil bo'ladi);

b) ko'z adaptatsiyasi (bir necha daqiqa ichida);

d) hid va ta'm adaptatsiyalari (undan ham uzunroq vaqt talab qiladi).

Adaptatsiyaning ahamiyati shundan iboratki, u kuchsiz qo'zg'alishni payqashga yordam beradi, sezgi organini kuchli qo'zg'alishdan saqlaydi.

Adaptatsiyaning tavsifi:

1) tayoqsimon hujayralarda joylashgan ko'rish purpuri o'zgarib ketadi; ularda kimyoviy modda borligi ilmiy jihatdan isbotlanmagan;

2) miyaning po'stloq qismi sezgirlikni pasaytiradigan "mulohazalovchi" tormozlanish. Tormozlanish – boshqa joylarda qo'zg'alishni kuchaytiradi – sezgirlik ortadi, izchil o'zaro induksiya hodisasi sodir bo'ladi.

Ilmiy manbalarda shaxsning adaptatsiya darajasini aniqlash bo'yicha mezonlar borasida turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, A.N. Jmirikov o'z tadqiqotlarida shaxs moslashuvchanligini aniqlashda quyidagi mezonlarni inobatga olish lozimligini ta'kidlaydi:

– shaxsning makro va mikro muhitga integratsiyasi darajasi;

– ichki imkoniyatlarni ro'yobga chiqara olish darajasi;

– o'z-o'zini emotsional his etish³.

Fikrimizcha, A.N. Jmirikov adaptatsiya jarayonining ijtimoiy-psixologik jihatlarini inobatga olgan holda, bunday xulosalarga kelgan. Bu esa shaxs moslashuvchanligiga to'laqonli baho berish imkoniyatlarini taqdim etmaydi.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, shaxsning psixologik qulayligi va moslashuvchanlik holati uning hayoti va faoliyatining moslashtirilgan, tanish muhitida,

³ Жмыриков А.Н. Диагностика социально-психологической адаптированности личности в условиях деятельности и общения. – Ленинград, 1989.

adaptiv qiyinchiliklar va qarama-qarshiliklarni muvaffaqiyatli hal qilish jarayonida yuzaga keladi. Ushbu qulaylik holatining buzilishi va shaxsiyatning beqarorligi ehtiyojlarni amalga oshirishga olib keladi, shaxsni atrof-muhit bilan faol munosabatda bo'lishga va munosabatlarning uyg'unligini tiklashga undaydi.

Ushbu jarayonning muvaffaqiyati ijobiy hissiy holat bilan birga keladi. Bu shaxsda atrof-muhit bilan o'zaro munosabatda uyg'unlikning ma'lum va takroran buzish zarurati shakllanishidan dalolat beradi. Bu ichki va tashqi kuch muvozanatini tiklash, muvozanatni saqlash, atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarni uyg'unlashtirish bo'yicha jarayon va faoliyat natijalarining ijobiy hissiy mustahkamlanishini olish uchun amalga oshiriladi.

Yakuniy qism. Yuqoridagi nazariy tahlillarga asoslanib aytimiz mumkinki, psixologik moslashuv

shaxsning rivojlanishi va o'zini o'zi rivojlantirish mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, shaxs adaptatsiyasi jarayonida uning psixologik holati muhim o'rin tutadi va psixologik moslashuv keyingi jarayonlarga muvaffaqiyatli kechishini ta'minlab beradi.

Shaxsning ehtiyoj holatlari uning moslashuv jarayonining manbayi hisoblanadi. Ular shaxsning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirini amalga oshirishda va uni turli faoliyatga kiritishda paydo bo'ladi. Fiziologik va psixologik xususiyatga ega disadaptiv holatlarni ehtiyoj holatlari, moslashish jarayonini esa paydo bo'lgan mos kelmaydigan ehtiyoj holatlarini amalga oshirish, qondirish jarayoni deb hisoblash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Сластенин В.А., Каширин В.П. Педагогика и психология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – Москва: Издательский центр «Академия», 2001. – 480 с.
2. Голованова А.А., Тарасова Л.Е., Шамянов Р.М. Адаптация личности в современном мире: межвуз. сб. науч. тр. – Саратов: Научная книга, 2011.
3. Воробьева М.А. Проблемы социальной адаптации к обучению в колледже у студентов первокурсников. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2015.
4. Реан А.А. Психология адаптации личности. Анализ. Теория. Практика. – Санкт-Петербург, 2006.
5. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. – Тошкент, 2014. – 450 б.
6. Ғозиев Э.Ғ. Социал психология. – Тошкент, 2014. – 348 б.
7. Каримова В.М. Ижтимоий психология. – Тошкент, 2012. – 440 б.
8. Жмыриков А.Н. Диагностика социально-психологической адаптированности личности в условиях деятельности и общения. – Ленинград, 1989.
9. Налчаджян А.А. Социально-психическая адаптация личности (формы, механизмы и стратегии). / А.А. Налчаджян. – Ереван. : Изд-во АН Армянской ССР, 1988. – 264 с.
10. Пляскина Т.В. Клинико-диагностические характеристики психических нарушений у военнослужащих срочной службы по призыву в практике военно-врачебной экспертизы внутренних войск Министерства внутренних дел Российской Федерации: дис. ...канд. мед. наук. – Москва, 2007. – 220 с.



Narmetova Yulduz Karimovna,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
Pedagogika, psixologiya va tillar kafedrasida dotsenti

PSIXOSOMATIK KASALLIKLAR BILAN KASALLANGAN BEMORLAR PSIXOEMOTSIONAL SOHASINING JINS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada psixosomatik kasalliklar bilan og'riqan bemorlarda uchraydigan emotsional holat buzilishlari, ularning kasallikning og'ir kechishi va salbiy oqibatlarga olib kelishidagi roli, jins tafovutlari o'rganilgan. Ta'kidlanadiki, psixosomatik kasalliklar ko'pincha emotsional holat buzilishlari bilan niqoblanishi va aksincha mazkur kasalliklarda emotsional soha buzilishlari kasallikning batamom tuzalib ketishiga to'sqinlik qiladi. Mazkur holatlar psixosomatik kasalliklar klinikasida psixologik yordamni tashkil etish va barcha psixoprofilaktik hamda korreksion tadbirlarni yo'lga qo'yishni taqozo etadi.

Tayanch so'zlar: psixosomatika, emotsional holat, gender xususiyatlari, psixokorreksiya, xavotirlanish, depressiya, kasallikka munosabat, nevrasteniklik, sensitivlik, egosentriklik, g'azablanish, xursandchilik.

Аннотация. В статье рассматриваются гендерные различия в расстройствах эмоционального состояния у больных психосоматическими заболеваниями, их роль в тяжести заболевания и негативных последствиях. Отмечается, что психосоматические заболевания часто маскируются эмоциональными расстройствами и, наоборот, эмоциональные нарушения при этих заболеваниях препятствуют полному выздоровлению заболевания. Данные случаи требуют организации психологической поддержки в клинике психосоматических заболеваний и проведения всех психопрофилактических и коррекционных мероприятий.

Ключевые слова: психосоматика, эмоциональное состояние, гендерные особенности, психокоррекция, тревога, депрессия, реакция на болезнь, неврастеничность, чувствительность, эгоцентризм, гнев, счастье.

Annotation. The article examines gender differences in emotional disorders in patients with psychosomatic diseases, their role in the severity of the disease and negative consequences. It is noted that psychosomatic diseases are often masked by emotional state disorders, and on the contrary, emotional disorders in these diseases prevent the complete recovery of the disease. These cases require the establishment of a psychologist in the clinic of psychosomatic diseases and the implementation of all psychoprophylaxis and correction measures.

Keywords: psychosomatics, emotional state, gender characteristics, psychocorrection, anxiety, depression, reaction to illness, neurasthenic, sensitive, egocentric, anger, happiness.

Kirish. Jahonda salomatlik inson tinchligi va xavfsizligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida tan olinadi. Butunjahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarni profilaktika va nazorat qilish bo'yicha 2013–2020-yillarga mo'ljallangan global rejasi" (2013), "Jamoat sog'lig'ni saqlash tizimi salohiyati va xizmatlarini mustahkamlash

bo'yicha harakatlarning Yevropa rejasi" (2012) hamda "Sog'liqni saqlash tizimlari salomatlik va farovonlik uchun" Tallin Xartiyasi (2015) kabi muhim hujjatlarda aholining tibbiyot va psixologiya fanlari yutuqlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi salomatlikning yuqori darajasiga erishishda zarur ekani alohida ta'kidlanadi (World Health Organization. Basic documents). Bugungi kunda

aholi salomatligini yaxshilash jahon miqyosida muhim ehtiyoj sifatida qaralmoqda, sogʻliqni saqlash tizimida psixologik xizmatni tashkil etish orqali ushbu muammolarni hal etish dolzarbligicha qolmoqda.

Mamlakatimizda sogʻliqni saqlash tizimini, ayniqsa keyingi yillarda zamonaviy talablar asosida tashkil etish, tibbiy xizmat koʻrsatish madaniyatini sifat jihatdan yangi pogʻonaga koʻtarish, aholi salomatligi, jumladan, ruhiy salomatligini muhofaza qilishni yaxshilash boʻyicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda qoʻllab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5270-son Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-aprelda qoʻllab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-2866-son, shuningdek, 2018-yil 7-iyunda qoʻllab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3052-son qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-sentabrda qoʻllab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 736-son qarori, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevralda qoʻllab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2019–2025-yillarda Oʻzbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini taʼminlashga muayyan darajada xizmat qiladi¹.

¹ Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маъросимидаги маърузаси// Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. 2016 й. 8 декабрь. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. – Б. 39. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент: “Ўзбекистон” 2017. – 488 б.

Bu vazifalarni amalga oshirishda surunkali psixosomatik kasalliklarga chalingan bemorlarda yuz beradigan psixologik oʻzgarishlarga oid klinik-psixologik tadqiqotlar samaradorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Maqsad va uni asoslash. Xorijda sogʻliqni saqlash tizimida psixologik xizmat amaliyotini tashkil etish va takomillashtirish muammolari V.N.Myasishev, G.S.Abramova, M.A.Berebin, V.V.Guldan, I.N.Gurvich, A.V.Gajeva, M.M.Kabanov, N.V.Kaltayeva, Y.V.Matveyeva, L.V.Miller, B.V.Mixaylov, V.V.Nikolayeva, N.A.Rusina, V.V.Solojenkin, A.N.Soboleva va V.A.Tashlikovlarning ilmiy ishlarida chuqur tahlil qilingan². J.H.Cassedy, P.Starr, J.D.Matarazzo, J.Stamp, R.R.Baker, S.Rossmann tibbiyot sohasi boʻyicha ixtisoslashgan psixolog faoliyatini tashkil etish, bemorlarga psixik maslahat va psixik-korreksion yordam koʻrsatish usullari, surunkali somatik kasalliklarni klinik davolash jarayonida psixolog ishtiroki va psixologik yordam koʻrsatishning ahamiyatiga oid ilmiy gʻoyalarni ilgari surgan.

Mamlakatimiz olimlari: M.D.Davletshin, E.G.Gʻoziyev, Gʻ.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Sh.R.Barotov va B.R.Qodirovlar oʻz tadqiqotlarida tibbiyot psixologiyasi, sogʻliqni saqlash tizimida psixologik xizmatning ahamiyatini taʼkidlagan. Kasalliklarning kelib chiqishi, kechishi va davolashda psixologik omillarning oʻrni, bemor psixologik holati va shaxsiy xususiyatlarining kasallik reabilitatsiyasidagi roli Z.R.Ibodullayev, A.I.Xodjayev, N.R.Salimova, D.I.Ilxamova, M.X.Karamyan va boshqalarning tadqiqotlarida oʻrganilgan³.

Tibbiyot psixologiyasida inson shaxsida kasallik taʼsirida roʻy beradigan oʻzgarishlar

² Абрамова Г. С., Юдич Ю. А. Психология в медицине. – Москва: «Кафедра-М», 1998. – 222 с. Погосова Г. В. Депрессия – новый фактор риска сердечно-сосудистых заболеваний и предиктор коронарной смерти // Кардиология, 2002. – № 4. – С.86-89. Психология здоровья: Учебник для вузов / Под ред. Г.С. Никифорова. – Санкт-Петербург: Питер, 2003. – 607 с.

³ Илхамова Д.И. Половозрастные особенности отношения личности к болезни при сердечно-сосудистых заболеваниях (на примере больных ишемической болезнью сердца и артериальной гипертонией) // Автореф. дис. ...канд. психол. н. – Ташкент, 2003. – 22 б. Карамян М.Х. Социально-психологические особенности личности при психосоматическом заболевании (на примере язвенной болезни желудка и двенадцатиперстной кишки) // Автореф. дис. ...канд. психол. н. – Ташкент, 2000. – 18 с.

tavsifi, kasalliklarning kelib chiqishi, kechishi va davolanishida psixologik omillarning roli, bemorning kasallikka munosabati va uning davolanish jarayonidagi ahamiyati, kasallikni davolashda bemorning atrof-muhit, qavm-qarindoshlari va hamkasblari, shuningdek, tibbiyot xodimlari bilan o'zaro munosabatlari ta'sirining o'zni borasida juda ko'p tadqiqotlar amalga oshirilgan⁴. Ushbu tadqiqotlarda poliklinik va statsionar sharoitda bemorlarga nafaqat tibbiy, balki psixologik xizmat ko'rsatish ham zarur ekani ta'kidlanishiga qaramay, sog'liqni saqlash tizimida psixologik xizmat amaliyotini tashkil etish va rivojlantirish masalasi mutaxassislar tomonidan bahs-munozaraga sabab bo'lmoqda. Tibbiyot muassasalarida psixologik xizmat qanday amalga oshirilishi, mazkur soha psixologining asosiy vazifalari nimalardan iborat bo'lishi, psixolog tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini oshirishga qanday hissa qo'shilishi, turli nozologiyalarda psixologik xizmat qanday ko'rsatilishi hamda uning tuzilmaviy komponentlari nimalardan iborat bo'lishi kerakligi haqidagi masalalar to'laqonli ilmiy yechimini topmagan.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Eksperimental tadqiqotda jami 447 nafar sinaluvchi ishtirok etgan bo'lib, ulardan 131 nafarini erkaklar, 316 nafarini ayollar tashkil qiladi. Sinaluvchilar orasida uchraydigan kasalliklar bo'yicha tahlilni o'rganadigan bo'lsak, quyidagi holatni kuzatish mumkin: onkologik bemorlar 51 nafar, poliklinikaga tashrif buyurganlar 238 nafar, kardiologik kasalliklar 51 nafar, endokrinologik kasalliklar 68 nafar, oshqozon-ichak kasalliklari 10 nafar, nazorat guruhi 29 nafar.

Amaliy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biri bemorlarning shaxs xususiyatlari, emotsional sohasi va xulq-atvoridagi o'zgarishlarni tahlil qilish, psixokorreksiya ishlarini amalga oshirish va boshqa ko'rinishdagi psixologik xizmatlarni taqdim etishdan iboratdir. Mazkur

⁴ Абрамова Г. С., Юдич Ю. А. Психология в медицине. – Москва: «Кафедра-М», 1998. – 222 с. Александр Ф. Психосоматическая медицина. Принципы и практическое применение / Пер. с англ. С. Могилевского. – Москва: ЭКСМО-Пресс, 2000. – 352 с. Погосова Г. В. Депрессия – новый фактор риска сердечно-сосудистых заболеваний и предиктор коронарной смерти // Кардиология, 2002. – № 4. – С. 86-89. Психология здоровья: Учебник для вузов / Под ред. Г. С. Никифорова. – Санкт-Петербург: Питер, 2003. – 607 с.

tadqiqotda bir qator psixologik tashxis metodikalarini turli kasalliklarga chalingan bemorlarda qo'llash natijalari va samaradorligi o'rganildi. Shu jumladan, tadqiqotning turli bosqichlarida Ch.D. Spilberger va Y.L.Xaninlarning "O'zini o'zi baholash shkalasi" metodikasi, Zungening "Depressivlik darajasini aniqlash" metodikasi, Kasallikka munosabatni aniqlash (TOBOL) metodikasi, Y.P.Ilin va Y.K.Feshchenkoning "O'z sabrliligini baholash savolnomasi", L.A.Rabinovichning "To'rt modalli emotsionallik savolnomasi", M. Lyusherning sakkiz rangli testi asosida turli kasalliklarga chalingan bemorlarda o'tkazildi va ushbu metodikalarning yutuq va kamchiliklarini o'rganish maqsadida qator statistik mezonlardan foydalanildi.

Psixologik testlar yordamida olingan natijalarning jins xususiyatlariga bog'liqligini o'rganish maqsadida Mann-Uitni U-mezonidan foydalanildi. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda Spilberger-Xanin metodikasining vaziyatli va shaxsiy xavotirlanish shkalalari bo'yicha ayollar va erkaklar o'rtasida farq mavjud emasligi aniqlandi. Ya'ni erkaklar va ayollardagi xavotirlanish ko'rsatkichlari ularning jins xususiyatlariga bog'liq emas ekan.

1-jadval

Spilberger-Xaninning xavotirlanish darajasini aniqlash metodikasi yordamida olingan natijalar bo'yicha jinsiy tafovutlarni Mann-Uitni U-mezoni asosida o'rganish (N=447)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=131)	Ayollar (n=316)		
Vaziyatli xavotirlanish	216.9	226.9	19766.5	0.453
Shaxsiy xavotirlanish	223.7	224.1	20661.5	0.977

Depressiyaga moyillikning jins xususiyatlariga bog'liqligini o'rganish maqsadida ham Mann-Uitni U-mezonidan foydalanib, erkaklar bilan ayollardagi depressivlik ko'rsatkichlari orasida ishonch darajasidagi statistik farq mavjudligi aniqlandi (U=17601,5; p<0,05). 2-jadvaldagi ma'lumotlarga qaraganda ayollarda depressiyaga moyillik erkaklardan ko'ra kuchliroq ifodalangan ekan. Aslida, bu natija ko'plab ilmiy adabiyotlarda tasdiqlangan qonuniyatga ko'ra ayollarda o'ng yarimsharning erkaklarga nisbatan ustunlik qilishi

bilan izohlanadi va ehtimol, shuning uchun ham ayollarda kasallik alomatlari ko'ringanda ularda tushkunlikka tushish holati kuchliroq namoyon bo'lishi kuzatilishi ehtimol.

2-jadval

Zungening depressivlik darajasini aniqlash metodikasi yordamida olingan natijalar bo'yicha jinsiy tafovutlarni Mann-Uitni U-mezeni asosida o'rganish (N=447)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=131)	Ayollar (n=316)		
Depressivlik	200.4	233.8	17601.5	0.013

Kasallikka munosabat tipini aniqlash metodikasi yordamida olingan natijalar bo'yicha jinsiy tafovutlarni Mann-Uitni U-mezeni asosida o'rganish natijalari 3-jadvalda taqdim etilgan. Natijalarga diqqat bilan razm solinsa, erkak va ayollar orasida metodikaning ayrim shkalalari bo'yicha ahamiyatli farqlar mavjudligini kuzatish mumkin. Bular: "Nevrasteniklik" (U=17341; p<0,05), "Sensitivlik" (U=14742,5; p<0,001) hamda "Egosentriklik" (U=17650; p<0,05) shkalalaridir. Erkaklar va ayollarning o'rtacha rang qiymatlari taqqoslanganda har uchala shkala bo'yicha ayollarning erkaklarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichlarga ega ekanligiga guvoh bo'lish mumkin (3-jadval).

3-jadval

Kasallikka munosabat tipini aniqlash metodikasi yordamida olingan natijalar bo'yicha jinsiy tafovutlarni Mann-Uitni U-mezeni asosida o'rganish (N=447)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	P
	Erkaklar (n=131)	Ayollar (n=316)		
Garmonik	232.0	220.7	19653.5	0.199
Ergopatik	219.7	225.8	20130	0.639
Anozognozlik	232.1	220.6	19634	0.186
Xavotirlanuvchan	210.6	229.6	18942.5	0.157
Ipxondrik	215.1	227.7	19536.5	0.348
Nevrastenik	198.4	234.6	17341	0.007
Melanxolik	217.9	226.5	19899.5	0.518
Apatik	208.3	230.5	18635.5	0.096
Sensitiv	178.5	242.8	14742.5	0.000
Egosentrik	200.7	233.6	17650	0.014
Paranoyyal	211.0	229.4	18998	0.171
Disforik	208.6	230.4	18674.5	0.102

Umuman olganda, yuqoridagi natijalar ayollarda og'riqlar, noqulayliklar, sog'liqning yomonlashishi munosabati bilan erkaklarga nisbatan ko'proq g'azablanish, achchiqlanish, xafa bo'lish, shuningdek, haddan tashqari sezgirlik, nozik tabiatlilik, ta'sirlanuvchanlik holatlari va shu bilan birga atrofda qilargilarga o'zining qanchalik qiynalayotganini namoyish qilish, boshqalarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortishga harakat qilish xislatlari ustunlik qilishini yaqqol ko'rsatmoqda.

L.A.Rabinovichning "To'rt modalli emotsionallik savolnomasi" yordamida olingan natijalar bo'yicha jinsiy tafovutlarni Mann-Uitni U-mezeni asosida o'rganish natijalari 4-jadvalda taqdim etilgan. Jadvaldagi ma'lumotlarga qaraganda faqatgina "Xursandlik" (U=1071; p<0,01) va "G'azablanish" (U=1022; p<0,01) shkalalari bo'yicha erkak va ayollar orasida ahamiyatli statistik farqlar mavjudligini kuzatish mumkin. Qo'rquv va g'amginlik shkalalari bo'yicha esa ishonch darajasidagi farqlar aniqlanmadi.

4-jadval

L.A. Rabinovichning "To'rt modalli emotsionallik savolnomasi" yordamida olingan natijalar bo'yicha jinsiy tafovutlarni Mann-Uitni U-mezeni asosida o'rganish (N=118)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	P
	Erkaklar (n=39)	Ayollar (n=79)		
Xursandlik	71.5	53.6	1071	0.007
G'azablanish	72.8	52.9	1022	0.003
Qo'rquv	61.5	58.5	1464	0.661
G'amginlik	64.6	57.0	1342	0.256

4-jadvaldagi ma'lumotlarning ko'rsatishicha, erkaklarda "Xursandlik" va "G'azablanish" shkalalari ayollardagiga nisbatan ancha yuqori ko'rsatkichlar kuzatiladi. Umuman olganda, xursandlik va g'azablanish hislari stenik emotsiyalarga, qo'rquv va g'amginlik esa astenik turdagi emotsional holatlarga kirishini nazarga olib, yuqoridagi natijalarni quyidagicha izohlash mumkin. Stenik emotsiyalarga (xursandlik, g'azablanish kabi), asosan, keskin xatti-harakatlar, faollik va kuchli tashqi ifodalanish xususiyatlari xos bo'lib, aynan erkaklar tabiatiga bunday hissiyotlar ayollardagiga nisbatan ko'proq namoyon bo'lishi kutilgan natijadir.

Yakuniy qism. Klinika va poliklinika sharoitida olib borilgan tadqiqotlarimiz psixosomatik kasalliklarda har bir kasallik xarakteri, klinik kechishi, davolanish samaradorligi va muddati, bemorning shaxslilik xususiyatlariga ko'ra bemor psixologik holatida turli o'zgarishlarga olib kelishi aniqlandi. Bemorning o'z kasalligiga munosabati, emotsional-irodaviy xususiyatlari uning yosh va jins xususiyatlariga bog'liqligi ham aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari tibbiyot muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini yo'lga qo'yish zaruratini asoslashga xizmat qiladi. Shu bois biz turli psixosomatik kasalliklarga chalingan bemorlar uchun psixologik yordam ko'rsatish usullari bo'yicha psixokorreksion dastur ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маъросидаги маърузаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. 2016 йил 8 декабрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. – Б. 39.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 488 б.
4. Агамамедова И.Н., Никитина Т.Е., Бобров А.Е. Опыт работы психотерапевтического кабинета многопрофильной клиники // Социальная и клиническая психиатрия. – №3, 2016, т. 26. – Б. 45-52.
5. Абрамова Г. С., Юдич Ю.А. Психология в медицине. – Москва: «Кафедра-М», 1998. – 222 с.
6. Александер Ф. Психосоматическая медицина. Принципы и практическое применение / Пер. с англ. С. Могилевского. – Москва: ЭКСМО-Пресс, 2000. – 352 с.
7. Илхамова Д.И. Половозрастные особенности отношения личности к болезни при сердечно-сосудистых заболеваниях (на примере больных ишемической болезнью сердца и артериальной гипертонией) // Автореф. дис. ...канд. психол. н. – Ташкент, 2003. – 22 б.
8. Карамян М.Х. Социально-психологические особенности личности при психосоматическом заболевании (На примере язвенной болезни желудка и двенадцатиперстной кишки) // Автореф. дис. ...канд. психол. н. – Ташкент, 2000. – 18 с.
9. Погосова Г.В. Депрессия – новый фактор риска сердечно-сосудистых заболеваний и предиктор коронарной смерти // Кардиология, 2002. – № 4. – С.86-89.
10. Психология здоровья: Учебник для вузов / под ред. Г.С. Никифорова. – Санкт-Петербург: Питер, 2003. – 607 с.



Sharapova Dildora Baxtiyarovna,
 “Oila va xotin-qizlar” ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

IJTIMOY-IQTISODIY QARAMLIKKA MOYIL SHAXSLARDA USTUVOR ORIYENTATSIYALAR TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqola respublikamizning Jizzax, Sirdaryo va Xorazm viloyatlaridan olingan tadqiqot natijalari orqali mamlakatimizda kun sayin ortib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy qaram xulq-atvorning shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiyalar bilan o'zaro aloqadorligini o'rganadi. Maqola shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiyalarning ekperimental ahamiyati hamda ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxslar xulq-atvorida shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiyalarni o'rganish maqsadida o'tkazilgan tadqiqot natijalarining tahliliga bag'ishlanadi.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil xulq-atvor, boqimandalik, shaxsdagi ustuvor oriyentatsiyalar, ishsizlik, iqtisodiy mahkumlik, institutsional yondashuv, kasbiy maqom, refleksivlik.

Аннотация. В данной статье рассматривается связь социально-экономического зависимого поведения, которое с каждым днем усиливается в нашей стране, с приоритетными ориентациями как личности на основе результатов исследований, полученных в Джизакской, Сырдарьинской и Хорезмской областях нашей республики. Статья посвящена экспериментальному значению приоритетных ориентаций личности и анализу результатов исследования, проведенного с целью изучения приоритетных ориентаций личности в поведении людей, склонных к социально-экономической зависимости.

Ключевые слова: поведение, склонное к социально-экономической зависимости, иждивенчество, приоритетные ориентации личности, безработица, экономическое осуждение, институциональный подход, профессиональный статус, рефлексивность.

Annotation. This article examines the connection between socio-economic dependent behavior, which is increasing every day in our country, with priority orientations as an individual based on research results obtained in the Jizzakh, Syrdarya and Khorezm regions of our republic. The article is devoted to the experimental significance of priority orientations of the individual and analysis of the results of a study conducted to study the priority orientations of the individual in the behavior of people prone to socio-economic dependence.

Keywords: behavior prone to socio-economic dependence, dependency, priority orientations of the individual, unemployment, economic condemnation, institutional approach, professional status, reflexivity.

Kirish. Deyarli 20 yil oldin konseptual jihatdan yangi iqtisodiy nazariya – xulq-atvor iqtisodiyoti paydo bo'ldi. O'sha vaqtdan beri iqtisodiyotning ushbu sohasidagi yutuqlari uchun ikkita Nobel mukofoti berildi: 2002-yilda D.Kahneman va 2017-yilda R.Taler. Xulq-atvor iqtisodiyoti iqtisodiy nazariyaning hozirgi hukmron neoklassik konsepsiyasini sezilarli darajada siqib

chiqardi va kelajakda uni almashtirishi mumkin¹. Ko'pgina ixtisoslashtirilgan nashrlar hozirga qadar ingliz tilidan tarjima qilingan, ko'plab mahalliy iqtisodchilar xulq-atvor iqtisodini qandaydir ekzotik xobbi deb bilishadi va tegishli mutaxassislikni (yoki

¹ Дементий Л.И. Теоретические основания и диагностика ответственности и локуса контроля: учебно-методическое пособие. – Омск, 2001. – 72 с.

ta'lim sohasini) ilmiy iqtisodiy mutaxassisliklar ro'yxati va zamonaviy iqtisodchilar hamda menejerlarni tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlariga kiritish orqali iqtisod fanining predmetini kengaytirishga shoshilmayaptilar. Xulq-atvor iqtisodiyotining asosini ruh va materiya o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi psixologiya bo'limi tashkil qiladi. Asosiy vazifa "tashqi dunyodagi jismoniy miqdorlarning o'zgarishi ularning subyekt tomonidan idrok etilishiga qanday ta'sir qiladi?" degan savolga javob topishdir².

Shunga o'xshash savolni pulning qiymatiga nisbatan psixologiya nuqtayi nazaridan o'rganib, shveysariyalik olim D. Bernulli 1738-yilda pulning qiymati (foydaliligi) ularning miqdorining logarifmik funksiyasidir, degan xulosaga kelgan (boylik). Bernoulli ushbu tamoyilga amal qilgan holda o'yinning umumiy natijasini natijalarning subyektiv qiymatining o'rtacha qiymati, ularni amalga oshirish chastotasi bilan o'lchangan holda o'lchash afzalroq ekanligini ta'kidladi, uning zamondoshlari esa natijalarning o'rtacha og'irligini hisoblashda davom etishdi. U logarifmik shkalani taklif qildi, unga ko'ra, o'yinning har bir natijasining psixologik qiymatini aniqlash kerak, so'ngra ma'lum bir natija ehtimoli uchun ularni to'g'rilab, ushbu hisob-kitoblarni umumlashtirish kerak. Shunday qilib, "...1 million yoki 7 million olish imkoniyati teng" (qiymati: $(10+84)/2=47$) va "...4 million olish kafolatlangan" (qiymat 60) variantlari orasidan tanlab, A oddiy o'yinchi kafolatlangan pulni afzal ko'radi.

Odamlarning katta qismi shunday qiladi. Oddiy odam tavakkal qilishni yoqtirmaydi, chunki eng yomon natijaga erishish ehtimoli bor. Bizning holatimizda bo'lgani kabi boylikning marginal qiymatining pasayishi sharoitida qaror qabul qiluvchi xavfdan qochadi. Agar o'yin va o'yinning kutilgan qiymatiga teng kafolatlangan miqdor o'rtasida tanlov taklif qilinsa, u kafolatlangan miqdorni afzal ko'radi. Bundan tashqari, kafolatlangan miqdor o'yinning kutilgan qiymatidan aniq past bo'lsa ham, xavf-xatarni yoqtirmaydigan odam xuddi shunday qiladi.

Maqsad va uni asoslash. Bernulli tomonidan taklif qilingan qarorlar xavf sharoitida qanday qabul qilinishiga psixofizik yondashuv bir qator aniq,

² Абульханова К.А. Принцип субъекта в отечественной психологии // Психология. Журнал Высшей школы экономики. – 2005. – Т. 2. – № 4. – С. 3-21.

ammo izohlash qiyin bo'lgan hodisalar, narsalar va harakatlarni iqtisodiy asoslash uchun jiddiy dalillarni topishga imkon berdi. Xususan, boylik qiymati funksiyasidan foydalanib, nega kambag'al odamlar sug'urta sotib olishini va nega boylar uni kambag'allarga sotishini tushuntirish oson. Bir millionni yo'qotish 10 millionga ega bo'lgan odam uchun atigi 4 ball, 3 million egasi uchun esa 18 ball (48-30)ni tashkil qiladi. Shu sababli nisbatan kambag'al odam sug'urta uchun to'lovni o'z ixtiyori bilan to'laydi, keyin xavf yanada boyroq iqtisodiy agentga o'tadi. Har ikki tomon manfaatlarining bunday uyg'unligi sug'urta biznesini rivojlantirish uchun yaxshi asos bo'lmoqda.

Ishsizlik muammosi zamonaviy jamiyatning eng muhim ijtimoiy muammolaridan biridir. Xorijiy va mahalliy olimlarning ishlarida ko'rsatilganidek, ishsizlik jismoniy va ruhiy salomatlik, psixologik va moddiy farovonlik, subyektning jamiyatda normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, shuningdek, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi, mehnat darajasi bilan bog'liq ko'plab salbiy oqibatlariga olib keladi.

Bundan tashqari, ishsizlarning ahvoli iqtisodiy inqiroz tufayli yuzaga kelgan mehnat bozoridagi mavjud vaziyat tufayli murakkablashmoqda. Hozirgi vaqtda mutaxassislariga, ularning ta'lim darajasiga, malakasiga, kasbiy harakatchanligiga va xodimlarning raqobatbardoshligiga qo'yiladigan talablar o'zgardi. Bu holat ishsiz qolgan odamlarni ish bilan ta'minlash muammosini hal qilishni qiyinlashtiradi. Shu munosabat bilan ishsizlarga psixologik yordam ko'rsatish, ishsizlik inqirozidan chiqishning optimal va nomaqbul yo'llarini to'g'rilash yo'llarini o'rgatish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ishsizlarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish bunday dasturlarni ishlab chiqish uchun asoslarni aniqlashning zaruriy shartidir.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Ishsizlik muammosi XX asr boshidan chet el psixologiyasida muvaffaqiyatli o'rganilib kelinmoqda. Bundan tashqari, xorijiy psixologiya fanida ishsizlik muammosini o'rganishda bir qancha ilmiy yo'nalishlar aniqlangan: institutsional (M.Yahoda, P.Uorr, D.Frayer), kognitiv-motivatsion (N.Fizer, B.Vayner, V.Deyriti, A.Goldsmit, A.Kiniki, J.Latak, G.Prassia) va biografik yondashuvlar (D.Super, J.Dozier, S.Osipou, G.Elder, A.Kaspi)³.

³ Дёмин А.Н. Теоретические подходы к проблеме безработицы в зарубежной психологии // Психологический журнал. 2005. – Т. 26. – № 4. – С. 20-29

Ushbu muammoga institutsional yondashuv doirasida ishsizlikning psixologik mazmuni mehnat bandligi institutining xususiyatlari bilan bog'liqligi, shaxsning ushbu muassasa xususiyatlariga bog'liqligi va unga tegishli bo'lish zarurati ta'kidlanadi. Kognitiv-motivatsion yondashuv doirasida ishsizlar qiyin hayotiy vaziyatda xatti-harakatlarning muayyan strategiyalarini tanlaydigan baholovchi, sharhlovchi, harakat qiluvchi subyekt sifatida qaraladi. Biografik yondashuv mansabni o'rganishga qaratilgan. Biografik yondashuv vakillari ishsizlik insonning martaba va hayot yo'lining ajralmas qismi ekanligini ta'kidlaydilar.

Shaxsiy biografik shartlar, beqaror martaba va ishsizlik oqibatlarini o'rganishning o'ziga xos xususiyati xavf omillarini aniqlashdadir. Shunday qilib, G.Elder va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, *iqtisodiy mahrumlik uchun xavf omillari, shu jumladan, ishni yo'qotish tufayli asabiylashish va hissiy beqarorlik, bu oilaviy munosabatlardagi nizolar hamda ota-ona va bola munosabatlarining salbiy uslubi bilan* birlashtirildi⁴.

A.Kaspi ma'lumotlariga ko'ra, asabiy xarakterga ega bo'lgan odamlarning kasbiy maqomi pastroq bo'ladi, shuningdek, ishini tez-tez o'zgartiradi va ishsiz maqomiga egalikdan "zavqlanadi". Finlyandiya psixologlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, martaba beqarorligi (ishsizlik, ish joyini tez-tez o'zgartirish) yuqori tashvish, aqliy qobiliyatsizlik, past vijdonlilik, nevroitiklik va maktabdagi past natijalar kabi omillarning ta'siri bilan bog'liq. Ushbu yo'nalish doirasida beqaror martaba va ishsizlik uchun xavf omillari bir-biri bilan o'zaro ta'sir qilishi va umuman, shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muayyan hodisalarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi aniqlandi⁵.

Psixologiyada ishsizlik muammosini o'rganish nisbatan kechroq boshlangan. Ko'plab olimlar ishsizlarning psixologik xususiyatlarini o'rganishga harakat qilishdi. A.A.Osipovanning ta'kidlashicha,

⁴ Знаков В.В. Самопонимание субъекта как когнитивная и экзистенциальная проблема // Психологический журнал. 2005. – Т. 26. – № 1. – С. 18-28.

⁵ Конопкин О.А. Структурно-функциональный и содержательно-психологический аспекты осознанной саморегуляции // Психология. Журнал Высшей школы экономики. 2005. – Т. 2. – № 1. – С. 27-42.

ishsizlar o'z-o'zini hurmat qilmaydi⁶. Shuningdek, A.A.Osipova: "Ishsizlarning hayotga qiziqishi, o'zini o'zi takomillashtirish istagi yo'qoladi", deb hisoblaydi. A.K.Osnitskiy va T.S.Chuykov, K.Lean va D.Feldmanning shaxsiy xususiyatlarning ishni yo'qotish bilan bog'liq inqirozli vaziyatni bartaraf etish strategiyalariga ta'siri bo'yicha tadqiqot natijalarini taqdim etadi⁷. Ishni yo'qotishni boshqacha boshdan kechirayotgan ishsizlar uchun ular uchta individual xususiyatni solishtiradilar: lokus nazorat, A tipi va B tipidagi shaxs va o'z-o'zini hurmat qilish. Ularning ishsizlik holatini o'zgartirishda xatti-harakatlarning eng faol shakllari A tipida kuzatildi.

A tipidagi shaxs tajovuzkorlik bilan tavsiflanadi (bunday odamlar, orzu qilingan narsaga erishish uchun o'zlarini boshqalarga qarshi turishga moyildirlar). To'siqlar ko'p bo'lgan vaziyatda A turi ularni yengish uchun barcha kuchlarni tortadi, hech qanday sharoitda orqaga chekinmaydi. B tipidagi shaxs qiyin vaziyatlarga kamroq sezgir, davom etayotgan voqealarga aralashmaydi. A turi eng ko'p kurashuvchan xulq-atvori bilan tavsiflanadi. Mualliflarning ta'kidlashicha, lokus nazorat xatti-harakatlar strategiyasini ishlab chiqishda kichik rol o'ynaydi. Mualliflarning fikriga ko'ra, o'zini past baholaydigan ishsizlar yangi ish topishga harakat qilganda faol xatti-harakatlardan kamroq foydalanadilar.

Ushbu tadqiqot natijalari tadqiqotchilar A.K.Osnitskiy va T.S.Chuykov ishdan bo'shatish holati va boshqa xususiyatlar bilan kurashishdagi faoliyat o'rtasidagi bog'liqlikni izlashga yo'naltiradi. Mualliflarning fikriga ko'ra, qiyin vaziyatdan chiqish mexanizmlari ko'p jihatdan turli muammolarni hal qilishda hayotiy qiyinchiliklarni bartaraf etishning shaxsiy tajribasi bilan belgilanadi. Ishni yo'qotish holati bilan kurashishning individual strategiyalarini tavsiflash, ularni tushuntirish uchun **shaxsning subyektiv faoliyatini tajribasini tahlil qilish, uning shaxsiy va faoliyatini ongli ravishda o'zini o'zi boshqarish tahliliga** murojaat qilish muhim hisoblanadi⁸.

⁶ Осипова А.А. Справочник психолога по работе в кризисных ситуациях / А.А. Осипова. 2-е изд. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2006. – 315 с.

⁷ Осницкий А.К., Чуйкова Т.С. Саморегуляция активности субъекта в ситуации потери работы // Вопросы психологии. – № 1, 1999. – С. 92-104.

⁸ Уваров Е.А. Субъектная активность как ведущий фактор саморазвития человека // Журнал прикладной психологии. – № 1, 2005. – С. 2-21

Har xil faoliyat turlari va bir turdagi faoliyatning turli tomonlarini tartibga solish tajribasi to'plangani sababli shaxsda alohida xususiyat – psixikaning o'ziga xos tashkiloti sifatida subyektivlik shakllanadi. Subyektivlik hayotiy muammolarni hal qilishda to'plangan tajribani faol, ongli va maqsadli amalga oshirishga yordam beradi. Mualliflarning fikriga ko'ra, subyektiv faoliyat tajribasi va uning tarkibiy qismlarining individual xususiyatlari, ularning izchilligi o'lchovi va ushbu tajribada shakllangan tartibga solish ko'nikmalari, turli xil hayotiy qiyinchiliklarni yengish muvaffaqiyatining asosiy omili bo'lib qoladi, shu jumladan, "kasbiy yo'qotish sindromi" ga uchragan shaxslarda "rekonstruktiv xulq-atvor"ni yuzaga keltirishda muhim pozitsiyani egallaydi.

A.K.Osnitskiy va T.S.Chuykova ishni yo'qotish holatini hal qilishning o'ziga xos xususiyatlari ko'p jihatdan subyektiv faoliyatning to'plangan tajribasi bilan belgilanadigan shaxsning individual xususiyatlari bilan bog'liqligini ta'kidlab, o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda o'zi boshqarish tajribasi, professional tajriba, mustaqil qarorlar va harakatlarni qabul qilish kabi strategiyalarga ajratadi. Subyektiv faoliyat tajribasining individual tarkibiy qismlarini shakllantirishdagi farqlarga asoslangan qiyin vaziyatni bartaraf etishda ishsizlar o'rtasidagi individual farqlar qidiruv faoliyatining dinamikasi va mazmunini belgilaydi. Subyektiv faoliyat tajribasining **qiymat, aks ettiruvchi, operativ va kommunikativ** tarkibiy qismlarini shakllantirish ko'rsatkichlari qanchalik yuqori bo'lsa, qidiruv shunchalik samarali bo'ladi.

Shunday qilib, xorijiy va mahalliy mualliflarning tadqiqotlarida ishsizlarning ma'lum shaxsiy xususiyatlari qayd etilgan. Shu bilan birga, shaxsiy potensialning katta majmuasi juda kam o'rganilgan. Bundan tashqari, o'rganilayotgan ishsizlarning ayrim sifatlarini tanlashning aniq nazariy asoslari yo'q. Bizning fikrimizcha, subyektivlikning **fazilatlarini shaxsning psixologik holati** va kasbiy rivojlanishiga eng muhim ta'sir ko'rsatadigan asosiy shaxsiy xususiyatlar sifatida qaralishi kerak. Mavzuning xususiyatlari muammosi bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, **o'ziga bo'lgan munosabat, mas'uliyat, reflekslik, shuningdek, o'z faoliyati va xatti-harakatlarini samarali o'z-o'zini boshqarish qobiliyati** tom ma'noda ishsizlarda "rekonstruktiv xulq-atvor"

motivlarini paydo qilishida muhim fundamental asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ishsizlarning **shaxsiy fazilatlarini** kasbiy rivojlanish inqirozidan chiqish yo'llarini tanlashning hal qiluvchi omillari, shuningdek, ushbu inqirozni optimal tarzda yengib o'tishga yordam beradigan resurslar deb hisoblash mumkin. Tadqiqot doirasida ishsizlarning shaxsiy fazilatlarini uning subyektiv fazilatlarini, masalan, reflekslik, o'z-o'ziga munosabat, o'z-o'zini tartibga solishning rivojlanish darajasi, subyektiv nazorat darajasi bilan ifodalanadi.

I-jadval

O'z-o'ziga munosabatlar xususiyatlarining ishsizlardagi darajalari

№	Ihsizlarning o'ziga munosabat komponentining nomi	O'z-o'ziga munosabat komponentining yuqori darajasiga ega bo'lgan ishsizlar (% da)	O'ziga bo'lgan munosabat komponentining o'rta darajasiga ega bo'lgan ishsizlar (% da)	O'ziga bo'lgan munosabatning past darajasiga ega bo'lgan ishsizlar (% da)
1	Yopiqlik	13%	73%	14%
2	O'ziga ishonch	30%	49%	21%
3	O'z-o'zini boshqarish	38%	44%	14%
4	O'ziga bo'lgan munosabat	23,7%	75,6%	0,7%
5	O'zini qadrlash	24,1%	70,5%	5,4%
6	O'zini qabul qilish	27,1 %	71,5 %	1,4 %
7	O'ziga bog'lanlik	27%	56%	17%
8	Ichki ziddiyat	14%	81%	5%
9	O'zini ayblash	14,5%	79,2%	6,3%

Tadqiqot natijalariga, asosan, ishsizlarning ko'pchiligi o'zlariga tanlab munosabatda bo'lishadi, boshqalarni yangilashda psixologik himoyaning ayrim turlarini yengib o'tishadi, ishlash qobiliyatini saqlab qolishadi, odatdagi sharoitlarda o'ziga, vaziyatni nazorat qilish va vaziyatlarni boshqarishga ishonishadi, lekin qiyinchiliklar yuzaga kelganda va tanqidiy vaziyatlarda ularning o'ziga bo'lgan ishonchi pasayadi, tashvish, xavotir paydo bo'ladi va "men"ning tartibga solish qobiliyati pasayadi. Shuningdek, tadqiqot ishtirokchilarining aksariyati boshqalarning ijobiy munosabati faqat ma'lum fazilatlar va harakatlarga taalluqlidir, boshqa shaxsiy ko'rinishlar esa boshqalar orasida g'azab

va rad etishni keltirib chiqaradi, deb hisoblashadi. Aksariyat ishsizlar o'zlarining ba'zi fazilatlarini yuqori baholaydilar, ammo boshqa shaxsiy xususiyatlarni e'tiborsiz qoldirishlari mumkin, biroq odam o'zining barcha fazilatlarini qabul qilmaydi va hamma kamchiliklarni ham tanqid qiladi, shuningdek, o'zini aybdor deb topib, ba'zi fazilatlarinigina o'zgartirishga intiladi, shaxslararo munosabatlarda "ishsizlikning motivatori" sifatida boshqalarni ayblash holatlari kuzatilishi mumkin.

2-jadval

Ixtiyoriy faoliyatni boshqarish xususiyatlarining ishsizlardagi darajalari

№	Ishsizlardagi shaxsiy sifatning nomi	O'z-o'zini boshqarish komponentining yuqori darajasiga ega bo'lgan ishsizlar (% da)	O'z-o'zini boshqarish komponentining o'rta darajasiga ega bo'lgan ishsizlar (% da)	O'z-o'zini boshqarish komponentining past darajasiga ega bo'lgan ishsizlar (% da)
1	O'z-o'zini boshqarishning umumiy darajasi	22,7%	52,7%	24,6%
2	Rejalashtirish	0%	42,5%	57,5%
3	Modellashtirish	7,7%	57,0%	35,3%
4	Dasturlash	8,7%	54,6%	36,7%
5	Natijalarni baholash	1,9%	59,4%	38,6%
6	Moslashuvchanlik	0,5%	36,7%	62,8%
7	Mustaqillik	0%	35,3%	64,7%

Ixtiyoriy faoliyatda o'zini o'zi boshqarishning umumiy darajasi ko'rsatkichlari, shuningdek, o'z-o'zini tartibga solishning modellashtirish, dasturlash va faoliyat natijalarini baholash kabi tarkibiy qismlari ko'pchilik ishsizlar uchun o'rtacha qiymatlar zonasida ekanligi ma'lum bo'ldi. Sinaluvchilarning aksariyati o'z-o'zini boshqarish jarayonining rejalashtirish kabi tarkibiy qismini, shuningdek, moslashuvchanlik va mustaqillik kabi shaxsiy-tartibga solish xususiyatlarini ifodalashning past darajasiga ega. Shunday qilib, ishsizlarning aksariyati faoliyatni rejalashtirishga bo'lgan ehtiyojning pastligi bilan ajralib turadi, ularning faoliyat rejalarini va xatti-harakatlari tez-tez o'zgarib turadi hamda faoliyat maqsadlariga kamdan kam erishiladi. Bunday odamlar faoliyat va xulq-atvor maqsadlarini mustaqil ravishda ilgari surish

qobiliyatining pastligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, ishsizlarning aksariyati o'zgaruvchan faoliyat sharoitlarida, hayotning o'zgarishi, atrof-muhit va turmush tarzining o'zgarishi bilan o'zlarini ishonchsiz his qiladilar. Ular vaziyatga javob berish, faoliyat va xatti-harakatlarni tez, o'z vaqtida rejalashtirish, muhim shartlarni ta'kidlash, o'z rejalarini, faoliyati va xatti-harakatlarini to'g'rilash qobiliyatining pastligi bilan ham xarakterlanadi. Bundan tashqari, sinaluvchilarning aksariyati boshqalarning fikriga bog'liq, ko'pincha tanqidsiz boshqa odamlarning maslahatlariga amal qiladi, faoliyat va xatti-harakatlarni tartibga solishda yordamga muhtojlik sezadi.


3-jadval

Ixtiyoriy faoliyatni boshqarish xususiyatlarining ishsizlardagi darajalari

№	Ishsizlardagi shaxsiy sifatning nomi	Shaxsiy sifat darajasi yuqori bo'lgan ishsizlar (% da)	Shaxsiy sifat darajasi o'rta bo'lgan ishsizlar (% da)	Shaxsiy sifat darajasi past bo'lgan ishsizlar (% da)
1	Internallik	27,1%	46,4%	26,6%
2	Refleksivlik	23,2%	58,5%	18,4%

Ishsizlarning aksariyati ikki tomonlama (ambinal), ya'ni ularda subyektiv nazoratning aniq yo'nalishi yo'qligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, sinaluvchilarning ko'pchiligi o'rtacha reflekslilik darajasi bilan ajralib turadi, ya'ni ular o'tmishdagi, hozirgi va kelajakdagi o'z harakatlarini tahlil qilishga o'rtacha moyil bo'lishadi.

Tadqiqotimizda "Shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiyani aniqlash so'rovnomasi"ni o'tkazdik. Metodika natijasida shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiya darajasi 22,4% sinaluvchida past, 62,4% sinaluvchida o'rta va 15,6% sinaluvchida yuqori ekanligi aniqlandi. Umumiy hisobda 84,8% sinaluvchida ustuvor oriyentatsiya, ya'ni o'z-o'zini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq muammolar mavjud. Mazkur muammoni bartaraf etish va shaxsning o'zligini anglashi, rivojlanishi uchun maxsus chora-tadbirlar rejasini tuzish maqsadga muvofiq.



1-rasm. Shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiyani aniqlash so'rovnomasi natijasi

4-jadval

Shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiyaning gender jihatdan o'zaro bog'liqligi

	Jinsi	Sinaluvchilar soni	Mann-Uittni	Ishonch darajasi
Shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiyalar	Erkak	78	12428	0,009*
	Ayol	392		

Olingan natijalarga ko'ra shaxsning ustuvor oriyentatsiyasi gender bog'liqlikka ega. Demak, shaxsning ustuvor oriyentatsiyasi ayol va erkak jinsida tafovutga ega emas, bunda individual-psixologik xususiyatlar, salohiyat, ma'lumot darajasi va boshqa shu kabi omillar ahamiyatga ega.

Sinaluvchilarning ma'lumot darajasiga ko'ra shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiyasi o'rganildi.


5-jadval

Shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiyaning ma'lumot darajasiga bog'liqligi

Ma'lumoti	Sinaluvchilar soni	Kruss-kal-Wellis mezon	Ishonch darajasi
O'rta	288	9,295	,026*
O'rta-maxsus	86		
Tugallanmagan oliy	28		
Oliy	54		

Olingan natijaga ko'ra shaxsning ma'lumot darajasi shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiya bilan aloqadorlikka ega. Ya'ni har bir ma'lumot darajasida dunyoqarash va salohiyatning ortishi, o'z navbatida, shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiyaning ham sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotimiz davomida sinaluvchilarning kasbi, qiziqishlari mavjud yoki yo'qligi, maktabda qiziqqan fan, oilaviy holati bo'yicha ham tahlil qilindi.



2-rasm. Sinaluvchilarning kasbi, maktabda yoqtirgan fani, qiziqishlari, oilaviy holati bo'yicha miqdor ko'rsatkichi

6-jadval

Sinaluvchilarning kasbi, maktabda yoqtirgan fani, qiziqishlari, oilaviy holati bo'yicha shaxs sifatida ustuvor oriyentatsiyaning o'zaro aloqadorligi

Asosiy jihatlar	Ma'lumotlar	Sinaluvchilar soni	Kruss-kal-Wellis mezon	Ishonch darajasi
Kasbi	Yo'q	218	10,541	,005*
	Hunar (tikuvchi, qandolatchi, sarta-rosh, dehqon v.b)	128		
	Kasb (hamshira, o'qituvchi, buxgalter v.b.)	128		
	Qiziqishlari mavjud	410		
Oilaviy holati	Oila qurmagan	300	9,522	,049*
	Oilali	82		
	Ajrashgan	66		
	Turmush o'rtog'i vafot etgan	22		

Yuqoridagi tadqiqot natijalari asosida olingan empirik ma'lumotlar tahlili quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

1. Ishsizlarning ko'pchiligi o'ziga ishonch, o'zini o'zi boshqarish, o'ziga munosabat, o'zini o'zi qadrlash, o'zini o'zi qabul qilish, o'ziga bog'langanlik kabi o'ziga bo'lgan munosabat parametrlarining o'rtacha darajasiga ega. Shu bilan birga, shaxsning o'ziga bo'lgan munosabatining yaqinlik, ichki ziddiyat va o'zini ayblash kabi xususiyatlari ham o'rtacha ko'rsatkich qayd etdi. Ishsizlarning ko'pchiligi ambinalistlardir, ya'ni ularda subyektiv nazoratning aniq yo'nalishi yo'q, shuningdek, o'rtacha reflekslilik darajasi bilan ajralib turadi, ya'ni ular o'tmishdagi, hozirgi va

kelajakdagi o'z harakatlarini tahlil qilish uchun mo'tadil moyillikni ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'zini nazorat qilishning faoliyatni rejalashtirish, shuningdek, moslashuvchanlik va mustaqillik kabi shaxsiy tartibga solish xususiyatlarini past darajada ifodalanishi ishsizlarning boqimonda xulq-atvorli shaxsga aylanib qolishlariga sabab bo'ladi. Yana bir ahamiyatli jihati shuki, tadqiqotning birorta ham ishtirokchisi dasturlashning yuqori darajada rivojlanganligi, shuningdek, mustaqillik bilan ajralib turmaydi. Bu esa, o'z navbatida, boqimonda shaxs psixotipida "tobelik", "o'zgidan najot istash" kabi sifatning dinamik-statik ko'rinishda bo'lishini ta'minlasa, "tartibsizlik" hamda "prognozlashtirish"ning regressiv o'zgaruvchan pozitsiyada qolishiga imkon beradi.

2. Ishsizlarning shaxsiy sifatlarining omilli strukturasi o'rganishda 6 ta omil aniqlandi: "o'z-o'zini tartibga solish", "avtosimpatiya", "o'zgarishlarga tayyorlik", "o'z-o'zini kamsitish", "refleksivlik", "yopiqlik". "O'z-o'zini tartibga solish" omili subyektning o'z xatti-harakati va faoliyatini samarali o'zini o'zi boshqarishga qodir ekanligini tavsiflaydi, ya'ni subyektning o'zini o'zi boshqarishi individual tizimi shakllanishining umumiy darajasini tavsiflaydi. Demak, boqimondagi aylanib borayotgan shaxs portretida qarorlarni mustaqil qabul qilish motivi yetakchilik qilib, unda barcha faoliyatni o'zi boshqarish hamda nazorat qilish mexanizmlari yaxshi ishlayotganidan dalolat beradi.

"Avtosimpatiya" omili, umuman olganda, subyektning o'z harakatlari, muvaffaqiyatsizliklari va yutuqlari uchun javobgar bo'lish, o'z hayotini boshqarish hamda vaziyatlarga qarshilik ko'rsatish qobiliyati, subyektning o'ziga va uning fazilatlariga ijobiy munosabati, qadriyat hissi haqidagi g'oyalarni tavsiflaydi. "O'zgartirishga tayyorlik" omili odatda o'zi haqidagi g'oyalarni o'zgartirish istagi darajasini, "men" tushunchasini, shuningdek, o'ziga ishonchni tavsiflaydi.

"O'zini o'zi kamsitish" omili subyektning o'ziga nisbatan salbiy munosabatini, ichki ziddiyatlarning mavjudligini, o'zidan salbiy fazilatlarini izlash va o'zini ayblash munosabatini tavsiflaydi.

"Refleksivlik" omili subyektning o'z harakatlari uchun yuqori mas'uliyat bilan chuqur fikrlash qobiliyatini tavsiflaydi.

"Men"ning yopiqligi" omili insonning o'zi uchun ham, boshqa odamlar uchun ham "men"ning ochiqlik darajasi pastligini tavsiflaydi.

Ishsizlarning shaxsiy fazilatlarini keyingi o'rganish istiqbollari sifatida ishni yo'qotish natijasida yuzaga keladigan stressni yengish uchun turli strategiyalarni tanlashga shaxsiy xususiyatlarning ta'sirini o'rganish, o'rganilayotgan shaxsiy xususiyatlar doirasini kengaytirish va boshqalarni qayd etish mumkin. Mazkur izlanishlar esa ishsiz shaxslarni boqimonda shaxs sifatida qotib qolmasliklari yo'lida jiddiy psixoprofilaktik tadbirlar tashkil etish uchun yagona yondashuvlarni ishlab chiqishda dasturulamal bo'ladi.

Yakuniy qism. Ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxslarda shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiya va uning shaxsiy xususiyatlardagi ahamiyatini o'rganar ekanmiz, quyidagi natijalarga asoslanib umumiy xulosalarni keltirib o'tamiz:

Tadqiqotdan olgan natijalarga ko'ra kasbiy bog'liqlik shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiya bilan bog'liqlikka ega. Ya'ni kasbiy salohiyat, o'z navbatida, shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiya rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ma'lumot darajasidagi bog'liqlik kabi kasbiy yetuklikda ham shaxsiy oriyentatsiya o'z qiymatini sifat jihatdan oshishida ahamiyat kasb etadi.

Maktabda yoqtirgan fani va qiziqishlarning mavjud yoki mavjud emasligi shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiya bilan aloqadorlikka ega emas. Shunday ekan, Maktabda yoqtirgan fani va qiziqishlarning mavjud yoki mavjud emasligi shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiya bilan aloqadorlikka ega emas. Shunday ekan, qiziqishlar va maktabda yoqtirilgan fan bilan bog'liq xotiralar o'tmishda qolganligi, bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotgani bilan izohlashimiz mumkin. Shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxslarda ifodalanishining ahamiyati shundaki, ular o'z qiziqishlarini chetga surib, daromad manbayi bo'yicha berilgan maslahat ortidan ish ko'rishga moyil bo'lishlari mumkin. Albatta, bunda qiziqish, qobiliyat masalasining ahamiyati keskin tushiriladi.

Oilaviy holat va shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiya o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjud. Mazkur holatni ifodalashda oiladagi qadriyatlar tizimini, ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqish va oilaning bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy holatini

e'tiborga olish lozim. Ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxslarning aksariyati o'z oilaviy holatini ro'kach qilgan holda foyda olishga intiladi. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyillikning asosiy belgilaridan biri ekanligini unutmash kerak. Biz ahamiyat qaratgan asosiy jihatlardan biri aynan oilaviy holatining mehnat qila olmaslik sharoitida ekanligiga – atrofda qilarni ishonirish, moddiy yoki ijtimoiy manfaat yo'lida harakat qilishga intilayotgan

shaxslarga qaratildi. Ular o'z manfaatlari yo'lida oila a'zolaridan ham foydalanayotganini kuzatish mumkin. Masalan, chaqalog'i bilan tilanchilik qilayotgan yosh kelin, uyda o'tirib, xotinini bola puli, nafaqa undirish uchun chiqarib yuborayotgan jismonan sog'lom erkak, farzandlarini sadaqa so'rab, pul topishga yuborayotgan ba'zi oilalar fikrimizga hayotiy misol bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абульханова К.А. Принцип субъекта в отечественной психологии // Психология. Журнал Высшей школы экономики. 2005. – Т. 2. – № 4. – С. 3-21.
2. Дементий Л.И. Теоретические основания и диагностика ответственности и локуса контроля: учебно-методическое пособие. – Омск, 2001. – 72 с.
3. Дёмин А.Н. Теоретические подходы к проблеме безработицы в зарубежной психологии // Психологический журнал. 2005. – Т. 26. – № 4. – С. 20-29.
4. Знаков В.В. Самопонимание субъекта как когнитивная и экзистенциальная проблема // Психологический журнал. 2005. – Т. 26. – № 1. – С. 18-28.
5. Конопкин О.А. Структурно-функциональный и содержательно-психологический аспекты осознанной саморегуляции // Психология. Журнал Высшей школы экономики. 2005. – Т. 2. – № 1. – С. 27-42.
6. Осипова А.А. Справочник психолога по работе в кризисных ситуациях / А.А. Осипова. 2-е изд. – Ростов н/Д: Феникс, 2006. – 315 с.
7. Осницкий А.К., Чуйкова Т.С. Саморегуляция активности субъекта в ситуации потери работы // Вопросы психологии. – № 1, 1999. – С. 92-104.
8. Уваров Е.А. Субъектная активность как ведущий фактор саморазвития человека // Журнал прикладной психологии. – № 1, 2005. – С. 2-21.



Yusupxodjayeva Umida,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti
e-mail: umidar9@gmail.ru

“PSIXOLOGIK SALOMATLIK” TUSHUNCHASINING ILMIY-NAZARIY TASNIFI

Annotatsiya. Maqolada psixologik salomatlik tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan, xususan, xorij va mamlakatimiz olimlari tomonidan berilgan tasniflar ko'rib chiqilgan. Psixologik salomatlik konsepsiyasi va uning darajalari bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: psixik salomatlik, ruhiy salomatlik, fiziologik kasalliklar, psixologik salomatlik, konsepsiya, psixologik holatlar, psixik jarayonlar.

Аннотация. В данной статье выделены научно-теоретические основы понятия Психологическое здоровье, в частности рассмотрены классификации данные зарубежными и отечественными учеными. Описаны концепции психологического здоровья и его уровни.

Ключевые слова: психическое здоровье, духовное здоровье, физиологические расстройства, психологическое здоровье, концепция, психологические состояния, психические процессы.

Annotation. In this article, the scientific and theoretical foundations of the concept of Psychological health are highlighted, in particular, the classifications given by foreign and domestic scientists are considered. The concepts of psychological health and its levels are described.

Keywords: mental health, spiritual health, physiological disorders, psychological health, concept, psychological states, mental processes.

Kirish. Yangi O'zbekistonda ko'plab yangi sohalar qatorida aholiga psixologik xizmat ko'rsatish va fuqorolarning ruhiy salomatligini muhofaza qilish jabhalari jadal rivojlanmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi “O'zbekiston Respublikasida psixologik xizmat ko'rsatishni yanada takomillashtirish” to'g'risidagi 472-son qaroriga muvofiq aholida psixologik salomatlik haqida tushuncha hosil qilish, uning turlari, ta'sir ko'rsatuvchi ijobiy va salbiy omillar, shuningdek, psixologik xizmatdan foydalanish kabi muhim masalalar bayon etilgan¹.

¹ Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 июндаги 472-сон қарори. “Ўзбекистон Республикасида психологик хизмат кўрсатишни янада такомиллаштириш бўйича” чора-тадбирлар режаси // <https://lex.uz/>

Hozirgi kunda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shaxslarning ruhiy salomatligi, unga o'z ta'sirini ko'rsatuvchi pozitiv va negativ omillar, shuningdek, psixologik salomatlikni muhozafa qilish masalalarida aholida muayyan ehtiyoj borligini ko'rsatmoqda. Mavzu bo'yicha mavjud tadqiqotlarning keng doirasiga qaramasdan, psixologik salomatlik tushunchasini keng ko'lamda tadqiq etish va muhofaza qilish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish talab etiladi.

Maqsad va uni asoslash. “Psixik salomatlik” tushunchasi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan ilmiy leksikonga kiritilgan. Bu termin ikki fanni, ya'ni tibbiyot va psixologiya kabi ikki amaliy sohani bo'g'lab turadi. So'nggi o'nyillikda tibbiyot va psixologiya kesishmasida yangi soha paydo bo'ldi

– psixosomatika. Bu sohaning negizida har qanday somatik o‘zgarishlarning u yoki bu tarzda psixologik holatning o‘zgarishi bilan bo‘g‘liqligi yotadi. Ba’zi holatlarda psixologik holat tana kasalliklarining asosiy sababi bo‘lishi mumkin, ba’zida esa bu faqat somatik kasallikka turtki bo‘lishi mumkin. Aksar hollarda fiziologik kasalliklar psixologik xavotirga va ruhiy diskomfortga sabab bo‘lishi kuzatiladi. Shunday qilib, “fiziologik salomatlik va psixologik holatlar bir-biri bilan chambarchas bo‘g‘liqdir”, – deb ta’kidlaydi I.V.Dubrovina².

JSSSTning ekspertlar qo‘mitasining “Psixik salomatlik va bolalarning psixo-ijtimoiy rivojlanishi” (1979) deb nomlangan hisobotida psixologik salomatlikdagi buzilishlar jismoniy kasalliklar va nuqsonlar bilan bir qatorda psixikaga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy sharoit bilan bo‘g‘liq bo‘lgan turli noxush holatlar va stresslar o‘z ta’sirini ko‘rsatishi takidlab o‘tilgan³.

Psixologik salomatlikni muhofaza qilish yo‘nalishini rivojlantirishning dolzarb vazifalari orasida ruhiy salomatlik toifalarining noaniqligini bartaraf etish va psixologik barqarorlik fenomeni tuzilishini aniqlash bilan bir qatorda amaliy vositalarni yaratish, jumladan, psixologik salomatlikni diagnostika qilish uchun metodologiyani ishlab chiqish vazifasi ham mavjud.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Psixologik salomatlik insonning hayot jarayonida to‘liq shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur shartdir. Bir tomondan, psixologik salomatlik insonning yoshi, ijtimoiy va madaniy rollarini (bola yoki kattalar, o‘qituvchi yoki menejer, rus yoki avstraliyalik va boshqalar) yetarli darajada bajarish sharti bo‘lsa, boshqa tomondan, bu shaxsni hayoti davomida uzluksiz rivojlanish imkoniyati bilan ta’minlaydi.

Bir qator xorij olimlari va mamlakatimiz psixologlari tomonidan psixologik salomatlik tushunchasiga ta’riflar berilgan.

A.Maslou shaxsning motivatsiyasi nazariyasiga asoslanib, o‘zini namoyon qiladigan, psixologik jihatdan sog‘lom odam obrazini yaratdi.

² Дубровина И.В. Психическое и психологическое здоровье в контексте психологической культуры личности // <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskoe-zdorovie-lichnostiv-kontekste-voznastnogo-razvitiya>

³ ВОЗ. Комплексный план действий в области психического здоровья на 2013-2030 // <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/mental-health-strengthening-our-response>

Uning fikriga ko‘ra, psixologik salomatlik quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Birinchisi – odamlarning “qo‘ldan kelgan barcha qiyofada” bo‘lish, o‘z-o‘zini anglash orqali o‘zlarining barcha imkoniyatlarini rivojlantirish istagi; ikkinchisi gumanistik qadriyatlarni va ularga mos keladigan fazilatlarini amalga oshirish istagidir. Jumladan, boshqalarni qabul qilish, avtonomiya, hamdardlik, altruizm, go‘zallik hissi kabilar. K.Rojersning ta’kidlashicha, “sog‘lom, o‘zini o‘zi anglaydigan” shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari: fikrlar va harakatlardagi erkinligi, o‘ziga ishonish, o‘z tabiatini muhofaza qilish bilan bog‘liq tajribalarga ochiqlik, o‘z-o‘zini boshqarish, ijodkorlikdir. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘zini o‘zi faollashtirish orqali ruhiy salomatlikka bo‘lgan munosabat gumanistik yo‘naltirilgan psixologlar orasida turlicha baholandi.

Xususan, F.Franklning logoterapiyasida (1997) “Ruhiy salomatlik” atamasi birinchi marta paydo bo‘ladi, uning asosiy mezoni borliqning mazmunliligi, ma’naviyati, vijdonidir, deb ta’kidlanadi. Olimning fikricha, har bir shaxsning asosiy hayotiy tamoyili o‘z hayotining mazmunini anglash va o‘z taqdirini ro‘yobga chiqarishga intilishdir. Umr ma’nosi hayotiy qadriyatlarda o‘z aksini topadi, ularni uch xil toifaga bo‘lish mumkin: ijodiy qadriyatlar, his-tuyg‘ular qadriyatlari va munosabatlar qadriyatlari. Frankl, shuningdek, insonning 3 darajasini aniqladi: biologik, psixologik va ruhiy⁴.

Zamonaviy rus psixologlaridan birinchi bo‘lib I.V.Dubrovina psixik va psixologik salomatlik tushunchalarini farqlashga harakat qildi. Psixologik xizmatning mazmun-mohiyatini tushunib, u ilmiy psixologik leksikonga yangi atama – “psixologik salomatlik”ni kiritish zarur degan xulosaga keldi. Dubrovinaning fikriga ko‘ra, agar “psixik salomatlik” atamasi, birinchi navbatda, individual psixik jarayonlar va mexanizmlarni nazarda tutsa, “Psixologik salomatlik” atamasi shaxsning butun borlig‘i, inson ruhiyatining yuksak namoyon bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Dubrovinaning “Psixologik salomatlik” konsepsiyasi shaxsning ruhiy salomatligi holatiga ta’sir qiluvchi ma’lum bir ta’lim makonida

⁴ Репина Е.В. “Структура и диагностика психологического здоровья старшеклассников и студентов” // https://vkr.pspu.ru/uploads/2008/Repina_vkr.pdf

shaxsiyatni rivojlantirish muammolarini ko'rib chiqadi. Ushbu konsepsiya ta'lim muassasining parametrlarini monitoring qilish va tuzatish orqali muammolar paydo bo'lishining psixoprofilaktikasi fikrini ilgari suradi.

Dubrovina o'z "Psixologik salomatlik" konsepsiyasida psixologik salomatlikni bir nechta darajalarga ajratadi:

1. Psixologik salomatlikning birinchi darajasi – bu darajaga psixologik yordamga muhtoj bo'lmagan, har qanday muhitga barqaror moslashgan, haqiqatga faol ijodiy munosabatda bo'lgan va stressli vaziyatlarni yengish uchun zaxiraga ega bo'lgan bolalar kiradi.

2. Ikkinchi moslashish darajasi odatda jamiyatga moslashgan, ammo diagnostik tadqiqotlar samaradorligi nuqtayi nazaridan ba'zi bir noto'g'ri moslashish belgilarini ko'rsatadigan va xavotirlanish kuchaygan nisbatan "farovon" bolalarni o'z ichiga oladi. Bu bolalarning ruhiy salomatligida mustahkamlik darajasi yetarli emas, ular profilaktika chorasi sifatida guruh rivojlanish yo'nalishidagi mashg'ulotlariga muhtoj. Bu guruh ko'pchilikni qamrab oladi, ammo nisbiy xavf darajasi yuqori bo'ladi.

3. Ruhiy salomatlikning uchinchi past darajasi, ya'ni assimilyatsion-akkomodativ turi assimilyatsiya va akkomadatsiya nomutanosibliigi bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. Xususan, o'zaro uyg'un munosabat qurishga qodir bo'lmagan yoki tashqi ta'sir omillariga chuqur bog'liqligini ko'rsatadigan, himoya mexanizmiga ega bo'lmagan, atrof-muhitning salbiy ta'siridan ajralib chiqolmaydigan bolalar kiradi. Bunday bolalarda disadaptatsiya agressiv xatti-harakatlarda, tengdoshlar bilan to'qnashuvlarda, maishiy affektiv injiqliklarda va hokazolarda faol namoyon bo'lishi mumkin. Akkomadatsiya protsesslari ustunlik qiluvchi bolalar uchun, aksincha, shaxsiy manfaatlar va ehtiyojlarga zarar yetkazadigan tashqi dunyo talablariga moslashish xarakterli hisoblanadi. Bu mo'min, "qulay" bolalar, ular mehnatsevar va tirishqoq, ota-onalarning faxri hisoblanadilar. Bunday bolalarni doimiy hissiy noqulaylik holatida ekanligini har doim ham sezmaydigan o'qituvchilar o'rnatilgan sifatida ko'rsatadilar. Bu guruhdagi bolalar alohida e'tiborga muhtoj.

Ruhiy salomatlik masalasini ko'rib chiqayotganda ikkita yondashuv borligini ko'rish

mumkin. Birinchisi – antropologik, uning vakillari (Slobodchikov, Shuvalov) psixologik salomatlikning intersub'yektiv tabiatidan kelib chiqib uni umumiy inson mohiyati bilan tanishishga yo'naltirilgan holda namoyon bo'ladigan shaxsning hayotiy faoliyati va insonparvarligining ajralmas qismi sifatida tushunadi. Ular ma'naviy va psixologik jihatlarni baholashga e'tibor berishadi, axloqning ahamiyatini ta'kidlab, shaxsning rivojlanishida shaxsiy xususiyatlar va transsendensiyaga bo'lgan ehtiyoj, ya'ni moslashuvchanlikning o'z chegarasidan tashqariga, borliqning ruhiy o'lchamiga o'tish misolida tushunishadi.

Ikkinchi yondashuv vakillari – moslashish (Xuxlayeva) psixologik faoliyat va shaxs rivojlanishining xususiyatlariga asoslangan psixologik salomatlikning ko'p komponentli modelini taklif qilib, psixologik salomatlik muammosini ko'proq instrumental tarzda ko'rib chiqadi.

Biroq ko'pchilik tadqiqotchilar psixologik salomatlikning eng muhim xususiyatlari borligini ta'kidlashmoqda. Ruhiy salomatlik murakkab, ko'p qirrali, dinamik jarayondir. Ruhiy salomatlik individualdir – bir kishining ruhiy sog'lig'iga foyda beradigan narsa boshqa shaxs uchun salbiy omil bo'lishi mumkin. Psixologik jihatdan sog'lom odamlar shaxsiy rivojlanishga intiladi, ularning hayoti mazmunli va o'z boshqaruvi ostida, ular atrofidagi odamlar bilan ma'noli va muvozanatli munosabatda bo'ladilar (Shuvalov, 2010). Psixologik salomatlik, umuman, shaxsning butunligicha va ma'naviy jihat bilan bevosita bog'liq bo'lib, ruhiy salomatlik muammosining dolzarb psixologik jihatini tavsiflaydi (Dubrovina, 2010). Bir qator zamonaviy olimlarning fikriga ko'ra, psixologik salomatlik uchun zarur shart-sharoitlar – bu to'liq shaxsiy rivojlanish, ijobiy his-tuyg'ularning salbiylardan ustunligi, ijobiy "hissiy dunyoqarash" yaratilishi, hissiy farovonlik, "ichki ruhiy tasalli" sifatida tavsiflangan shaxsning holatidir.

O.V.Xuxlayeva psixologik salomatlikning aksiologik, instrumental va ehtiyoj-motivatsion tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatadi. Aksiologik komponent insonning o'z "men" qadriyatlarini va boshqa odamlarning "men" qadriyatlarini bilan mazmunli ifodalanadi. Bu komponent o'zini o'zi to'liq bilgan holda mutlaq qabul qilishga, hamda jinsi, yoshi, madaniy xususiyatlari va boshqalardan

qat'i nazar, boshqa odamlarning qabul qilishi bilan tavsifanadi⁵.

Instrumental komponent insonning o'zini o'zi bilish vositasi sifatida refleksiya qilish xususiyatiga ega bo'lishini, o'z ongini o'ziga, ichki dunyosiga va boshqalar bilan munosabatlardagi o'rniga jamlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu insonning hissiy holatini va boshqa odamlarning holatini tushunish va tasvirlash qobiliyati, boshqalarga zarar yetkazmasdan his-tuyg'ularini erkin va ochiq namoyon qilish imkoniyati, o'zining va boshqalarning xatti-harakatlarining sabablari va oqibatlarini anglash xususiyati deb ta'kidlanadi.

Ehtiyoj-motivatsion komponent insonning o'zini o'zi rivojlantirishga ehtiyoji bor yoki yo'qligini aniqlaydi. Shu bilan bir qatorda, bu inson o'z hayotiy faoliyatining subyektiga aylanishi, uning rivojlanishiga turki bo'lib, ichki faoliyat manbayiga ega ekanligini anglatadi. U o'zining shakllanishi uchun to'liq mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi va "o'z biografiyasining muallifi" bo'ladi (V.I.Slobodchikov).

O'z navbatida, V.A.Ananiyev psixologik salomatlikning quyidagi darajalarini aniqlaydi:

1. Ijodiy daraja (yuqori): stressga chidamli, hissiy va psixologik muvozanatni saqlagan holda haqiqat bilan o'zaro ta'sir qilishning faol va samarali strategiyalari orqali ijtimoiy muhitga osongina va uyg'un tarzda moslashadigan shaxs.

2. Adaptiv daraja (o'rta): inson ijtimoiy va psixologik moslashishda qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, lekin jiddiy hissiy va psixologik stressni boshdan kechirgan holda stressli vaziyatlarni yengish uchun zaxira imkoniyatlaridan foydalanish orqali ularni bosib o'tadi.

3. Dezadaptiv daraja (past): inson atrofdagi ijtimoiy muhit bilan uyg'un munosabatda bo'lolmaydi, chunki u o'z qobiliyatlari va istaklariga zarar yetkazadi yoki murosasiz qarorlar bilan bog'liq tajovuzkor strategiyadan foydalanadi, shuning uchun u hissiy va ruhiy muammolarni boshdan kechiradi.

Vatandoshimiz R.Ismaylovaning tasnifiga ko'ra, ruhiy salomatlik – bu psixologik va ijtimoiy farovonlik holati bo'lib, unda inson o'z imkoniyatlarini anglab yetadi, hayotdagi

qiyinchiliklar va stresslarga samarali qarshi turadi, ongli faoliyat olib boradi va jamiyat rivojiga hissa qo'shadi. Xususan, bu psixikaning barqaror, yetarli darajada ishlashi, shuningdek, asosiy bilish jarayonlari: idrok, xotira, diqqat, tafakkur tufayli amalga oshiriladi.

X.Hamdamiyov va E.Do'ngboyeva fikriga ko'ra, psixologik sog'lom odam bama'ni, hamkorlik qilishga doimo ochiq, odamlarni tinglay oladigan bo'ladi. Eng muhimi, psixologik barqaror odam hayotning achchiq zarbalariga chap bera olishni ta'minlaydigan kuch, bilim, usul va vositalarga ega bo'ladi. Psixologik sog'lomlikning asosiy mezonlariga quyidagilar kiradi⁶:

1. Atrof-muhitni to'g'ri, mutanosib idrok etish (o'tmish haqidagi xotiralar, hozirgi zamonni anglash va kelajakdagi tasavvurlarning yorqinligi, o'z-o'zini anglash yordamida o'zining fikr-g'oyalari va xatti-harakatlarini tahlil qilish, o'zining kechinmalarini kuzatish va o'z-o'ziga to'g'ri baho berish).

2. Har bir harakatning anglanganligi (qarorlarni, xatti-harakatlarni yoki harakatsizlikni izohlab berish).

3. Faollik va tashabbuskorlik.

4. Ishchanlik (ish jarayonida g'ayrat-shijoatni uzoq vaqt saqlab, xotirjamlik bilan sifatli va mahsuldor ishlay olish).

5. Sobotqadamlik (o'z maqsadi, maslagidan og'ishmaslik).

6. Yaqin aloqalar o'rnata olish qobiliyati (kirishimlilik).

7. Oilaviy hayotning to'la-to'kisligi yoki shunga intilish.

8. Yaqin kishilarga nisbatan mehribonlik va mas'uliyat hissi.

9. Hayotiy rejalarni tuza olish.

10. Muttasil rivojlanishga qaratilgan hayotiy mo'ljallarning to'g'ri tanlanganligi (har qanday yoshda o'z bilimi va tajribasini oshirib borish, salbiy xususiyatlarini o'zgartira olish, kamchilik va xatolarni tuzatish, kelajakka ishonch bilan qarash, yashash sharoitlarini yaxshilash, hayotda va ishda yutuqlarga erishish, karera va h.k.).

11. Yoqimli va farosatli inson bo'lishga harakat qilish.

⁵ Хухлаева О.Е. Психологическое здоровье учащихся как цель работы школьной психологической службы // <https://psy.1sept.ru/article.php?ID=200701402>

⁶ Hamdamiyov H., Do'ngboyeva E., Shaxs psixologik xavfsizligida psixologik salomatlikning ahamiyati // <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/download/9042/6354>

12. Shaxsning yaxlitligi (insonda til va dilning bir bo'lishi, fikrlari va amallarining o'zaro mutanosibligi, hayotiy ideallarni, qadriyatlarni besabab buzmaslik).

Yuqorida sanab o'tilgan mezonlar shaxs psixologik salomatligiga ichki omillar bilan bir qatorda tashqi omillar ham ta'sir etishini ko'rsatadi. Xususan, insonning kognitiv va xulq o'zgarishlari hamda shaxslararo munosabatlari uning ruhiy sog'lom bo'lishida muhim o'rin tutadi.

Hozirgi vaqtda "ruhiy salomatlik" so'zining keng ma'nosida farovonlik sifatida qaraladi va "sog'lom-kasal", "normal-anomal", "yetuk-yetukmas" toifalarida baholanadi. Bu terminologik qarama-qarshilik ilmiy hamjamiyat "psixologik farovonlik" g'oyasini ishlab chiqishiga turtki bo'la boshladi.

Ko'pgina tadqiqotchilar "subyektiv farovonlik" atamasining ishchi ta'rifi sifatida Ed Diener tomonidan taklif qilingan Subjective well-being (SWB), ya'ni ijobiy his-tuyg'ularni sezish, yoqimsiz his-tuyg'ularni past darajada va hayotdan qoniqishning yuqori darajada boshdan kechirish ma'nosida foydalanadilar (Diener 2002). Bu yerda gap o'z-o'zini qabul qilishning kognitiv tomoni va hissiy tomoni (yomon yoki yaxshi kayfiyat mavjudligi) haqida ketadi. Natijada chet el psixologiyasida farovonlikni ushbu yondashuv doirasida tushunish uni "gedoniya" deb tushunish uchun asos beradi.

Yakuniy qism. Ma'lum bo'lishicha, psixologik sog'lom odamning asosiy xususiyati o'zini o'zi boshqarish, qulay va noqulay ekologik sharoitlarga moslashish qobiliyatidir. Inson har qanday hayotiy vaziyatga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishi juda muhimdir. Ijtimoiy va iqtisodiy muvaffaqiyatlarga tez erishish (qulay vaziyat)

ham ijtimoiy tartibsizlik, moddiy boylikning yetishmasligi (noqulay vaziyat) kabi psixologik salomatlikning sezilarli darajada buzilishiga olib kelishi mumkin. Har qanday vaziyatdan o'z-o'zini o'zgartirish, o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirish vositasi sifatida foydalana olish kerak. Shunday qilib, psixologik salomatlikning asosiy funksiyasi insonning ichki muhiti va uni o'rab turgan tashqi muhit o'rtasidagi dinamik uyg'un muvozanatni saqlash uchun shaxsiy resurslarni safarbar qilishni talab qiladigan vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Shaxsning farovon hayoti uchun psixologik salomatligi jismoniy sog'liq kabi katta ahamiyat kasb etadi. Kuchli emotsional zo'riqish va stresslar inson psixikasida o'zgarishlarga sabab bo'ladi, bu o'zgarishlar, o'z navbatida, insonning fiziologik salomatligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi va turli somatik kasalliklar sababli bo'lishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, psixologik salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar shaxsning kognitiv funksiyalarining va xulqining o'zgarishiga olib keladi. Yangi O'zbekistonda ham jismonan, ham ruham so'g'lom avlod yetishib chiqishi uchun psixologik salomatlikni muhofaza qilish kompleks vazifa sifatida ko'rib chiqilishi kerak:

1. Oilalarda sog'lom psixologik muhit yaratish, bunda oila a'zolari o'zaro hurmat va ishonchli munosabatda bo'lishlari lozim.

2. Oiladagi farzandlarning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni kamaytirish, xususan, ota-onalarni bolalarning psixologik salomatligini muhofaza qilish metodlari bilan tanishtirish ko'zda tutiladi.

3. O'quv muassasalarida va korxonalarda psixologik salomatlikni muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy psixologik profilaktika chora-tadbirlarini tatbiq etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 июндаги 472-сон қарори “Ўзбекистон Республикасида психологик хизмат кўрсатишни янада такомиллаштириш бўйича” чора-тадбирлар режаси // <https://lex.uz/>
2. Hamdamov H., Do'ngboyeva E., Shaxs psixologik xavfsizligida psixologik salomatlikning ahamiyati. – Jizzax, 2021. – B. 8-9. <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/download/9042/6354>.
3. Ibragimov X.A., O'smirlik davrining fiziologik-psixologik va jismoniy jihatdan o'ziga xos xususiyatlari. Scientific progress. – №2. 2021. – B 6. // <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlik-davrining-fiziologik-psixologik-va-jismoniy-jihatdan-o-ziga-xos-xususiyatlari>
4. Божович Л.И. “Проблемы формирования личности”. – С. 20-36. // http://elib.gnpbu.ru/text/bozhovich_problemy-formirovaniya-lichnosti_2001/fs.1/

5. ВОЗ. Комплексный план действий в области психического здоровья на 2013–2030. – С. 6-18. <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/mental-health-strengthening-our-response>
6. Дубровина И.В. Психическое и психологическое здоровье в контексте психологической культуры личности. Вестник практической психологии образование. – Москва, – №3. – С 12-37. // <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskoe-zdorovie-lichnostiv-kontekste-vozzrastnogo-razvitiya>
7. Ионина О.С. Факторы, определяющие психологическое здоровье ребенка. – Психология. – Щедринск. – С 3. <https://cyberleninka.ru/article/n/factory-opredelyayuschie-psihologicheskoe-zdorovie-rebenka>
8. Ковалев Г.А. Психическое развитие ребенка и жизненная среда. – С 14. // <http://www.voppsy.ru/issues/1993/931/931013.htm>
9. Лебедева О.В. Проблема соотношения понятий “психическое здоровье” и “психологическое здоровье” в отечественной и зарубежной психолого-педагогической литературе. // <https://cyberleninka.ru/article/n/problema-sootnosheniya-ponyatiy-psihicheskoe-zdorovie-i-psihologicheskoe-zdorovie-v-otechestvennoy-i-zarubezhnoy-psihologo>
10. Лепихина Т.Л. и Карпович Ю.В. Факторы, определяющие психологическое здоровье: корреляционный анализ. Национальные интересы: приоритеты и безопасность. – Москва 2015. – С. 4-8. // <https://cyberleninka.ru/article/n/factory-opredelyayuschie-psihologicheskoe-zdorovie-korrelyatsionnyy-analiz>
11. Мельчаев А.Е. Исследование факторов, влияющих на психологическое здоровье детей подросткового возраста. – 11 б.
12. Орлова Д.Г. Психологическое и субъективное благополучие: определение, структура, исследования (обзор современных источников). Питербург: Вестник ПГГПУ. – №1. – С. 7. // <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskoe-i-subektivnoe-blagopoluchie-opredelenie-struktura-issledovaniya-obzor-sovremennyh-istochnikov/viewer>
13. Репина Е.В. Структура и диагностика психологического здоровья старшеклассников и студентов. https://vkr.pspu.ru/uploads/2008/Repina_vkr.pdf.-12-25b
14. Самойлова В.А. Адаптация личности в современном обществе и проблема психологического здоровья детей и подростков. – Москва: Психология. – №5. – С. 8. // <https://cyberleninka.ru/article/n/adaptatsiya-lichnosti-v-sovremennom-obschestve-i-problema-psihologicheskogo-zdorovya-detey-i-podrostkov/viewer>
15. Хухлаева О.Е. Психологическое здоровье учащихся как цель работы школьной психологической службы. – Москва: Академия, 2011. – С. 7-15. // <https://psy.1sept.ru/article.php?ID=200701402>



Raimdjanov Mirkarim Tolibjon o'g'li,
Alfraganus universiteti "Pedagogika va psixologiya"
kafedrası katta o'qituvchisi
e-pochta: raimdjanovmirkarim@gmail.com



Raimdjanova Gulasal Baxtiyar qizi,
Alfraganus universiteti "Pedagogika va psixologiya"
kafedrası o'qituvchisi
e-mail: foruq25@gmail.com

TALABALARNING IJODIY FAOLIYATIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLARNING NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya. Ilmiy maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy faoliyatiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning nazariy tahlili yoritilgan. Unda, shuningdek, ijodiy tafakkurni rivojlantirishning usullari sifatida bugungi kunda ko'pgina mualliflar taklif etayotgan uslubiy yechimlarda kognitiv yondashuv ustuvorligi ko'rib qilingan. Bundan tashqari, mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini o'zi tashkil qilish, o'zini o'zi boshqarish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish masalalarida xorij va o'zbek olimlarining adabiyotlari tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: motiv, motivatsiya, ijodkorlik, tafakkur, faoliyat.

Аннотация. В научной статье представлен теоретический анализ психологических факторов, влияющих на творческую деятельность учащихся младших классов. В ней также рассматривается приоритет когнитивного подхода в методических решениях, предлагаемых сегодня многими авторами как способы развития творческого мышления. Кроме того, была проанализирована литература зарубежных и узбекских ученых по вопросам самостоятельного образования, самоорганизации собственной деятельности, самоуправления, развития новых идей.

Ключевые слова: мотив, мотивация, творчество, мышление, деятельность.

Annotation. The scientific article presents a theoretical analysis of psychological factors that influence the creative activity of primary school students. The priority of the cognitive approach in methodological solutions proposed today by many authors as ways to develop creative thinking is also considered. In addition, the literature of foreign and Uzbek scientists on issues of independent education, self-organization of one's own activities, self-government, and development of new ideas were analyzed.

Keywords: motivation, motivation, creativity, thinking, activity.

Kirish. Ma'lumki, jamiyat va tabiat ko'rtasidagi munosabatlarning tatbiq etilishiga mo'ljallangan fanlardan biri "Psixologiya" fani hisoblanadi. Psixologik bilimlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga tatbiq etish ko'lam kengayib borishi uning mas'uliyati va nufuzi ortayotganligidan dalolat beradi. Shu bois psixolog mutaxassislariga nisbatan ijtimoiy buyurtmaning ko'payishi ularni hozirgi zamon talabiga javob beradigan darajada tarbiyalashni taqozo etmoqda. Shaxs tarbiyasi va uning ijtimoiy-psixologik kamoloti har qanday davlatning bosh strategik

masalalaridan biridir. Chunki shaxsni ma'lum ezgu g'oyalar, ijtimoiy-psixologik va yuksak intellektual talablar asosida tarbiyalamay turib har jihatdan kamol topishga qodir jamiyatni qurib bo'lmaydi. Zero, bu jarayonda, eng avvalo, ta'lim-tarbiya tizimi, uning mazmun-mohiyati hamda ta'lim tizimini takomillashtirishga xizmat qiluvchi psixologik tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologlarning fikricha, bizning ijodkor shaxsga xos xususiyatlar borasidagi bilimlarimiz to'liq emasligi bilan farq qiladi. Bu jihatlarni sintez qilishga urinish holatlari ham yo'q emas. Anderson

va Teylor ijodi klassik psixologlar tomonidan tuzilgan ijodiy harakatlar uchun zarur psixologik jihatlar va qobiliyatlar ro'yxati bunga misol bo'la oladi.

Maqsad va uni asoslash. Nazariy tahlillarga ko'ra, "ijodkorlik" terminining o'zi ilk bor XVII asrda san'at sohasidagi inson faoliyatini belgilash maqsadida qo'llanilgan.

So'nggi paytlarda "ijodkorlik" tushunchasi bilan birgalikda "kreativlik" atamasi ham keng qo'llanilmoqda. Uzoq vaqtlar davomida ijod – insonga tabiat in'om etgan noyob qobiliyat, u har kimga ham berilmaydi, deb hisoblab kelingan. Aslida ijod insonning moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratish faoliyati bo'lib, unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati va irodasi faol ishtirok etadi hamda unda butun bilimi, tajribasi va iste'dodi namoyon bo'ladi¹.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida "ijod" so'zi: "ijod – yaratish, kashf etish; vujudga keltirish ma'nolarini anglatib, badiiy, ilmiy, san'atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish; yaratuvchilik faoliyati hamda yaratuvchilik faoliyati mahsuli, samarasi" ekanligi qayd etib o'tilgan².

"Ma'naviyat: asosiy tushunchalar" izohli lug'atida esa mazkur tushunchaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Ijod (*arab.*, yaratish, kashf etish, vujudga keltirish) – badiiy, ilmiy, amaliy asar yoki moddiy boylikni yaratish, vujudga keltirish. Ijod mohiyatan yaratuvchanlik faoliyati bo'lib, inson ma'naviyatining amaldagi ko'rinishini ifoda etadi"³.

Bu jarayonning keng ko'lamda amalga oshirilishi uchun esa, eng avvalo, ta'lim tarbiya bilan shug'ullanuvchi barcha xodimlarga, ayniqsa psixologlarga juda katta ma'suliyat yuklaydi. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo, shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Tabiiyki, eng avvalo, ushbu vazifani bajarishni ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning bugungi zamon talablariga javob bera

¹ Алдер Х. НЛП: современные психотехнологии. Пер. с англ. – Санкт-Петербург: Питер, 2000. – 160 с.

² Алексеев Н.Г. «Самостоятельность». – в кн. «Педагогическая энциклопедия». Т. III. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. – 880 с.

³ Алдер Х. НЛП: современные психотехнологии. Пер. с англ. – Санкт-Петербург: Питер, 2000. – 160 с.

oluvchi ijodiy izlanuvchi – psixologik holatiga jiddiy e'tiborni qaratishdan boshlashi kerak bo'ladi. Demak, ta'lim davridayoq har bir talaba shaxsida o'quv faoliyatiga bo'lgan faol-ijobiy munosabat motivlarining yetarli darajada shakllantirish bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik omillarni tadqiq qilish masalasi bugungi ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lmog'i kerak.

Shuningdek, eng avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bilan birga, bu jarayonga nisbatan bugungi talabaning munosabatlarida turli xil ijtimoiy-psixologik omillar ta'sirining ortib borayotgani, ta'lim obyekt, subyekt, o'qituvchi, talaba hamda guruhlar o'rtasidagi munosabatlar motivasiyasining o'quv jarayonida tez-tez o'zgarib borayotgani ta'lim obyektlarida o'quv faoliyati va o'quv faolligining o'zaro mutanosibligiga jiddiy e'tibor qaratishning zarurligi, o'quv faolligi doirasidagi munosabat talabaning ijodiy bilim olishiga ta'sir etuvchi, tashqi va ichki psixologik omillarda keskin o'zgarishlarning kuzatilayotganligidir. Talaba shaxsida kechayotgan o'z-o'ziga, o'zgalarga va faoliyatga bo'lgan munosabatlar iyerarxiyasining bevosita ta'lim samaradorligiga ta'sirini hisobga olish va bu ta'sir doirasida har bir o'quvchi shaxsini o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarning tobora ortib borayotgani kabi holatlar bilan belgilanadi va baholanadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Talaba shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida uning aqliy-intellektual va ijodiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu borada, ayniqsa ta'lim jarayonida talabalarning ijodiy faoliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroqdir. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at va ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. Shunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, har bir talabani ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Ijodkorlik faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Qiziqish, ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan tortib, to namoyon bo'lishigacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. Shaxsning ijodiy faoliyat ehtiyoji uning harakatlarida yangi, ilgari maqsad qilib qo'yilmagan bunyodkorlik intilishini bildiradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida talabalardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarish, ulardagi

ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish – kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, oʻtkir zehqli, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi sanaladi. Bu davlatimizning ustuvor yoʻnalishlaridan biri – har tomonlama barkamol insonni voyaga yetkazish gʻoyasiga mos keladi. Shaxsda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning muhim sharti shaxsning faoliyati hisoblanadi. Bu borada psixolog olimlarning bildirgan nazariy fikr va gʻoyalarni misol qilib keltirish mumkin. Ijodkor shaxsini shakllantirishning muhim sharti – maqsadli pedagogik boshqarishda qatnashuvchi shaxsni yuqori darajadagi obyektiv axborotlar bilan taʼminlash. Zero, obyektiv axborotgina maqsadga yoʻnaltirilgan faoliyat uchun harakatlantiruvchi vosita boʻla oladi. Demak, shaxsning imkoniyatlari qancha oshib borsa, u faoliyatni shunchalik muvaffaqiyatli darajada bajaradi. Yaʼni iqtidorli, har tomonlama shakllangan oʻquvchilarimiz osonlik bilan oʻz maqsadiga yetsa, iqtidori yetarli shakllanmagan oʻquvchilar muvaffaqiyatsizliklarga duch keladi.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirishning usullari sifatida bugungi kunda koʻpgina mualliflar taklif etayotgan uslubiy yechimlarda kognitiv yondashuv ustuvorligi seziladi. Koʻplab mualliflar ijodiy tafakkurni rivojlantirishning samarali usullari sifatida kreativlik asosini tashkil etuvchi bilish jarayonlari (ijodiy xayol, tanqidiy tafakkur va hokazo)ni faollashtirishga moʻljallangan mashq va topshiriqlardan iborat metodikalarni taklif etadilar. Masalan, Ye.P. Torrens tomonidan ijodiy tafakkurni rivojlantirish boʻyicha taklif etilgan metodikada turli buyumlarni oʻzining asl vazifasidan tashqari qanday maqsadlarda ishlatilishi mumkinligi yuzasidan fikrlashga undaydigan topshiriq beriladi⁴.

Kreativlik qobiliyatini rivojlantirish vositasi sifatida qator mualliflar turli materiallar asosida ijodiy xayolni mashq qildirishga moʻljallangan metodikalarni taklif etadilar. Ye.P. Rogovning amaliy qoʻllanmalarida taklif etilgan, jumladan, guruhiy shaklda oʻtkazilishi koʻzda tutilgan mashqlarda, masalan, trening ishtirokchilaridan biri qandaydir fantastik vaziyatli savol (masalan, “Agar odamlar bir-birining fikrini oʻqiy oladigan boʻlib qolganda, Yerdagi hayotda qanday oʻzgarishlar roʻy berar edi?” degan savol)ni oʻrtaga tashlash, guruhning qolgan aʼzolariga oʻzlarining imkon qadar rang-

barang javoblarini shakllantirish vazifasi berilishi mumkin.

Ijod psixologiyasi muammolarini oʻrganishda oʻz ilmiy maktabini yaratgan yetakchi olimlardan biri Ya.A. Ponomarev ham tafakkur kreativligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini aniqlash yoʻnalishida oʻz yondashuviga ega. Xususan, olimning tadqiqotlarida toʻqqiz katakli (3x3) shaxmat doskasining turli qismlarida joylashtirilgan ot bilan oʻyin qoidalarini buzmaganda, boshqa bir katakka qoʻyilgan piyodani olishga qaratilgan harakatlarni aniqlash mashqidan ham diagnostik, ham rivojlantiruvchi maqsadda foydalanish holatlari qayd etiladi⁵.

Talabalarda munosabat motivatsiyasining shakllanishiga xizmat qiluvchi omillarni aniqlash, tadqiq qilish va shu orqali ular bilan olib boriladigan taʼlim-tarbiya ishlarini tashkil etish, taʼlim samaradorligiga, aniqrogʻi, oʻquvchi shaxsiga va uning ijtimoiy taraqqiyotini taʼminlashga ijobiy taʼsir etadi. Chunki har bir oʻquvchi shaxsidagi oʻquv faoliyatiga nisbatan kechayotgan ichki va tashqi munosabat motivatsiyasini shakllantiruvchi jihatlarni tahlil qilish orqaligina oʻquvchi shaxsiga, uning faoliyatiga toʻgʻri baho berish mumkin, deb oʻylaymiz. Oʻquv faoliyatiga munosabat motivatsiyasining bevosita shakllanish jarayoni bilan bogʻliq ijtimoiy-psixologik omillarni oʻrganish hamda maxsus yoʻnaltirilgan metodikalar yordamida munosabat motivatsiyasi koʻrsatkichlarini aniqlash masalasi qoʻyildi. Bunday ishlarni bajarishdagi talabalarining bilish faolligi shundan iboratki, bunda talabalar muhokama qilinayotgan obyekt mohiyatiga tobora chuqur kirib boradi, zarur boʻlgan yangi va oldindan nomaʼlum boʻlgan gʻoyalarni topish hamda yangi axborotlarni yuzaga keltirish tamoyillarini hal qilish uchun zarur boʻlgan yangi aloqalar va munosabatlarni oʻrnatadi. Bunda talaba vazifalarni bajarishning har bir bosqichida oʻzi yaratishi lozim boʻlgan, uning uchun yangi boʻlgan harakatlar mohiyati, u yoki bu axborot xarakteri ustida bosh qotirishga majbur boʻladi. Ilmiy adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi turlari qayd qilinadi:

- namunalar boʻyicha mustaqil ishlar;
- rekonstruktiv;
- evristik (qisman, ijodiy);
- tadqiqiy mustaqil ishlar;
- ijodiy tadqiqot.

⁴ Ананьев Б.Г. «Психология педагогической оценки». – Ленинград: Изд-во института по изучению мозга им. В.М. Бехтерева, 1935.

⁵ Ананьев Б.Г. «Психология педагогической оценки». – Л.: Изд-во института по изучению мозга им. В.М. Бехтерева – 1935.

Yakuniy qism. Namunalarda bo'yicha mustaqil ishlar – tipik vazifalarni, turli mashqlarni namuna asosida yechishdir. Ular materialni o'zlashtirishga omil bo'ladi, lekin talabalarning ijodiy faolligini o'stirmaydi. Rekonstruktiv-variant mustaqil ishlar – nafaqat bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar tuzilmasini ham qayta ishlab chiqishni, masalan, muammoni yechishda mavjud bilimlarni jalb qilishni ko'zda tutadi. Evristik mustaqil ishlar – ma'ruza, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar, seminarlarda qo'yilgan ayrim masala va muammolarni hal qilish bilan bog'liqdir. Tadqiqiy mustaqil ishlar – tadqiqot muammosini ko'ra olish malakasini, uni mustaqil ifodalay olish, farazni belgilab olish, muammoning hal qilinish rejasini ishlab chiqish va uni hal qilishni mo'ljallaydi. Ijodiy tadqiqot ishlari – bunday ishlarda vazifa muammoli vaziyatning yuzaga kelishini taqozo qiladigan sharoit yaratishdan iborat bo'ladi. Talaba o'z faoliyatida tayyor namunalardan ozod masalaning hal qilinish yo'llarini qidiradi, tadqiq etadi. Bunday ishlar sirasiga eksperiment qo'yish, jihozlar, maketlar va loyihalash bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi. Shunday qilib, mustaqil ishlar o'qitishning eng muhim metodi bo'lib, unda talabalar mashg'ulotlarga tayyorlanish, olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash jarayonida ularning individual faolligi oshadi. Mustaqil ishlarni samarali tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- mustaqil ishlarning ilmiyligi, uning tadqiqiy xarakteri;
- mustaqil ravishda o'z bilimlarini yanada oshirib borishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi;
- mustaqil ishlar vazifalarini individuallashtirish;
- mustaqil ishlarni tashkil etishga metodik rahbarlik qilish. Bunda oliy maktabdagi o'quv jarayoni mustaqil tahsilni tashkil etilishini ham ko'zda tutadi. Talabalarning mustaqil tahsili ularning o'z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish,


mavjud malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o'zlashtirishga bo'lgan intilishi sifatida qaraladi. Mustaqil tahsilning asosiy maqsadi talabalarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini o'stirishdir. Mustaqil tahsilning vazifalari: shaxsning intellektual imkoniyatlarini yangilash, ularning g'oyaviy-nazariy saviyasini oshirish, kasbiy mahorati va madaniyatini takomillashtirish. Oliy maktabdagi o'quv jarayoni mustaqil tahsilga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi va talabalarning o'z-o'zini baholay olishini, ularning tayyorgarligini, yangi bilimlarni egallashga bo'lgan ongli munosabatini aniqlab berishi kerak.

Mustaqil tahsil bo'yicha mashg'ulotlarning izchilligini va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida uning rejasini tuziladi. Rejaga quyidagi talablar qo'yiladi:

- rejalashtirilayotgan ishlarning hajmi va oldinma-ketinligi;
- ularning bajarilish muddatlari;
- mustaqil faoliyatning har bir turiga maqsadli ko'rsatmalar berish. Mustaqil tahsil jarayoni uning aniq shakli, vositalari va usullarini qamrab olishi shart. Mustaqil tahsilning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Bu metod axborotlar oqimida eng muhim axborotni topish, unga to'g'ri baho berish, ushbu axborotdan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi. Qo'lga kiritilgan axborotlar asosida mustaqil mashq qilish metodlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu metoddan foydalanish amaliy faoliyatda zarur bo'ladigan sifat ko'rsatkichlarini ta'minlaydi. Shuningdek, bunga mustaqil tahsil va amaliy ahamiyatga molik bo'lgan vazifalarni bajarish va audiovizual uskunalardan foydalanish bilan ishlash ham kiradi. Mustaqil tahsilning muhim metodlaridan biri ularning muloqotidir. Mustaqil tahsilning pirovard maqsadi – talabalarni ijodiy izlanishga, o'zi ustida ishlash, har tomonlama tadqiqot yuritishning mohiyatini anglashga tortish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Авлоний А. «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ». – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.
2. Айзенк Г.Ю. «Проверьте свои способности». Перевод с англ. – Москва: «Мир», 1972. – 176 с.
3. Алдер Х. НЛП: современные психотехнологии. Пер с англ. – Санкт-Петербург: «Питер», 2000. – 160 с.
4. Алексеев Н.Г. «Самостоятельность» – в кн. «Педагогическая энциклопедия». Т. III. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. – 880 с.
5. Ананьев Б.Г. «Психология педагогической оценки». – Ленинград: Изд-во института по изучению мозга им. В.М. Бехтерева, 1935.
6. Ананьев Б.Г. «Психологическая структура человека как субъекта». - В сб.: Человек и общество. Вып II. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1968. – 248 с.
7. Ананьев Б.Г. «Человек как предмет познания». – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1968. – 339 с.



Иноятова Саïдахон Рухтам қизи,
 Самостоятельный соискатель Института изучения
 проблем молодежи и подготовки перспективных кадров
 при Агентстве по делам молодежи Республики Узбекистан
 e-mail: saida_0890@mail.ru

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У ЛИДЕРОВ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. При рассмотрении понятия лидерства необходимо понимать способность человека влиять на личность, группу людей, ориентируясь на достижение общих целей. Объясняя это как естественный процесс социально-психологического типа, при котором личный авторитет используется для влияния на деятельность членов группы. Лидер воздействует на коллектив, формируя поведение, вносящее изменения в систему отношений. Лидер и его поведение, привычки выделяется на фоне остальных, в следствии чего демонстрируется уверенность, готовность управлять командой, принимая ответственность за решения и исход деятельности.

Ключевые слова: лидер, способности, инициатива, эмоциональный контроль.

Annotatsiya. Yetakchilik tushunchasini ko'rib chiqayotganda insonning shaxsga, odamlar guruhiga ta'sir qilish qobiliyatini tushunishi, umumiy maqsadlarga erishishga yo'naltirilishi kerak. Bu guruh a'zolarining faoliyatiga ta'sir qilish uchun shaxsiy hokimiyatdan foydalanadigan ijtimoiy-psixologik turdagi tabiiy jarayon sifatida tushuniladi. Rahbar munosabatlarda tizimida o'zgarishlar kiritadigan xatti-harakatlarni shakllantirish orqali jamoaga ta'sir qiladi. Rahbar va uning xulq-atvori, odatlari boshqalardan ajralib turadi, natijada ishonch, jamoani boshqarishga tayyorlik, qarorlar va faoliyat natijalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

Tayanch so'zlar: yetakchi, qobiliyatlar, tashabbus, hissiy nazorat.

Annotation. When considering the concept of leadership, it is necessary to understand the ability of a person to influence a person, a group of people, focusing on achieving common goals. Explaining this as a natural process of a socio-psychological type, in which personal authority is used to influence the activities of group members. The leader influences the team, forming behavior that makes changes in the system of relations. The leader and his behavior, habits stand out from the rest, as a result of which confidence is demonstrated, readiness to manage the team, taking responsibility for decisions and the outcome of activities.

Keywords: leader, abilities, initiative, emotional control.

Введение. Сегодня Узбекистан стоит на важном демографическом рубеже. В течение следующих двух десятилетий сегодняшние дети и молодые люди станут самой большой опорой будущего Узбекистана. Ведь именно они, при правильных инвестициях в развитие молодежи сегодня, могут стать тем поколением, которое выведет Узбекистан на

новый уровень социально-экономического развития. В обратном случае, неспособность адекватно инвестировать в благосостояние сегодняшних молодых людей, может привести к большему бесправию и высокому уровню безработицы среди молодежи. Это, в свою очередь, может создать питательную среду для политического и религиозного

экстремизма и активизировать трудовую эмиграцию, что приведет к потере драгоценного «демографического дивиденда».

Основа изучения вопроса управления и лидерства, формирование и развитие лидерских компетенций привлекает интерес многих зарубежных и отечественных ученых. «Теория черт» является одной из первоначальных теорий, определяющих понятие лидерства. Л. Бернард и В. Бингэм, как основоположники данной теории, сформулировали понятие о лидерстве, где в основе лидерства заложены определенные психологические черты и качества человека, к которым они относят: стремление к ответственности, инициативность, способность влиять на поведение окружающих. Также изучению набора психологических черт, присущих лидеру, посвящены работы Е.М. Дубровской, Р.Л. Кричевского, Р.Д. Мубиновой¹.

Изучению закономерностей, разработка концепций и типологий в понятии лидерства посвящены работы многих исследователей, таких как Н. Беляцкий, О. Лихторович, Д. Максвелл, А. Наумов, Л. Уманский².

Е. Аркиным, В. Бехтеревым, Л. Войтоловским, А. Залужным, Н. Михайловским описаны определение понятия лидерства в ходе взаимодействия наставника в контексте вожаго³.

Позже этап за этапом появляются такие теории как: теория среды, личностно-ситуационная теория, гуманистические теории, теория обмена, мотивационные теории, которые оставляют свой след для исследования и формирования личностных качеств.

¹ Кови С.Р. Лидерство, основанное на принципах / Стивен Кови; пер. с англ. [П. Самсонов]. – 6-е изд. – Москва: Альпина Паблишер, 2013. – 300 с.

² Вавилкин В.Н., Ануфриенко Л.В. История изучения лидерских качеств у зарубежных и отечественных авторов [Электронный ресурс]. – // Научно-аналитический журнал «Вестник Санкт-Петербургского университета Государственной противопожарной службы МЧС России». 2015. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/istoriya-izucheniya-liderskih-kachestv-u-zarubezhnyh-i-otchestvennyh-avtorov>

³ Беспалов Д.В. Проблемы психологического исследования лидерства в малых группах [Электронный ресурс]. – // Научный журнал КубГАУ – Scientific Journal of KubSAU. 2013. № 92. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemny-psihologicheskogo-issledovaniya-liderstva-v-malyh-gruppah>

Основная часть. Большую значимость и актуальность в исследовании проявляется в теории интегрального лидерства, которая основана на концепции спиральной динамики К. Кована и Д. Бека⁴. Понятием этой теории является то, что на каждом этапе формирования организации и лидера необходим свой особенный стиль лидерства. Этот подход ориентирован на интеграцию ценностей и интересов всех контрагентов организации для достижения взаимовыгодных стратегий развития.

Также изучению набора психологических черт, присущих лидеру, посвящены работы Е.М. Дубровской, Р.Л. Кричевского, Р.Д. Мубиновой⁵.

Компетенция лидерства подробно описывается практически во всех популярных моделях компетенций, начиная с таких основополагающих, как модели Р. Бояциса, Шродера, Ланкастера и Л. и С. Спенсеров.

Одним из базовых разделений лидерства по отношению к другим схожим компетенциям как «Управление» и «Влияние» в компетентностных терминах предложено И. Адизесом.

Он выделяет четыре ипостаси управляющего: производитель результатов, администратор, предприниматель и интегратор. В каждом руководителе доминирует лишь одна из ролей, и лидерству в данном случае соответствует функция интеграции, исходя из которой рассматривается способность слушать других, формировать на основе их мнений общие взгляды, и тем самым мотивировать коллектив, введя их к единству и сплоченности.

Исследованием ситуаций как детерминанты формирования и развития лидерских качеств занимались Р. Дилтс, Ф. Карделл, А. Менегетти.

Модель Л. и С. Спенсеров актуальна тем, что в ней рассматриваются множество компетенций и их кластеров, тесно связанных с лидерством и управлением, например, «Директивность», «Воздействие и оказание

⁴ Занковский А.Н. Типология стилей организационного лидерства [Электронный ресурс]. – // Социально-экономические и психологические проблемы управления: Сб. науч. статей по материалам I (IV) Междунар. научно-практической конференции / ред. М.Г. Ковтунович. Ч. 1. – Москва: МГППУ, 2013. URL: http://psyjournals.ru/social_economical_psychological_issue/63190.shtml

⁵ Кови С.Р. Лидерство, основанное на принципах / Стивен Кови; пер. с англ. [П. Самсонов]. – 6-е изд. – Москва: Альпина Паблишер, 2013. – 300 с.

влияния» и «Инициатива». Сама компетенция «Командное лидерство» при этом располагается в кластере «Менеджерские компетенции».

Основными характерными качествами лидерства в данном случае является забота о команде и о справедливом отношении к каждому, управление групповой эффективностью, уведомленность и информированность группы на высшем уровне, передача ей собственного видения. Отличительной особенностью данного подхода от теории И. Азизеса, является то, что акцент в этом случае делается на мотивацию, а не интеграцию. Лидерство, рассматривается авторами, как забота о команде в отличии от управления людьми как ресурсами, манипуляции ими и подчинение своей воле путем принятия жестких и авторитарных методов⁶.

С точки зрения, авторской системной теории М. Хьюстона, где он рассматривает концепцию лидерства как процесс организации межличностных отношений в группе, а лидер – как субъект управления этим процессом.

С точки зрения С.Ивановой, которая рассматривает лидерство не как целостную компетенцию, а как набор из нескольких самостоятельных компетенций, включающие в себя следующее⁷:

1. Готовность взять на себя ответственность за коллектив.
2. Готовность отвечать за коллективный результат даже в случае провала.
3. Предпочтение общего результата личному.
4. Позитивное отношение к людям.
5. Обучаемость, стремление развиваться.
6. Не бояться сильных подчиненных.
7. Умение и готовность вдохновлять.
8. Умение слышать других.
9. Готовность и способность учить других.

⁶ Каменская, В. Г. Психология управления. Социально-психологические основы управленческой деятельности: учебное пособие для академического бакалавриата / В. Г. Каменская. — 2-е изд., стер. — Москва: Изд-во Юрайт, 2019 — 194 с. — (Авторский учебник).

⁷ Губанова О.А., Ануфриенко Л.В. Закономерности и взаимосвязи лидерских качеств личности в работах отечественных авторов // Научно-аналитический журнал «Вестник Санкт-Петербургского университета Государственной противопожарной службы МЧС России». 2014. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zakonornosti-i-vzaimosvyazi-liderskih-kachestv-lichnosti-v-rabotah-otchestvennyh-avtorov>

10. Эксперт или хороший управленец.
11. Умение организовать других.
12. Владение собственной точкой зрения.
13. Готовность к непопулярным решениям.
14. Стрессоустойчивость.
15. Отсутствие стремления самоутверждаться за счет других.

Исходя из своих исследований, А.В. Авдеева описывает первостепенные характеристики лидерских качеств, лежащие в основе лидерских компетенций, выделяя:

- интеллектуальные (проявляющиеся в готовности к выполнению профессиональных задач, в способности генерировать идеи и уходить от стандартных решений);
- организаторские (выражающиеся в способностях самостоятельно принимать решения, добровольно брать ответственность на себя за решение групповой задачи);
- исполнительские (включающие готовность к длительному выполнению работ с высокой эффективностью, способность находить нестандартное решение и адекватно оценивать достигнутые результаты);
- социально-коммуникативные (включающие способность вести людей за собой, умение разрешать конфликты и находить общий язык с разными людьми).

Изучением формирования и развития лидерских навыков среди молодежи занимались такие ученые, как Н.М. Борыдко, Е. Жариков, Е.М. Зайцева, Е. Крушельницкий, А.Ю. Курин, С. Кучмарски, Т. Кучмарски, В.Т. Лисовский, Н.В. Романчик, М.М. Рубинштейн, С.В. Титерский, Н.Б. Шмелева⁸.

В трактовке О.С. Виханского и А.И. Наумова лидерство рассматривается как «тип управленческого взаимодействия между лидером и последователями, основанный на наиболее эффективном для определенной ситуации в контексте различных источников власти и направленный на формирования у группы достижению общих целей».

⁸ Беспалов Д.В., Селина Е. В. Пути формирования эффективного молодежного лидерства с гуманистической направленностью // Пензенский психологический вестник. 2014. – №2. [Электронный ресурс] URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/puti-formirovaniya-effektivnogo-molodezhnogo-liderstva-s-gumanisticheskoy-napravlennoy>

Н.П. Беляцкий разработал подход к управлению и организации персонала, в котором он предлагает рассматривать структуру лидерства с точки зрения следующих элементов:

- лидер – лицо, обладающее определенными личностными чертами, способностями и возможностями, ориентированными на цель;
- последователи – лица, являющиеся носителями качеств и обладающие возможностями для реализации цели;
- задачи – то, что взаимодействующие сотрудники пытаются решить;
- ситуация – то, где происходят процессы взаимодействия;
- группа – совокупность актов межличностного взаимодействия.

Американский ученый Стивен Кови сформулировал понятие и описал основополагающие принципы и навыки эффективного лидерства, а именно:

- 1) принцип проактивности (навык выступать в роли инициатора);
- 2) принцип целенаправленности (навык выстраивать план);
- 3) принцип «самообновления» (желание лично развиваться);
- 4) принцип развития эмпатии (навык активного слушания);
- 5) принцип стремления к синергии (организационные навыки);
- 6) принцип эффективного общения (навык управления конфликтами);
- 7) принцип эффективной самоорганизации (навыки: расстановка приоритетов и тайм-менеджмент)⁹.

По разработке американского эксперта Д. Максвелла, который сформулировал 21 закон лидерства, где рассмотрел следующие уровни лидерства:

Первый уровень – «способный человек», главный компонент – результативность.

Второй уровень – «участник команды», главный компонент – исполнительность.

⁹ Занковский А.Н. Типология стилей организационного лидерства // Социально-экономические и психологические проблемы управления: Сб. науч. статей по материалам I (IV) Междунар. научно-практической конференции / ред. М.Г. Ковтунович. Ч. 1. – Москва: МГППУ, 2013. [Электронный ресурс]: http://psyjournals.ru/social_economical_psychological_issue/63190.shtml

Третий уровень – «компетентный менеджер», главный компонент – умение управлять, делегирование.

Четвертый уровень – «эффективный лидер», включающий два компонента: интуиция и мотивация.

Пятый уровень – «Лидер 5-ого уровня», включающий все вышеперечисленное и плюс еще 2 компонента: воля и скромность.

С точки зрения Н. К. Михайловского, который акцентировал внимание на взаимоотношениях лидера с его последователями, при изучении психологии идущих за ним людей, описывая данный процесс как феномен подражания, при этом формируя свою «социальную идентичность».

Социальную идентичность И.С. Кон описывал как переживание и осознание своей принадлежности к тем или иным социальным группам и общностям; идентификация предлагает разделение индивидов по их социально-классовой принадлежности, социальным статусам и усвоенным нормам, позволяет человеку оценивать свои социальные связи, принадлежности в терминах «мы» и «они»¹⁰.

Советский ученый Л.Н. Войтоловский описывал роль лидера по отношению к последователям с позиции инициатора, где стремления и желания самих групп задает конкретное направление их воли и призывает к определенному действию¹¹. В. М. Бехтерев рассматривает подходы и виды понимания лидерства, где основные характеристики, требования к которым должен соответствовать лидер, исходят из предпочтений подчиненных. А. С. Залужный делал акцент на вожатого-наставника с позиции вожака, сформулировал и описал типы вожаков, а также исследовал

¹⁰ Вавилкин В.Н., Ануфриенко Л.В. История изучения лидерских качеств у зарубежных и отечественных авторов // Научно-аналитический журнал «Вестник Санкт-Петербургского университета Государственной противопожарной службы МЧС России». 2015. №4. [Электронный ресурс]: <https://cyberleninka.ru/article/n/istoriya-izucheniya-liderskih-kachestv-u-zarubezhnyh-i-otechestvennyh-avtorov>

¹¹ Кови С. Р. Лидерство, основанное на принципах / Стивен Кови; пер. с англ. [П. Самсонов]. – 6-е изд. – Москва: Альпина Паблишер, 2013. – 300 с.

ситуативных и постоянных лидеров, организаторов, дезорганизаторов.

Сьюзан и Томас Кучмарски утверждают, что лидерство основано на ценностях, которому необходимо обучаться, приобретая, соответствующие умения и навыки в своей практической деятельности, чтобы стать лидером в определенной группе.

Важным и необходимой для нашего исследования представляется гуманистическая концепция Р. Гринфлифа¹², в результате анализа которой было выявлено, что «настоящие лидерские качества и навыки определяются и формируются исключительно в том человеке, который добровольно и бескорыстно желает содействовать другим в их личностном и профессиональном росте». В результате создания благоприятных условий личной включенности в процесс деятельности возрастает заинтересованность последователей, формируется группа единомышленников и делегирование ими полномочий. Необходимым признаком в становлении лидерства Р. Гринфлиф считает психологический климат и заботливое поведение лидера, благодаря которым гарантируются достижение самых сложных целей независимо от ситуации.

Описание основных лидерских свойств и навыков, рассматривал В.Т. Лисовский, где он сформулировал следующие критерии:

Деловитость, выражающаяся в навыках составить план, четко поставить задачи перед подчиненными, правильно оценить ситуацию и быстро принимать решения.

Наставник-мотиватор, что выражается в навыках применять различных методы и приемы стимулирования членов команды для выполнения качественной работы, заряжать коллег своей энергией и уверенностью, повышая результативность, верить в себя, информировать о допущенных ошибках, не переходя на оскорбления.

Совесть, выражающаяся в знании правил и норм поведения в обществе. Лидер обязан

¹² Казначеева С. Н., Челнокова Е. А. К вопросу о формировании лидерства // Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования. 2019. №2 (36). [Электронный ресурс]: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-formirovanii-liderstva>

показывать своим подчиненным мужество, быть честным с последователями, коллегами, руководством, не отрицать свои ошибки.

Е. Жариков и Е. Крушельницкий, авторы методики «Диагностика лидерских способностей», считают, что лидер должен обладать следующими характерологическими чертами личности:

- воля – способность преодолевать препятствия на пути к цели;
- настойчивость – умение разумно рисковать;
- терпение – готовность долго и хорошо выполнять однообразную, неинтересную работу;
- инициативность;
- независимость;
- психическая устойчивость;
- приспособляемость к новым условиям и требованиям;
- самокритичность, трезво оценивает не только свои успехи, но и неудачи;
- требовательность к себе и другим, умеет спросить отчет за порученную работу;
- критичность, способен видеть в заманчивых предложениях слабые стороны;
- надежность, держит слово, на него можно положиться;
- выносливость, может работать даже в условиях перегрузок;
- восприимчивость к новому, склонен решать нетрадиционные задачи оригинальными методами;
- стрессоустойчивость, не теряет самообладания и работоспособности в экстремальных ситуациях;
- оптимизм, относится к трудностям как к неизбежным и преодолимым помехам;
- решительность, способен самостоятельно и своевременно принимать решения, в критических ситуациях брать ответственность на себя.

Таким образом, высокий уровень сформированности коммуникативных и организаторских навыков, сильно выраженные лидерские качества такие как: активность, ответственность, психоэмоциональная устойчивость, самокритичность, доминирующая позиция, готовность к восприятию нового могут быть показателями высокого управленческого потенциала будущих руководителей.

В результате анализа научных трудов в области типологий лидерства было выявлено, что выдвижение лидера в молодежной группе происходит стихийно, по мере ее развития в деятельности. В котором действуют два фактора – объективный и субъективный. Объективный фактор – в лидеры молодежной группы выдвигается тот член, который наиболее «полезен» ее деятельности, наилучшим образом проявляет себя в повседневной

жизни неформального коллектива, то есть его эффективность в трудовом процессе высока. Субъективный фактор – лицо, выдвигаемое в лидеры, обладает такими личностными качествами и лидерскими навыками, которые необходимы для осуществления функций лидера в группе. В основном это люди наиболее активные, энергичные, волевые, решительные, любознательные и сообразительные.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Авдулова Т.П. Психология управления: учебник и практикум для академического бакалавриата / Т.П. Авдулова. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Изд-во «Юрайт», 2019. – 231 с.
2. Беспалов Д.В. Проблемы психологического исследования лидерства в малых группах // Научный журнал КубГАУ – Scientific Journal of KubSAU. 2013, – № 92. [Электронный ресурс]: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-psihologicheskogo-issledovaniya-liderstva-v-malyh-gruppah>
3. Беспалов Д.В., Селина Е.В. Пути формирования эффективного молодежного лидерства с гуманистической направленностью // Пензенский психологический вестник. – № 2, 2014. [Электронный ресурс]: <https://cyberleninka.ru/article/n/puti-formirovaniya-effektivnogo-molodezhnogo-liderstva-s-gumanisticheskoy-napravlennoy>
4. Вавилкин В.Н., Ануфриенко Л.В. История изучения лидерских качеств у зарубежных и отечественных авторов // Научно-аналитический журнал «Вестник Санкт-Петербургского университета Государственной противопожарной службы МЧС России». – №4, 2015. [Электронный ресурс]: <https://cyberleninka.ru/article/n/istoriya-izucheniya-liderskih-kachestv-u-zarubezhnyh-i-otechestvennyh-avtorov>
5. Губанова О.А., Ануфриенко Л.В. Закономерности и взаимосвязи лидерских качеств личности в работах отечественных авторов // Научно-аналитический журнал «Вестник Санкт-Петербургского университета Государственной противопожарной службы МЧС России». – № 4, 2014. [Электронный ресурс]: <https://cyberleninka.ru/article/n/zakonomernosti-i-vzaimosvyazi-liderskih-kachestv-lichnosti-v-rabotah-otechestvennyh-avtorov>
6. Занковский А.Н. Типология стилей организационного лидерства // Социально-экономические и психологические проблемы управления: Сб. науч. статей по материалам I (IV) Междунар. научно-практической конференции / ред. М.Г. Ковтунович. Ч. 1. – Москва: МГППУ, 2013. [Электронный ресурс]: http://psyjournals.ru/social_economical_psychological_issue/63190.shtml
7. Казначеева С. Н., Челнокова Е. А. К вопросу о формировании лидерств // Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования. 2019. №2 (36). [Электронный ресурс]: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-formirovanii-liderstva>
8. Каменская, В. Г. Психология управления. Социально-психологические основы управленческой деятельности: учебное пособие для академического бакалавриата / (Авторский учебник) В. Г. Каменская. – 2-е изд., стер. – Москва: Изд-во «Юрайт», 2019. – 194 с.
9. Кови С.Р. Лидерство, основанное на принципах / Стивен Кови; пер. с англ. [П. Самсонов]. – 6-е изд. – Москва: Альпина Паблишер, 2013. – 300 с.
10. Кэмпбелл Скотт 5 граней лидерства / Скотт Кэмпбелл, Эллен Самиек; пер. с англ. Натальи Яцюк. – Москва: Эксмо, 2013. – 294 с.



Mavlonov Bahodir Biloljonovich,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i,
pedagogika fanlari doktori (PhD)

OILADA O‘SMIR YOSHIDAGI BOLALARNING HUSHYORLIK VA OGOHLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR IJTIMOY- PEDAGOGIK FAOLIYAT MAZMUNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada o‘smir yoshidagi bolaning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishga doir tarbiya uslublari yoritilgan. Oilada bolalarning kamol topishi jarayonida ularda hushyorlik va ogohlik kabi muhim sifatlarni shakllantirish muayyan pedagogik-psixologik ta‘sir o‘tkazish masalalariga to‘xtalib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar: hushyorlik, ogohlik, oila, bola, o‘smir, tarbiya, ota-ona, tarbiya usullari, o‘smirlik davri.

Аннотация. В данной статье описаны методы воспитания в семье по развитию качеств настороженности и осознанности у подростков. В процессе взросления детей в семье обсуждались вопросы воспитательно-психологического воздействия на формирование у них таких важных качеств, как бдительность и осознанность.

Ключевые слова: бдительность, осознанность, семья, ребенок, подросток, образование, родители, методы воспитания, подростковый возраст.

Annotation. This article describes the methods of upbringing in the family to develop the qualities of vigilance and awareness of teenagers. In the process of children’s maturation in the family, the formation of important qualities such as vigilance and awareness in them, as well as the issues of educational and psychological influence, were discussed.

Keywords: vigilance, awareness, family, child, teenager, education, parents, methods of education, adolescence.

Kirish. Oilaning ijtimoiylashtirish instituti sifatidagi maqomini hech bir boshqa ijtimoiy guruh bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Bola ijtimoiy munosabatlar va xulq-atvor me‘yorlarini dastlab aynan oilada o‘zlashtirar ekan, avvalo, ota-ona, qolaversa, butun oila a‘zolarining farzand kamoloti, muayyan fazilatlarga ega bo‘lishida tutgan o‘rni yuksak bo‘lishi, shak-shubhasiz. Bu aksioma, shu jumladan, ogohlik va hushyorlik kabi katta hayotda nihoyatda muhim bo‘lgan xususiyatlarning shakllanishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bizningcha, bunga asosiy sabab shundaki, doimo oiladagi ijtimoiylashuvning bosh maqsadi bola xavfsizligini ta‘minlashdan iborat bo‘ladi.

Bunda oila bolani ham tashqi xavf-xatarlardan ehtiyot bo‘lishga, ham o‘ziga o‘zi ziyon yetkazib qo‘yishdan saqlanishga o‘rgatib boradi. Har ikkala holatda ham tarbiyaviy ta‘sirning muhim yo‘nalishi aynan ogohlik va hushyorlik fazilatini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Maqsad va uni asoslash. Qator ilmiy adabiyotlar tahlili asosida oiladagi tarbiya jarayoni ko‘p hollarda oiladagi tarbiya uslublariga bog‘liqligi tizimli ravishda asoslab berilgan. Shunga ko‘ra, oila a‘zolari tomonidan farzandlariga berilayotgan bilim va ko‘nikmalar, g‘amxo‘rlik va muhabbat tuyg‘ulari oiladagi tarbiya uslublarini belgilab beradi. Shuning uchun o‘smirlarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini

rivojlanishida oiladagi tarbiya uslubi hamda ota-onalarning farzandlari bilan o‘zaro muloqot usullari asosiy o‘rinni egallaydi.

Oilaviy tarbiya uslublarining 6 ta asosiy shakli mavjud: avtoritar, liberal-ruxsat beruvchi, demokratik, xaotik (tartibsiz), beparvo (gipog‘amxo‘rlik, hissiy rad etilish) va haddan tashqari himoyalovchi (giper-g‘amxo‘rlik). Ushbu uslublarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bolaning psixikasi hamda shaxsiy rivojlanishiga turli darajada va turli yo‘llar bilan ta‘sir qiladi¹.

Avtoritar tarbiya uslubi bilan ota-onalar bolaning fikrlari va harakatlarini qat‘iy boshqaradi, uning tashabbusini bostiradi, nazorat qiladi. Avtoritarizm (lot. “auctoritas” – kuch, ta‘sir) – munozaraga yo‘l qo‘ymaydigan, qarshilik ko‘rsatish u yoqda tursin, e‘tirozlarga toqat qilmaydigan hokimiyat sifatida ta‘riflanadi². Tarbiya jarayonida bu usulni tanlagan ota-onalar odatda eng kichik xatolar uchun ham jismoniy jazodan, ya‘ni majburlash, baqirish, taqiqlash, itarish, turtishdan foydalanadilar. Bolalar ota-ona mehridan, g‘amxo‘rlikidan, hamdardligidan mahrum bo‘ladi. Bunday oilalarda bolaning faqat itoatkor va ijrochi bo‘lib o‘lishi haqida qayg‘uradilar. Ammo farzandlar ishonchsiz, qo‘rqoq, asabiy, o‘zini himoya qila olmaydigan yoki aksincha, tajovuzkor, avtoritar, ziddiyatli bo‘lib ulg‘ayadilar. Bunday o‘smirlar jamiyatga, atrofdagi dunyoga yaxshi moslasha olmaydi.

Bola o‘tib-ulg‘aygan sari avtoritar ota-onalarning talablariga toqat qilolmay qoladi. O‘smirlik davrida tez-tez to‘qnashuvlar ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Oilaviy tarbiyaning avtoritar uslubi ota-ona va o‘smirlar o‘rtasida nizolarni keltirib chiqaradi, o‘smirlarda boshqalarga dushmanlik munosabati shakllanadi. Ota-onalar har doim o‘zlari bola uchun qaror qabul qiladilar, shu bilan uning tashabbusini bostirib, uni o‘z harakatlari uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishni o‘rganish imkoniyatidan mahrum qiladi. Faol va kuchli o‘smirlar qo‘zg‘olon, qarshilik ko‘rsatishni boshlaydilar, tajovuzkor bo‘lishadi, ular uydan qochishlari ham mumkin. O‘zini past baholaydigan uyatchan va ishonchsiz o‘smirlar esa aksincha, hamma narsada ota-onasiga bo‘ysunishga

¹ Стили семейного воспитания 25.11.2020 http://xnctbfec2cbbxt5b.xn--plai/novosti_i_akcii/stili_semejnogo_vospitaniya/

² Козлов Н.И. Авторитарность, авторитарный стиль. <https://www.psychologos.ru/articles/view/avtoritarnostzpt-avtoritarnyy-stil>

odatlanib qoladilar, o‘z muammolarini mustaqil ravishda hal qilishga urinmaydilar va har doim ota-onalariga tayanadilar³. Shu shaklda tarbiyalangan o‘smirlarning aksariyati o‘z fikrida aniq tura olmasligi, o‘z fikriga ega bo‘lmasligi, qaror qabul qila olmasligi sababli turli ta‘sirlarga berilish, kimlargadir ergashishi va ta‘siriga tushishi holati kuzatiladi.

Liberal-ruxsat beruvchi uslubda bola bilan muloqot ruxsat berish va past intizom tamoyiliga asoslanadi. O‘zini tasdiqlash uchun bola injiqliklardan foydalanadi, “Ber!”, “Men xohlayman!” qabilida talab qiladi, qattiq xafa bo‘ladi. Bola “Mumkin emas!”, “Imkonsiz” kabi so‘zlarini tushunmaydi, kattalarning ko‘rsatmalari va talablariga rioya qilmaydi. Bola bilan liberal-ruxsat beruvchi muloqot uslubiga ega bo‘lgan ota-onalar bolani boshqarishga qodir emasligi yoki istamasligi bilan ajralib turadi. Oilaviy tarbiyaning bu uslubi avtoritar uslubga qarama-qarshi sanaladi.

Liberal ota-onalar g‘amxo‘r, e‘tiborli va farzandlari bilan yaqin munosabatlarga ega bo‘lib, farzandiga o‘zini namoyon qilish, o‘z qobiliyatlarini ko‘rsatish, ijodiy qobiliyatlarni, individuallikni ochish imkoniyatini beradi. Ota-onalar shu tarzda ularni nima to‘g‘ri va nima “noto‘g‘ri” ekanligini farqlashni o‘rgatishlariga chin dildan ishonishadi. Liberal ota-onalar o‘z farzandlarining ruxsat etilgan, maqbul xulq-atvoriga chegara qo‘yishda qiynaladilar⁴. Natijada bola xudbin, ziddiyatli, doimo atrofidagi odamlardan norozi bo‘lib ulg‘ayadi, bu esa unga normal ijtimoiy munosabatlarga kirishish va odamlar bilan kuchli hissiy aloqalar o‘rnatish imkoniyatini bermaydi. Maktabda bunday bola bo‘ysunishga, qonun va qoidalarga rioya qilishga odatlanmaganligi sababli tez-tez janjallarga duch kelishi mumkin.

Liberal uslubda o‘sgan bolalarni tarbiyalashda asosiy muammolar ularning ko‘pincha itoatsizlik va tajovuzkorlikka moyilligi, jamoat joylarida o‘zini noo‘rin tutishlari bilan bog‘liq. Ularda dunyoning aniqligi, ya‘ni aniq chegaralari va me‘yorlari hissi shakllanmagani tufayli tashvish, asabiylashish holatlarini ko‘p boshdan kechirishi kelajakda ayrim muammolarga sabab bo‘lishi mumkin. Jumladan, hayotga moslasha olmaslik, “hamma meni sevishi va sajda qilishi kerak” degan

³ Авторитарный режим в семье. Чем это грозит? <https://russkaja-skazka.ru/avtoritarnyy-rezhim-v-seme-chem-eto-grozit/>

⁴ Либеральный стиль воспитания. <https://www.yaroditel.ru/parents/tests/upbringing.php?s=3>

bolalikdagi odati ko'pincha o'smirlikda jiddiy asabiy buzilishlarga va tushkunlikka aylanadi. O'smirlar boshqa odamlar bilan munosabatlarda haqiqiy muammolarga duch kela boshlashadi. Ruksat etilgan muhitda o'sgan o'smirning psixologik muammolar, fobiyalar va depressiyaga ko'proq moyilligi kuzatiladi. Ularda o'zini nazorat qilish ko'nikmasi shakllanmagani bois o'z-o'zini hurmat qilish hissini rivojlantirish ham qiyin kechadi. Liberal ota-onalar tomonidan tarbiyalangan farzand kelajakda hayot qiyinchiliklariga dosh bera olmaydi, ijtimoiy muloqotda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu holat ushbu o'smirlarda o'zini hurmat qilish va qadrlashning yetarli darajada shakllanmasligiga va turli g'oyalarga, ta'sirlarga berilish ehtimolini oshiradi. Shu nuqtayi nazardan oiladagi tarbiyaning mazkur usuli o'smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini shakllantirishda optimal usul emasligini ko'rsatmoqda.

Haddan tashqari himoyalovchi tarbiya uslubi yoki giper-g'amxo'rlik orqali ota-onalar o'zlari istamagan holda bolani jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishda mustaqillikdan mahrum qiladilar, ularning rivojlanishini kechiktiradilar. Ular doimo farzandining yonida bo'lib, uning muammolarini uning o'rniga hal qilishadi, farzandining o'rniga yashashadi. Bunday oilalarda farzandga haddan tashqari g'amxo'rlik qilish, sog'lig'idan qo'rqish va tashvishlanish odatiy hol sanaladi. Bunday bolalar o'smirlikda va katta bo'lganlarida ham ota-onalar unga haddan tashqari g'amxo'rlik qilishda davom etadilar, uning sog'lig'i va farovonligi uchun doimo tashvishlanadilar. Giper-g'amxo'rlikning fanda to'rt turi ajratib ko'rsatiladi: *inert, barcha so'rovlarni mutlaq qondirish, dominant, ko'rgazmali*⁵.

Giper-g'amxo'rlik bolaning tashabbusi, irodasi va erkinligini, uning energiyasi va kognitiv faolligini bostiradi, mustaqillikdan mahrum qiladi, unda kamtarlik, irodasizlik, nochorlik xislatlarini tarbiyalaydi. Haddan tashqari himoyalangan tarbiya uslubi bilan ota-onalar ongsiz ravishda bolada turli ko'nikma va qobiliyatlarning shakllanishiga, maqsadga erishishda qat'iyatlilik, mehnatsevarlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladilar⁶. Natijada bola ojiz, o'ziga ishonchsiz, nevroz, xavotirli, yig'loqi holda o'sadi. Keyinchalik u ijtimoiylashuvda, jumladan, o'smirlik paytida qiyinchiliklarga uchraydi. Bu o'smirlar itoatkor, o'zlariga, kuchli

tomonlariga hamda imkoniyatlariga ishonchsiz bo'lib o'sadilar va doimo noto'g'ri ish qilishdan, xato qilishdan qo'rqishadi. O'smirlik davridagi ba'zi bolalar ota-onalarning haddan tashqari nazorati hamda vasiyigidan qochishga intiladilar, tajovuzkorlik, o'zboshimchalik holatlarini ko'rsatadilar.

Oilaviy tarbiyaning *beparvo (hissiy rad etilish) uslubi* ota-ona tomonidan bolaning shaxsiyatiga chuqur befarqlik holatining namoyon bo'lishini ifodalaydi. Oilaviy hayotda va munosabatlarda ota-onalar bolani "sezmaydilar", uning jismoniy rivojlanishi va ichki kechinmalari bilan qiziqmagan holda farzandi bilan muloqot qilishdan faol ravishda qochish, uni o'zidan uzoqroq tutishga harakat qiladilar⁷. Bolalar o'zlari bilan o'zlari ovora bo'lishadi. Odatda ota-onalardan biri yoki ikkalasi ham spirtli ichimliklarni yoki giyohvand moddalarni iste'mol qiladigan disfunktsional oilalarda mazkur holat ko'proq kuzatiladi.

Yashirin hissiy rad etish yoki beparvolik deganda, ota-onalar tan olmagan holda farzandlarini hissiy rad etishi holati tushuniladi. Bunda ota-ona farzandiga g'amxo'rlik qilsa-da, o'smir munosabatlarda samimiylik va hissiy iliqlik yetishmasligini his qiladi. Mazkur oilalarda ota-onalarning shu kabi befarq munosabati farzandning o'zini yolg'iz va o'ta baxtsiz, ishonchsiz qilib qo'yadi. U muloqot qilish istagini yo'qotadi, odamlarga nisbatan tajovuzkorlik shakllanishi mumkin. O'smir yoshida bunday bolalarning deviant xulq-atvorni namoyon qilishi, turli salbiy ta'sirlarga berilish ehtimoli yuqori bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan oilada ota-onaning farzandlariga nisbatan beparvolik holati ularning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini shakllantirish imkoniyatini keskin kamaytiradi.

Bolaning barqaror va aniq ko'rsatmalariga ehtiyoji bor bo'ladi. Turli xil tarbiya va muloqot uslublaridan foydalanadigan ota-onalar bolani bunday barqarorlikdan mahrum qiladi, tashvishli, ishonchsiz, impulsiv, ba'zi hollarda tajovuzkor, nazoratsiz shaxsni shakllantiradilar. Ota-onalarning oldindan aytib bo'lmaydigan harakatlari va reaksiyalari bolani barqarorlik tuyg'usidan mahrum qilib, noaniqlik, impulsivlik, tashvish, tajovuzkorlik, nazoratsizlik va ijtimoiy moslashuvchanlik xususiyatlarini shakllantiradi. Shunday oilalarda tarbiya olgan farzandlarning ruhiy barqarorligi

⁵ Виды гиперопеки. <https://dec.camp/ru/giperopeka-simptomiy-prichiny-posledstviya/>

⁶ К чему приводит патологическая забота о детях. <https://dec.camp/ru/giperopeka-simptomiy-prichiny-posledstviya/>

⁷ Как вредит отчуждение родителей семье. <https://naked-science.ru/article/psy/uchenye-obyasnili-kak-roditelskoe-otchuzhdenie-vredit-seme>

yaxshi holatda bo'lmaydi, garchi ularning vaziyatga moslashish fazilati yaxshi rivojlangan bo'lsa-da, hayotiy normalar, yaxshilik va yomonlik borasidagi tasavvurlari yetarlicha qat'iy bo'lmashligi mumkin. Bu holat ularning hushyorlik va ogohlik fazilatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Demokratik tarbiya uslubida ota-onalar bolaning tashabbusini, mustaqilligini rag'batlantirishga, unga yordam berib, ehtiyojlari va talablarini inobatga olishga harakat qilishadi. Bunday oilalarda farzand ota-onasi uni yaxshi ko'rishini, xayrixohligini sezib, ular bilan o'zi uchun qiziq bo'lgan mavzularda erkin suhbatlasha oladi. Ota-onalar hatto farzandlariga oilaviy muammolarni muhokama qilishda ishtirok etishlari va qaror qabul qilishda ularning fikrini hisobga olishlari mumkin. Bu bilan ularning fikr bildirish va qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanishini e'tirof etish lozim. Shuningdek, ota-onalar, o'z navbatida, bolalardan mazmunli xulq-atvorni talab qilishadi, intizomga rioya qilishda qat'iylik va izchillikni namoyon qilishadi.

O'smir yoshdagi bolalarda ogohlik va hushyorlik fazilatlarini rivojlantirish me'zonlari:

- o'smir yoshdagi bolalarda atrof-muhitdagi narsa-hodisalardagi xavf-xatarga nisbatan sezuvchanlik;
- o'smir yoshdagi bolalarda atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni umumiy kuzatuvchanlik ko'nikmasi;
- o'smir yoshdagi bolalar atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni qiyosiy tahlil qilishi;
- o'smir yoshdagi bolalarda atrof-muhitdagi voqea-hodisalarning sababini ko'ra olish sifatining rivojlangani;
- o'smir yoshdagi bolalarda hushyorlik talab qiluvchi vaziyatni to'laqonli kuzata olish ko'nikmasi;
- o'smir yoshdagi bolalar potensial xavf-xatarni va uning oqibatlarini tasavvur qila olishi;
- o'smir yoshdagi bolalar xulq-atvorida o'zini o'zi boshqara olish;
- o'smir yoshdagi bolalar xavfli vaziyatlarda ijobiy yechim topa olishi;
- o'smir yoshdagi bolalar xavf-xatar darajasini obyektiv baholay olish.

Bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini shakllantirish hamda rivojlantirish haqida fikr yuritganda, avvalo, shuni e'tiborga olish kerakki, bunday o'ta muhim sifatlar shaxsga xos psixologik xususiyatlar hisoblanib, ular ijtimoiylashuv, shu jumladan, oiladagi tarbiyaviy ta'sir, albatta, shaxsiy namuna negizida shakllantiriladi. Eng zamonaviy

xorijiy tadqiqotlar ham bolalarni xavfli, tavakkalga asoslangan xatti-harakatlarga undovchi asosiy omillar qiziquvchanlik va tengdoshlar bosimi bo'lsa, aksincha, hushyor bo'lishga, ehtiyotkorlik bilan harakatlanishga, avvalo, oila a'zolarining maslahatlari hamda gunoh amallardan qo'rquv asos bo'lishini ko'rsatmoqda⁸. Keyinchalik katta hayotda inson tanlagan kasbiy yo'nalishida ogohlik va hushyorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi (masalan, uning kasbi ko'p sonli odamlar xavfsizligini ta'minlash, murakkab texnologik jarayonlarni boshqarish bilan bog'liq bo'lishi) mumkin. Ammo o'sha kasblarga ta'lim jarayonida tayyorgarlik ko'rishda aynan oilada bolalikdan boshlab shakllantirilgan ogohlik, sergaklik sifati asos bo'lishini hisobga olganda bu borada oilaviy muhitning ta'siridan samarali foydalanish naqadar muhimligini anglaymiz.

Albatta, oilada bolalarning kamol topishi jarayonida ularda hushyorlik va ogohlik kabi muhim sifatlarni shakllantirish jarayoni bola shaxsiga muayyan pedagogik-psixologik ta'sir o'tkazishni nazarda tutadi. Masalaning eng asosiy amaliy tomoni shundaki, bunday ta'sir natijador bo'lishi uchun uni amalga oshirishda to'g'ri yo'nalishlar tanlab olinishi kerak. Belgilangan maqsadda ta'sir yo'nalishini to'g'ri tanlash uchun esa bevosita hushyorlik va ogohlikning amaliy ifodasi, inson xatti-harakatlaridagi ko'rinishidan kelib chiqib yondashish asosli bo'ladi, deb hisoblaymiz. Maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ogohlik va hushyorlik, eng avvalo, bilish subyekti tomonidan atrof-muhitda bevosita yoki bilvosita xavf-xatar tug'dirishi mumkin bo'lgan omillarni, voqea-hodisalarni, shaxslarning harakatlarini o'z vaqtida, ya'ni ular qandaydir zarar yetkazishidan oldin ulgurib qolishida o'z amaliy ifodasini topadi⁹. Demak, bundan ma'lum bo'ladiki, ogohlik va hushyorlikning yetishmasligi odatda uch asosiy sabab tufayli ro'y beradi:

1. Ehtimol tutilgan xavf-xatarni aniqlashga yo'nalmaganlik. Bunga shaxs psixologik yo'nalishini belgilovchi tuzilmalar (qiziqish, ideallar, dunyoqarash va b.) atrof-olamdagi unga bevosita yoki bilvosita salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan narsa-hodisalarni o'z vaqtida aniqlashga intilishni hosil qiladigan darajada

⁸ Ajisuksmo C.P. Why Some Adolescents Engage in Risk-Taking Behavior// International Journal of Educational Psychology. – Barcelona. – V.10. – №2. – P.143-171.

⁹ Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2001. – 119 с.

motivlashtiruvchi quvvatga ega emasligi olib keladi. Ushbu sababning tub negizi ogoh va hushyor bo'lishning ahamiyatini to'la anglamaslik, voqelikni idrok etish va odamlar xatti-harakatlarini baholashda asossiz nekbinlikka (optimizmga) asoslangan sodda hayotiy tasavvurlardan iborat bo'ladi. Ushbu xususiyatlar sababli odam uni qurshab turgan tabiiy va ijtimoiy muhitda hushyorlik uyg'otishi kerak bo'lgan, ehtiyot choralari talab qiluvchi voqeliklar bo'lishi mumkinligini xayoliga ham keltirmaydi, ularni aniqlab olishga intilmaydi ham.

2. Ehtimol tutilgan xavf-xatarni elementar payqamaslik. Bunga bilish jarayonlari psixologiyasi nuqtayi nazaridan insonning diqqat hajmi torligi, muayyan obyektни idrok etishda uning foni, ya'ni yon-atrofidagi, unga nisbatan ikkinchi planda turgan narsa-hodisalarni sezmay qolishi sababchi qilib ko'rsatiladi. Bunday idrok jarayoniga nisbatan zamonaviy tadqiqotchilar "tunel nigoh" tushunchasini ishlatadilar. Buning ma'nosi shuki, odam xuddi tunel sharoitida faqat uzoqdagi chiqish joyiga tikilgan, yon-atrofga e'tiborsiz qoladi. Boshqacha aytganda, bunday bir obyektда jamlanib qolgan va unga yondosh sohadagi predmetlarni, voqea-hodisalarni qamrab ololmaydigan, ularga taqsimlana bilmaydigan diqqat ogohlik va hushyorlik yetarli emasligining bir sababi bo'lishi haqida xulosaga kelish mumkin.

3. Ehtimol tutilgan xavf-xatarning darajasini anglamaslik. Bu yerda asosiy masala shundaki, ehtimol, odam yetarlicha rivojlangan kuzatuvchanlik va diqqat taqsimlanishi xususiyatiga egadir va shu sifatlar evaziga tegishli bilinar-bilinmas ta'sirlarni,

narsa-hodisalardagi salbiy o'zgarishlarni payqaydi, ammo ularning jiddiylilik darajasi, xavflilik ehtimolini past baholaydi, e'tiborga olishga arziydigan holat deb bilmaydi. Bunday beg'am munosabat ortida, albatta, bir tomondan, avvallari bunaqangi vaziyat va holatlarga duchor bo'lmaganlik sababchi bo'lsa, ikkinchi tomondan, odamning o'ziga xos yengil yondashuvga moyilligi, me'yorida ortiq hissiy ko'tarinki kayfiyatga egaligi asos bo'lishi mumkin.

Yakuniy qism. Umumiy ravishda, yuqoridagi tahliliy mulohazalar hamda uslubiy mazmundagi tavsiyalar mohiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Oilada ota-ona va o'smir farzand o'rtasidagi munosabatlar tegishli shakl hamda uslubda tashkil qilinganda nafaqat umumiy tarbiyaviy vazifalarni, balki alohida olingan o'ta muhim tadbir sifatida ularda ogohlik va hushyorlik fazilatini shakllantirish jarayonini samarali ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

2. Oiladagi ijtimoiylashuv jarayonida bolalarda ogohlik va hushyorlikni shakllantirish ishida ikki asosiy yo'nalishni ajratish mumkin: xavf-xatar vaziyatiga nisbatan sezgirlikni hamda tegishli holatlarning xavflilik darajasiga munosib baho bera olish sifatini rivojlantirish.

3. Oilaviy tarbiya taktikasida o'smir farzandlarda ogohlik va hushyorlik fazilatlarini shakllantirish uchun amalga oshiriladigan pedagogik-psixologik chora-tadbirlar bolaga tegishli vaziyatni ko'ra bilish, to'g'ri baholash hamda shunday holatda mustaqil ravishda qanday xatti-harakatlarni shaxsan bajarishi mumkinligini o'rgatuvchi bo'lishi, uslubiy jihatdan aynan shunday ketma-ketlikda qo'llanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сон Фармони (2019 йил 29 апрель).
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Баркамол авлодни тарбиялашда оила институти ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг таълим муассасалари билан ўзаро ҳамкорлигини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 175-сон қарори (2012 йил 19 июнь).
3. Quronov M. Oila – uchinchi renessansning eng mustahkam ustuni. – Toshkent: “Fan”, 2021. – 176 b.
4. Ajisukmo C.P. Why Some Adolescents Engage in Risk-Taking Behavior// International Journal of Educational Psychology. – Barcelona. – V.10. – №2. – P.143-171.
5. Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2001. – 119 с.
6. Авторитарный режим в семье. Чем это грозит? <https://russkaja-skazka.ru/avtoritarnyy-rezhim-v-seme-chem-eto-grozit/>
7. Козлов Н.И. Авторитарность, авторитарный стиль. <https://www.psychologos.ru/articles/view/avtoritarnostzpt-avtoritarnyy-stil>



To'raqulov U.X.,
Qozon federal universiteti Jizzah filiali
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA AXBOROTLASHTIRISHGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ta'lim jarayonini axborotlashtirishga qo'yilgan zamonaviy talablarni ilmiy-metodik jihatdan asoslash masalasi tahlil qilinadi. Ushbu maqoladan bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish muammolari bilan shug'ullanuvchilar foydalanishi mumkin.

Tayanch so'zlar: kasbiy faoliyat, bo'lajak o'qituvchilar, axborotlashtirish, talablar, ta'lim jarayoni, ilmiy-metodik, masalani asoslash, ma'lumotlarni yig'ish, tadqiqot obyekti, ko'rsatkichlar, ta'minot, axborotlar tizimi, ma'lumotlar bazasi, axborotli ta'minot.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос научно-методического обоснования требований к информатизации образовательного процесса при подготовке будущих учителей к профессиональной деятельности. Данная статья может быть использована теми, кто занимается проблемами совершенствования подготовки будущих специалистов к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: профессиональная деятельность, будущие учителя, информатизация, требования, учебный процесс, научно-методическая основа, обоснование проблемы, сбор данных, объект исследования, показатели, обеспечение, информационная система, база данных, информационное обеспечение.

Annotation. The article discusses the issue of scientific and methodological substantiation of the requirements for the informatization of the educational process in the preparation of future teachers for professional activities. This article can be used by those who are dealing with the problems of improving the qualifications of future specialists.

Keywords: professional activity, future teachers, informatization, requirements, educational process, scientific-methodology, justification of the problem, data collection, research object, indicators, supply, information system, data base, information supply.

Kirish. Ma'lumki, "XXI asr – axborotlashtirilgan jamiyat sari asri" deb nomlanmoqda. Shu ma'noda qayd etish mumkinki, hayotimizning deyarli barcha jabhalarida ma'lumotlar, ma'lumotlar bazalari, axborotlar, axborotlar banki, axborot texnologiyalari, axborot tizimlari, ma'lumotlarni qayta ishlashning avtomatlashtirilgan tizimlari, ta'limning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari kabi tushunchalar to'liq iste'molda foydalanilmoqda.

Asosiy qism. Mazkur maqolada ham aynan bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ta'lim mazmunini axborotlashtirish jarayonini ilmiy-metodik jihatdan asoslash masalasi qaraladi.

Ushbu qo'yilgan masalani hal qilish uchun tadqiqot obyektiga oid ma'lumotlarni yig'ib, ularni axborot ko'rinishiga keltirish va bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ta'lim jarayonini axborotlashtirishga tayyorlab

qo'yish talabini keltirib chiqarmoqda¹. Bu talab bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ta'lim jarayonini axborotlashtirishni qat'iy algoritmik ketma-ketlik asosida olib borishni talab etadi.

Buni biz tadqiqotimiz davomida quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirdik:

1. Tadqiqot obyektiga oid ma'lumotlarni yig'ish. Bunda tadqiqot obyektiga oid ma'lumotlarni yig'ish va uni tadqiqot maqsad-vazifalari hamda ishchi farazini e'tiborga olgan holda mantiqiy ketma-ketliklarga ajratish masalasiga e'tibor qaratiladi. Buning uchun dastlab tadqiqot obyektining, ya'ni bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining o'ziga xos xususiyatlari muammoning qo'yilishi nuqtayi nazaridan tahliliy o'rganilib chiqiladi va keyin quyidagi ketma-ketlikdagi bosqichlarda tadqiqot ishlari olib boriladi:

- tadqiqot manbayi va unda kechadigan jarayonlar to'g'risida yig'iladigan ma'lumotlar turlarini (sonli va sifatiy ma'lumotlar) aniqlash;

- tadqiqot manbayi bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari (BTTO'ni kasbiy faoliyatga tayyorlash va unda kechadigan jarayonlar to'g'risida ma'lumotlarni qayta ishlash mezonlari ishlab chiqiladi;

- BTTO'ni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ilmiy-metodik ta'minotni takomillashtirish muommosini "Tizimiy yondashuv" tadqiqot uslubi nuqtayi nazaridan tahliliy o'rganib, uning tizimi va tizim elementlarini aniqlab, asoslab chiqiladi;

- BTTO'ni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishga oid ko'rsatkichlar aniqlanadi va ular orasidagi aloqalar baholanadi;

- qolgan asosiy ko'rsatkichlar orasidagi funksional munosabatlar o'rgatiladi;

- BTTO'ni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini modellashtirishning algoritmik tizimi ilimiy-metodik jihatdan asoslanadi;

- BTTO'ni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirishga oid ma'lumotlar bazalari shakllantiriladi;

- shakllantirilgan ma'lumotlar bazalari negizida BTTO'ni kasbiy faoliyatga tayyorlashga

¹ Тўрақулов У.Х. Бўлажак ўқитувчиларнинг интеллектуал фаолиятни ташкил этишга тайёргарлигини такомиллаштириш. пед. фан. фалс. докт. (PhD).....дисс.-Т., 2020, 187 б.

oid axborotlar tizimi va ularga mos axborotlar banki shakllantiriladi.

Ushbu bosqichning ahamiyatli tomoni shundaki, tadqiqot obyektini chuqur tahliliy o'rganish tadqiqot olib borish strategiyasini belgilab olishda va ishchi farazni asoslab olishda dastlabki funksional asos bo'la oladi.

2. Ta'minotlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish. Bunda BTTO'ni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ta'minotlar tizimini shakllantirishga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirish masalasi olinadi va quyidagicha ta'minotlarga e'tibor beriladi:

- qonuniy-huquqiy hujjatlarga oid ma'lumotlar tayyorlanadi;

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarga oid ma'lumotlar to'plami tayyorlanadi;

- axborotli ta'minotni shakllantirishga oid ma'lumotlar to'plami tayyorlanadi;

- texnik ta'minotni shakllantirish uchun alohida majmua tayyorlanadi;

- dasturiy ta'minot bo'yicha ma'lumotlar tayyorlanadi;

- tashkiliy ta'minot bo'yicha ma'lumotlar tayyorlanadi;

- uslubiy ta'minot uchun materiallar to'plami tayyorlanadi;

- ergonomik ta'minot uchun ma'lumotlar to'plami tayyorlanadi va shu kabilar.

Bu qayd etilgan ta'minotlar BTTO'sini kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotlarni takomillashtirishga muhim didaktik asos bo'ladi.

3. Ilmiy-metodik ta'minotlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish. Bunda BTTO'ni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotlar tuzilishini yaratishga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirish masalasi qaraladi va quyidagi ta'minotlarga e'tibor qaratiladi:

- o'quv-didaktik ta'minot;

- o'quv-uslubiy ta'minot;

- o'quv-axborotli ta'minot;

- o'quv-dasturiy ta'minot;

- dasturiy-metodik ta'minot va shu kabilar.

Bu ularda o'zlashtirishi lozim bo'lgan fanning ma'zmun-mohiyati va unga tegishli bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'zida aks ettirilgan bo'ladi. Bular

qatoriga quyidagilar kiradi:

- mavzular ro'yxati va rejasi;
- ma'ruza mashg'ulotlariga tegishli nazariy ma'lumotlar va ularning mavzusini o'rganish rejasi bo'yicha bloklashirilgan ko'rinishi;
- amaliy-laboratoriya mashg'ulotlariga tegishli mashg'ulotlar va bunda ta'lim oluvchidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishlarni hisobga olgan holdagi savollar ketma-ketligi;
- amaliy topshiriqlar va mashqlar tizimi;
- laboratoriya mashg'ulotlari va ularni bajarishning texnologik xaritalari hamda topshiriqlari;
- masala va mashqlar, ijodiy topshiriqlar hamda laboratoriya va kurs ishlari (loyihalari)ni bajarish bo'yicha yo'riqnoma, ko'rsatmalar va shu kabilar.

4. Tayyorlash bosqichlariga oid axborotlar bankini shakllantirish. Bunda BTTO'ni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ilmiy-metodik ta'minotni takomillashtirish bosqichlariga oid axborotlar bankini tashkil etish masalasi qaraladi va dastlab BTTO'ni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ilmiy-metodik ta'minotni takomillashtirish bosqichlarini quyidagi ketma-ketliklardagidek ilmiy-metodik jihatdan asoslab olinadi:

- tayyorgarlik bosqichi;
- shakllantirish bosqichi;
- asoslovchi bosqich;
- joriy etish bosqichi.

Bu qayd etilgan bosqichlarning har biri uchun ma'lumotlar bazasi tuzilib olinadi va tuzilgan ma'lumotlar bazalaridan axborotlar banki tashkil etiladi.

Biz tomonimizdan shakllantiriladigan axborotlar bankining **asosiy maqsadi** BTTO'ni kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid ma'lumotlarni qayta ishlab, undan BTTO'ni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ilmiy-metodik ta'minotni takomillashtirishda foydalanishdan iborat bo'lib, **uning asosiy vazifasi** esa BTTO'ni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini olib borishda axborotli ta'minot tizimidan maqsadli foydalanishni amalga oshirish va ularning samaradorligini nazorat qilishdan iboratdir.

Demak, raqamli texnologiyalar negizida BTTO'ni kasbiy faoliyatga tayyorlash ilmiy-metodik ta'minotni takomillashtirishning barcha

bosqichlarida axborotlar bankiga murojaat qilinadi va ular asosida innovatsion ta'lim texnologiyalari yaratiladi. Bular esa BTTO'ni kasbiy faoliyatga tayyorlashning optimal variantlaridan birini qo'lga kiritishni kafolatlashlariga keng imkoniyatlar yaratadi.

5. Natijalarni baholashda jarayonlarni axborotlashtirish. Bunda erishilayotgan natijalarni baholash jarayonini axborotlashtirish masalasi qaraladi. Buning uchun ta'lim oluvchidagi egallangan bilim, ko'nikmalar aniqlanadi. Bu quyidagidek ketma-ketlikda olib boriladi:

- ta'lim oluvchining olib boriladigan mashg'ulotlar davomida o'z fikrini ayta olishi. Bunga butun o'quv yili davomida e'tibor berilib, baholab boriladi;
- ta'lim oluvchining manba bo'yicha mustaqil va tahliliy fikri borligi aniqlanadi. Bu suhbat orqali yoki test-savollariga javob berish orqali baholanadi;
- ta'lim oluvchining dars mashg'ulotlaridagi faolligi, ya'ni uning ma'noli va maqsadli savol bera olishi hamda o'z fikrini erkin ifoda eta olishi. Bu mashg'ulotlar davomida va so'nggi nazoratlar davrlarida aniqlanib, baholanib boriladi;
- ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyat yuritishida o'z ijodkorligiga va tajribasiga suyana olish ko'nikmasiga egaligi aniqlanadi. Bu mashg'ulotlardagi amaliy topshiriqlar va mashqlarni bajarishni nazorat qilish orqali amalga oshiriladi;
- ta'lim oluvchining axborot madaniyati bo'yicha boshlang'ich tushunchaga ega ekanligi aniqlanadi. Bu ta'lim oluvchining axborotlashtirish vositalari bilan bemalol ishlay olishini tekshirish orqali amalga oshiriladi;
- ta'lim oluvchining ma'lumotlarni qayta ishlash ko'nikmalariga egaligi aniqlanadi. Bu ta'lim oluvchining tadqiqot obyekti haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish va ularni kerakli manbalarga uzatish masalalarini hal qilishni tekshirish orqali amalga oshiriladi;
- ta'lim oluvchining mashg'ulot davomida bajarayotgan ishlari haqida axborot bera olish qobiliyati aniqlanadi. Bu ta'lim oluvchining olib borilgan mashg'ulotlar bo'yicha beradigan mashg'ulotlarning tizimli va mantiqiy ketma-ketlikka egaligini aniqlash va baholash orqali amalga oshiriladi;
- ta'lim oluvchining ijodiy topshiriqlarga

berilgan javoblari aniqlanadi. Bu ta'lim oluvchidagi kreativ fikrlash qobiliyatlarini aniqlash va baholash orqali amalga oshiriladi va shu kabilar.

Bu qayd etilgan ketma-ketlik bo'yicha ta'lim oluvchidan so'nggi nazorat o'tkaziladi. Egallagan natijalari DTS talablari bilan taqqoslanib, pedagogik samaradorlik aniqlanadi.

Yakuniy qism. Demak, xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, bu tarkibiy qismning

ahamiyatli tomoni shundaki, bu orqali BTTO'ni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirishdagi pedagogik samaradorlikni aniqlash va baholash mezonini ishlab chiqishga didaktik va axborotli asos tayyorlanadi hamda ular asosida BTTO'ni kasbiy faoliyatga tayyorlashni raqamli ta'lim texnologiyalari negizida tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Тўракулов У.Х. Бўлажак ўқитувчиларнинг интеллектуал фаолиятни ташкил этишга тайёргарлигини такомиллаштириш. пед. фан. фалс. докт. (PhD).....дисс. – Т., 2020. – 187 б.
2. Тўракулов У.Х. Бўлажак технологик таълим ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлашнинг илмий-методик таъминотини ишлаб чиқишга тизимий ёндашув // Инновацион ёндашувлар – илм-фан тараққиёти калити сифатида: ечимлар ва истқболлар: Республика миқёсидаги илмий-техник анжумани материаллари тўплами. – Жиззах, 2020.
3. Тўракулов У.Х., Ўрозбоев С.Э. Бўлажак ўқитувчиларни тайёрлаш жараёнида Шарқ мутафаккирлари асарларидан фойдаланишни технологиялаштириш // Абай Қунонбоев ва Шарқ мутафаккирларининг педагогик карашлари: Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. – Жиззах, 2020.



Fu Lei,

*Current PhD student at National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Teacher at Inner Mongolia University of Finance and Economics, China
e-mail: betty-9560@163.com*

A STUDY ON TYPES AND CAUSES OF ONLINE WRITING ERRORS BASED ON IWRITE

Annotation. *With the continuous development of technology, online writing is widely applied. iWrite Automatic Writing Evaluation System is an intelligent English writing and evaluation system, which can analyze the writing compositions in time and provide suggestions for English teaching and learning. The paper chooses 115 writing texts by non-English major students from iWrite, analyzes the types of errors and causes leading to errors and proposes corresponding methods to improve English writing, teaching and learning from both teachers' and students' perspectives.*

Keywords: *errors, causes, online writing, teaching, learning, iWrite, Automatic Writing Evaluation System, non-English major students*

Introduction. College English writing is an important form of comprehensive language output. The purpose of college English writing teaching is to guide students to master and apply their writing skills in different genres, develop their logical and discursive abilities, and lay the foundation for their future work and study. With the continuous development of technology, English writing system has been applied in English teaching and learning.

In the past decades, scholars at home and abroad have done some research on Automated Writing Evaluation System (AWES). Pan (2019) considered that the writing level of most students is always in a state of stagnation, their writing enthusiasm and motivation is not strong. The research is to be conducted based on iWrite Automated Writing Evaluation System (iWrite AWES) and analyzes the types of errors in college students' online writing texts, causes leading to errors and proposes practical ways to improve college English writing skills are proposed in a targeted manner, which to a certain

extent makes up for the shortcomings of previous studies.

I Literature Review.

1.1 Studies on Automated Writing Evaluation System (AWES). With the development of technology, AWES has been widely used in college English writing. In the 1960s, the AWES Project Essay Grader (PEG) was initially developed. Page (2003) first collected a number of compositions scored by human raters and adopted the natural language processing technology which was not so mature at that time, extracting some text features for a correlation analysis and multiple regression analysis between these features and scoring of human raters.

Another popular AWES was IEA (Intelligent Essay Assessor) developed by the scholar Landauer, which was based on a latent semantic analysis. In addition to the fundamental automated scoring function, a large number of newly-emerged AWES, such as E-rater, MY Access, Criterion, and Writing Roadmap analyzed the compositions from the

aspects of writing content, organization, wording and sentence diversity, style, grammar, format and specification, providing multidimensional feedback for formative and summative evaluation, issued by Tang and Wu (2011)¹.

Originally, AWES was mainly used in testing to obtain scores for assessment. The change from human feedback to automated feedback also met the needs of educational testing institutions for large-scale testing. Stevenson and Phakiti (2014) supposed that AWES has been used to provide formative feedback in the writing in recent years, particularly in classrooms. Defined by Shermis and Burstein (2003) as a process of scoring (assigning a number to an essay) and evaluating (providing feedback on organization or language use) written products, an effective AWES is the product of many elements that must work in harmony.

Some scholars are also skeptical of computer feedback because the scoring criteria are ambiguous and run counter to the nature of human communication in writing. Shermis² (2004) tested the effectiveness of the AWES based on a random sampling principle. First, learners who received AWES feedback received higher scores. In addition, at the end of the experiment, the state unified examination showed no significant difference in writing ability between the two groups. Grimes and Warschauer (2010) conducted a multi-site case study of AWES. Students preferred the language feedback provided by AWES which was supplied by the organization. Moreover, some students are only concerned with the final score they receive, so they are reluctant to learn about AWES feedback to make further revisions. In fact, it is believed that automated computer feedback should only be used as a supplemental method of writing instruction, not as a substitute for the teacher's role in teaching.

In recent years, the research on AWES has been gradually carried out in China. Lu³ (2010) conducted

an empirical study on the application of the Bingo English automatic scoring system in teaching English writing in college. Studies have shown that students are very interested in using it, especially in the early grades. Wang (2011) conducted a study on how to apply the Writing Roadmap to English writing instruction. She pointed out the strengths of Writing Roadmap, such as diversity, autonomy, speed, and inspiration. However, the system does not provide students with model texts and has an impact on the speed of writing.

Researches of AWES fall into three categories: He (2013) conducted a study on the reliability of relevant system scores to examine the consistency of system scoring and artificial scoring results; Zhang et al. (2016) argue that the introduction and review of AWES abroad provides advice for the development of domestic AWES; Wang (2011), Shi⁴ (2012), Wang and Liu⁵ (2012), Hu⁶ (2015) and Yang and Dai⁷ (2015) examined the effects of domestic AWES on college students' writing skills, especially vocabulary, grammar, and syntax skills. In terms of rating reliability and validity studies, He (2013) conducted a comparative study of human-computer ratings of 30 works and concluded that "Jukuu" showed a high degree of consistency with manual ratings, but the system scored significantly higher.

Liang and Wen (2007) reviewed and commented on three representative foreign AWES (i.e., PEG, IEA, and E-rater) based on the elements of scoring essays in the field of language testing. He concludes that PEG emphasizes linguistic form, IEA emphasizes writing content, and E-rater places equal emphasis on form and content. After a brief introduction and detailed comparison of the three

¹ Tang Jinlan, Wu Yian, review of application research of online English writing automatic evaluation system. "Foreign Language Teaching and Research" Issue 2, 2011: 273-282.

² Shermis M. D. et al. The impact of automated essay scoring on high stakes writing assessments [R]. Paper presented at the Annual Meeting of the National Council on Measurement in Education, San Diego, CA., America, April 2004.

³ Lu Yanhui et al., Empirical study of intelligent writing scoring system in college English writing. "Modern Educational Technology" Issue 6, 2010: 56-58.

⁴ Shi Xiaoling, Research on the Application of Online Writing Automatic Assessment and Correction System in College English Writing Teaching - Taking Jukuu Correction Network as an example. "Modern Educational Technology" Issue 10, 2012: 67-71.

⁵ Wang Ying, Liu Zhenqian, research on the role of teacher feedback on the accuracy, fluency, complexity and overall quality of English writing. "Foreign Language Teaching" Issue 6, 2012: 49-53.

⁶ Hu Xuewen, The impact of online essay self-revision on college students' English writing results. "Foreign Language Audio-visual Teaching" Issue 3, 2015: 45-49.

⁷ Yang Xiaoqiong and Dai Yuncai, practical research on the independent writing teaching model of college English based on the correction network. "Foreign Language Audio-visual Teaching" Issue 2, 2015: 17-23.

systems, problems with the scoring systems in terms of training, manual scoring methods, and machine scoring validity were identified. The analysis of the advantages and problems in the existing foreign automated scoring systems provided referential significance for domestic research on the development and application of independent automated scoring systems for compositions and offered suggestions on the improvement of reliability and validity of AWES.

Tang and Wu (2011) also summarized the relevant studies on AWES at home and abroad and concluded that there are technical difficulties in the process of introducing educational technology, and that there is a need to transform and update concepts, methods, and behaviors according to the application of AWES. This study also confirms the importance of focusing more on the process of applying the system rather than the outcome of the system. While obtaining application results, educational technology research can also reveal key factors that may affect the effectiveness of educational technology applications, providing further research directions for the development of AWES.

1.2 Studies on iWrite Automated Writing Evaluation System

In the early 1960s, the AWES, an application software developed in the United States, used computers and the Internet to evaluate and grade written compositions and make suggestions for improvement. Incorporating the latest research in natural language processing, artificial intelligence and statistics, AWES has flourished since 1999, providing a new direction for computer-assisted instruction, put forward by He (2013). The software has gone through three stages of development. The first stage is the embryonic and initial development stage in the 1960s, the second stage is the development stage in the 1990s, and the third stage is the deepening development stage at the beginning of this century. In recent years, in the highly developed environment of big data, network and information technology, domestic experts and scholars are exploring the research of AWES. Zhang and Sheng (2015), for example, argued that the emergence and application of Jukuu (online writing website) and iWrite AWES, of which the most widely studied and used is Jukuu. Jointly developed

by Foreign Language Teaching and Research Press and National Research Center of Foreign Language Education. iWrite AWES meets the writing standards of major domestic and international exams and is designed to help students improve their writing ability. iWrite AWES was designed based on an in-depth study of the college English writing teaching process, thereby providing students with a full range of machine-intelligent assessments in four areas: language, content, discourse structure, and technical specifications.

The appearance of iWrite AWES not only frees teachers from the pressure of correcting a large number of students' essays, but also gives students more opportunities for writing practice and more timely feedback. More importantly, learners can decide when and where to practice and learn independently according to their needs, which will better utilize students' cognitive subjectivity. This human-computer interaction is conducive to improving students' independent learning ability, identifying problems in their writing, and ultimately improving their writing ability. By providing learners with correct feedback from teachers, peers or machines, an interactive communication situation is formed in which learners can identify problems and difficulties in writing in the target language and recognize gaps between their output and the target language, which helps learners correct existing language errors and reconstruct language to build writing knowledge.

1.3 Error Classification of iWrite AWES

The British linguist Corder classified linguistic errors into four categories: errors of omission, errors of addition, errors of selection and errors of order. The errors of omission is when an element that should be present is omitted; the errors of addition is when an element that should not be present is present; the errors of selection is when the wrong element is chosen; and the errors of order is when the correct element is used, but it is in the wrong order. Corder⁸ (1981) argues that these four categories of errors are superficial errors that need to be further subdivided in practical applications, such as into tense, number, tone, etc.

⁸ Corder S.P. *Error Analysis and Interlanguage*. London: Oxford University Press, 1981.

Richard⁹ (1974) classified errors into three categories: interlanguage errors, intralingual errors, and developmental errors. Interlingual errors are errors caused by interference from the learner's native language; intralingual errors are caused by the influence of the linguistic structure of the target language and by the learner's over-promotion of rules, neglect of rule restrictions, and incomplete application of rules; and developmental errors are errors caused by the learner's attempt to form hypotheses using his or her limited experience of the target language. Modern linguist Brown¹⁰ (2001) classifies errors in foreign language learning into three categories: native language interference errors (also called interlingual errors), intra-lingual errors (also called intralingual errors), and errors caused by other factors. Native interfering errors are errors caused by learners who are influenced by their native language habits and bring them into the target language for use. Intrinsic errors in the target language are errors caused by the learner's poor or incomplete knowledge of the meaning and usage of words and grammar rules of the target language. Other factors include the learning environment, communicative strategies, cultural factors, and personal factors. Chinese scholars Cai and Dai¹¹ (2001) supplemented the error classification by proposing three major errors: cognitive errors, linguistic errors, and behavioral errors. Among them, cognitive errors include transitional errors, intra-linguistic errors, interlinguistic errors, overextension errors, and transfer errors. Linguistic errors include compositional errors and discourse errors. Behavioral errors are easily neglected.

iWrite AWES is designed based on the in-depth study of college English writing teaching and can realize the intelligent machine review of four dimensions: language, content, structure, and mechanics. It can also deeply combine machine scoring and human scoring, promote feedback with machine scoring, focus on teacher-student interaction

⁹ Yang Xiaoqiong and Dai Yuncai, practical research on the independent writing teaching model of college English based on the correction network. "Foreign Language Audio-visual Teaching" Issue 2, 2015: 17-23.

¹⁰ Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press, 2002.

¹¹ Cai Longquan, Dai Weidong, integration of error classification. "Foreign Language World" Issue 4, 2001: 52-57.

in the teaching process, and comprehensively help teachers improve the teaching effect of writing and help students really improve their writing ability.

iWrite AWES scores writings in four areas: technical specifications, chapter structure, language, and content. The types of errors include spelling errors, capitalization errors, misuse of commas, misuse of prepositions, misuse of verbs, misuse of qualifiers, misuse of periods, wrong number of nouns, redundancy of qualifiers, run-on sentences, subject-verb agreement errors, missing prepositions, wrong verb tense, grammatical errors, missing qualifiers, verbs missing, preposition redundancy, pronoun missing, noun misuse, pronoun misuse, pronoun redundancy, comma redundancy, verb redundancy, adjective misuse, punctuation missing, period missing, noun possessive error, comma missing, etc. However, the above specific types of errors were not matched with the four marking dimensions, and there was a fragmentation between the overall scoring and error statistics.

II Research and Analysis

The writing task is that students complete an argumentation essay with a word limit of 120 – 180 in one week. Students can make revisions based on suggestions given by iWrite before the deadline. The study analyzes the types of errors in 115 English writing essays, divides the errors into different types and analyzes causes leading to errors to propose some suggestions on how to improve writing teaching and learning.

2.1 Distribution of Common Error Types in Writing

Based on the error classification of iWrite AWES and Corder, this study categorized the online writing errors of college students into four categories: technical errors, discourse errors, lexical errors, and grammatical errors, including spelling errors, noun counting errors, subject-verb agreement errors, redundant or missing qualifiers, verb misuse, verb tense errors, case errors, misuse of pronouns, preposition misuse, run-on sentences, grammatical errors, and other grammatical errors. A total of 115 essays of students in one class were selected as samples, and the collected sample essays were corrected for errors using quantitative statistics and text analysis. iWrite AWES was used to categorize, integrate, and count the types of errors. The specific data are listed in the following table.

Distribution of Common Error Types in Writing¹²

	Error Type	Quantity	Percentage	Total Percentage
technical errors	case errors	37	6.03%	6.03%
discourse errors	run-on sentences	30	4.89%	4.89%
lexical errors	spelling errors	94	15.31%	15.31%
grammatical errors	noun counting errors	70	11.40%	73.77%
	verb tense errors	45	7.33%	
	subject-verb agreement errors	59	9.61%	
	other grammatical errors	37	6.03%	
	redundant and missing qualifiers	71	11.56%	
	verb misuse	47	7.65%	
	verb tense errors	45	7.33%	
	misuse of pronouns	20	3.26%	
	preposition misuse	31	5.05%	
	grammatical errors	28	4.55%	

¹² Author's analysis.

2.2 Analysis of Common Errors in Writing

In order to further analyze the common errors in college students' online writing, this study selects the more typical errors in students' essays for each type of error and divide into different types.

2.2.1 Technical Errors

Word case errors are more common in students' compositions, mostly due to the formation of a certain misconception.

(1) *All in all, with the internet and modern technology's development, the power of e-books is growing more and more considerably*

(2) *To Summarize my perspective, the possibility of e-books in place of paper books is bigger than paper books in place of e-books.*

As is shown in example sentence (1), "Internet" means "network" in Chinese, in which the letter "i" needs to be capitalized. Students have a misconception of the case rule of this proper noun, thus causing the error here. In example sentence (2), the word "summarize" is not at the beginning of the sentence, so the "s" should not be capitalized.

2.2.2 Discourse Errors

Discourse errors account for a relatively small proportion of the four types of errors, mainly because the writing topic has been limited to the genre, and the specific discourse type (invitation letter, suggestion letter, cover letter, etc.) can also be judged according to the stem, plus the main points of the article content have been provided, which is easier for students to grasp. Discourse

errors specifically include run-on sentences, stylistic inconsistencies, and unreasonable structure, among which run-on sentences account for the majority, mainly manifested as lack of conjunctions, long sentences, etc.

(3) *First of all, reading e-books for a long time will do harm to our eyes. In the long run, your eyesight will become worse, when you are old, you will lose sight of things even earlier.*

(4) *Paper books are a culture that has existed for a long time, it won't be replaced by e-books.*

As shown in example sentence (3), "when" should be modified to "When", and then change the preceding comma to a period. Commas do not have the function of connecting sentences and can be modified to break sentences with periods, connect sentences with semicolons, or add conjunctions as appropriate. In example sentence (4), it is recommended to insert the conjunction "and" before the word "it".

2.2.3 Lexical Errors

Lexical errors are also common in students' writing, and as the focus of English writing is also a difficult point, vocabulary needs to be paid enough attention. Lexical errors include word misspellings and misuse, absence, or redundancy of words. Word spelling errors are more common in students' English writing, mostly due to students forming some kind of wrong concept and lacking mastery of words.

(5) *More importantly, when we read e-books, we are always disturbed by informations and ads, which are not good for our studies.*

(6) *First of all, with the development of science and technology, a crowd of people are accustomed to use e-books to download and read books.*

As shown in example sentence (5), students do not have a deep understanding of the rules for countable and uncountable nouns in English, as well as some nouns singular and plural homomorphs, resulting in the miswriting of “information” as “informations”. For example, in example sentence (6), students mistakenly understand the English concept of “double writing rule (i.e., the last syllable is a consonant letter that double-writes the end of the word when stressing a closed syllable)”, thinking that “custom” needs to be double-written to become an adjective and then add “ed”, so “accustomed” is mistakenly written as “accustommed”.

2.2.4 Grammatical Errors

The main grammatical errors include verb tense errors, noun number errors, subject-verb agreement errors, missing or redundant qualifiers, and other grammatical errors. The most common of them is the missing or redundant qualifiers.

(7) E-books make it possible to gain knowledge everywhere at any time through a information equipment.

(8) With the society developing rapidly, the lifestyle of human beings is changing by intelligent technologies, so do the topic we talk about followed.

(9) Reading paper books can give us a kind of special feelings, which is couldn't provided by reading e-books.

As shown in the example sentences (7) and (8), students know that they need to use qualifiers such as “a” or “the” to modify nouns in their writing, and in the case of prepositions plus nouns, there is no need to add a qualifier before the noun. However, students often ignore or forget this rule in their writing, and thus the phenomenon of qualifier redundancy often occurs. Secondly, the number of nouns in the collected students' compositions is also relatively common. As shown in example sentence (9), what students want to express in this sentence is that reading paper books can give people a special feeling, but “feeling” is an uncountable noun and there is no plural form, so “feelings” should be replaced by “feeling”.

III Suggestions on Improving College Student's English Writing Ability

Errors are an essential part of the foreign language acquisition process for learners. In the students' online writing texts, technical specification errors, discourse errors, vocabulary errors, and grammatical errors are classified, and the reasons to the various types of errors are mainly due to the students' own incompetence and the teachers' lack of teaching process. Based on analysis, the research proposes the following suggestions to improve the accuracy and effectiveness of writing teaching instruction.

3.1 From the Teachers' Perspective

3.1.1 Adding instruction of Language and Thinking

Students often use Chinese thinking to create English. When writing in English, students first think of Chinese expressions and then transform them into English. In the process of transformation, Chinese thinking keeps influencing and interfering with English writing. English is very different from Chinese in terms of sentence expressions. In the process of teaching the language, teachers put English teaching into a specific cultural environment context, so that students can experience the differences between the two languages and thinking, which enables them to understand and master the foreign language faster. Therefore, it is important to increase the contrast between Chinese and English language and thinking in the teaching process to deepen students' understanding of the differences between the two languages and gradually help them form English thinking.

3.1.2 Increasing the Training of Online English Writing Skills and Methods

Online writing is a new way of English writing that has emerged in college English teaching in recent years. Both teachers and students have relatively little exposure to it, and there is relatively little research on online English writing for college students. As a result, some errors are easily neglected when writing online. In addition, some students are not highly motivated to write, and they are careless in writing, and they just want to finish their homework without paying attention to the quality of their compositions. In daily teaching, teachers should increase the training of online

English writing skills and methods and explain the importance of writing so that students can pay attention to it psychologically and avoid unnecessary mistakes. Teachers can increase input training and ask students to pay attention to some small errors, such as punctuation, spaces, and word case.

3.2 From the Students' Perspective

3.2.1 Reading more materials

Chinese students learn textbook knowledge mainly by doing exercises, listening to lectures and reciting, and do not read much in English. Students know many grammar rules when writing, but they still make mistakes. This is ultimately because they do not read enough in general, do not develop an absolute sense of language, and are not skilled in using the rules of the language. Reading is an important part of language learning. Only through extensive reading can a sense of language be developed. Sense of language is acquired by learners through long-term language perception and use and is an intuitive ability to understand language. A lot of reading helps students learn vocabulary and grammar in context and use them accurately. In addition to learning textbooks, students should also read a lot of English originals. After a long period of persistence and accumulation, students' writing ability and level will be greatly improved with a large amount of input from the original English text.

3.2.2 Increasing language practice

Words and sentences are the basic units that make up an essay. Without rich knowledge of vocabulary and the ability to compose sentences, writing becomes more difficult. Therefore, students should focus on words and sentences in the text and analyze the usage of words and compound sentences as the supplement and use some effective methods to overcome vocabulary difficulties step by step. Pay attention to the conditions of use and usage of each meaning of English words, collocation relationships, singular and plural nouns, and the difference between synonyms and near-synonyms; mime important phrases and sentence patterns, which can be better mastered by using sentence-making; train in sentence conversion and try to use multiple sentence patterns to express the same meaning.

There are various forms of English composition, such as letters, narrative essays, argumentative essays, etc. It would be a big mistake to blindly write

all compositions in one form. The various English writing templates are also of great importance, and college students have acquired many templates during their middle-school learning. If students just copy the templates, they will never improve your English writing ability and level. Students can practice writing of different genres with different templates and be skillful in writing.

Conclusion. iWrite AWES not only provides stable and reliable scores, but also can effectively assist in teaching college English writing and make up for some shortcomings in college English writing instruction. However, iWrite AWES still needs further supplementation from teachers in terms of text structure, content logic and language expression. Therefore, the combination of teachers' feedback and iWrite AWES can play a complementary role and thus receive better results. The detailed classification of writing errors provided by iWrite AWES is based on five major error categories and three error correction methods. It does provide students with comprehensive and detailed feedback about their English writing errors. In particular, iWrite AWES provides more effective feedback on punctuation and spelling than that provided by teachers.

Though corresponding findings have been obtained by analyzing the types of errors in college students' online writing, some limitations in this study still exist. There are not enough samples from different levels. The duration of this study is limited. To facilitate future research on more effective models of college English writing teaching, some suggestions are provided. First, researchers should expand the volume and diversity of the samples. The study could include more texts from English majors and non-English majors or students of different writing levels in terms of the number and frequency of different error types that occur. Moreover, writing assignments should include a variety of stylistic genres, such as narration, description, and expository, to enrich research findings so that the types of errors that occur in different stylistic genres and their frequency of occurrence can be studied in a broader context.

LIST OF USED LITERATURE

1. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press, 2002.
2. Corder S.P. Error Analysis and Interlanguage. London: Oxford University Press, 1981.
3. Page E.B. and Peterson N.S. The Computer Moves into Essay Scoring: Updating the Ancient Text. *Phi Delta Kappan* 76(7). 1995:561-565.
4. Grimes D. and Warschauer M. Utility in a fallible tool: a multi-site case study of automated writing evaluation. *Journal of Technology, Learning, and Assessment* 8(6). 2010: 1-42.
5. Page E.B. Automated essay scoring: a cross-disciplinary perspective. In M. D. Shermis and J. C. Burstein, eds. *Project essay grade: PEG*. Mahwah, New Jersey: Lawrence Erlbaum, 2003.
6. Richards J. C. A non-contrastive approach to error analysis. *ELT Journal* 3. 1971: 204-219.
7. Shermis M. D. et al. The impact of automated essay scoring on high stakes writing assessments [R]. Paper presented at the Annual Meeting of the National Council on Measurement in Education, San Diego, CA., America, April 2004.
8. Shermis M. D. and J Burstein. Automated essay scoring: A cross-disciplinary perspective. In: M D. Shermis and J Burstein, eds. Mahwah, N J: Lawrence Erlbaum, 2003: xiii-xvi.
9. T. K. Landauer. et al. The Intelligent Essay Assessor. In Hearst K eds. *The Debate on Automated Essay Scoring IEEE Intelligent Systems*, September. the United States 2000:22-37.
10. Cai Longquan, Dai Weidong, integration of error classification. "Foreign Language World" Issue 4, 2001: 52-57.
11. He Xuliang, a study on the reliability and validity of English composition scoring on Jukuubi.com. "Modern Educational Technology" Issue 5, 2013: 64-67.
12. He Zhouchun, Gong Yanzhi, application case study based on iWrite English writing teaching and review system 2.0. "Journal of Chengdu Aviation Vocational and Technical College" Issue 3, 2017: 29-32.
13. Hu Xuewen, The impact of online essay self-revision on college students' English writing results. "Foreign Language Audio-visual Teaching" Issue 3, 2015: 45-49.
14. Liang Maocheng, Wen Qiufang, review and inspiration of foreign automatic composition scoring systems. "Foreign Language Audio-visual Teaching" Issue 5, 2007: 18-24.
15. Lu Yanhui et al., Empirical study of intelligent writing scoring system in college English writing. "Modern Educational Technology" Issue 6, 2010: 56-58.
16. Pan Shuifan, Construction of College Students' English Writing Thinking Ability in the Big Data Environment. "Examination and Evaluation" Issue 5, 2019: 155-165.
17. Shi Xiaoling, Research on the Application of Online Writing Automatic Assessment and Correction System in College English Writing Teaching - Taking Jukuu Correction Network as an example. "Modern Educational Technology" Issue 10, 2012: 67-71.
18. Tang Jinlan, Wu Yian, review of application research of online English writing automatic evaluation system. "Foreign Language Teaching and Research" Issue 2, 2011: 273-282.
19. Wang Rui, research on improving English writing lexical ability based on iWrite. "Modern Communication" Issue 11, 2020: 43-44.
20. Wang Ying, Liu Zhenqian, research on the role of teacher feedback on the accuracy, fluency, complexity and overall quality of English writing. "Foreign Language Teaching" Issue 6, 2012: 49-53.
21. Yang Xiaoqiong and Dai Yuncai, practical research on the independent writing teaching model of college English based on the correction network. "Foreign Language Audio-visual Teaching" Issue 2, 2015: 17-23.
22. Zhang Li, Sheng Yue, case study on feedback effect of automatic essay review system. "Foreign Language Audio-visual Teaching" Issue 3, 2015: 38-44.
23. Zhang Li et al., Review and prospects of research on automatic writing review feedback system. "Contemporary Foreign Language Studies" Issue 6, 2016: 54-61+109.



Zufarova Yulduzxon Muxiddin qizi,

Toshkent shahar Shayxontohur tumani 102-sonli maktab psixologi

e-mail: yulduzkhon1990@mail.ru

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA EMPATIYANING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik maktab yosh davri va yoshga doir psixologik xususiyatlar, kichik maktab yoshi shaxslararo munosabatlarida empatiyani shakllantirish va shaxslararo munosabatlarga empatiyaning ta'siri yoritilgan. Chet el psixologlarining kichik maktab yosh davri xususiyatlariga oid ilmiy qarashlari, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda empatiyaning rivojlanishidagi eng muhim bosqichlari, vazifalari yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: shaxs, kichik maktab yoshi, empatiya, emotsiya, hamdardlik, ijtimoiy empatiya, muloqot, bag'rikenglik, simpatiya, ta'lim-tarbiya, altruizm, ijtimoiy bog'langanlik.

Аннотация. В данной статье описывается период младшего школьного возраста и возрастные психологические особенности, формирование эмпатии в межличностных отношениях младшего школьного возраста, а также влияние эмпатии на межличностные отношения. Освещены научные взгляды зарубежных психологов на особенности младшего школьного возраста, важнейшие этапы и задачи развития эмпатии у учащихся младшего школьного возраста.

Ключевые слова: личность, младший школьный возраст, эмпатия, эмоция, сочувствие, социальная эмпатия, общение, толерантность, сочувствие, воспитание, альтруизм, социальная связанность.

Annotation. This article describes the period of elementary school age and age-related psychological characteristics, the formation of empathy in interpersonal relationships of elementary school age, and the influence of empathy on interpersonal relationships. The scientific views of foreign psychologists on the features of the junior school age period, the most important stages and tasks in the development of empathy among students of junior school age are highlighted.

Keywords: personality, primary school age, empathy, emotion, sympathy, social empathy, communication, tolerance, sympathy, education, altruism, social connectedness.

Kirish. Ma'lumki, shaxs kamolga yetib borar ekan, unga atrofdagi tashqi muhit, shaxslararo munosabatlar, ta'lim muassasalarda tahsil olayotgan hamda oilaviy muhit tizimli ravishda ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, kichik maktab o'quvchilarda shaxslararo munosabatlar to'g'ri yo'lga qo'yilishi ularni har tomonlama kamolga yetishiga olib keladi. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlari negizida yuzaga keladigan empatiyaning o'rnini baholash muhim ahamiyatga ega. Bu esa, o'z navbatida, kichik maktab yoshidagi

o'quvchilarning shaxslararo munosabatiga empatiyaning ta'sirini o'rganish muammoning dolzarbligini belgilab beradi.

Ta'kidlash joizki, jamiyat hayotida ta'lim-tarbiya borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh negizi yosh barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat.

Bu borada Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari muhim sanaladi. "Biz ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugun zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali

vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikriga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib, izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi uning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq".¹

Maqsad va uni asoslash. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning rivojlanishidagi eng muhim vazifalardan biri bu tengdoshlar guruhi bilan ijtimoiy o'zaro ta'sir ko'nikmalarini egallash va do'stlarni orttira olish hisoblanadi. Yangi ijtimoiy vaziyat va yangi xulq-atvor qoidalari shunga olib keladiki, o'qishning birinchi yilida bolalarning konformlik darajasi ortadi.

Bu esa yangi guruhga kirishning qonuniyatli natijasi hisoblanadi. Tengdoshlar bilan muloqot qilish mazkur yoshda muhim rol o'ynaydi. U nafaqat o'z-o'ziga bo'lgan adekvat bahoni beradi, balki bolalarga yangi sharoitlarga ijtimoiylashuviga yordam beradi hamda ularning o'qishini rag'batlantiradi. 1-sinf o'quvchilarining o'zaro munosabatlari o'qituvchining o'qish jarayonini tashkil etish bilan belgilanadi. U sinfdagi statuslarning va shaxslararo munosabatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Sotsiometrik so'rovlarni o'tkazish natijasida shuni ko'rishimiz mumkinki, ma'qul ko'ringanlar orasida ko'pchilik yaxshi o'qiydiganlar o'qituvchi tomonidan maqtanadiganlar va boshqalardan ajratilib ko'rsatiladiganlar bo'lar ekan.

Odatda bolalar simpatiyalarga ko'ra, qandaydir qiziqishlarning umumiylikiga qarab muloqot qila boshlaydilar. Shuningdek, ular yashaydigan turarjoy manzili va jins belgilari ham sezilarli ahamiyatga ega. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'zaro munosabatlaridagi o'ziga xos xususiyat shuki, ularning do'stligi odatda tashqi hayotiy shart-sharoitlarga va tasodifiy qiziqishlarning umumiylikiga asoslanadi: masalan, ular bir partada o'tirishadi, yonma-yon yashashadi, o'qish yoki yozishga qiziqishadi. Kichik maktab yoshidagi

o'quvchilarning ongi shaxsning biron-bir alohida xislatiga ko'ra do'stlarni tanlay olish darajasiga yetmagan bo'ladi. Biroq, umuman olganda, 3-4-sinf bolalari shaxsning, xarakterning u yoki bu xususiyatlarini chuqurroq anglay boshlaydilar. 3-sinfning o'zidayoq bir zarurat bo'lib qolganida, o'quvchilarning 75% yaqini o'z tanlovini boshqa bolalardagi ma'lum bir axloqiy xislatlari bilan motivlashadi.

Sotsiometrik tadqiqotlarning materiallari shuni tasdiqlaydiki, "Sen kim bilan bir partada o'tirishni istarding?", "Tug'ilgan kuningga kimlarni taklif qilishni xoxlaysan va nima uchun aynan uni?" degan savollarga quyidagi javoblar bo'lgan: 1-sinf o'quvchilarining 85% i hamda 2-sinf o'quvchilarining 70% i o'z tanlovlarini tengdoshlarining o'qishidagi muvaffaqiyatlari yoki muvaffaqiyatsizliklari bilan motivlashgan. Bunda agar yomon o'qiydigan o'quvchi tanlagan bo'lsa, u holda yordam taklif qilingan. Ko'p hollarda o'quvchilar o'z baholarida o'qituvchiga tayanishgan. Aynan kichik maktab yoshida do'stlikning ijtimoiy-psixologik fenomeni yuzaga keladi. Bu do'stlik o'zaro bog'lanib qolish, simpatiya tuyg'usi va bir-birini shundayligicha qabul qilishga asoslanadi.

Bu yoshda do'stlikning guruhviy do'stlik turi keng tarqalgan. Do'stlik ko'pgina funksiyalarini bajaradi: ulardan eng muhimlari bu o'zini o'zi anglashning rivojlanishi hamda tegishlilik tuyg'usining shakllanishi, o'ziga o'xshaganlar bilan muloqot qilishida emotsional tortilish darajasiga ko'ra, muloqot do'stona va o'rtoqlik shaklida bo'lishi mumkin.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Zamonaviy psixologiyada bola emotsional faolligining barcha ko'rinishlari aynan hamdarlik, qo'llab-quvvatlash, ichki birdamlik, empatiyaning yagona muammosi ichida ko'rib chiqiladi.

Empatiyada inson tomonidan boshqa insonning kechinmalari dunyosini tushunishi yoki boshqa insonning emotsional hayotida ishtirok etish qobiliyati deb izoh berish qabul qilingan. Odatda empatiya obyekt sifatida boshqa odam ko'riladi, ammo bir qator tadqiqotlarda empatiya obyekt sifatida kuzatuvchi tomonidan antropomorfologik qabul qilingan neytral buyum, tabiat yoki san'at obrazi ko'riladi. Empatiya tushunchasini refleksiv (anglanadigan) tushunish jarayonlari qatoriga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.07.2021 yildagi PF-6260-son

ham, hissiy anglash jarayonlariga ham kiritishadi, baʼzida empatiyada ikkalasining ham belgilarini kuzatishadi.

Empatiyaning ilmiy tushunchasi psixologiyaga hozirgi asrning boshida kirib keldi, lekin bu savolning tarixi ancha oldin boshlangan. Bu hodisaning rivojlanishi, birinchi navbatda, simpatiya tushunchasiga borib taqaladi. Bu atama bizgacha qadimgi yunonlar tomonidan kiritilgan boʻlib, u odamlar bir-biriga hamdard boʻlishining mazmunini belgilash uchun kerak boʻlgan.

Keyinchalik bu konsepsiya simpatiyada adolat va altruizmning asosini koʻra olgan A.Smit va simpatiyani insonlarga hamdardlik qila olish qobiliyati va odam ruhiy rivojlanishi bilan birga oʻsib boradigan hodisa sifatida koʻrgan G.Spenser tomonidan takomillashtirilgan.

Simpatiya nazariyasining tarafdorlari empatiyani tugʻma xususiyat deb hisoblashgan. U.Mak-daugl simpatiyaning instinktiv kelib chiqish nazariyasini olgʻa surgan boʻlsa, T.Ribo esa uni ham odamga, ham jonivorga xos psixofiziologik xususiyat deb taxmin qilgan.

Simpatiya birlamchi tuygʻu hisoblangan boʻlib, uning asosida ijtimoiy va axloqiy tuygʻular shakllanadi. Shu oʻrinda uni oʻzining tuygʻularni boshqalarning emotsional holatlari bilan moslashtirish, odamlarning ruhiy birdamligi sifatida, ular oʻrtasidagi haqiqiy munosabatlar koʻrinishi sifatida qaralgan. Simpatiya tushunchasi vaqt oʻtishi bilan birlamchi maʼnosini yoʻqotgan. Uning oʻrniga “empatiya” tushunchasi kelgan.

Empatiya haqidagi bilimlarning rivojlanishining ikkinchi yoʻnalishi T.Lipps tomonidan ishlab chiqilgan his qilish nazariyasi sifatida koʻriladi. His qilish – bu sanʼant asarini tushunish jarayoni, keyinchalik esa odamning oʻzini tushunish jarayonidir.

T. Lipps boʻyicha his qilish – bu predmet yoki obyekt mohiyatini anglashning oʻziga xos turidir. Individ oʻzini va oʻzining kechinmalarini predmet va obyekt mazmuni orqali oʻz meniga proyeksiyalab anglaydi.

His qilish bu xuddi qabul qilingan predmetni oʻzlashtirish: qabul qilish jarayonida proyeksiya orqali individ oʻzi va predmet orasida birdamlikni tubiga yetadi, natijada predmet “oʻz-oʻzidan yuzaga keladi”, yoki “shu kabi jarayon tufayli oʻzini oʻzi chaqiradi”.

Shu oʻrinda muallif simpatiya tabiatini beixtiyor-immitatsion sifatida koʻrib chiqqan. Keyinchalik ushbu nazariyaga asoslanib, sanʼat psixologiyasida S.Markus oʻrgangan. U empatiyani estetik zavqlanish obyektini tushunish, ushbu obyektini his qilish, tasviriy obrazga kirib borish usuli sifatida qabul qilgan.

Bu nazariyalarni birlashtirgan holda, 1909-yili E.Titchener ilmiy psixologiyaga empatiya tushunchasini kiritgan. Shu bilan birga, bu tushuncha ilmiy psixologiyaga T.Lipps tomonidan kiritilgan degan nuqtayi nazarlar ham mavjud.

Zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan empatiya emotsional hodisa sifatida, tushunish jarayoni sifatida, boshqalarning xayollari va kechinmalarini his qilish sifatida qaraladi.

L.B.Merfi empatiyani boshqalarning tushkunligiga beeʼtibor boʻlmaslik, uning holatini yengillashtirish va yordamlashish sifatida aniqlanadi. Empatiya adekvat shaklda, ijtimoiy hayotga moslashgan, oilada maksimum ishonch, muhabbat va mehr olgan bolalarda kuzatiladi.

X.L.Rosh va A.G.Kovalev empatiyani bola shaxsi rivojlanishining muhim omillaridan biri deb hisoblashadi. Ularning fikricha, empatiya iliqlik, eʼtibor va taʼsirning birlashmasidir. Mualliflar bola rivojlanishi gʻoyasiga, ota-ona va bola oʻrtasidagi ehtiyojlar muvozanatini oʻrnatish jarayoni sifatida qarashadi. Ehtiyojlar muvozanatiga rioya qilish tarbiyani yanada samaraliroq qiladi. Agarda empatiya bolani oʻqitishning psixologik iqlimini belgilasa, bundan qulay jihat boʻlmasligi ham mumkin.

Empatiyani tushuncha sifatida oʻrganuvchi psixologlar Daymond va Bronfenbrenner tomonidan bu jarayonning shaxs emotsional tomonlari bilan oʻzaro bogʻliqligi koʻrsatilgan.

Ularning talqini boʻyicha empatiya – bu sezitivlik va ijtimoiy insayt, yaʼni individ boshqa odamning tuygʻu va oʻylarini qabul qila olish qobiliyatidir. Bu tadqiqotchilar oʻz tajribalarini empatiyaning perspektiv tipida qurishadi. Ularni maxsus uyushtirilgan vaziyatda begona odamlar bir-birining javoblarini bashorat qilishlari qiziqtiradi.

Daymondning soʻzlariga koʻra, empatiya bu vaziyatda “insonning ichki dunyosini intellektual reproduksiyasi” sifatida amalga oshiriladi. Daymond va Bronfenbrennerlarning qarashlariga koʻra, empatiya odamlarni tushunishda kognitiv

qobiliyat deb qarashsa-da, anglash jarayonini yengillashtiruvchi xususiyatlar yetakchi bo'lib chiqdi.

Empatiyani kognitiv va emotsional hodisa sifatida talqin qilishdagi kelishmovchiliklar, tushunish va empatiya jarayoni, ongning ham u, ham bu taraflari bilan bog'langanligi tufaylidir. Bu ikkala jarayon ham insonning ichki dunyosini tushunishdagi nafaqat turli xil usul hisoblablanadi, balki xulq-atvorda turli xil tuzilish va vazifaga egadir.

Agar tushunish – bu individ tomonidan boshqa odamning xulq-atvorini intellektual tahlil qilish jarayoni bo'lsa, empatiya esa boshqa odamlarning kechinmalariga emotsional hamdard bo'lishdir.

Psixologiyada T.P.Gavrilov tadqiqotlarida empatiya tushunchasi individning boshqa odam, jonivor va boshqalarning kechinmalariga nisbatan emotsional qarashidir.

Muallif empatiyaning ikki turini ajratadi: birga qayg'urish, ya'ni subyekt boshqa subyekt his qilayotgan tuyg'ularni his qila olishi va achinish, ya'ni boshqa odam tuyg'ulari haqida qayg'urish va boshqalar.²

Empatiya boshqa odamning ichida nima bo'layotganini, nima haqida qayg'urayotganini, atrofini qanday baholayotganini to'g'ri tasavvur qila olish qobiliyatiga asoslangan.

Aynan empatiya tufayli kitob o'qib yoki film ko'rib turib, turli xil vaziyatlarga tushib qolgan odam his qiladigan narsalarni his qilamiz. Masalan, urush liniyasida tikanli sim ostida sudralib ketayotgan josusning xavotiri va najotini; zarba urgan futbolchining quvonchini; imtihondan o'ta olmagan o'quvchining alami va tushkunlikka tushishiga olib keladi. Shuning uchun odam u yoki bu holatlar boshqa odamlar tomonidan qanday qabul qilinishini qanchalik yaxshi tasavvur qila olsa, empatiya shunchalik yuqori bo'ladi

Odamning empatik qobiliyatlari hayotiy tajriba oshishi bilan oshib boraveradi. Ko'p narsani ko'rgan va ko'p narsani boshidan o'tkazgan keksa odamlar u yoki bu vaziyatga tushib qolgan odamlar nimani his qilishini, kichkina o'quvchiga nisbatan yaxshiroq tushunishadi.

Empatiyaning rivojlanishi – bu boshqa insonning foydasiga hal bo'luvchi bevosita ta'sir

qiluvchi axloqiy motiv va motivatsiyalarning shakllanishidir. Empatiya yordamida kichkina bolaning boshqa odamlar kechinmalari dunyosiga kirib borishi jarayoni paydo bo'ladi hamda boshqalarning qadriyatlarini haqidagi tushuncha yuzaga keladi natijada boshqalar xotirjamligini o'ylash kabi xususiyat rivojlanadi.

Empatiya rivojlanishining axloqiy me'yorlarni o'zlashtirish asosida bolaning atrofida qilargalarga nisbatan shakllanayotgan yondashuvi yotadi. Ya'ni bolaning kattalarga bo'lgan munosabati, birinchi navbatda, ota-onasi bilan yaqin munosabatlarida qayd qilinadi.

O'zining tadqiqotlarida V.P.Kuzmina quyidagicha xulosaga keladi: "... empatiya bola va kattalar o'rtasidagi munosabatni bog'lovchi bo'g'in bo'lib, bolaning tengdoshlari orasiga kirishini belgilab beradi. Empatiyaning shakllanishi bolaning ijtimoiylashuvi jarayonini optimallashtiradi. Bolaning tengdoshlariga nisbatan hosil bo'lgan empatiyaning shakli va turg'unligi bola va ota-ona o'rtasidagi munosabatga bog'liqdir. Bu bog'liqlik "ijtimoiy bog'langanlik" tushunchasi bilan tushuntiriladi: bolaga nisbatan oiladagi empatik munosabat va bolaning ota-onasiga va tengdoshiga bo'lgan munosabatlarida yaqqol ifodalanadi³.

Oila a'zolarining bir-biri bilan bo'lgan empatik, ishonchli munosabatlari shaxsning garmonik rivojlanishini belgilab beradi. Qayg'urish, achinish, boshqa odamga yordam berish qobiliyatining to'laqonli rivojlanishi uchun oilaviy, do'stona munosabatlar muhiti zarur.

Bolaga bo'lgan empatik munosabatlarning mazmuni, birinchi navbatda, uni tarbiyalayotgan odamlar tomonidan ochib beriladi.

Ota-onaning munosabatlari bolada yaxshilik, boshqalarga achinish, ular uchun o'zini kerakli, sevimli va muhim deb bilishni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bola uchun eng muhimi yaxshilik va mehribonlik muhitida o'sayotganligidir. Tarbiya "qanot bag'ishlovchi" bo'lishi kerak, bolani maqtovlar, qayg'urish, achinish, tabassum, hayratlanish, olqishlar bilan qanotlantirish kerak.

Psixologiyada empatiyaning 3 darajasi ajratiladi:

1-daraja – eng pastki, bu boshqalarning tuyg'ulari va xayollarini sezmaslik. Bunday

² Гаврилова Т.П. Экспериментальное изучение эмпатии у детей младшего школьного возраста // Вопросы психологии. 2004. -350с.

³ Кузьмина В. П. Эмпатия в детско-родительских отношениях: теория и условия оптимизации в семье. Киров: Изд-во ВятГГУ, 2011. С. 101. 2.

odamlarni ko'proq o'zining xayollari qiziqtiradi, agar ular boshqalarni tushunaman va bilaman deb o'ylashsa, ularning taxminlari ko'pincha xato bo'ladi. Umuman olib qaraganda, o'z xatosini anglashda ularga empatiyaning past darajasi xalaqit beradi va ularning xatolari butun umr davom etishi mumkin.

2-daraja – boshqalarning tuyg'ulari va xayollarini epizodik ravishda ko'ra olmaslik, ko'p uchraydigan turi. Bu daraja ko'pchilik shaxslarga tegishli.

3-daraja – eng yuqori. Bu boshqa odamlarni doimiy, tubdan va aniq tushunish, uning kechinmalarini tasavvur qilish, ularni xuddi o'zinikidek tasavvur qilish, o'z muammolarini anglashda va to'g'ri qaror qabul qilishda o'z fikrini ta'kidlamaslikda ko'rinadi. Buning uchun o'z “Men”idan voz kecha bilish, boshqa odamlar xotirjamligi asosida aloqalar o'rnatish kerak.

Kichik o'quvchilarning empatiya qobiliyatlari hayotiy tajribasining oshishi bilan ortib boradi. Empatiya va empatik xulq-atvorni samarali tarbiyalash ijodiy tasavvurning rivojlanishi asosida amalga oshiriladi.

Shunday qilib, empatiya juda murakkab va ko'pqirrali tushuncha bo'lib, juda chuqur qayg'urishni belgilaydi. Empatiya yetakchi ijtimoiy tuyg'u bo'lib, individning boshqa odamlar kechinmalariga emotsional javob bera olish qobiliyati sifatida ko'riladi. U boshqa odamni subyektiv qabul qilish, uning kechinmalarini, xayollari va tuyg'ularini tushunishni o'z ichiga oladi.

Shunisi e'tiborga loyiqki, ba'zi psixologlar hamdardlik, hamdardlik va hamdardlikni hamdardlikning uchta darajasi sifatida ajratadilar, bu yerda birinchi daraja hamdardlik, ikkinchi daraja hamdardlik va uchinchi daraja hamdardlik. Ko'pgina mahalliy va xorijiy psixologlar empatiyani o'rganishgan, ular orasida: V.Boyko, K.Rojers, L.Bojovich, F.Allport, T.P.Gavrilova, M.Scheler, Y.Titchener va boshqalar.

Empatiyaning kelib chiqishi sirli bo'lib qolmoqda. A.Adler empatiya odamlarda tug'ma jamiyat hissi tufayli mavjud deb hisoblagan. U hamdardlikni kosmik tuyg'uning bir turi deb ta'riflagan⁴.

⁴ Андреева Г. М. Социальная психология// Социология в России. М., 2014.

Z.Freyd empatiyani bu ikki mexanizm-infeksiya va taqlid orqali amalga oshiriladigan jarayon deb hisoblagan.

A.Bek va V.Shtern bolalarda empatiya namoyon bo'lishini o'rganishga kirishdilar. Bu yerda empatiya muammosi bolalar shaxsini shakllantirish bilan bog'liq holda ko'rib chiqildi.

Keyinchalik A.Vallon bolalarda empatiya muammosi bilan shug'ullana boshladi. U empatiya muammosini bolalardagi hissiy soha evolyutsiyasi jihatidan va atrofdagi odamlarning (birinchi navbatda, ota-onalarning) his-tuyg'ulari va hissiyotlarining namoyon bo'lishiga hissiy reaksiya yoki javob berish sifatida ko'rib chiqdi. Vallon empatiya rivojlanishining bir necha bosqichlarini aniqladi. Birinchi bosqichni hissiy infeksiya deb atash mumkin.

Ikkinchi bosqich ikki yoshida sodir bo'ladi va “hamdardlik holati”vazifasini bajaradi. Bola boshqa odamlarning tajribalarini baham ko'rishni boshlaydi. Keyin uchinchi bosqich – “altruizm bosqichi” (4-5 yil) keladi.

Bola o'ziga va atrofdagilarga munosabatda bo'lishni o'rganadi, boshqalarning tajribalaridan xabardor bo'lishni va o'z harakatlarining boshqalarda aks etgan oqibatlarini oldindan ko'ra bilishni o'rganadi.

B. Merfi bolalarda empatiyani ham o'rganagan. U hamdardlikning namoyon bo'lishi bir necha omillarga bog'liq deb hisoblagan.

1. Biror kishi bilan yaqinlik darajasi to'g'risida.
2. Biror kishi bilan aloqa qilish chastotasi to'g'risida.
3. Mavjud empatiya tajribasidan.
4. Empatiyani keltirib chiqaradigan stimurning chastotasi to'g'risida.

T.P.Gavrilova empatiya hodisasining turli talqinlariga tayanib, eng ko'p uchraydigan guruhlarini aniqlaydi.

1. Empatiya – boshqalarning his-tuyg'ularini, uning ehtiyojlarini tushunish sifatida.
2. Empatiya – san'at ob'ekti, tabiat, turli xil voqealar uchun tuyg'u sifatida.
3. Empatiya – boshqa odamlar bilan aloqa sifatida, ularning davlatlarini ajratish.
4. Empatiya – psixolog, psixoterapevtning shaxsiy mulki sifatida.

Shunday qilib, empatiya ko'plab mahalliy va xorijiy psixologlar tomonidan o'rganilgan degan

xulosaga kelishimiz mumkin. Va bu psixologlarning har biri hamdardlik tushunchasi va tabiati to'g'risida o'z qarashlariga ega.

Yakuniy qism. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning shaxslararo munosabatlari tizimi va ularda empatiya hissining namoyon bo'lishiga oid ma'lumotlarni, pedagogik-psixologik manbalarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

1. Empatiya ijtimoiy hissiyot sifatida shaxslararo munosabatlarda shaxsning shaxs tomonidan idrok etilishining muhim tomoni bo'lib, emotsional, refleksiv darajada namoyon bo'ladi. Empatiya hissi ontogenetik taraqqiyotning ilk davrlaridanoq

insonning hayotida ijtimoiy persepsiya mexanizmi sifatida sodda ko'rinishda yuzaga chiqadi.

2. Shaxslararo munosabatlar tizimi murakkab tuzilmaga ega va insonning ijtimoiylashuvida, kamolotida muhim ahamiyatga ega. Kichik maktab yoshida shaxslararo munosabatlaridagi "o'quvchi-o'quvchi" va "pedagog-o'quvchi" tizimi o'ziga xos psixologik xususiyatga ega bo'lib, bola taraqqiyotiga intensiv ta'sir etadi.

3. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning shaxslararo munosabatlari tizimida empatiya hissining namoyon bo'lishida emotsional ta'sirchanlik dominant xarakterga egaligi psixologik tadqiqotlarda aniqlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.07.2021 yildagi PF-6260-son.
2. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – 2008
3. Гаврилова Т.П. Экспериментальное исследование эмпатического поведения школьников // Вопросы психологии. 2004. – 350с.
4. Кузьмина В.П. Эмпатия и детско-родительские отношения: теория и оптимизация условий в классе. – Киров: Изд-во ВятГГУ, 2011. – С. 101.2.
5. Немов Р.С. Психология. В 3-х томах. Т. 2. – М.: Гуманист. изд. центр ВЛАДОС. 2000г. – С. 109.
6. Кузьмина В.П. Эмпатия как психологический ресурс адаптации детей с нарушенным развитием к инклюзии // Проблемы сопровождения детей и подростков с особыми образовательными практиками: психолого-педагогический, социальный и медицинский аспекты: материалы II междунар. науч.-практ. конф. 29-30 раз 2012 г. Киров: Изд-во ВятГГУ, 2012. – С. 31–36.
7. <https://mchildren.ru/empatiya-i-eyo-razvitie-u-detej>
8. <https://womo.ua/empatiya-10-strategiy-chtobyi-nauchit-detey-soperezhivaniyu>

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE

**MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT,
GENDER VA OILA**

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии
Society, Gender and Family in Central Asia*

xalqaro ilmiy jurnali

международный научный журнал

international academic journal

2023/3 (8)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e‘lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

MUASSIS:

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas‘ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,
Razzakova N., Sobirova E.,
Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 03.10.2023.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

«Pages Print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Olmazor tumani, Chimboy ko‘chasi, 8-uy.